Bonus - sug'urta kompaniyasi o'zi uchun qulay shartlarda sug'urta shartnomasini tuzganligi uchun sug'urtalanuvchiga, u to'laydigan sug'urta mukofoti miqdoridan chegirmalar belgilaydi.

Brutto-mukofot - sug'urta shartnomalarini tuzish, ish yuritish xarajatlarini hisobga olgan xoldagi sug'urta mukofotlari summasi.

Bosh polis- sug'urta kompaniyasi va sug'urtalanuvchi o'rtasidagi yozma bitim. Bu bitimga muvofiq, tegishli davr mobaynida sug'urtalanuvchi barcha ob'ektlarni sug'urta kompaniyasiga sug'urtalash uchun beradi. CHet el tajribasida bu bitim «ochiq polis» yoki «polis-abonament» deyiladi. Mazkur bosh polis asosida sug'urtalash tashqi savdo yuklari sug'urtasida keng tarqalgan. Sug'urtalanuvchi sug'urta kompaniyasiga har bir jo'natilgan yuk haqidagi ma'lumotlar (yukning vazni, sug'urta summasi, yukni junatish va qabul qilib olish punktlari) bayon etilgan arizani taqdim etsa etarli, yuk avtomatik ravishda sug'urtalangan hisoblanadi.

Birgalikda sug'urta qilish - bitta sug'urta shartnomasi doirasida riskni ikki yoki undan ortiq sug'urta kompaniyalari o'rtasida taqsimlanishi. Ushbu shartnomada har bir sug'urtalovchining xuquq va majburiyatlari ko'rsatiladi. Birgalikda sug'urta qilishda sug'urtalanuvchiga qo'shma polis yoki har bir sug'urta kompaniyasi o'z zimmasiga olgan risk hissasiga muvofiq alohida polis beriladi.

Brutto - stavka - sug'urta qoplamasini (sug'urta summasini) to'lashga mo'ljallangan nettog'stavka va ish yuritish xarajatlarini qoplashga mo'ljallangan nettog'stavkaga yuklama summalarini o'z ichiga olgan sug'urta mukofotlarining tarif stavkasini bildiradi. Ko'pgina adabiyotlarda ushbu ibora sug'urta tarifi ma'nosida ham ishlatiladi.

Denonsatsiya - shartnomadan voz kechish. Agar sug'urta munosabatlarida tomonlardan biri yozma ravishda shartnomadan voz kechishi to'g'risida ikkinchi tomonga ma'lum qilmasa, shartnoma unda ko'rsatilgan muddatgacha kuchda bo'ladi.

Depozit - 1) sug'urta kompaniyasining bank muassasasida saqlanadigan pul mablag'i yoki qimmatli qog'ozlari. Bank, odatda, sug'urta kompaniyasiga o'z pulini bankda saqlagani uchun foiz to'laydi; 2) ayrim mamlakatlar qonunchiligiga muvofiq, chet mamlakat sug'urta kompaniyasi, agar, biror boshqa mamlakatda sug'urta faoliyatini amalga oshirmoqchi bo'lsa, dastlab u o'sha mamlakat bank muassasasiga tegishli pul mablag'ini depozitga qo'yadi. Mazkur depozit, chet davlat sug'urta kompaniyasining boshqa mamlakat xududida sug'urta faoliyatini amalga oshirishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Diversifikatsiya - yirik sug'urta kompaniyalarining asosiy faoliyatdan tashqari boshqa faoliyat bilan ham shug'ullanishi. Masalan, sug'urta vositachiligi, qimmatli qog'ozlarning oldig'sotdisi, ko'chmas mulk bilan shug'ullanish va xokazo.

Depozitlarni sug'urta qilish - banklar bankrot deb e'lon qilinganda yoki to'lov qobiliyati yo'qolganda, omonatchilarning bankdagi pul mablag'larini ularga qaytarilishini sug'urtalash. Bunda banklar sug'urtalanuvchilar hisoblanadi. Sug'urtani maxsus sug'urta tashkilotlari amalga oshiradi. Depozitlarni sug'urtalash chet mamlakatlarda keng tarqalgan. Masalan, AQSHda depozit sug'urtasini depozitlarni sug'urtalash federal korporatsiyasi amalga oshiradi. AQSHda har bir omonatchiga to'g'ri keladigan 100 ming AQSH dollari miqdoridagi depozitni banklar majburiy sug'urtalaydi.

Dispasher - dengiz transportida umumiy avariya sodir bo'lganda ko'rilgan zararni kema, yuk va fraxt o'rtasida taqsimlash bo'yicha hisobg'kitoblarni tuzadigan mutaxassis. Rivojlangan mamlakatlarda dispasher funksiyasini maxsus kompaniyalar bajaradi. Zararlarni taqsimlash bo'yicha hisob-kitoblar dispasha deyiladi va dispashani tuzganlik uchun xaqni manfaatdor tomonlar (kema egasi, yuk egasi, yukni sotib oluvchi shaxs) to'laydi.

Evropolis - evropa iqtisodiy hamjamiyati mamlakatlarida sug'urta shartnomasi tuzganlik faktini tasdiqlovchi sug'urta polisi.

Zahira fondi - joriy yilda kelib tushgan sug'urta mukofotlari hisobidan sug'urta qoplamasini to'lash imkoniyati bo'lmaganda, ushbu sug'urta qoplamasini to'lash uchun foydalaniladigan pul mablag'lari fondi. Ma'lumki, sug'urta xodisalari tufayli ko'rilgan yo'qotishlar va zararlar miqdori har yili har-xil bo'ladi. Ayrim yillari sug'urta xodisalari kam, boshqa yili esa ko'proq bo'lishi mumkin.

Agar sug'urta xodisalari soni ko'p bo'lib, ko'rilgan zarar miqdori joriy yilda kelib tushgan sug'urta mukofotlaridan bir necha marta ko'p bo'lsa, ularning farqi zahira fondi hisobidan qoplanadi.

Kargo - transport vositasida tashiladigan va sug'urtalanishi mumkin bo'lgan yukning nomlanishi.

Kasko - transport vositasining borti. Kasko sug'urtasi transport vositasini nobud bo'lishi yoki shikastlanishi o'z ichiga oladi.

Kaf - tashqi savdo shartnomasi bo'yicha yuklarni belgilangan portgacha (joygacha) etkazib berish sharti. Bunda tashilayotgan tovarning qiymatiga dengiz transportida tashish bilan bog'liq xarajatlar kiritiladi. Ushbu shart bo'yicha tovarlarni sug'urta qilish tovar etkazib beruvchining (sotuvchi) majburiyatiga kirmaydi.

Kasbiy javobgarlik - chet el tajribasida vrachlarning, advokatlarning, auditorlarning, notariuslarning, buxgalter, arxitektor va boshqa kasb egalarining uchinchi shaxsga zarar keltirish kasbiy javobgarligini sug'urtalash shartnomasini tasdiqlaydigan sug'urta polisining atalishi. Ushbu kasb egalari xususiy amaliyot bilan shug'ullanganlarida, ularda sug'urta polisining bo'lishi majburiydir.

Kvota - 1) bir necha sug'urta kompaniyasi tomonidan birgalikda tegishli ob'ekt sug'urtalanayotganda, bitta sug'urta kompaniyasiga to'g'ri keladigan hissa. Bunday xolatda har bir sug'urta kompaniyasiga tegishli kvota yagona sug'urta polisida o'z aksini topadi; 2) qayta sug'urtalash kompaniyasini qayta sug'urtalashda qatnashish hissasi.

Kvotali qayta sug'urtalash - sug'urta kompaniyasi qayta sug'urtalovchi kompaniya bilan kelishgan holda unga risklarni bir qismini beradi. Bu operatsiya kvota shartnomasi orqali rasmiylashtiriladi. Qayta sug'urtalovchi kompaniyaga sug'urta mukofotini tegishli qismi beriladi va qayta sug'urtalovchi kompaniya proporsional ravishda ko'rilgan zararni qoplashda ishtirok etadi.

Kovernota - sug'urta vositachisi tomonidan sug'urtalanuvchiga beriladigan va sug'urtalanuvchining sug'urta shartnomasi tuzishini tasdiqlovchi xujjat. Ushbu xujjatda ko'rsatilgan muddat mobaynida sug'urta brokeri sug'urtalanuvchiga sug'urta polisini berishi shart. Chunki, kovernota sug'urta kompaniyasi uchun yuridik kuchga ega bo'lgan xujjat hisoblanmaydi.

Kombinatsiyali sug'urta - bir necha sug'urta turlari bo'yicha sug'urta qoplamasi sharti.

Komissiya haqi - mijozlarni sug'urtaga tortganligi uchun sug'urta kompaniyasi tomonidan vositachilarga (sug'urta brokeri, agent) to'lanadigan haq.

Komissiya haqining miqdori sugʻurtaning turiga va kelib tushgan badalning xajmiga bogʻliq holda sugʻurta badaliga nisbatan foizlarda toʻlanadi.

Konosament - dengiz transportida yuklarni tashish shartlarini ifodalovchi xujjat. Konosament shartnoma mavjudligi faktini va yuk tashuvchini yukni qabul qilib olganligini tasdiqlovchi xo‘jjat. Konosamentga imzo chekishi bilan yukni saqlash, uni tegishli manzilga etkazish mas’uliyati to‘laligiga yuk tashuvchi kema zimmasiga o‘tadi. Imzolangan konosamentning asl nusxasi sotib oluvchiga yuboriladi va ushbu xo‘jjat unga tegishi bilan sotib oluvchi yukning huquqiy egasi hisoblanadi.

Kumulyasiya- bir qancha yirik sugʻurta summali obʻektlarning bitta sugʻurta hodisasi tufayli zarar koʻrishi extimolligini nazarda tutuvchi sugʻurta risklarini yigʻindisi.

Keptiv sug'urta kompaniyasi- ta'sisчилarning manfaatlarini sug'urta himoyasiga oladigan yoki yirik konsern, korporatsiyalar, yirik sanoatg'moliya guruhlarini tarkibiga kiruvchi sug'urta kompaniyasi. Raqobatdagi boshqa sug'urta kompaniyalarini keptiv sug'urta kompaniyasi mavjud bo'lgan tarmoqqa kirishi murakkabroq hisoblanadi. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan keptiv sug'urta kompaniyalariga - «ALSKOM», «Universal sug'urta» sug'urta kompaniyalarini misol keltirish mumkin.

Lloyd- 1) Angliyadagi xalqaro sugʻurta bozori; Angliyadagi sugʻurtalovchilarning korporatsiyasi, taxminan 1734 yilda tashkil etilgan. Hozirgi paytda Lloydga 22000 dan ortiq aʼzo bor. Uning faoliyati Angliya parlamenti qabul qilgan maxsus qonun bilan tartibga solinadi. Lloyd sugʻurtani barcha turlarini amalga oshiradi. Lloyd aʼzolari 279 sindikatga birlashgan boʻlib, sindikat faoliyati uchun anderryterlar javob beradi. Anderryterlar bilan sugurtalanuvchilarni sugurta vositachilari birlashtiradi. Sugurta vositachilari Lloyd bozorida risklarni joylashtiradi. Anderryterlar sugurta shartnomasi buyicha javob berish uchun yirik miqdordagi pul mablagʻlarini korporatsiyaga depozit sifatida qoʻyadi.

Tibbiy sugʻurta- aholi sogʻligʻini himoya qilish vositalaridan biri. Sugʻurta hodisasi roʻy berishi munosabati bilan, sugʻurta polisi orqali bepul tibbiy xizmat koʻrsatilishi. Tibbiy xizmat koʻrsatish bilan bogʻliq xarajatlarni sugʻurta kompaniyasi toʻlaydi. Tibbiy sugʻurta majburiy yoki ixtiyoriy boʻladi.

Mulkiy sug'urta - turli ko'rinishdagi molg'mulklarni saqlash bilan bog'liq manfaatlar sug'urta munosabatlarning ob'ekti hisoblangan, sug'urtaning mustaqil tarmog'i. Sug'urtalanuvchining shaxsiy mulki, uning qaramog'ida joylashgan mol-mulklar sug'urtalanishi mumkin. Sug'urtalanuvchi sifatida, nafaqat molg'mulkning

sohiblari, balki mol-mulkning saqlanishi uchun mas'uliyatli bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar ham bo'lishi mumkin.

Netto-stavka- brutto-stavkaning asosiy tarkibiy qismi. Nettog'stavka sug'urta qoplamasini to'lashga mo'ljallangan pul mablag'lari resurslari bo'lib, u brutto-stavkaning 90 foizigacha miqdorini tashkil etadi.

Obligatorli qayta sug'urtalash- 1) qayta sug'urtalashning majburiy shakli. Ayrim mamlakatlar qonunchiligiga ko'ra, ushbu mamlakat xududida faoliyat ko'rsatayotgan barcha sug'urta kompaniyalari qabul qilgan risklarini bir qismini majburiy ravishda qayta sug'urtalash kompaniyasiga beradi. Bu chora qayta sug'urtalash orqali chet elga valyutani chiqib ketishini oldini oladi; 2) sug'urta kompaniyasi (sedent) ma'lum bir sug'urta turi bo'yicha riskni qayta sug'urtalovchiga berishini va o'z navbatida, qayta sug'urtalovchi, riskni qabul qilishni nazarda tutuvchi qayta sug'urtalash shartnomasi.

Majburiy sug'urta- sug'urta munosabatlarining qonun kuchiga ega bo'lgan shakli. Majburiy sug'urta qonunchilik xujjatlari asosida amalga oshiriladi. Ushbu xujjatda sug'urtaga tortiladigan ob'ektlar soni, sug'urta javobgarligining hajmi, sug'urta munosabatlarida qatnashadigan tomonlarning huquq va majburiyatlari hamda boshqa rekvizitlar ko'rsatiladi. Amaldagi qonunchilikka asosan, O'zbekistonda majburiy sug'urtani tegishli litsenziyaga ega bo'lgan har qanday sug'urta kompaniyasi o'tkazishi mumkin.

Oferta- asosiy shartlar ko'rsatilgan holda sug'urta shartnomasini tuzish taklifi. Sug'urta kompaniyasi ofertani konkret yuridik yoki jismoniy shaxsga yo'llashi mumkin.

Offshor sug'urta kompaniyasi- maxsus maqomga ega bo'lgan sug'urta kompaniyasi. Offshor sug'urta kompaniyalari soliq to'lash stavkalari eng kam bulgan offshor zonalarda (Bermud oroli, Gernsi, Men va Keymanov orollari) tashkil etiladi. Offshor zonalarda amalga oshiriladigan sug'urta operatsiyalari sug'urta kompaniyasini tashkil etishda qatnashgan ta'sischilar joylashgan davlati organlari tomonidan nazorat etilmaydi.

Prolongatsiya- o'zaro kelishgan holda sug'urta shartnomasini amal qilish muddatini uzaytirish. Prolongatsiya yozma ko'rinishda tasdiqlanishi mumkin.

Proporsional qayta sug'urtalash- qayta sug'urtalash shartnomasini tuzish shakli. Bu erda qayta sug'urtalash kompaniyasi sug'urta mukofotlarini umumiy tushumidagi va sug'urta koplamlarini to'lashda o'z ulushiga ega. Proporsional qayta sug'urtalash shartnomalari kvotali, eksedentli va kvotag'eksedentli shartnomalarini o'z ichiga oladi.

Risklarni joylashtirish-1) sug'urta manfaati tufayli yuzaga keladigan sug'urtaviy huquqiy munosabatlarning boshlanish jarayoni. Risklarni birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi joylashtirish, teng ravishda sug'urtalash, qayta sug'urtalash va retrotsessiyaga to'g'ri keladi. Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotda risklarni joylashtirish sug'urta vositachilari orqali sug'urta bozorida amalga oshiriladi; 2) sug'urta brokeri yordamida bir vaqtning o'zida yirik va xavfli risklarni qismlarga bo'lib, bir nechta sug'urta kompaniyasida sug'urtalash uslubi. Bir qancha sug'urta kompaniyalari tarkibidan bittasi etakchi sifatida ajralib chiqadi va u sug'urta shartnomasidagi shartlarni ma'qullab, riskning tegishli qismini o'z javobgarligiga oladi. Keyin, broker boshqa sug'urta kompaniyalariga murojaat qilib, riskning qolgan qismini ham joylashtiradi.

Raqobat - sug'urta kompaniyalarining sug'urta bozoridagi o'z ulushini egallashi uchun o'zaro iqtisodiy musobaqasi. Raqobat sug'urtalanuvchi uchun sug'urta kompaniyalarini tanlab olishlarida ko'mak beradi. Raqobat sug'urta xizmatini kengayishida va ularning sifatini oshishida muhim ahamiyatga ega. Bir sug'urta xizmatini ko'rsatayotgan bir necha sug'urta kompaniyalari raqobat sharoitida mijozlarni jalb etish uchun ularga sug'urta shartnomalarini tuzishda, sug'urta mukofotlarini to'lashda va sug'urta qoplamalarini qisqa muddatlarda to'lashda imkoniyat yaratadi.

Retrotsedent- qabul qilib olingan qayta sug'urtalash riskini retrotsessiyaga (ikkinchi qayta sug'urtalash) beruvchi sug'urta yoki qayta sug'urtalovchi kompaniya.

Retrotsessionariy-retrotsedentdan riskni qabul qilib oluvchi qayta sug'urtalovchi kompaniya.

Retrotsessiya- 1) qayta sug'urtalashga ilgari qabul qilib olingan risklarni yana qayta sug'urtalashga berish; 2) risklarni uchlamchi joylashtirish.

Risk- 1) bitta kutilayotgan hodisa bo'yicha xavfning yuzaga kelishi. Risk tushunchasi ko'rinishlarining xilma-xilligi, uni sodir bo'lishi natijasida yuzaga kelgan oqibatlarning og'irligi, riskni ro'y berishi sababli paydo bo'lgan zararlarni mutloq tugatishni imkoniyati bo'lmaganligi sug'urta ishini tashkil etish uchun asos yaratadi. SHunday qilib, risk sug'urtaviy huquqiy munosabatlarni shakllantirish uchun shartg'sharoit yaratadi. Risk-riskli holatlarning yagonalik va o'zaro aloqadorlik yig'indisidir. Sug'urta fanida risk tushunchasiga turlicha tariflar berilgan. Jumladan, risk-bu konkret hodisa yoki hodisalar yig'indisi bo'lib, ular sodir bo'lgan taqdirda sug'urta kompaniyasi qoplamalar to'laydi. Risk sug'urta ob'ekti bilan to'g'ridan to'g'ri bog'langan. Ob'ektga risk salbiy ta'sir ko'rsatib, uni shikastlashi yoxud nobud qilishi mumkin. SHu tufayli risk - bu yagona tasodifiy

hodisa bo'lib, uning ro'y berishi inson ongiga yoki irodasiga bog'liq emas. Sug'urta risklarining ro'yxati sug'urtalovchining sug'urta javobgarligi hajmini tashkil etadi. Risk bahosining puldagi ifodasi sug'urta tarif stavkasini tashkil etadi; 2) sug'urta ob'ekti; 3) sug'urta javobgarligining turi.

Risk menejmenti - riskni kamaytirish yoki chegaralash bo'yicha sug'urta kompaniyasining maqsadli yo'naltirilgan harakati. Risk menejmentining tarkibiy elementiga quyidagilar kiradi: riskni aniqlash, riskni baholash, riskni nazorat qilish va riskni moliyalashtirish.

Riskli holatlar - risk darajasiga ta'sir qiluvchi omillar. Sug'urtalanuvchiga ma'lum bo'lgan barcha riskli holatlar sug'urta kompaniyasiga xabar qilinadi. Bu riskni baholashda muhim ahamiyatga ega. Riskli holatlarni tahlil etish syurveyer yoki adjasterning funksiyasiga kiradi. Bu sug'urta kompaniyasini sug'urta shartnomasini tuzish yoki tuzmaslik masalasi bo'yicha qaror qabul qilishida hamda sug'urta qoplamalari va summalarini to'lashda muhim o'rin tutadi. Riskli holatlar: shaxsiy va ashyoviy; to'g'ri va egri; tasdiqlanadigan va inkor qilinadigan; ob'ektiv va sub'ektiv turlarga bo'linadi.

Risklarni tanlash - sug'urta shartnomasini tuzish bo'yicha mijozlardan kelib tushgan takliflarni tahlil etishga qaratilgan sug'urta kompaniyasining faoliyati. Sug'urta kompaniyasining muvozanatlashgan sug'urta portfelini shakllanishida risklarni tanlash iborasini amaliy jihatdan ishlatish muhimdir. Sug'urta amaliyotida risklarni tanlash ishini syurveyerlar amalga oshiradi. Risklarni tanlash - bu risk menejment sohasida olib boriladigan chora g'tadbirlarning bir qismidir.

Riskni baholash - risk parametrlarini xarakterlovchi barcha riskli holatlarni natura va qiymat ko'rinishida tahlil etish. Eng ahamiyatli belgisiga qarab tegishli risklar guruhi ajratilgan hamda u riskni baholash mezonini hisoblanadi. Masalan, shaxsiy sug'urta shartnomasini tuzishda insonning yoshiga e'tibor beriladi. Sug'urta shartnomasi tuzilgan momentdan, sug'urtalanuvchining o'limiga yoki nogiron bo'lib qolishiga olib keluvchi xavfli kasalliklarni aniqlash maqsadida mijoz qo'shimcha ravishda dastlabki tibbiy tekshiruvdan o'tkazilishi mumkin. Sug'urta kompaniyalarida riskni baholash ishini syurveyerlar amalga oshiradi. U sug'urta ob'ekti bilan jiddiy tanishadi, har tomonlama tahlil etadi. Tahlil natijalariga muvofiq sug'urtalanuvchi bilan sug'urtaviy huquqiy munosabatlarga kirishishini maqsadga muvofiqligi to'g'risida sug'urta kompaniyasiga yozma xulosa beradi.

Sug'urta mukofotlari zahirasi- hayotni va nafaqani uzoq muddatli sug'urtalash bo'yicha to'lovlarni oldindan to'lash uchun sug'urta kompaniyasida

tashkil etiladigan fond. Bu fond sug'urta operatsiyalarini moliyaviy barqarorligini ta'minlashda hamda sug'urtalovchi zimmasidagi majburiyatlarni bajarishda muhim o'rin tutadi. Hayot sug'urtasi shartnomalari, odatda, bir necha yilga tuziladi. Sug'urta mukoftlarini kelib tushish va sug'urta summasini to'lash vaqtlari o'zaro to'g'ri kelmaganligi uchun, sug'urta kompaniyasiga kelib tushgan sug'urta mukofoti ma'lum vaqt mobaynida uning ixtiyorida bo'sh xolda bo'ladi. Kelib tushgan sug'urta mukofotlarining bir qismi joriy to'lovlar uchun sarflanadi, qolgan qismi esa zahira fondini shakllantirish uchun yunaltiriladi. Uzoq muddatli hayot sug'urtasi bo'yicha zahira fondining mablag'lari kredit resursi sifatida foydalanilishi mumkin.

Sug'urta zahiralar – sug'urta summalarini to'lashni kafolatlash maqsadida sug'urta kompaniyalari tashkil etgan fondlar. Agar, ma'lum bir vaqtda sug'urta qoplamalarini to'lash uchun joriy sug'urta mukofotlari etmasa, sug'urta kompaniyasi zahira fondlaridan foydalanishi mumkin. Sug'urta zahiralariga quyidagilar kiradi: hayotni sug'urtasi bo'yicha zahira fondlari, ro'y bergan, ammo arz qilmagan zararlarni qoplash zahiralar va boshqalar. Ushbu zahira fondlarining mablag'lari vaqtincha bo'sh bo'lgani uchun investitsiya maqsadlarida foydalanilishi mumkin. Buning natijasida sug'urta kompaniyasi qo'shimcha daromad oladi.

Sug'urta polisi- sug'urta shartnomasi tuzilganlik faktini tasdiqlovchi xujjat. Sug'urta polisida quyidagi rekvizitlar bo'lishi shart: sug'urta kompaniyasining yuridik manzili, sug'urtalanuvchining nomi, sug'urta ob'ekti, sug'urta mukofotining miqdori, shartnomaning amal qilish muddati. Sug'urta qoplamasini to'lashda sug'urtalanuvchi sug'urta polisini sug'urta kompaniyasiga taqdim etishi zarur.

Sug'urtada tarif siyosati- sug'urta operatsiyalarini zararsiz o'tkazilishini va sug'urtalanuvchilarning manfaati yo'lida sug'urta tariflarini belgilash, aniqlash, tartibga solish va tabaqalashtirish bo'yicha sug'urta kompaniyasining maqsadli yo'naltirilgan faoliyati. Sug'urtada tarif siyosati quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi:

1. Netto-mukofotlar va sug'urta qoplamasi o'rtasidagi ekvivalentlik. Har bir sug'urta turi bo'yicha nettog'stavka zararlarning ehtimol tutilgan miqdoriga maksimal darajada to'g'ri kelishi zarur.

2. Sug'urtalanuvchilarning asosiy qismi uchun sug'urta tarifi miqdorining qulayligi. Tarif stavkalarini yuqori darajada belgilanishi sug'urta ishini rivojlanishi uchun to'siq bo'ladi.

3. Sugʻurta tarifi stavkalarining barqarorligi. Agar uzoq yillar mobaynida tarif stavkalari oʻzgarmasa, bu holat sugʻurtalovchining nufuzini oshiradi. Sugʻurta summalarining zararlilik koʻrsatkichi kamaysa, sugʻurtalanuvchilarning manfaati uchun sugʻurta tarifi stavkasini oʻzgartirmasdan javobgarlik xajmini koʻpaytirish maqsadga muvofiqdir.

4. Sugʻurta operatsiyalarining rentabelligini taʼminlash.

Siyosiy risk- davlat organlarining hatti-xarakati yoxud uyushgan shaxslar guruhining siyosiy talab boʻyicha chiqishi natijasida vujudga keladigan xavf. Siyosiy riskga urush xarakatlari, siyosiy hokimiyatning yoki tuzumning oʻzgarishi, qonun xujjatlaridagi oʻzgarishlar, fuqarolarning ommaviy chiqishlari va ish tashlashlari, milliy lashtirish, konfiskatsiya kiradi. Siyosiy risk roʻy bergan vaqtda sugʻurta kompaniyasi javobgarlikdan ozod boʻladi. Chunki siyosiy risklar, faqat, davlatga qarashli maxsus sugʻurta kompaniyalari tomonidan sugʻurtalanishi mumkin.

Sugʻurta portfeli -sugʻurta kompaniyasiga kelib tushgan sugʻurta mukofotlarining yigʻindisi. Sugʻurtalangan obʼektlar soni, sugʻurta shartnomalarining miqdori ham sugʻurta portfeli tushunchasini anglatadi. CHet mamlakatlar sugʻurta amaliyotida ushbu ibora ishlab topilgan sugʻurta mukofotining hajmi tushunchasiga toʻgʻri keladi.

Sugʻurta dalolatnomasi - sugʻurta xodisasi roʻy berganda sugʻurta kompaniyasi tomonidan tuziladigan xujjat. Dalolatnomada molgʻmulkning zararlanish yoxud nobud boʻlish sabablari, koʻrilgan zarar miqdori va boshqa koʻrsatkichlar boʻladi. Dalolatnomaga, zarur hollarda sugʻurta hodisasi va molgʻmulkning zararlanganligini tasdiqlovchi tegishli tashkilotlarning (yongʻinga qarshi kurash, davlat avtomobil nazorati, qishloq xoʻjaligi, veterinariya xizmati va boshqalar) yozma hulosasi ilova etiladi. Xalqaro sugʻurta munosabatlarida sugʻurta dalolatnomasini adjaster tuzadi va mohiyatan avariya sertifikatiga yaqinlashadi.

Sugʻurta mukofoti- sugʻurta mukofotining miqdori sugʻurta summasiga nisbatan foizlarda aniqlanadi. Sugʻurta mukofotining miqdori aniq summalarda ham ifodalanishi mumkin. Masalan, avtomobil egalarining uchinchi shaxsga zarar keltirish fuqarolik javobgarligini sugʻurtasida sugʻurta mukofoti aniq pul birligida koʻrsatiladi.

Sugʻurtaviy foyda- sugʻurta xizmatining bahosi va tannarxi oʻrtasidagi farq. Sugʻurtaviy foyda sugʻurta operatsiyalarini amalga oshirish natijasida shakllanadi. Sugʻurtaviy foyda balans uslubi asosida sugʻurta mukofotlari tushumi va sugʻurta operatsiyalari tannarxini oʻzaro taqqoslash natijasida aniqlanadi. Sugʻurta operatsiyalarining tannarxi bu, sugʻurta kompaniyasining sugʻurta himoyasini

ta'minlashga qaratilgan to'g'ri va egri, (shu jumladan zahira fondlariga ajratmalar) xarajatlarning yig'indisidir. Odatda, sug'urta tarifini hisoblashda nettog'avstavgaga yuklamada foyda ulushi ham ko'rsatiladi. SHakllanish manbaiga ko'ra, haqiqatdagi sug'urtaviy foyda o'z ichiga quyidagi foyda turlarini oladi: sug'urta summasi zararlik ko'rsatkichini kamaytirishdan olingan foyda, boshqaruv xarajatlarini iqtisod qilish natijasida olingan foyda, investitsiyadan olingan foyda va sug'urta tarifida belgilangan foyda.

Sug'urta puli- sug'urta majburiyatini bajarish hamda sug'urta operatsiyalarini moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmasdan o'zaro kelishgan holda bir qancha sug'urta kompaniyalarining ixtiyoriy uyushmasi. Sug'urta puli, asosan, xavfli, yirik ob'ektlarni sug'urtalash maqsadida tashkil etiladi. Har qaysi kompaniya o'z sug'urtalangan riskni pulga beradi va buning uchun, pul orqali yig'ilgan sug'urta mukofotlarining bir qismini oladi. Olingan sug'urta mukofotlari hajmida sug'urta koplamasini to'lash bo'yicha javobgarlikni o'z zimmlariga oladi. Xorijiy mamlakatlarda aviatsiya, atom, xarbiy risklarni sug'urtalash uchun sug'urta puli tashkil etilgan.

Sug'urta ob'ekti - shaxsiy sug'urtada fuqarolarning hayoti, sog'ligi, mehnat qobiliyati: mulkiy sug'urtada binolar, qurilmalar, transport vositalari, uyg'joy mulki, tashiladigan yuklar va boshqa moddiy boyliklarni saqlash bilan bog'liq manfaatlar; jismoniy yoki yuridik shaxsning o'z hattig'harakati bilan uning shaxsga zarar keltirish fuqarolik mas'uliyati g' mas'uliyatni sug'urtalashda sug'urta ob'ektlari bo'lib hisoblanadi. Riskni baholash maqsadida sug'urta ob'ekti sug'urta kompaniyasining mutaxassislari tomonidan ekspertiza qilinishi mumkin.

Sug'urta shartnomasi - ikki tomonlama yozma ravishdagi bitim bo'lib, bunda sug'urta kompaniyasi sug'urta hodisasi tufayli zarar ko'rilganda sug'urtalanuvchiga sug'urta qoplamasi yoki sug'urta summasini to'lash majburiyatini, sug'urtalanuvchi esa belgilangan muddatlarda sug'urta mukofotini to'lash majburiyatini oladi. Sug'urta shartnomasi tuzilganlik faktini tasdiqlash uchun sug'urtalovchi sug'urtalanuvchiga sug'urta polisi beradi. Sug'urta shartnomasini tuzishdagi asosiy, oddiy va qo'shimcha shartlar sug'urta shartnomasining mazmunini tashkil etadi.

Sug'urta - har xil noxush xodisalar ro'y berishi natijasida ko'rilgan zararni qoplash hamda fuqorolarning hayotida tegishli sug'urta xodisalari ro'y berganda ularga moddiy yordam ko'rsatish maqsadida tashkil etiladigan va undan foydalanish bilan bog'liq (maqsadli pul fondlari) iqtisodiy munosabatlar yig'indisi. O'tkazish shartiga qarab, sug'urta majburiy va ixtiyoriy bo'ladi. Ob'ektiga ko'ra,

mulkiy, shaxsiy va javobgarlik sug'urtasiga bo'linadi. Sug'urtaning asosini risk tashkil etadi. Sug'urta - bu riskni taqsimlash usulidir.

Sug'urtalanuvchi - qonun asosida yoki ikki tomonlama shartnoma asosida sug'urta kompaniyasi bilan fuqoralik-huquqiy munosabatlarga kiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxs. Sug'urtalanuvchi uchinchi shaxs foydasiga sug'urta shartnomasini tuzishga xaqli. Sug'urtalanuvchi sug'urta mukofotini o'z vaqtida to'lashi shart. Sug'urta shartnomasini tuzish jarayonida sug'urtalanuvchi sug'urta ob'ektiga taalluqli bo'lgan barcha ma'lumotlarni sug'urta kompaniyasiga ma'lum qilishi shart.

Sug'urta qoplamasi - mulkiy sug'urtada va sug'urtalanuvchining uchinchi shaxs oldida fuqarolik javobgarligini sug'urtasida zararni qoplash uchun sug'urta fondidan to'lanadigan pul mablag'i. Sug'urta qoplamasi sug'urta summasiga teng yoki undan kam bo'lishi mumkin. Sug'urta hodisasi ro'y berganlik xolati va shakli bo'yicha adjaster yoki avariya komissarining xulosasi sug'urta kompaniyasi tomonidan sug'urta qoplamasi to'lanishida asos bo'lib xizmat qiladi.

Sug'urta manfaati - sug'urtada moddiy manfaatdorlik chorasi. Sug'urta hodisasi ro'y berishi natijasida sug'urtalanuvchiga moddiy zarar keltiruvchi predmetlar – mol-mulk yoki sug'urtalanuvchining uchinchi shaxsga zarar keltirish xolatlari. Masalan, sug'urtalanuvchining avtomobil transporti yo'lg'transport hodisalari tufayli shikastlanganda, sug'urtalanuvchida ushbu mulkka nisbatan manfaatdorlik yuzaga keladi va sug'urta moddiy manfaatdorlik chorasi sifatida maydonga chiqadi.

Sug'urta yig'imi - Jismoniy shaxsning yo'lovchilarning majburiy sug'urta bo'yicha bir marta to'lanadigan sug'urta mukofoti. Odatda, sug'urta yig'imi yo'l haqi tarkibida bo'ladi va chiptada sug'urta yig'imi «kiritilgan» degan so'z bo'ladi.

Slip - riskni xarakterlovchi xujjat. Slip sug'urta brokeri tomonidan tuziladi va andarrayterga beriladi. Slipda sug'urta kompaniyasining riskni sug'urtalashdagi hissasi ko'rsatiladi. Angliyada slip sug'urta polisiga tenglashtiriladi. Ayrim holatlarda slip sug'urta qoplamasini to'lashda asosiy xujjat hisoblanadi.

Sug'urta kompaniyasi- sug'urta shartnomasini tuzish va unga xizmat qilishni amalga oshiruvchi, sug'urtalanuvchi bilan huquqiy munosabatda bo'luvchi yuridik shaxs. U o'z Nizomi asosida faoliyat yurituvchi mustaqil xo'jalik sub'ektidir. Tegishli iqtisodiy muhitda faoliyat yurituvchi sug'urta kompaniyalarining yig'indisi sug'urta tuzimini tashkil etadi. Sug'urta kompaniyalari bajaradigan sug'urta operatsiyalariga ko'ra, ular universal va ixtisoslashgan bo'ladi. Ustav kapitali miqdori hamda kelib tushgan sug'urta

mukofotlari hajmiga muvofiq, sug'urta kompaniyalarini yirik, o'rta va kichik guruxlarga bo'lish mumkin.

Sug'urtaviy tibbiyot- turli kasalliklardan majburiy sug'urtani nazarda tutuvchi sog'liqni saqlash ishini tashkil etish shakli. Sug'urtaviy tibbiyot bo'yicha sug'urta fondi ishchi-xodimlarning ish haqidan, tadbirkorlarning foydasidan, davlat dotatsiyasi hisobidan hamda xayrg'ehson fondlarining majburiy ajratmasi hisobidan shakllanadi. Sug'urtaviy tibbiyot bo'yicha sug'urtalangan kontingentga tibbiy sug'urta polisi beriladi. Sug'urtalanuvchiga tibbiy sug'urta polisi bo'lgan taqdirda tibbiy xizmat ko'rsatiladi. Bunda tibbiy sug'urta kompaniyasi, bir tomondan sug'urtalanuvchilar bilan, ikkinchi tomondan tibbiyot muassasalari bilan shartnoma tuzadi.

Sug'urta bahosi - sug'urtalash maqsadida aniqlanadigan molg'mulkning qiymati. Amaliyotda molg'mulklar haqiqiy qiymati, bozor qiymati va boshqa qiymatlar vositasida baholanadi. Zarur hollarda sug'urta bahosini to'g'ri hisoblash uchun malakali ekspertlar jalb etiladi. Sug'urta bahosi to'g'risidagi haqiqiy ma'lumot ta'rif stavkasi va sug'urta mukofoti miqdorini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Amaldagi qonunchilikka binoan, sug'urta summasi molg'mulkning sug'urta bahosidan oshib ketmasligi zarur.

Sug'urta tizimi - 1) turli xil sug'urta kompaniyalari va ularni sug'urta nazorati bilan aloqadorligini yig'indisi; 2) sug'urta huquqiy munosabatlarni tashkil etishning davlat g' huquqiy shakli.

Sug'urta summasi - sug'urta manfaati va sug'urta riskiga mos keluvchi pul mablag'i. Xalqaro amaliyotda sug'urta summasi sug'urta qoplamasi deyiladi. Sug'urta summasiga nisbatan sug'urta mukofoti aniqlanadi va sug'urta qoplamasi to'lanadi. Sug'urta summasi iborasi, ko'proq, shaxsiy sug'urtada - fuqarolarning hayoti, sog'lig'ini sug'urtalashda ishlatiladi.

Sug'urta maydoni - sug'urtaga tortilishi zarur bo'lgan ob'ektlarning eng katta soni. Ayrim ekspertlar xulosasiga ko'ra, O'zbekistonda sug'urta maydoni hali to'la o'zlashtirilmagan. Faqat mol-mulklarning 20-30 foizigina sug'urtaga tortilgan.

Sug'urta summasining zararliligi - sug'urta summasi va sug'urta koplamasi to'lovi o'rtasidagi nisbatni xarakterlovchi iqtisodiy ko'rsatkich. Bu ko'rsatkich zarar miqdori ehtimolligini ko'rsatadi va undan riskni o'zgarishi ustidan nazorat o'rnatishda foydalaniladi. Sug'urta summasining zararlilik ko'rsatkichi quyidagi omillar ta'siri ostida shakllanadi: sug'urtalangan ob'ektlar soni va ularning sug'urta summasi, sug'urta xodisalarining soni, zarar ko'rgan ob'ektlar soni va sug'urta qoplamasi. Sug'urta summasining zararlilik ko'rsatkichi

nettogʻstavka tuzilishiga qarab har bir sugʻurta turi yoki javobgarlik turi boʻyicha aniqlanadi. Agar zararlilik koʻrsatkichi netto-stavkaga yaqinlashsa yoki undan oshib ketsa, bu holda sugʻurta summasining zararlilik koʻrsatkichi yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi.

Sugʻurta huquqi- sugʻurtalovchilar, sugʻurtalanuvchilar va ular oʻrtasidagi vositachilarning hattigʻharakati qoidalari yigʻindisi. Sugʻurta xuquqi qonun va qonun xujjatlarida oʻz aksini topadi. Sugʻurta huquqi moliyaviy huquqning bir qismi hisoblanadi.

Sugʻurta hodisasi - stixiyali, tabiiy yoki oldindan koʻrib boʻlmaydigan voqeagʻhodisalarning amalda yuz berishi. Sugʻurta hodisasi yuzaga kelgan zarar sugʻurta kompaniyasi tomonidan shartnomaga muvofiq qoplanadi. Mulkiy sugʻurtada sugʻurta hodisasi deyilganda, stixiyali hodisalar, yongʻin, avariya, portlash, zilzila, dovul va boshqalar tushuniladi. SHaxsiy sugʻurtada esa sugʻurta hodisasiga fuqarolarning maʼlum bir muddatgacha yashashi, ularning xayotida baxtsiz hodisalarning roʻy berishi yoki oʻlimi kiradi. Xalqaro amaliyotda sugʻurta hodisasi baʼzan «fors-major» deb yuritiladi.

Sugʻurta hodisalari chastotasi - inshootlarni yonish darajasini, transport vositalarini avariya boʻlish darajasini, aholi nogironligi darajasi va shunga oʻxshash darajalarni ifodalovchi koʻrsatkich. Sugʻurta hodisalari sonini sugʻurta qoplamalari miqdoriga yoki sugʻurtalangan obʼektlar miqdoriga nisbati sugʻurta hodisalari chastotasini aniqlaydi.

Sugʻurtalovchilar uyushmasi - sugʻurta faoliyatini muvofiqlashtirish, uyushma aʼzolarining manfaatini davlatning qonun chiqaruvchi va ijroiya organlari oldida himoya etish hamda mahalliy sugʻurta kompaniyalari va xorijiy sugʻurta kompaniyalari oʻrtasida oʻzaro foydali aloqalarni oʻrnatish maqsadida tashkil etiladigan sugʻurta kompaniyalarining uyushmasi. Bunga oʻzaro sugʻurtalash jamiyatlarini xalqaro uyushmasini, texnik risklarni sugʻurtalovchi kompaniyalar ittifoqini, Buyuk Britaniya sugʻurtalovchilar uyushmasini misol keltirish mumkin. Hozirgi paytda Oʻzbekistonda sugʻurtalovchilar uyushmasi tashkil etilmagan. Faqat, avtosugʻurtalovchilar ittifoqi faoliyat koʻrsatmoqda.

Sugʻurta qoplamasi limiti - sugʻurta kompaniyasining filiali, boʻlimi, shuʼba korxonasi tomonidan bitta sugʻurta hodisasi boʻyicha mustaqil toʻlanadigan sugʻurta qoplamasining eng yuqori miqdori. Bu miqdorni sugʻurta kompaniyasi boshqaruvi joylardagi sugʻurta summasining zararlilik darajasidan, kadrlarning malakasidan va boshqa omillardan kelib chiqqan holda belgilaydi.

Sugʻurtalovchining javobgarlik limiti - tuzilgan sugʻurta shartnomasidan kelib chiqqan holda belgilanadigan sugʻurta kompaniyasining mumkin boʻlgan eng

yuqori darajadagi javobgarligi. Sugʻurtalovchining javobgarlik limiti sugʻurta polisida oʻz aksini topadi.

Sugʻurtani turkumlash (klassifikatsiyalash) - 1) sugʻurta turlarini ierarxiya koʻrinishida tarmoqlarga, tarmoqchalarga va turlarga boʻlinishi. Bunda har bir keyingi boʻgʻin oldingi boʻgʻinning bir qismi shaklida ifodalanadi. Sugʻurta obʻekti sugʻurtaning toifasi, sugʻurta javobgarligining hajmi va sugʻurta qismining shakli sugʻurtani turkumlashning asosiy mezonini boʻlib hisoblanadi. 2) xorij amaliyotida sugʻurta turlarini tartiblashtirilgan tizimi. Hozirgi vaqtda Evropa Ittifoqi davlatlarida sugʻurtaning yagona klassifikatsiyasi ishlab chiqilgan va hayotga joriy etilgan.

Evropa ittifoqida sugʻurta turlarini turkumlash

Uzoq muddatli sugʻurta		Umumiy sugʻurta	
I	Hayot va annuitetlar sugʻurtasi	I	Baxtsiz hodisalardan sugʻurta
II	Bolalarni tugʻilish va nikohini sugʻurtasi	II	Kasallik hodisasini sugʻurtasi
III	Bogʻlangan uzoq muddatli sugʻurta	III	Avtomobillarni sugʻurtalash
IV	Sogʻlikni uzluksiz sugʻurtalash	IV	Temir yoʻl sostavini sugʻurtasi
V	Tontinlar	V	Havo kemalarini sugʻurtasi
VI	Kapitalarni qoplashni sugʻurtalash	VI	Dengiz kemalarini sugʻurtasi
VII	Nafaqalarni sugʻurtasi	VII	Yoʻldagi yuklarni sugʻurtasi
		VII	gʻngʻindan va stixiyali hodisalardan sugʻurta
		IX	Mulkni zarar etkazishdan sugʻurtasi
		X	Avtotransport vositalari egalarining uchinchi shaxsga zarar keltirish masʼuliyatini sugʻurtasi
		XI	Havo kemalari egalarining 3gʻchi shaxsga zarar etkazish masʼuliyatini sugʻurtasi

	XII	Kema egalarini fuqarolik javobgarligini sug'urtasi
	XIII	Umumiy javobgarlikni sug'urtasi

Syurveyer - sug'urtaga tortiladigan mol-mulkni ko'rikdan o'tkazuvchi sug'urta kompaniyasining xodimi. Sug'urta kompaniyasi syurveyerning xulosasi asosida sug'urta shartnomasini tuzish to'g'risida qaror qabul qiladi. CHet el amaliyotida yong'in havfsizligini ta'minlovchi ixtisoslashgan firmalar, mehnat muhofazasi bo'yicha tashkilotlar syurveyer funksiyasini bajaradi.

Tarif stavkasi - sug'urta riskini baxosi; sug'urta summasiga nisbatan foizlarda hisoblanadigan brutto-stavka. Tarif stavkasi (bruttog'stavka) ikki qismdan iborat: netto-stavka va netto-stavkaga yuklama. Netto-stavka sug'urta kompaniyasining sug'urta fondidan qiladigan xarajatlarini ifodalaydi. Netto-stavkaga yuklama sug'urta kompaniyasining ish yuritish xarajatlarini, komissiya haqini va boshqa xarajatlarini o'z ichiga oladi. SHaxsiy sug'urta buyicha tarif stavkasi mol-mulk sug'urtasining tarif stavkasidan keskin farq qiladi. Hayot sug'urtasidagi tarif stavkasi hayotiylik jadvali va daromad normasiga muvofiq hisoblab chiqiladi.

Ehtimollar nazariyasi - tasodifiy hodisalarning ehtimolligi bo'yicha o'zaro aloqada bo'lgan boshqa hodisalarning ehtimolligini aniqlash bilan bog'liq matematika fani. Ehtimollar nazariyasi asosida tasodifiy hodisalarning ruy berish ehtimolligi katta yoki kichik ekanligi aniqlanadi. Ehtimollar nazariyasi aktuar hisobg'kitoblarni amalga oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

Qayta sug'urtalash - sug'urtalashga riskni qabul qilish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tizimi (risklarni birlamchi joylashtirish); sug'urtalovchi muvozanatlashgan sug'urta portfelini yaratish va sug'urta operatsiyalarini moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida qabul qilib olingan riskni bir qismini o'zaro kelishilgan holda boshqa sug'urtalovchiga berishi (riskni ikkilamchi joylashtirish). Qayta sug'urtalash operatsiyalarini sug'urta kompaniyalar bilan bir qatorda asosan, ixtisoslashgan qayta sug'urtalash kompaniyalari amalga oshiradi. Qayta sug'urtalash aktiv (riskni berish) va passiv (riskni qabul qilib olish) ko'rinishda bo'ladi. Bundan tashqari, qayta sug'urtalash proporsional va noproporsional bo'ladi. Proporsional qayta sug'urtalashda, qayta sug'urtalovchining berilgan risk bo'yicha ulushi sedentning o'z javobgarligiga qoladigan qismi aniq bo'lgandan so'ng aniqlanadi. Noproporsional qayta sug'urtalashda riskni berish tegishli limit doirasida amalga oshiriladi. Bu holda

qayta sug'urtalovchi sedentdan sug'urta mukofotining bir qismini oladi (proporsional qayta sug'urtalashdagidek sug'urta summasiga muvofiq keladigan sug'urta mukofotini emas).

Qayta sug'urtalovchi broker - ikkita sug'urta kompaniyasi o'rtasidagi professional vositachi.

Qayta sug'urtalovchi - sug'urta brokeri yordamida qayta sug'urtalash uchun riskni qabul qilib oladigan jismoniy yoki yuridik shaxs. Qayta sug'urtalovchi yordamida riskni ikkilamchi taqsimlash amalga oshiriladi. Qayta sug'urtalovchi sifatida sug'urta kompaniyasi ham bo'lishi mumkin. Jahondagi eng yirik qayta sug'urtalovchilar guruhiga Myunxen qayta sug'urtalash jamiyati, SHveysariya qayta sug'urtalash jamiyati, Kyoln qayta sug'urtalash jamiyatlari kiradi.

Fakultativ qayta sug'urtalash - proporsional qayta sug'urtalash shartnomasining turi. Fakultativ qayta sug'urtalashda har bir berilayotgan risk bo'yicha alohida shartnoma tuziladi. Sedent har bir risk bo'yicha qayta sug'urtalash zarur yoki zarur emaslik masalasini mustaqil ko'rib chiqadi. O'z navbatida, qayta sug'urtalovchi ham sedentning taklifini qabul qilishi yoki qabul qilmasligi ham mumkin.

Fakultativ obligator shartnomasi - sedent qayta sug'urtalovchi bilan kelishgan toifadagi har qanday sug'urta riskini berishi, qayta sug'urtalovchi esa ularni qabul qilishi shart ekanligi haqidagi qayta sug'urtalash shartnomasi.

Franshiza - sug'urta shartnomasi shartlarida ko'zda tutiladigan sug'urtalovchining zararni qoplashdan ozod etiladigan qismi. Franshiza sug'urta summasiga nisbatan foizlarda belgilanadigan shartli va shartsiz franshizalarga bo'linadi. SHartli franshizada sug'urtalovchi belgilangan franshiza summasidan oshmaydigan zararni qoplash javobgarligidan ozod etiladi. Bu holda, agar ko'rilgan zarar miqdori franshiza summasi miqdoridan oshib ketsa, sug'urta kompaniyasi zararni to'liq qoplaydi. SHartsiz franshizada ko'rilgan zarar franshiza summasidan chegirilib qoplanadi.

Fraxt - dengiz yoki havo yo'llari orqali yukni tashishda to'lanadigan haq. Ushbu haq tarif yoki yukni tashish to'g'risidagi shartnoma bo'yicha o'zaro kelishilgan narx asosida to'lanadi. Dengiz sug'urtasida yuklarni tashishda fraxt polisi yoziladi va fraxt qiluvchiga beriladi.

Frontlashtiruvchi kompaniya - boshqa sug'urta kompaniyasining iltimosiga ko'ra, o'z nomidan sug'urta polisi beruvchi sug'urta kompaniyasi. Frontlashtiruvchi sug'urta kompaniyasi qabul qilib olingan riskni yuz foiz

miqdorida iltimos qilgan sug'urta kompaniyasi hisobiga o'tkazadi va buning uchun undan komission haq oladi. Hozirgi paytda, O'zbekistonda bir nechta frontlashtiruvchi kompaniyalar faoliyat ko'rsatmoqda. Masalan, "Anglo-Tashkent", "UzAIG" sug'urta kompaniyalari.

Fronting - qabul qilib olingan riskni tegishli komissiya haqi evaziga to'laligicha boshqa sug'urta yoki qayta sug'urtalovchi kompaniyalariga berish.

Sedent - riskni ikkilamchi joylashtirishni amalga oshiruvchi, ya'ni riskni qayta sug'urtalash uchun beruvchi sug'urta kompaniyasi. Ikkilamchi sedent retrotsedent deb ataladi.

Sessiya - 1) sug'urta riskini qayta sug'urtalashga berish jarayoni. Sedent va qayta sug'urtalovchi o'rtasidan huquqiy munosabatlarda ishlatiladi. 2) Xorij amaliyotida sedentning olingan sug'urta mukofoti ma'nosini bildiradi.

SHomaj - sug'urta hodisasi ro'y berishi natijasida ishlab chiqarishni to'xtab qolishi bilan bog'liq foyda olmaslik riskini sug'urtasi.

Ekssedent riski - mazkur toifadagi risk bo'yicha zararni qayta sug'urtalash to'g'risidagi kelishuv.

Ekssedent zarari - noproporsionl qayta sug'urtalash shakli. Bunda sedentga o'z zimmasida ushlab qolingani zarardan oshgan qismi qayta sug'urtalovchi kompaniya tomonidan qoplanadi.

O'zaro sug'urtalash jamiyati - foyda olishni ko'zlamaydigan notijorat shaklidagi sug'urta kompaniyasi. Sug'urta qilishning tashkiliy shakli. O'zlarining mulkiy manfaatlarini sug'urtaviy himoyalash uchun yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy bitim asosida birlashuvi. O'zaro sug'urtalash jamiyati yuridik shaxs hisoblanib, har bir sug'urtalanuvchi ushbu jamiyatning a'zosi bo'ladi. AQSH va YAponiyada asosan, hayot sug'urtasi bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar o'zaro sug'urtalash jamiyati shaklidir. Hozirgi paytda YAponiyada o'zaro sug'urtalash jamiyatlari hayotni sug'urtalash bozorining 89,4%ni tashkil etadi.

SHaxsiy sug'urta - sug'urta ob'ekti sifatida fuqarolarning hayoti, sog'ligi va mehnat qobiliyatini saqlash bilan bog'liq manfaatlar majmuasi shaklidagi sug'urta tarmog'i. SHaxsiy sug'urta hayot sug'urtasiga va baxtsiz hodisalardan sug'urtaga va tibbiy sug'urtaga bo'linadi. U riskli va jamg'arma funksiyalariga ega. CHet el tajribasida shaxsiy sug'urta to'rtta sug'urta klassidan iborat bo'lib, inson hayotidagi ro'y berish mumkin bo'lgan hodisalar (tug'ilish, o'lim, voyaga etish, nikohdan o'tish, ma'lum bir yoshgacha yashash) ehtimolligi bilan bog'liq

barcha sug'urta turlarini o'z ichiga oladi. Keng ma'noda shaxsiy sug'urtag'bu uzoq muddatli hayot sug'urtasi, aralash sug'urta va annuitetlardir.

Yashil karta - avtotransport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash to'g'risidagi xalqaro shartnomalar tizimi. Mazkur sug'urta turi bo'yicha shartnoma tuzilganlik faktini tasdiqlovchi polis. 1949 yilda Evropaning 13ta davlati o'rtasida yashil karta to'g'risida shartnoma tuzilgan. Hozirgi paytda yashil kartaga a'zo mamlakatlar 30 dan ziyodni tashkil etadi. YAshil kartaga a'zo bo'lgan mamlakatlarda tegishli milliy byurolar tashkil etilgan va u mazkur davlat hududida yashil karta bilan bog'liq ishlarni muvofiqlashtirib turadi. O'z navbatida milliy byurolar yashil karta xalqaro byurosiga birlashgan. Qarorgohi Londonda joylashgan.

Tayanch so'z va iboralarni tayyorlashda foydalanilgan manbalar:

- 1."Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonun.2002 yil 5 aprel
- 2.O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi
- 3.X.M. Shennaev. Sug'urta agentlari uchun qo'llanma

REFERAT MAVZULARI

1. Sug'urtaning kelib chiqishi.
2. Sug'urta fondlari xaqida tushuncha va ularning turlari.
3. Sug'urtaning funksiyalari.
4. Sug'urta fanini o'rganishda atama va tushunchalarning ahamiyati.
5. Sug'urta sohasida qo'llaniladigan asosiy atama va tushunchalar.
6. Sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi tushunchalari.
7. Sug'urta shartnomasi va sug'urta polisi.
8. Sug'urta ob'ekti va sug'urta sub'ekti.
9. Sug'urta mukofoti va sug'urta summasi.
10. Halqaro amaliyotda qo'llaniladigan atama va tushunchalar.
11. Sug'urta qonunchiligi va uning turlari.
12. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida sug'urta munosabatlarini aks ettirilishi.
13. "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonun va uning mazmuni.
14. Sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-xuquqiy xujjatlar.
15. Sug'urtalovchining ustav kapitaliga o'rnatilgan talablar.
16. Sug'urta tashkilotlarini tuzish va davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi.
17. Aksiyadorlik sug'urta kompaniyalarining o'ziga xos xususiyatlari.
18. Sug'urta faoliyatini klassifikatsiyalashning zarurligi va ahamiyati.
19. Umumiy sug'urta tarmog'i va unga oid klasslarning mazmuni.
20. Hayot sug'urtasi tarmog'i va unga oid klasslarning mazmuni.
21. Sug'urtaning majburiy va ixtiyoriy shakllari.
22. Sug'urta tarifi tushunchasi va unga ta'sir etuvchi omillar.
23. Sug'urta tarifining tuzilishi va tarkibi.
24. Sug'urta tarifiga yuklama va uning mazmuni.
25. Sug'urta bozori tushunchasi va uning ishtirokchilari.
26. Sug'urta bozorining turlari.
27. Sug'urta bozori infratuzilmasi.
28. Sug'urta bozorida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobatni rivojlantirish.
29. Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish shakllari.
30. Sug'urta nazorati davlat organi: uning vazifalari va funksiyalari.
31. Sug'urtalovchilarning faoliyatini litsenziyalash shartlari va litsenziyani olib qo'yish holatlari.
32. Sug'urtalovchining daromadlari.
33. Sug'urta kompaniyasining xarajatlari.
34. Sug'urta zaxiralari va boshqa vaqtincha bo'sh mablag'larni investitsiya qilishining zarurligi.
35. Sug'urta kompaniyalari investitsiya faoliyatining asosiy tamoyillari.
36. Sug'urtalovchilarning vaqtincha bo'sh mablag'larini investitsiya ob'ektlariga joylashtirish.
37. SHaxsiy sug'urta va uning mazmuni, tarkibiy tuzilishi.
38. Fuqarolarni baxtsiz xodisalardan sug'urtalash.
39. Ixtiyoriy tibbiy sug'urta.

40. Hayot sug'urtasi va uning turlari.
41. Mulk sug'urtasida ob'ekt va sub'ektlar.
42. YUridik shaxslar mol-mulkini sug'urtalash tartibi.
43. Jismoniy shaxslar mol-mulkini sug'urtasi.
44. YUridik va jismoniy shaxslar mol-mulkini sug'urtalashda sug'urta mukofoti va sug'urta summasini aniqlash.
45. YUridik va jismoniy shaxslar mol-mulkini sug'urtasida da'volarni ko'rib chiqish va hal qilish.
46. Avtotransport sug'urtasi.
47. Javobgarlik sug'urtasi xaqida tushuncha va uning turlari.
48. Avtotransport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini sug'urtasi.
49. Avtotransport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini sug'urtalashda sug'urta tarifi va sug'urta summasi.
50. Kasbiy javobgarlik sug'urtasi va uning turlari.
51. Majburiy sug'urtani amalga oshirishning shartlari.
52. Harbiy xizmatchilar va ularga tenglashtirilgan shaxslarni baxtsiz hodisalardan majburiy davlat sug'urtasi.
53. Qayta sug'urta va uni sug'urtalovchilar moliyaviy barqarorligini ta'minlashdagi roli.
54. Qayta sug'urtaning turlari va ularning mazmuni.
55. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda sug'urta ishini tashkil etilishi.
56. Buyuk Britaniya sug'urta bozori va uni davlat tomonidan tartibga solinishi.
57. Sug'urtaning iqtisodiy mohiyati.
58. Jismoniy shaxslar mol-mulkini sug'urtalash shartnomasida ishtirok etgan tomonlarning xuquq va majburiyatlari.
59. YUridik shaxslar mol-mulkini sug'urtalash shartnomasida ishtirok etgan tomonlarining xuquq va majburiyatlari.
60. Avtosug'urtada sug'urta polisini berish va zararlarni aniqlash xamda sug'urta qoplamalarini to'lash.
61. Sug'urta va investitsiya portfeli tushunchalari xamda ularning mazmuni.
62. Xususiy va boshqa mulk shaklidagi sug'urta kompaniyalarini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.
63. Sug'urta faoliyatini litsenziyalashda taqdim etiladigan xujjatlar va ularning ekspertizasi.
64. CHet el investitsiyalarini risklardan sug'urta qilish.
65. Javobgarlikni sug'urta qilishning majburiy shakllari.
66. Sug'urta bahosi va sug'urta summasi, ularning bir-biridan farq qiluvchi jixatlari.
67. Sug'urta fondi, uning tashkil topish manbalari va foydalanish yo'nalishlari.
68. Asosiy vositalarni sug'urta qilishning o'ziga xos xususiyatlari.
69. Netto-stavka va uning ahamiyati.
70. Sug'urta shartnomalarini tuzishda franshizaning ahamiyati.
71. Sug'urta marketingining asosiy vazifalari.
72. Sug'urta tashkilotlari faoliyatini soliqqa tortish.

73. Xorijiy transport xaydovchilarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashning zarurligi.
74. Davlat soliq xizmatchilarini majburiy davlat sug'urtasida sug'urta mukofotlari, sug'urta summasini aniqlash.
75. Sug'urta bozorida sug'urta brokerlarining o'rni.
76. Sug'urta tashkilotlarining investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish.
77. Sug'urta operatsiyalarini rejalashtirish.
78. Fakultativ va obligatorli qayta sug'urta qilish.
79. Moliyaviy risklar va ularni sug'urtalash.
80. Eksport-import risklarini sug'urtalash.
81. Lizing va uni sug'urtalashning o'ziga xos xususiyatlari.
82. Xorijga chiquvchi fuqarolarni baxtsiz xodisalardan sug'urtalash.
83. Sug'urta klasslari va ularning mohiyati.
84. Sug'urta dalolatnomasi va uni rasmiylashtirilish tartibi.
85. Sug'urta agentlari va ularni faoliyat yuritish asoslari.
86. Umumiy sug'urta qonunchiligi.
87. Sug'urta kompaniyalarida ish yuritish xarajatlari.
88. Fuqarolarni baxtsiz xodisalardan sug'urtalashda tarif stavkasi va sug'urta summasi.
89. Fuqarolarni baxtsiz xodisalardan sug'urtalashda da'volarni ko'rib chiqish amaliyoti.
90. O'zbekistonda shaxsiy sug'urtaning hozirgi holati va rivojlanish muammolari.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasining qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Prezg'dentining farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning asarlari

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 1994.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi - T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 1996y.-496 b.
3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni «Sug'urta faoliyati to'g'risida». T.: 2002 y., 5 aprel. «Xalq so'zi» gazetasi, 2002 yil 28 may.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 31 yanvardagi «Sug'urta bozorini yanada erkinlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-3022-son Farmoni. «Xalq so'zi» gazetasi, 2002 yil 1 fevral.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 286-sonli Qarori. 1998 yil 8 iyul. O'zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunlari, 4-ilova, - T.: 2000.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasini tashkil etish to'g'risida»gi 113-sonli Qarori. 1997 yil 28 fevral. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining Qarorlar to'plami, 1997, 2-son.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 27 noyabrdagi 413-sonli «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 apreldagi «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 618-sonli Qarori. «Bank axborotnomasi» 2007 yil 6 iyun.
9. O'zbekiston Respublikasining «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida»gi Qonuni. – Xalq so'zi, 2008 yil 21 aprel.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 21 maydagi «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-

tadbirlar to'g'risida erkinlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. Xalq so'zi, 2008 yil 22 may.

11. O'zbekiston Respublikasining "Ish beruvchilarning fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi Qonuni. – Xalq so'zi, 2009 yil 17 aprel.

12. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: O'zbekiston, 2010.- 67 b.

13. Karimov I. A. Prezidentning 2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risidagi qarori. //Xalq so'zi, 2010 yil 26 noyabr PQ-1438-sonli

14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisining Qarori. "2012 yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilgi iqtisodiy dasturning asosiy ustuvor vazifalari to'g'risida", 2013 yil 22 yanvar.

II. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar

15. Shennaev X.M. Sug'urta agentlari uchun qo'llanma. T. infoCOM.UZ MChJ.- 2010 y.

16. Yo'ldoshev M, Tursunov Y. O'zbekiston Respublikasi sug'urta huquqi. Darslik - Toshkent, "Moliya".-2012.

17. Shennaev X.M. O'zbekiston sug'urta bozori, O'quv qo'llanma, - Toshkent, "Iqtisod-Moliya".-2013.

18. Pod.red. V.V.Shaxova, Yu.T.Axvlediani. Straxovanie 3-e izdanie. Uchebnik dlya studentov vuzov. - M.: Yuniti, 2009 g.

19. Arxipov A.P. Anderrayting v straxovanie. Teoreticheskiy kurs i praktikum. Uchebnoe posobie.-M.: Yuniti, 2009g

20. Zaytseva M.A., Boliboka V.D. Straxovanie vo vneshneekonomicheskoy deyatelnosti. Uchebnoe posobie dlya vuzov.-BGEU, 2009g.

21. Prosvetov G.I. Straxovanie: zadachi i resheniya. -M.: Alfa-press, 2009g.

22. Andreev Yu.I. Imushchestvennoe straxovanie. Uchebnoe posobie - M.: Os-89, 2009g.

23. Xeydema Djejms M. Uvlechenny agent: prakticheskoe posobie dlya straxovix agentov. -M.: Volters-Kluver, 2009g.
24. Yu.T.Axvlediani. Straxovanie vneshneekonomicheskoy deyatel'nosti. Uchebnoe posobie dlya vuzov.- M.: Yuniti, 2010g.
25. Adamchuk N.G. Mejdunarodnaya praktika straxovaniya jizni. Uchebnoe posobie.- M.: ANKIL, 2009 g.
26. Anikin P.V., Rusetskaya E.A. Uchebnoe posobie dlya vuzov.- M.: Finansi i statistika, 2008g.
27. Malkova O.V. Straxovanie v sisteme mejdunarodnix ekonomicheskix otnosheniy. Uchebnoe posobie dlya ekonomicheskix spetsialnostey. - M.: Feniks, 2009g.
28. Kuznetsova I.A. Straxovanie jizni i imushchestva grajdan. Prakticheskoe posobie. - M.: Dashkov i K., 2009.
29. Dyujikov E.F., Spletuxov Yu.A. Straxovanie. Uchebnoe posobie. - M.: Infra-M., 2009g.
30. Ivasenko A.G. Straxovanie. Uchebnoe posobie. - M.: KnoRus, 2009g.
31. Samarov E.K. Straxovaya matematika: prakticheskiy kurs. Uchebnoe posobie. - M.: Alfa, 2009 g.
32. Veselovskiy M.Ya. Straxovoy servis. Uchebnoe posobie dlya studentov vuzov - M.: Alfa, 2009 g.
33. Shixov A.K. Straxovoe pravo (per.). 6-e izdanie. Uchebnoe posobie dlya studentov vuzov - M.: Yurisprudentsiya, 2009 g.
34. Pimenva E.N. Straxovoe pravo. Uchebnoe posobie. - M.: Forum, 2009 g.
35. Igoshin N.A. Straxovoe pravo. Uchebnoe posobie. - M.: Yuniti. 2010 g.
36. Pod redaktsiey L.A.Orlanyuk-Malitskoy, S.Yu.Yanovoy. Straxovanie. - M.: Yurayt, 2010g.
37. Ermasov S.V. Straxovanie. Uchebnik. 3—e izdanie, pererab. i dop - M.: Yurayt, 2010g.
38. Xudiyakov A.I. Teoriya straxovaniya, M.: Status, 2010 g.

39. Nikulina N.N.. Straxovoy menedjment. Uchebnoe posobie. YuNITI, 2011.

III. Davriy nashrlar, statistik to'plamlari va hisobotlar

40. Baymuratov T.M. O'zbekistonda sug'urta faoliyati va uni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.-T.: 2004.

41. Jo'raev A.S. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning dolzarb muammolari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.-T.: 2005 y.

42. Abduraxmonov I.X. O'zbekistonda javobgarlik sug'urtasining hozirgi holati va rivojlantirish istiqbollari. Iqtisod magistri darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.-T.: 2005.

43. Toshbekov M.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni sug'urtalashni takomillashtirish masalalari. Iqtisod magistri darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.-T.: 2005.

44. Saidov T.M. Mejdunarodnaya praktika meditsinskogo straxovaniya i voprosi ee primeneniya v Uzbekistane. Dissertatsiya na soiskanie stepeni magistra ekonomiki.-T.: 2005 g.

45. Xalmatov M.M. O'zbekistonda qayta sug'urtalash va uni rivojlantirish yo'llari. Iqtisod magistri darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.-T.: 2005.

46. Nurullaev A.S. O'zbekistonda fermer va dexqon xo'jaliklari faoliyatini sug'urtalash. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.-T.: 2007.

47. Shennaev X.M. "Milliy iqtisodiyot o'sishini rag'batlantirishda sug'urtaning roli". "O'zbekiston Respublikasida barqaror iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish mexanizmlari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi. TDIU. 2008 yil 6 aprel.-T.: TDIU, aprel 2008 y.

48. Tezisi i dokladi mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii na temu: «Transformatsiya ekonomicheskix otnosheniy v usloviyax preodoleniya posledstviy finansovo-ekonomicheskogo krizisa», Moskva.2010g.

49. Barkamol avlodning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'рни. Respublika ilmiy amaliy anjumanining tezislar to'plami. Toshkent-2010.
50. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida byudjet-soliq siyosatini takomillashtirish muammolari. Respublika ilmiy amaliy konferentsiya materiallari. Toshkent-2010.
51. Soliq tizimini takomillashtirish yo'nalishlari. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasining tezislar to'plami. Toshkent-2011.
52. Mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda soliq tizimining rolini oshirish masalalari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma'ruza tezislari to'plami. Toshkent-2011.
53. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashda soliq siyosatining o'рни va ahamiyati. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to'plami. Toshkent-2011.
54. "Yosh olimlar va talabalar tadqiqotlarida soliq tizimini isloh qilishning ilmiy asoslari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi. Soliq akademiyasi, 2012 yil 27 aprel
55. "O'zbekiston sug'urta bozorini rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi, Toshkent moliya instituti, 2012 yil 28 fevral.
56. "Iqtisodiyot nazariyasi muammolari: talqini va echimlari" mavzusidagi Respublika Oliy o'quv yurtlararo ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent moliya instituti, 2013 yil 17 may.
57. Ekonomicheskoe obozrenie.// № 3 (160), 2013, 96-101 betlar
58. Biznes-vestnik Vostoka./ 15-16 may, 2013, 1,2,3 betlar

IV.Internet saytlari

- www.expert.ru.
- www.ankil.ru.
- www.znay.ru.
- www.strahovka.ru.

- www.kafolatdask.uz.
- www.UzReport.com.

TAYANCH KONSPEKT

(diskda)

1-mavzu : Sug'urta huquqining mohiyati va huquqiy atamalar va tushunchalar

Tabiiy va boshqa stixiyali kuchlar ta'siri natijasida yuzaga keladigan zararlarni qoplash, oldini olish hamda ogohlantirish uchun maqsadli yo'nalishdagi pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar yig'indisiga sug'urta deyiladi.

Sug'urtaning xarakterli belgilari quyidagilardan iborat:

g'Sug'urta riskini mavjudligi. Risk-sug'urta munosabatlari paydo bo'lishining asosiy shartidir. Risk bo'lmas ekan, sug'urtaning bo'lishi mumkin emas. Riskning hajmi, miqdori ehtimollar nazariyasi va matematik statistika usullari yordamida aniqlanadi. Sug'urta risklarini tahlil qilish ularni 2 ta yirik guruhga bo'lishni taqozo etadi. YA'ni, risk sug'urtaviy va sug'urtasiz bo'ladi. Sug'urta shartnomalarida o'z aksini topgan risklar sug'urtaviy risklar deyiladi. Risk bahosini pulda ifodalaniishi sug'urta stavkasini tashkil etadi. Risk doimiy ko'rsatkich emas, balki u doimo o'zgarib turadi. Bu o'zgarishlar iqtisoddagi va boshqa sohadagi o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liqdir. Sug'urta tashkiloti riskni rivojlanishini, holatini doimo kuzatishi lozim, ya'ni tegishli statistik hisob olib borishi, yig'ilgan ma'lumotlarni qayta ishlashi va tahlil qilishi kerak.

Riskni baholash uchun uni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:


- 1) Sug'urtalanishi mumkin bo'lgan risklar.
- 2) Sug'urtalanishi mumkin bo'lmagan risklar.

Riskning eng katta guruhini sug'urtalanishi mumkin bo'lgan risklar tashkil etadi. Quyida keltirilgan mezonlar asosida sug'urta riskini sug'urtasiz risklardan farq qilish mumkin.

- a) Risk tasodifiy xarakterga ega bo'lmog'i kerak ;
- b) Sug'urta hodisalarini ro'y berish faktining vaqti va makonining noma'lum bo'lishi;

v) Xavf solish manbasiga ko'ra risklar tabiatning stixik kuchlari bilan bog'liq risklari va moddiy boylikni o'zlashtirish oqibatida insoniyatni tabiatga ta'siri bilan bog'liq risklar. Risklarni turkumlashda katta halokatli risklar alohida o'rin tutadi. CHunki bunday risklar ro'y berishi natijasida ko'plab ob'ektlar yirik miqdorda zarar ko'rishi mumkin. Katta halokatli risklarga zilzila, sunami, kuchli shamol misol bo'lishi mumkin. YUqorida aytilgan risklardan tashqari ekologik, siyosiy va maxsus risklar bo'lishi mumkin.

Risk menejment (riskni boshqarish) - riskni chegaralash yoki kamaytirish bilan bog'liq tadbirlar yig'indisi. Amaliyotda riskni boshqarish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:



Riskni aniqlash, masalan ssuda oluvchilarning ssudani o'z vaqtida qaytarib bera olmaslik riski sug'urtalanadi, risk darajasi aniqlanadi. Kredit oluvchi shaxsning moliyaviy holati qanday aktivlarga ega ekanligi, loyihada hisobg'kitob qanchalik asoslanganligi va xakozo.

Riskni baholash - riskni holatlari aniqlanadi, riskni sodir bo'lish ehtimoliyligi, aktuar hisob-kitoblar, statistik kuzatuvlar, ehtimollar nazariyasi asosida baholanadi va sug'urtalanayotgan ob'ektga nisbatan risk darajasi aniqlanib sug'urta tarifi hisoblanadi. Sug'urta tarifining stavkasi - bu risk bahosidir.

Riskni nazorat etish - bu sug'urta kompaniyasining vakili tomonidan sug'urtalangan ob'ekt holatini, uning saqlanish ustidan kuzatuv ishlarini olib borishi. SHuningdek, uning saqlash xavfliligi talablariga javob berishi tekshiriladi. Qator ob'ektlarni yaxshi saklash uchun zarur tavsiya va maslaxatlar beriladi.

Riskni moliyalashtirish - bu riskni aniqlash, baholash va nazorat etish bilan bog'liq hamma xarajatlarni qoplash.

-Sug'urta munosabatlarining taqsimlash xarakteriga ega ekanligi. Moliya tushunchasi kabi, sug'urta ham yalpi ichki mahsulotni va milliy daromadni qayta taqsimlashda ishtirok etadi.

-Sug'urtada zararlarni hududlar bo'yicha va muayyan bir vaqtda taqsimlanishi. Bu sug'urtaning asosiy belgisi bo'lib, hududlar bo'yicha sug'urta fondini sug'urtalangan xo'jaliklar o'rtasida taqsimlash uchun katta hudud va ko'plab sug'urtalanishi mumkin bo'lgan ob'ektlar zarur bo'lishi talab etiladi. Zararlarni ma'lum bir vaqtda taqsimlanishi sug'urta hodisalarini tasodifiy ro'y berish xarakteriga ega ekanligidan kelib chiqadi. Qator yillar mobaynida favqulodda hodisalar ehtimol ro'y bermasligi mumkin. Bu holat sug'urta hodisalari sodir bo'lmagan vaqtda tegishli miqdorda sug'urta zahiralarni tashkil etishni talab qiladi.

-Sug'urta fondlariga jalb etilgan sug'urta mukofotlarini qaytarib berish. Sug'urta mukofotlari sug'urta tarifi asosida aniqlanadi. Sug'urta tarifi ikki qismdan iborat bo'lib, netto-stavka (sug'urta hodisalari ro'y berganda zararlarni qoplashga ishlatiladi) va nettog'stavkaga ustamalardir (sug'urta kompaniyasi ishini tashkil etish bilan bog'liq xarajatlar qoplanadi). Netto-stavka, asosan, sug'urta hodisasi ro'y berganda sug'urtalanuvchiga qaytarib beriladi.

2-mavzu : Sug'urta faoliyatini yuritishning tashkiliy-huquqiy asoslari va ularni davlat ro'yxatidan o'tkazish

Jamiyatda fuqarolar va ularning jamoasi o'z faoliyatlari jarayonida birg'birlari bilan tegishli ijtimoiy munosabatda bo'ladilar. Ushbu munosabatlarni bir qolipga solish uchun ularni tartibga keltirish zarur, ya'ni fuqarolar va tashkilotlarning hatti-harakat qilish doirasini belgilash zarur. Bayon etilganlar to'laligacha sug'urtaga ham taalluqlidir. Sug'urta ijtimoiy-iqtisodiy qonuniyat sifatida huquqiy tomondan mustahkamlanishni talab etadi. Sug'urta fondini tashkil etish va undan foydalanish jarayonida paydo bo'ladigan munosabatlar huquqiy tartibga solinadi.

Sugʻurta sohasida vujudga keladigan huquqiy munosabatlar fuqarolik-huquqiy munosabatlar tarkibiga kiradi. Bunday munosabatlar fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqiy holatini, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarning, shartnoma majburiyatlarini, shuningdek mulkiy hamda shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi.

Sugʻurta sohasidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlar quyidagi yoʻnalishlarda namoyon boʻladi:

- fuqarolar va sugʻurta tashkilotlari oʻrtasida shakllanadigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar;
- sugʻurta tashkilotlari oʻrtasida yuzaga keladigan oʻzaro munosabatlar;
- fuqarolar va maxsus davlat organlari oʻrtasida paydo boʻladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar;
- sugʻurta tashkilotlari va maxsus vakolatli davlat organi oʻrtasida paydo boʻladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar.

Fuqarolar va sugʻurta tashkilotlari oʻrtasida paydo boʻladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar tegishli shartnoma qoidalariga asoslanadi. Bunda bir tomondan sugʻurta tashkilotining fuqaro oldida, ikkinchi tomondan fuqaroning sugʻurta tashkiloti oldidagi burch va majburiyatlari paydo boʻladi. YAʼni, tuzilgan shartnomaga koʻra, fuqaro oʻz vaqtida sugʻurta mukofotini toʻlashi shart. Sugʻurta hodisasi roʻy berganda esa, sugʻurta tashkiloti sugʻurta shartnomasida qayd etilgan shart va muddatlarda sugʻurta qoplamasi (summasini) fuqaroga toʻlab berishi lozim. Koʻrinib turibdiki, shartnoma –fuqarolik-huquqiy hujjat sifatida taraflarning oʻzaro munosabatini huquqiy tartibga solyapti.

Sugʻurta tashkilotlarining bir-birlari oʻrtasida paydo boʻladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlari sugʻurta pulini va qayta sugʻurta qilish bilan bogʻliq tuzilgan shartnomalar doirasida shakllanadi. Amaldagi qonun hujjatlariga koʻra, sugʻurta tashkiloti moliyaviy barqarorlikni taʼminlash, binobarin, sugʻurtalanuvchilar oldida oʻz majburiyatini bajarishini taʼminlash maqsadida sugʻurta pulida ishtirok etishi yoxud boshqa sugʻurta tashkilotlari yoki ixtisoslashgan qayta sugʻurta tashkilotlari bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishi mumkin. Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 959-moddasida «sugʻurta shartnomasi boʻyicha sugʻurtalovchi oʻz zimmasiga olgan sugʻurta tovonini yoki sugʻurta pulini toʻlash xavfi uning tomonidan toʻliq yoki qisman

boshqa sugʻurtalovchida (sugʻurtalovchilarda) u bilan tuzilgan qayta sugʻurta qilish shartnomasi boʻyicha sugʻurtalanishi mumkin» deb alohida qayd etilgan.

Qayta sugʻurta qilish shartnomasiga nisbatan, agar qayta sugʻurta qilish shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan boʻlsa, Fuqarolik kodeksining tadbirkorlik xavfini sugʻurta qilish borasida qoʻllanishi lozim boʻlgan qoidalari tatbiq etiladi. Qayta sugʻurta qilish shartnomasini tuzgan sugʻurta shartnomasi (asosiy shartnoma) boʻyicha sugʻurtalovchi keyingi shartnomada sugʻurta qildiruvchi hisoblanadi.

Fuqarolar va maxsus davlat organlari oʻrtasida paydo boʻladigan fuqarolikgʻhuquqiy munosabatlar maxsus vakolatli davlat organining sugʻurtalanuvchilar boʻlgan – fuqarolarning qonuniy manfaatlarini himoya etish bilan bogʻliqdir. Amaliyotda shunday holatlar boʻladiki, sugʻurta tashkiloti sugʻurtalanuvchiga sugʻurta hodisasi tufayli koʻrilgan zararni qoplashdan asossiz voz kechishi mumkin. Bunday paytda oʻz manfaatlarini huquqiy himoya etish maqsadida sugʻurtalanuvchi maxsus vakolatli davlat organiga murojaat etishi mumkin.

Sugʻurta tashkilotlari va maxsus vakolatli davlat organi oʻrtasida paydo boʻladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar qonun hujjatlari asosida tartibga solinadi. Maxsus vakolatli organning sugʻurta tashkilotlariga nisbatan paydo boʻladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlari oʻzbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va «Sugʻurta faoliyati» toʻgʻrisidagi Qonunda oʻz aksini topgan. Maxsus vakolatli davlat organi qonunda belgilangan tartibda sugʻurta tashkilotlarining faoliyatini nazorat etib boradi. Zaruriyat boʻlganda esa, sugʻurtalanuvchilarning manfaatini himoya etish maqsadida undan sugʻurta faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyani chaqirib olish huquqiga ega.

Sugʻurtani huquqiy tartibga solish davlat tomonidan sugʻurta munosabati qatnashchilarining hattigʻharakatini huquqiy normalar vositasida amalga oshiriladi. Jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiy huquqlarini har xil oldindan koʻrib boʻlmaydigan sugʻurtaviy himoya qilish uchun koʻpchilik shaxslar tomonidan tashkil etiladigan maxsus fond hisobidan amalga oshiriladigan sugʻurta faoliyati jarayonida paydo boʻladigan ijtimoiy munosabatlar mavjud. Ushbu munosabatlarni tartibga soladigan normalar yigʻindisiga sugʻurta huquqi deyiladi.

3-mavzu : Davlat sug'urta nazorati, uning huquqlari va majburiyatlari


Sug'urta tashkilotlarining faoliyati boshqa turdagi xujalik sub'ektlari faoliyatidan keskin farq qiladi. Chunki, ular ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlashda va sug'urta hodisalari ro'y berganda etkazilgan zararni qoplash uchun xizmat qiladilar. Bu holat, sug'urtachilar zimmasiga alohida mas'uliyat yuklaydi va shuning uchun, ular davlat tomonidan nazorat ostiga olinmog'i zarurdir.

Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish shakllari. Sugurta faoliyatini davlat tomonidan nazoratga olishni shartli ravishda uchga bulish mumkin (1-chizmaga qarang).

Xorijiy mamlakatlar tajribasining ko'rsatishicha, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarning barchasida sug'urta bozori davlatning vakolatli idoralari tomonidan tartibga solib boriladi.

1-chizma

Sug'urta faoliyatini nazorat qilish shakllari



Masalan, Buyuk britaniyada sug'urta ishini Savdo va sanoat departamenti, Yaponiyada Moliya vazirligining sug'urta bulimi, AQSHda esa maxsus sug'urta komissariatlari nazorat qilib boradi. Davlat, bunday nazorat ishini olib borar ekan, avvalo, mamlakatning sug'urta sohasiga taalluqli qonunlariga hamda boshqa me'yoriy hujjatlariga asoslanadi. Sug'urta va qayta sug'urtalash kompaniyalari, sug'urtaga ixtisoslashgan vositachilar davlat sug'urta nazoratining ob'ektlari hisoblanadi. Sug'urta bozorini davlat tomonidan tartibga solish turli shakllarda, xususan, maxsus qonunlar qabul qilish, soliq solish, alohida hukumat qarorlari

bilan majburiy sug'urtalashni joriy qilish va vakolatli sug'urta nazorati xizmatini tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Sug'urta bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarga litsenziyalar (ruxsatnomalar) berish sug'urta nazorati xizmatining eng asosiy vazifalaridan biridir. Litsenziya (ruxsatnoma) berish jarayonida sug'urta nazorati sug'urtachining bo'lajak faoliyatini dastlabki tekshiruvdan o'tkazadi. YA'ni, nizom jamg'armasi va o'z mablag'larining holati hamda bu mablag'larning tashkilot zimmasidagi majburiyatlariga o'zaro munosabati ko'rib chiqiladi. Sug'urta faoliyatiga litsenziya (ruxsatnoma) berishning zaruriyati sug'urtaning o'z mohiyatidan kelib chiqishini unutmash kerak. Chunki, sug'urta tashkiloti sug'urta hodisasi yuz bergan vaqtda sug'urtalanuvchiga shartnomada ko'rsatilgan mablag'ni o'z vaqtida to'lashi lozim. Sug'urta faoliyatini nazorat qiluvchi organning bu boradagi ishlari nafaqat sug'urtalanuvchilar manfaatiga mos tushadi, balki butun davlatning manfaatlari yo'lida ham xizmat qiladi.

Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi unsurlardan biri uning ustav kapitalidir. "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonunga muvofiq sug'urta tashkilotlarining ustav kapitalining eng kam miqdori Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 27 noyabrdagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 413-sonli qaroriga asosan sug'urta tashkilotlari ustav kapitalining eng kam miqdorlari belgilandi (1-jadval)³.

Jadval-1

t/r	Sug'urta tarmoqlari	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.05.2008 dagi Qaroriga asosan	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.11.2010 dagi Qaroriga asosan
1	Umumiy sug'urta	750 ming evroga ekvivalent summada	1,5 mln evroga ekvivalent summada
2	Hayotni sug'urta qilish	1 mln evroga ekvivalent summada	2 mln evroga ekvivalent summada
3	Majburiy sug'urta	1,5 mln evroga ekvivalent summada	3 mln evroga ekvivalent summada
4	Faqat qayta sug'urta qilish bo'yicha	4 mln evroga ekvivalent summada	6 mln evroga ekvivalent summada

³ Manba: O'zbekiston Respublikasi Hukumatining Qarorlari to'plami. 2002 y. 11-son.

Jadvalda aks ettirilgan ma'lumotlarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 21 maydagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"⁴gi Qaroriga binoan mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan sug'urta tashkilotlari o'zlarining ustav kapital miqdorlarini 2010 yil 1 yanvargacha Qarordagi ko'rsatilgan ustav kapitalning eng kam miqdoriga etkazishlari shart. Aks holda sug'urtalovchilarining litsenziyalarining amal qilishini belgilangan tartibda to'xtatib turilishi va tugatilishi mumkin. SHuningdek Qarorda quyidagilar bayon etilgan.

Sug'urtalovchilar qimmatli qog'ozlar bozorida investitsion vositachi sifatida professional faoliyatni amalga oshirish huquqiga ega. bunda sug'urtalovchilar tomonidan ko'rsatilgan faoliyat turini amalga oshirish uchun litsenziya talab qilinmaydi.

2008 yil 1 iyundan boshlab uch yil muddatga:

- yuridik va jismoniy shaxslarning sug'urtalovchilar aksiyalari bo'yicha dividendlar ko'rinishida oladigan daromadlari yuridik shaxslar foyda solig'i va jismoniy shaxslarning daromad solig'ini to'lashdan ozod qilinishi;
- sug'urtalovchilarning dividendlar va foizlar ko'rinishida olingan daromadlari yuridik shaxslarning foyda solig'i va jismoniy shaxslarning daromad solig'ini to'lashdan ozod qilingan va soliqlardan bo'shagan mablag'lar respublika hududlarida, birinchi navbatda, qishloq joylarida hududiy bo'linmalarni, keng tarmoqli agentlik tizimini tashkil qilish, shuningdek, ularning moddiy-texnik bazasini rivojlantirishga yo'naltirilishi ko'zda tutilgan.

4-mavzu : Sug'urta shartnomalarini tuzish va uni bajarish tartibi

Sug'urta shartnomasini tuzish shartlari sug'urtalovchi yoxud sug'urtalovchilar birlashmasi tomonidan qabul qilingan, ma'qullangan yoki tasdiqlangan tegishli turdagi sug'urtaning standart qoidalarida belgilab qo'yilishi mumkin. Sug'urta qoidalarida mavjud bo'lgan va sug'urta shartnomasi matniga kiritilmagan shartlar, agar shartnomada shunday qoidalar qo'llanilishi to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan va qoidalarining o'zi shartnoma bilan bitta hujjatda yoki uning orqa tomonida bayon qilingan yoxud unga ilova qilingan bo'lsa, sug'urta qildiruvchi uchun majburiydir. Sug'urta shartnomasi tuzilayotganda sug'urta qildiruvchi va sug'urtalovchi sug'urta qoidalarining ayrim bandlarini o'zgartirish yoki chiqarib tashlash va qoidalarda bo'lmagan bandlarni shartnomaga kiritish to'g'risida kelishishlari mumkin. Sug'urta qildiruvchi o'z manfaatlarini himoya qilib, sug'urta shartnomasida ko'rsatib o'tilgan tegishli turdagi sug'urta

⁴ Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 21 maydagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.//Xalq so'zi gazetasi. 2008 yil 22 may.

qoidalarini, hatto agar bu qoidalar ushbu moddaga ko'ra uning uchun majburiy bo'lmasa ham, vaj qilib keltirishga haqli.

Sug'urta shartnomasi quyidagi hollarda o'z-o'zidan haqiqiy emas:

- shartnoma tuzilayotgan paytda sug'urta ob'ekti mavjud bo'lmasa;
- jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritilgan, jinoyat narsasi hisoblanuvchi yoki musodara qilinishi lozim bo'lgan mol-mulk mulkiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalangan bo'lsa;
- shartnoma bo'yicha g'ayrihuquqiy manfaat sug'urtalangan bo'lsa;
- sug'urta shartnomasida sug'urta hodisasi sifatida yuz berishi ehtimolligi va tasodifiylik belgilari bo'lmagan voqea nazarda tutilgan bo'lsa.

Sug'urta shartnomasi amal qilishining boshlanishi. Sug'urta shartnomasi, agar unda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, sug'urta mukofoti yoki birinchi badal to'langan paytda kuchga kiradi. Agar shartnomada sug'urta amal qilishi boshlanishining boshqacha muddati nazarda tutilmagan bo'lsa, shartnomada shartlashilgan sug'urta sug'urta shartnomasi kuchga kirganidan keyin yuz bergan sug'urta hodisalariga nisbatan tadbiriq etiladi.

Sug'urta shartnomasining amal qilish davrida sug'urta xavfining ortishi oqibatlar. Sug'urta shartnomasining amal qilish davrida sug'urta qildiruvchi shartnoma tuzilayotganda sug'urtalovchiga ma'lum qilingan holatlarda yuz bergan, o'ziga ma'lum bo'lgan muhim o'zgarishlar to'g'risida, agar bu o'zgarishlar sug'urta xavfining ortishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa, sug'urtalovchiga darhol xabar qilishi shart. Sug'urta shartnomasida va sug'urta qildiruvchiga berilgan sug'urta qoidalarida aytib qo'yilgan o'zgarishlar muhim deb hisoblanadi. Sug'urta xavfi ortishiga sabab bo'ladigan holatlar to'g'risida xabardor qilingan sug'urtalovchi sug'urta shartnomasining shartlarini o'zgartirishni yoki xavf ortishiga mutanosib ravishda qo'shimcha sug'urta mukofoti to'lashni talab qilishga haqli. Agar sug'urta qildiruvchi sug'urta shartnomasining shartlari o'zgartirilishiga yoki sug'urta mukofotiga qo'shimcha to'lashga e'tiroz bildirsa, sug'urtalovchi shartnomani bekor qilishni talab etishga haqli. Sug'urtalovchi, agar sug'urta xavfi ortishiga sabab bo'ladigan holatlar yo'qolgan bo'lsa, sug'urta shartnomasini bekor qilishni talab etishga haqli emas.

Sug'urta shartnomasining muddatidan ilgari bekor bo'lishi. Sug'urta shartnomasi, agar u kuchga kirganidan keyin sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimoli yo'qolgan va sug'urta xavfining mavjud bo'lishi sug'urta hodisasidan boshqa holatlar bo'yicha tugagan bo'lsa, tuzilgan muddati kelishidan oldin bekor bo'ladi. Quyidagilar shunday holatlar jumlasiga kiradi:

- sug'urtalangan mol-mulkning yuz bergan sug'urta hodisasidan boshqa sabablarga ko'ra nobud bo'lishi;
- tadbirkorlik xavfini yoki ana shu faoliyat bilan bog'liq fuqarolik javobgarlik xavfini sug'urtalagan shaxsning tadbirkorlik faolitini belgilangan tartibda to'xtatishi.

O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni 5-moddasida "Sug'urta bozorining professional ishtirokchilari sug'urta faoliyatining sub'ektlari hisoblanadi. Sug'urtalovchilar, sug'urta vositachilari hamda boshqa

yuridik va jismoniy shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq sug'urta bozorining professional ishtirokchilari hisoblanadilar", deb qayd etilgan.

Sug'urta bozorining asosiy professional ishtirokchisi-sug'urtalovchi. Sug'urtalovchilar sug'urtani amalga oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin emas. Quyidagilar bundan mustasnodir:

- maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan tartib va shartlardagi investitsiya faoliyati;
- sug'urta sohasidagi mutaxassislarning malakasini oshirish bilan bog'liq faoliyat;
- sug'urta agenti sifatidagi sug'urta vositachiligi;
- binolarni ijaraga berish.

O'z navbatida, sug'urtalovchilar mulkiy shakliga qarab, bir nechta turda bo'ladi. Sug'urta bozorida qayd etilgan qatnashchilardan tashqari, o'zaro sug'urtalash jamiyatlari ham faoliyat ko'rsatishlari mumkin. Bu jamiyatlarning boshqasug'urtalovchilardan farqi shundaki, ular foyda olish uchun intilmasdan, ko'rilgan zararni o'zaro hamkorlikda qoplashni nazarda tutadi. Statistik ma'lumotlar bo'yicha, o'zaro sug'urtalash jamiyatlari xalqaro sug'urta bozorida to'plagan sug'urta mukofoti hamda aktivlari jihatidan salmoqli o'ringa ega. AQSH va Yaponiya milliy sug'urta bozorlarida o'zaro sug'urtalash jamiyatlarining soni jami sug'urta tashkilotlarining 50 foizdan ko'prog'ini tashkil etadi.

Hozirgi paytda respublikamizda faoliyat yuritayotgan sug'urta tashkilotlari qaysi sug'urta sohasiga ixtisoslashganligiga qarab ikkiga bo'linadi: haytni sug'urtalashga ixtisoslashgan sug'urta tashkilotlari hamda umumiy sug'urta tarmog'ida faoliyat ko'rsatuvchi sug'urta tashkilotlari.

Sug'urta bozori professional ishtirokchilari tarkibiga sug'urta brokeri ham kiradi. Sug'urta brokeri- sug'urta qildiruvchining nomidan va topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasi tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs. O'zbekistonda sug'urta brokerlari tizimi shakllanish jarayonini boshidan kechirmoqda. Ammo hozirgi paytda sug'urta xizmatlarining aksariyati ularning ishtirokisiz amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda sug'urta bozorining barqaror rivojlanishi uning ishtirokchilari tarkibini yanada kengayishiga asos yaratmoqda. Bunga misol tariqasida sug'urta bozoriga adjaster, syurveyer, aktuariy va assistans kabi tushunchalarning kirib kelganligini keltirish mumkin. 2007 yil 15 sentyabrda matbuotda e'lon qilingan "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinishi yuqorida nomlari zikr etilgan sug'urta bozori yangi ishtirokchilarining huquqiy maqomini mustahkamlab berdi. Mazkur qonunning 9-2-moddasida adjasterga quyidagicha ta'rif berilgan: "Adjaster sug'urtalovchining topshirig'i bo'yicha quyidagi xizmatlarni ko'rsatuvchi, o'z shtatida tegishli

mutaxassislarga ega bo'lgan yuridik shaxs yoki professional bilim va malakaga ega bo'lgan jismoniy shaxsdir:

- sug'urta hodisasi yuz berganidan keyin sug'urta ob'ektini ko'zdan kechirish va tekshirish;
- sug'urta hodisasi faktlarini va tavakkalchilik holatlarini tahlil qilish;
- sug'urta ob'ektining shikastlanish sabablarini va sug'urta hodisasi mavjudligini aniqlash;
- sug'urta hodisasi mavjud bo'lgan taqdirda- sug'urta hodisasi oqibatida vujudga kelgan shikastlanish darajasi va zarar miqdorini belgilash;
- to'lanishi kerak bo'lgan sug'urta to'lovi summasini aniqlash;
- sug'urtalovchi uchun sug'urta hodisasi bo'yicha xulosa tuzish".

5-mavzu : Majburiy va ixtiyoriy sug'urtalashning huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 922-moddasida majburiy sug'urta haqida alohida ko'rsatib o'tilgan. Xususan, unda shunday deyiladi: «Qonunda quyidagilarni sug'urta qilish majburiyati belgilab qo'yilishi mumkin:

- qonunda ko'rsatilgan boshqa shaxslarning hayoti, sog'ligi yoki mol-mulki ularning hayoti, sog'ligi yoki mol-mulkiga zarar etkazilishi ehtimolini nazarda tutib;
- boshqa shaxslarning hayoti, sog'ligi yoki mol-mulkiga zarar etkazilishi yoxud boshqa shaxslar bilan tuzilgan shartnomalarning buzilishi oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'zining fuqaroviy javobgarligi xavfi».

Sug'urta qildiruvchi bo'lish majburiyati qonun bilan unda ko'rsatilgan shaxslar zimmasiga yuklanadi. Qonunda majburiy sug'urtaning boshqa turlari ham belgilanishi mumkin. Fuqaroga o'z hayoti yoki sog'ligini sug'urtalash majburiyati qonun bilan yuklatilishi mumkin emas. Qonunda nazarda tutilgan hollarda yoki unda belgilangan tartibda xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida davlatga qarashli molg'mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslarga bu mulkni sug'urtalash majburiyati yuklanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida majburiy sug'urtaning quyidagi turlari mavjud:

- transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish;
- ish beruvchilarning fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash;
- yo'lovchilarni majburiy sug'urta qilish;
- Davlat majburiy sug'urtasi.

SHu erda ta'kidlash lozimki, yuqorida ko'rsatilgan majburiy sug'urta turlari hukumat qarorlari asosida joriy etilgan. Unda sug'urtalanuvchilar guruhi, sug'urta qilish shartlari, sug'urta tarifi stavkalari va sug'urta qoplamalari miqdorlari ko'rsatilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasida transport vositalari va boshqa o'ziyurar mashina hamda mexanizmlar egalari fuqarolik javobgarligining davlat majburiy sug'urtasi to'g'risida» 1994 yil 30 dekabrda 632-sonli qaroriga ko'ra, 1995 yil 1 yanvardan boshlab transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligining davlat majburiy sug'urtasi joriy etilgan. Ushbu qaror bilan belgilab qo'yilganki, O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan mulkchilikning barcha shakllaridagi transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligining davlat majburiy sug'urtasiga jalb qilinadilar.

Fuqarolarning ijtimoiy manfaatlarini va davlatning manfaatlarini ta'minlash maqsadida qonunda hayot, sog'lik va mol-mulkning majburiy davlat sug'urtasi belgilab qo'yilishi mumkin.

Majburiy davlat sug'urtasi ana shu maqsadlar uchun davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar hisobiga amalga oshiriladi.

Majburiy davlat sug'urtasi bevosita sug'urta to'g'risidagi qonun hujjatlari asosida unda ko'rsatilgan davlat sug'urta tashkilotlari yoki davlatning boshqa tashkilotlari (sug'urtalovchilar) tomonidan amalga oshiriladi.

Fuqarolik kodeksining qoidalari, agar sug'urta to'g'risidagi qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa va sug'urta bo'yicha mavjud munosabatlar mohiyatidan kelib chiqmasa, majburiy davlat sug'urtasiga nisbatan qo'llaniladi.

Majburiy sug'urta sug'urta munosabatlarning qonun kuchiga ega bo'lgan shakli. Majburiy sug'urta qonunchilik hujjatlari asosida amalga oshiriladi. Ushbu hujjatda sug'urtaga tortiladigan ob'ektlar soni, sug'urta javobgarligining hajmi, sug'urta munosabatlarida qatnashadigan tomonlarning huquq va majburiyatlari hamda boshqa rekvizitlar ko'rsatiladi. Amaldagi qonunchilikka asosan, O'zbekistonda majburiy sug'urtani tegishli litsenziyaga ega bo'lgan har qanday sug'urta kompaniyasi o'tkazishi mumkin.

Sug'urta tashkilotlari yuridik va jismoniy shaxslar zararlarini qoblab berish orqali davlatning pul mablag'larini tejaydilar. Sug'urta hodisalari va ular keltiradigan moliyaviy zararlar oldini olish maqsadida sug'urtaning ayrim turlari

majburiy shaklda amalga oshiriladi. Sugʻurta turlarining bunday shaklda amalga oshirilishida davlat jabrlanuvchi yaʼni sugʻurtalanganlarning koʻrgan zararlarini qoplab berilishi va mulkiy manfaatlarini himoya qilinishini kafolatlaydi. Bu davlatning hamda sugʻurtaning ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalaridan kelib chiqadi.

SHaxsiy sugʻurta – baxtsiz hodisalar yoxud tabiiy hodisalar roʻy berishi oqibatida fuqarolarning hayoti va sogʻligiga shikast etkazilishi bilan bogʻliq ularning mulkiy manfaatlarini himoyalashga qaratilgan sugʻurtaning mustaqil tarmogʻi. SHaxsiy sugʻurta fuqarolar boshiga kulfat tushganda ularni moddiy jihatdan qoʻllab-quvvatlashning muhim vositasi hisoblanadi. SHu maʼnoda, shaxsiy sugʻurta ijtimoiy himoyaning hayotiy tajribada sinalgan ishonchli shaklidir.

SHaxsiy sugʻurtaning, xususan uning ajralmas boʻgʻini boʻlgan fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sugʻurtasining joriy etilishi bir necha asrlik tarixga ega. 1541 yilda Evropada mavjud boʻlgan dengiz huquqi qoidalariga koʻra, kema egalari shu kema kapitanlarini baxtsiz hodisalardan sugʻurtalashlari shart boʻlgan.

SHaxsiy sugʻurtaning baʼzi belgilari qadimgi rimliklarga ham maʼlum boʻlgan. Oʻsha paytda Diana va Antoni muxlislarining diniy jamiyati boʻlgan. Unga aʼzo boʻlib kirgan shaxslar aʼzolik badalini toʻlashgan. Jamiyat aʼzolaridan vafot etganda uni koʻmish bilan bogʻliq xarajatlar jamiyat hisobidan amalga oshirilgan va hatto, pul mablagʻlarining muayyan qismi vafot etgan shaxsning merosxoʻrlariga berilgan.

1699 yil Angliyada shaxsiy sugʻurta bilan shugʻullanadigan dastlabki sugʻurta tashkiloti barpo etilgan va u avvalo beva ayollar hamda etim bolalarni sugʻurtasini amalga oshirgan. Bu jamiyatning nomi “Ekvatebl” deb atalgan. XVIII asrda esa Germaniyada suyak sinishi holatlaridan himoyalash boʻyicha oʻzaro yordam uyushmalari tashkil etilgan. 1849 yili Angliyada temir yoʻllarda baxtsiz hodisalardan sugʻurtalash boʻyicha dastlabki «Railway Death Rassengers Company» nomli sugʻurta kompaniyasi tuzildi.

SHaxsiy sugʻurta boʻyicha sugʻurtalanuvchi sifatida har qanday yuridik va jismoniy shaxs boʻlishi mumkin.

SHaxsiy sugʻurta – bu inson hayotiga, uning mehnat qobiliyati va salomatligiga tahdid soladigan turli xavf-xatarlardan himoyalanishning muhim shakli.

Hozirgi paytda shaxsiy sugʻurta sugʻurta faoliyatining yirik tarmogʻi sifatida jahon amaliyotida keng qoʻllaniladi. Rivojlangan xorijiy davlatlarda shaxsiy sugʻurta turlari boʻyicha kelib tushgan sugʻurta mukofotlari boshqa

sug'urta turlari bo'yicha kelib tushgan sug'urta mukofotlariga nisbatan yuqori salmoqqa ega. Masalan, AQSHda jami yig'ilgan sug'urta mukofotlari hajmida shaxsiy sug'urtaning hissasi 50,0 foizdan yuqoridir.

O'tgan asrning boshlarida hozirgi O'zbekiston hududida Rossiya sug'urta tashkilotlarining vakolatxonalari faoliyat ko'rsatgan va ular aholiga shaxsiy sug'urta xizmatlarini ko'rsatishgan.

1917 yildan 1990 yilgacha mamlakatimizda shaxsiy sug'urtalash ishlari davlat sug'urta organlari (Gosstrax) tomonidan amalga oshirilgan. Ana shu davrda sug'urta shartlari, qoidalar va tariflari markazda-Moskvada ishlab chiqilar va aksariyat hollarda mahalliy shart-sharoitlar va xususiyatlar hisobga olinmas edi.

1991 yilda O'zbekistonning o'z siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini qo'lga kiritishi hayotimizning barcha jabhalari qatorida sug'urta sohasini ham bozor munosabatlari tamoyillariga mos ravishda rivojlanishi uchun sharoit yaratdi. To'g'ri, mustaqillikning dastlabki yillarida iqtisodiyotda ro'y bergan keskin o'zgarishlar qisqa muddat bo'lsada pulning qadrsizlanishiga, pirovardida, aholi turmush darajasining pasayib ketishiga olib keldi. SHubhasiz, bu holat shaxsiy sug'urtaning aholi o'rtasidagi ommaviyligiga putur etkazdi. Natijada, bu sug'urta turlari bo'yicha sug'urta shartnomalari soni va sug'urta mukofotlari miqdori kamaydi. Bunday salbiy vaziyatni oldini olish va aholining shaxsiy sug'urtaga bo'lgan ishonchini tiklash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholining omonotlardagi va davlat sug'urtasi bo'yicha pul mablag'larini indeksatsiya qilish to'g'risida" 1995 yilning 20 dekabrda PF № 1327-son Farmoni qabul qilindi.

1

6-mavzu : Qayta sug'urtalash kompaniyalari va sug'urta brokerlarining faoliyatini huquqiy tartibga solish

Qayta sug'urtalash - sug'urtalashga riskni qabul qilish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tizimi (risklarni birlamchi joylashtirish). Sug'urtalovchi muvozanatlashgan sug'urta portfelini yaratish va sug'urta operatsiyalarini moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida qabul qilib olingan riskni bir qismini o'zaro kelishilgan holda boshqa sug'urtalovchiga berishi (riskni ikkilamchi joylashtirish). Qayta sug'urtalash operatsiyalari bilan bir qatorda asosan, ixtisoslashgan qayta sug'urtalash kompaniyalari amalga oshiradi. Qayta

sugʻurtalash aktiv (riskni berish) va passiv (riskni qabul qilib olish) koʻrinishida boʻladi. Bundan tashqari qayta sugʻurtalash nisbiy va nonisbiy shaklda boʻladi.

Ayrim holatlarda qayta sugʻurtalash operatsiyalari qayta sugʻurtalovchi broker - ikkita tomon, yaʼni sugʻurta kompaniyasi va qayta sugʻurtalovchi kompaniyasi oʻrtasidagi vositachidir.

Qayta sugʻurta qilish shartnomalari bir tomondan sugʻurta kompaniyalari oʻrtasida oʻzaro tuzilishi yoki ikkinchi tomondan, sugʻurta kompaniyasi va ixtisoslashgan qayta sugʻurta qilish kompaniyasi oʻrtasida tuzilishi mumkin. Bu erda shartnoma oʻzi nima degan savol toʻgʻilishi mumkin. oʻzbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 354- moddasida "ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, oʻzgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi shartnoma deyiladi" – deb koʻrsatilgan. Dastlab, sugʻurta kompaniyasi oʻzining moliyaviy qobiliyatini mustahkamlash maqsadida qabul qilib olingan riskni bir qismini boshqa sugʻurta kompaniyasida yoki ixtisoslashgan qayta sugʻurta qilish kompaniyasida sugʻurtalash toʻgʻrisida qaror qabul qiladi. Ushbu qarorni ijrosini taʼminlash maqsadida sugʻurtalovchi ixtisoslashgan sugʻurta kompaniyasiga murojaat qiladi. Agar qayta sugʻurtalovchi kompaniya riskni qayta sugʻurta qilishga rozilik bildirsa, ular oʻrtasida qayta sugʻurtalash shartnomasi tuziladi. SHuni alohida taʼkidlash lozimki, shartnoma shartlarida, unda ishtirok etuvchi tomonlarning huquqlari va majburiyatlari, olingan majburiyatlarning bajarilishi yuzasidan javobgarlik, shartnomani kuchga kirishi, amal qilish va bekor etilishi qoidalari mujassam boʻlishi kerak. SHuningdek, shartnomada qayta sugʻurtalash mukofoti miqdori va javobgarlik hajmi koʻrsatilishi zarur. Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga koʻra, qayta sugʻurta qilishda sugʻurta tovonini yoki sugʻurta pulini toʻlash uchun asosiy sugʻurta shartnomasi buyicha sugʻurtalanuvchi oldida ushbu shartnoma buyicha sugʻurta kompaniyasi javobgar boʻlib qolaveradi. Biroq asosiy sugʻurta shartnomasi buyicha sugʻurtalanuvchi hisoblangan sugʻurta tashkiloti sugʻurta hodisasi yuz berishidan oldin tugatilgan taqdirda, uning ushbu shartnoma buyicha huquq va majburiyatlarining qayta sugʻurta qilingan qismi qayta sugʻurta qilish shartnomasi buyicha sugʻurtalovchiga oʻtadi.

Qayta sugʻurta qilish shartnomalari bir qator oʻziga xos belgilarga egaki, bu ushbu shartnomalarni savdo va boshqa turdagi shartnomalardan tubdan farq qiladi. SHuning uchun ham qayta sugʻurta qilish sohasini nazariy jihatdan qaysi sugʻurta tarmogʻiga kiritish yoxud uni mustaqil sugʻurta sohasi sifatida qarash ancha bahs munozarani talab qiladi.

Agar sugʻurta hodisasi ruy bersa, bu haqda sugʻurta kompaniyasi qayta sugʻurtalovchi kompaniyaga darhol xabar qilishi kerak. oʻz navbatida, qayta sugʻurtalovchi kompaniya shartnomada koʻzda tutilgan qoplamani toʻlashi shart. Qayta sugʻurta qilish kompaniyasi shartnoma buyicha oʻz majburiyatlarini toʻlatukis bajarsa, u holda shartnoma ijro etilgan hisoblanadi.

Sugʻurtalovchi va sugʻurtalanuvchi (naf oluvchi, sugʻurtalangan shaxs) oʻrtasida yuzaga keladigan bahs-munozaralarning 3ta asosiy koʻrinishi mavjud:

- 1) sugʻurta shartnomasini tuzish jarayonida yuzaga keladigan bahslar;
- 2) sugʻurta shartnomasining va sugʻurtalovchi oʻz majburiyatini bajarishi bilan bogʻliq bahs-munozaralar;
- 3) sugʻurta shartnomasiga oʻzgartirish kiritish, bekor qilish hamda tugatish bilan bogʻliq bahs-munozaralar.

Mol-mulk sugʻurtasi boʻyicha quyidagi hollarda sugʻurtalovchi sugʻurta shartnomasini tuzishdan bosh tortishi mumkin:

- sugʻurtalanuvchi tomonidan sugʻurtaga olinadigan mol-mulkni saqlashga loqaydlik bilan munosabatda boʻlishi aniqlanganda;
- sugʻurta hodisasining roʻy berish ehtimolligi yuqori boʻlganda; bunday hollarda sugʻurtalovchi sugʻurtalanuvchiga riskni kamaytirishga qaratilgan texnik tadbirlar oʻtkazishni tavsiya qiladi; baʼzan esa sugʻurtalovchi bunday tadbirlarni moliyalashtirishga ogohlantirish tadbirlarining fondi hisobidan koʻmak berishi mumkin;
- sugʻurtalovchi bilan sugʻurtalanuvchi mol-mulkning haqiqiy yoki texnik holatidagi qiymati yuzasidan kelisha olmaganda;
- sugʻurtalanuvchi sugʻurtalovchiga sugʻurta hodisasining roʻy berish ehtimolligini va uning natijasida koʻrilishi mumkin boʻlgan zararining miqdorini aniqlash yuzasidan toʻliq va aniq maʼlumotlarni taqdim etishdan bosh tortganda;
- tomonlar sugʻurta summasining hajmi yuzasidan bir toʻxtamga kela olmaganda;
- sugʻurtalanuvchini sugʻurta shartnomasi boʻyicha tarif stavkaning miqdori hamda sugʻurtalovchiga toʻlanadigan sugʻurta mukofotining miqdori qoniqtirmasa.

Bunday kelishmovchiliklar sugʻurtalanuvchi bilan sugʻurtalovchi oʻrtasida shaxsiy sugʻurta shartnomasini tuzish jarayonida ham kuzatilishi mumkin, lekin uning boshqa sugʻurta shartnomasidan farqi shundaki, shaxsiy sugʻurta

shartnomasi ommabop hisoblanadi. Buning ma'nosi shuki, tijorat shaklidagi sug'urta tashkiloti bunday shartnomani imzolashdan bosh tortishga haqli emas, ba'zi holatlar bundan mustasno, masalan, sug'urtalovchi shartnoma tuzishning imkoni yo'qligini qonun yoki huquqiy hujjatlar yordamida asoslab bersa.

Majburiy sug'urtada sug'urtalovchi sug'urtalanuvchiga sug'urta shartnomasini tuzish taklifini. Dalolatnomani olgandan so'ng sug'urtalovchi 30 kun ichida ikkinchi tomonga (sug'urtalanuvchi) uning shartlarini qabul qilganligi yoki dalolatnomaga qarshi ekanligi to'g'risida ma'lum qilishi shart.

Agar tomonlar (sug'urtalovchi, sug'urtalanuvchi) uchun sug'urta shartnomasini tuzish qonunga muvofiq majburiy hisoblansa, tomonlardan fay biri uni tuzishdan bosh tortsa, ikkinchi tomon sudga murojaat qilib, uni shartnoma tuzishga majburlashga haqli. SHartnoma tuzishdan asossiz ravishda bosh tortgan tomon ikkinchi tomonga etkazgan zararini qoplab berishi kerak. Agar sug'urta shartnomasini tuzishda yuzaga keladigan kelishmovchiliklar sudga ko'rib chiqish uchun taqdim etiladigan bo'lsa, kelisha olmayotgan shartnoma shartlari sudning qarori bilan aniqlanadi.

O'QUV MATERIALLARI
(МАЪРУЗА МАТНЛАРИ, ЎҚУВ
ҚЎЛЛАНМАЛАР ДИСКДА)

1-Mavzu : Sug'urta huquqining mohiyati va huquqiy atamalar va tushunchalar

REJA:

1. Sug'urta haqida tushuncha va unga xos bo'lgan asosiy belgilar.
2. Sug'urta sohasida ishlatiladigan huquqiy atama va tushunchalar.

1. Sug'urta haqida tushuncha va unga xos bo'lgan asosiy belgilar

Tabiiy va boshqa stixiyali kuchlar ta'siri natijasida yuzaga keladigan zararlarni qoplash, oldini olish hamda ogohlantirish uchun maqsadli yo'nalishdagi pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar yig'indisiga sug'urta deyiladi.

Sug'urtaning xarakterli belgilari quyidagilardan iborat:

g'Sug'urta riskini mavjudligi. Risk-sug'urta munosabatlari paydo bo'lishining asosiy shartidir. Risk bo'lmas ekan, sug'urtaning bo'lishi mumkin emas. Riskning hajmi, miqdori ehtimollar nazariyasi va matematik statistika usullari yordamida aniqlanadi. Sug'urta risklarini tahlil qilish ularni 2 ta yirik guruhga bo'lishni taqozo etadi. YA'ni, risk sug'urtaviy va sug'urtasiz bo'ladi. Sug'urta shartnomalarida o'z aksini topgan risklar sug'urtaviy risklar deyiladi. Risk bahosini pulda ifodalanishi sug'urta stavkasini tashkil etadi. Risk doimiy ko'rsatkich emas, balki u doimo o'zgarib turadi. Bu o'zgarishlar iqtisoddagi va boshqa sohadagi o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liqdir. Sug'urta tashkiloti riskni rivojlanishini, holatini doimo kuzatishi lozim, ya'ni tegishli statistik hisob olib borishi, yig'ilgan ma'lumotlarni qayta ishlashi va tahlil qilishi kerak.

Riskni baholash uchun uni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:


- 1) Sug'urtalanishi mumkin bo'lgan risklar.
- 2) Sug'urtalanishi mumkin bo'lmagan risklar.

Riskning eng katta guruhini sug'urtalanishi mumkin bo'lgan risklar tashkil etadi. Quyida keltirilgan mezonlar asosida sug'urta riskini sug'urtasiz risklardan farq qilish mumkin.

- a) Risk tasodifiy xarakterga ega bo'lmog'i kerak ;
- b) Sug'urta hodisalarini ro'y berish faktining vaqti va makonining noma'lum bo'lishi;

v) Xavf solish manbasiga ko'ra risklar tabiatning stixik kuchlari bilan bog'liq risklari va moddiy boylikni o'zlashtirish oqibatida insoniyatni tabiatga ta'siri bilan bog'liq risklar. Risklarni turkumlashda katta halokatli risklar alohida o'rin tutadi. Chunki bunday risklar ro'y berishi natijasida ko'plab ob'ektlar yirik miqdorda zarar ko'rishi mumkin. Katta halokatli risklarga zilzila, sunami, kuchli shamol misol bo'lishi mumkin. YUqorida aytilgan risklardan tashqari ekologik, siyosiy va maxsus risklar bo'lishi mumkin.

Risk menejment (riskni boshqarish) - riskni chegaralash yoki kamaytirish bilan bog'liq tadbirlar yig'indisi. Amaliyotda riskni boshqarish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:



Riskni aniqlash, masalan ssuda oluvchilarning ssudani o'z vaqtida qaytarib bera olmaslik riski sug'urtalanadi, risk darajasi aniqlanadi. Kredit oluvchi shaxsning moliyaviy holati qanday aktivlarga ega ekanligi, loyihada hisobg'kitob qanchalik asoslanganligi va xakozo.

Riskni baholash - riskni holatlari aniqlanadi, riskni sodir bo'lish ehtimoliyligi, aktuar hisob-kitoblar, statistik kuzatuvlar, ehtimollar nazariyasi asosida baholanadi va sug'urtalanayotgan ob'ektga nisbatan risk darajasi aniqlanib sug'urta tarifi hisoblanadi. Sug'urta tarifining stavkasi - bu risk bahosidir.

Riskni nazorat etish - bu sug'urta kompaniyasining vakili tomonidan sug'urtalangan ob'ekt holatini, uning saqlanish ustidan kuzatuv ishlarini olib borishi. SHuningdek, uning saqlash xavfliligi talablariga javob berishi tekshiriladi. Qator ob'ektlarni yaxshi saklash uchun zarur tavsiya va maslaxatlar beriladi.

Riskni moliyalashtirish - bu riskni aniqlash, baholash va nazorat etish bilan bog'liq hamma xarajatlarni qoplash.

-Sug'urta munosabatlarining taqsimlash xarakteriga ega ekanligi. Moliya tushunchasi kabi, sug'urta ham yalpi ichki mahsulotni va milliy daromadni qayta taqsimlashda ishtirok etadi.

-Sug'urtada zararlarni hududlar bo'yicha va muayyan bir vaqtda taqsimlanishi. Bu sug'urtaning asosiy belgisi bo'lib, hududlar bo'yicha sug'urta fondini sug'urtalangan xo'jaliklar o'rtasida taqsimlash uchun katta hudud va ko'plab sug'urtalanishi mumkin bo'lgan ob'ektlar zarur bo'lishi talab etiladi. Zararlarni ma'lum bir vaqtda taqsimlanishi sug'urta hodisalarini tasodifiy ro'y berish xarakteriga ega ekanligidan kelib chiqadi. Qator yillar mobaynida favqulodda hodisalar ehtimol ro'y bermasligi mumkin. Bu holat sug'urta hodisalari sodir bo'lmagan vaqtda tegishli miqdorda sug'urta zahiralarni tashkil etishni talab qiladi.

-Sug'urta fondlariga jalb etilgan sug'urta mukofotlarini qaytarib berish. Sug'urta mukofotlari sug'urta tarifi asosida aniqlanadi. Sug'urta tarifi ikki qismdan iborat bo'lib, netto-stavka (sug'urta hodisalari ro'y berganda zararlarni qoplashga ishlatiladi) va nettog'stavkaga ustamalardir (sug'urta kompaniyasi ishini tashkil etish bilan bog'liq xarajatlar qoplanadi). Netto-stavka, asosan, sug'urta hodisasi ro'y berganda sug'urtalanuvchiga qaytarib beriladi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga muvofiq, majburiy sug'urta turlariga doir sug'urta shartlari qonun hujjatlarida belgilab qo'yiladi. Ixtiyoriy sug'urtalashga doir sug'urta tariflarining miqdori tomonlarning kelishuviga muvofiq belgilanadi.

-Sug'urta fondi mablag'larining, faqat, shu fondni tashkil etishda qatnashgan sub'ektlar o'rtasida taqsimlanishi.

Sug'urta munosabatlarida quyidagi tomonlar qatnashadilar:

Sug'urtalovchi – sug'urta xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan va tegishli litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslar. Tadbirkorlik faoliyatining muhim bo'g'ini. o'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta to'voni (sug'urta puli) to'lovini amalga oshirish majburiyatini oluvchi yuridik shaxs sug'urtalovchi deb hisoblanadi.

Sug'urtalovchilar turli mulk shakliga ega bo'lishi mumkin (davlat sug'urta tashkilotlari, aksionerlik sug'urta tashkilotlari hamda o'zaro sug'urtalash jamiyatlari). Sug'urta faoliyatini olib boruvchi tashkilotlar davlat organlarining tegishli litsenziyasiga ega bo'lishi zarur.

Sug'urtalanuvchi – sug'urtalovchi bilan aniq sug'urta munosabati o'rnatgan va tegishli sug'urta mukofotlarini to'lovchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

Sug'urta vositachilari – sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasida vositachilik vazifasini bajaruvchi yuridik shaxs. Maqomi bo'yicha vositachi sug'urtalanuvchining manfaatlarini himoya qiladi. Ko'rsatgan xizmatlari uchun vositachi sug'urtalanuvchidan emas, balki sug'urta kompaniyasidan tegishli vositachilik haqini oladi.

2. Sug'urta sohasida ishlatiladigan huquqiy atama va tushunchalar

Avariya komissari - sug'urta kompaniyasining vakolatiga ega bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs. Sug'urtalangan kema yoki yuk bo'yicha ko'rilgan zararning xarakteri va miqdorini aniqlaydi, hodisa ro'y berganlik sabablarini o'rganadi. Sug'urta kompaniyasi avariya komissarining chet elda ham, mamlakat ichkarisida ham tayinlashi mumkin. Avariya komissarining yuridik manzili, telefon va teleks raqamlari sug'urta kompaniyasi tomonidan beriladigan sug'urta polisida ko'rsatiladi. Sug'urtalanuvchi sug'urta xodisasi ro'y berishi zahoti avariya komissariga murojaat qilishi zarur. Avariya komissari molg'mulkning zararlanganlik darajasini aniqlaydi va sug'urta kompaniyasining topshirig'iga asosan, ko'rilgan zararni qisman qoplashi mumkin. Avariya komissari bajarilgan ishlar to'g'risida sug'urta kompaniyasi uchun avariya sertifikatini tuzadi yoki unga yozma axborot tayyorlaydi.

Avariya sertifikatini – mol-mulk sug'urta xodisasi tufayli zararlanganda, ko'rilgan zararning miqdori va xarakterini tasdiqlovchi hujjat. Avariya sertifikatini avariya komissari (adjaster) tomonidan tuziladi va tegishli komissiya xaqi hisobiga sug'urtalanuvchiga taqdim etiladi. Avariya sertifikatini sug'urtalanuvchining sug'urta qoplamasini olish to'g'risidagi arizasiga ilova etiladi va qoplamani to'lashda sug'urta kompaniyasiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Addendum - ilgari tuzilgan sug'urta va kayta sug'urtalash shartnomasiga tomonlarning o'zaro kelishuvi bilan qo'shimchalar kiritish.

Adjaster - sug'urta xodisasi ro'y berishi munosabati bilan sug'urtalanuvchi tomonidan bildirilgan e'tirozni tartibga solishda sug'urta kompaniyasining manfaatlarini himoya etuvchi jismoniy yoki xuquqiy shaxs. U sug'urtalanuvchi bilan unga to'lanadigan sug'urta qoplamasi miqdorini kelishishga harakat qiladi. Adjaster sug'urta xodisasini ro'y berish sabablarini o'rganadi va tahlil etadi. Ushbu tahlil natijalari bo'yicha sug'urta kompaniyasiga ekspert xulosasini tuzadi hamda avariya komissari funksiyasini bajaradi. Adjaster vazifasini sug'urta kompaniyasining tarkibiy bo'limi yoki ixtissoslashgan tashkilot amalga oshirishi mumkin.

Aktuariy - lotin tilidan tarjima qilganda hisobchi degan ma'noni bildiradi. Aktuar hisob-kitoblar nazariyasini o'zlashtirib olgan sug'urta matematikasi sohasidagi mutaxassis. U sug'urta tariflarini hisoblash va metodologiyasini ishlab chiqish, uzoq muddatli sug'urta turlari bo'yicha sug'urta zahiralari shakllantirish bilan bog'liq hisobg'kitoblarni amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Hozirgi paytda Angliyada aktuariylar instituti faoliyat ko'rsatmoqda. Aktuariylarning xalqaro uyushmasi mavjud.

Aktuar hisob-kitoblar - sug'urta tarifi stavkalarini hisoblashning iqtisodiyg'matematik usullari yig'indisi. Ushbu hisobg'kitoblar katta sonlar qonuniga asoslanadi. Aktuar hisobg'kitoblarning metodologiyasi, ehtimollar nazariyasi, demografiya qonuniyatlariga asoslanadi, tarif stavkasini miqdori sug'urta hodisalari ro'y berishining ehtimoliyligiga bog'liq. Demografiya ma'lumotlaridan fuqarolarning hayotini sug'urtalashda sug'urtalanuvchilarning yoshiga mos ravishda sug'urta tarifi stavkasini tabaqalashtirishda foydalaniladi. Uzoq muddatli hayotni sug'urtasi bo'yicha sug'urta summolari sug'urtalangan shaxs vafot etganda yoki u ma'lum bir yoshga etganda to'lanadi. Etarli miqdordagi sug'urta fondini shakllantirish uchun, sug'urtalovchi shartnoma amalda bo'lgan davrda qancha shaxs vafot etishi yoki ma'lum bir yoshga etishi ehtimoliyligini bilishi zarur. Aholi o'limi darajasi xaqidagi statistik ma'lumot asosida turli yoshga etishi ehtimoligini hisoblash hamda fuqarolarning o'limi to'g'risidagi jadvalni tuzish mumkin. Bu jadval asosida nafaqani va hayotni sug'urtalash bo'yicha tarif stavkalarni hisoblash mumkin.

Anderrayter - 1) turli risklarni sug'urtalash vakolatiga ega, sug'urta kompaniyasi tomonidan tayinlanadigan shaxs. Sug'urta kompaniyasining sug'urta portfelini shakllanishi uchun javob beradi. U sug'urta shartnomalarini tuzish, risklarni baholash va sug'urta tarifi stavkasini belgilash yuzasidan tegishli

malakaga ega bo'lishi zarur; 2) Lloyd sug'urta polislarini beradigan Lloyd sug'urta korporatsiyasini a'zosi; 3) potensial mijozlarga sug'urta polisini sotish bilan shug'ullanadigan yoki manfaatdor tomonlarga sug'urta sohasi bo'yicha yuqori darajada maslahat xizmatlarni ko'rsatadigan jismoniy yoki yuridik shaxs.

Anderrayter siyosati- sug'urtalash bilan bog'liq yangi takliflarni ko'rib chiqish va mazkur taklifni qabul qilish yoki rad etish to'g'risida xulosalar chiqarishga qaratilgan siyosat.

Anderayting - 1) sug'urtalash maqsadida riskni baholash; 2) sug'urta shartnomalarini tuzish va uning shartlarini bajarish; 3) sug'urta.

Annuitet - 1) renta va nafaqalarni sug'urtalashning hamma turlarini umumlashtiruvchi tushuncha. Bunda sug'urtalanuvchi sug'urta kompaniyasiga bir vaqtning o'zida yoki bir necha yillar davomida tegishli sug'urta mukofotlarini to'laydi. Keyin sug'urtalanuvchi butun hayoti davomida sug'urta kompaniyasidan daromad oladi. Annuitetning bir turi hisoblanadigan fuqarolarning yillik daromadini sug'urtasi bugungi kunda Buyuk britaniyada, Fransiyada va AQSHda keng rivojlangan.

Audit - sug'urta kompaniyasining moliyaviy hisoboti to'g'riligini yozma ravishda tasdiqlash va tekshirish. Audit ishini maxsus malakaga ega bo'lgan auditorlar amalga oshiradi. Auditorlik firmasi bilan sug'urta kompaniyasi o'rtasida shartnoma tuziladi. O'zbekiston Respublikasida audit ishini Moliya vazirligining litsenziyasiga ega bo'lgan shaxslar amalga oshirishi mumkin. Sug'urta kompaniyasining balansi auditorlar tomonidan tekshirilgandan so'ng matbuotda e'lon qilinadi.

Bonus - sug'urta kompaniyasi o'zi uchun qulay shartlarda sug'urta shartnomasini tuzganligi uchun sug'urtalanuvchiga, u to'laydigan sug'urta mukofoti miqdoridan chegirmalar belgilaydi.

Brutto-mukofot - sug'urta shartnomalarini tuzish, ish yuritish xarajatlarini hisobga olgan holdagi sug'urta mukofotlari summasi.

Bosh polis- sug'urta kompaniyasi va sug'urtalanuvchi o'rtasidagi yozma bitim. Bu bitimga muvofiq, tegishli davr mobaynida sug'urtalanuvchi barcha ob'ektlarni sug'urta kompaniyasiga sug'urtalash uchun beradi. CHet el tajribasida bu bitim «ochiq polis» yoki «polisg'abonament» deyiladi. Mazkur bosh polis asosida sug'urtalash tashqi savdo yuklari sug'urtasida keng tarqalgan. Sug'urtalanuvchi sug'urta kompaniyasiga har bir jo'natilgan yuk haqidagi ma'lumotlar (yukning vazni, sug'urta summasi, yukni junatish va qabul qilib olish punktlari) bayon etilgan arizani taqdim etsa etarli, yuk avtomatik ravishda sug'urtalangan hisoblanadi.

Birgalikda sug'urta qilish - bitta sug'urta shartnomasi doirasida riskni ikki yoki undan ortiq sug'urta kompaniyalari o'rtasida taqsimlanishi. Ushbu shartnomada har bir sug'urtalovchining xuquq va majburiyatlari ko'rsatiladi. Birgalikda sug'urta qilishda sug'urtalanuvchiga qo'shma polis yoki har bir sug'urta kompaniyasi o'z zimmasiga olgan risk hissasiga muvofiq alohida polis beriladi.

Brutto - stavka - sug'urta qoplamasini (sug'urta summasini) to'lashga mo'ljallangan netto-stavka va ish yuritish xarajatlarini qoplashga mo'ljallangan netto-stavkaga yuklama summalarini o'z ichiga olgan sug'urta mukofotlarining tarif stavkasini bildiradi. Ko'pgina adabiyotlarda ushbu ibora sug'urta tarifi ma'nosida ham ishlatiladi.

Denonsatsiya - shartnomadan voz kechish. Agar sug'urta munosabatlarida tomonlardan biri yozma ravishda shartnomadan voz kechishi to'g'risida ikkinchi tomonga ma'lum qilmasa, shartnoma unda ko'rsatilgan muddatgacha kuchda bo'ladi.

Depozit - 1) sug'urta kompaniyasining bank muassasasida saqlanadigan pul mablag'i yoki qimmatli qog'ozlari. Bank, odatda, sug'urta kompaniyasiga o'z pulini bankda saqlagani uchun foiz to'laydi; 2) ayrim mamlakatlar qonunchiligiga muvofiq, chet mamlakat sug'urta kompaniyasi, agar, biror boshqa mamlakatda sug'urta faoliyatini amalga oshirmoqchi bo'lsa, dastlab u o'sha mamlakat bank muassasasiga tegishli pul mablag'ini depozitga qo'yadi. Mazkur depozit, chet davlat sug'urta kompaniyasining boshqa mamlakat xududida sug'urta faoliyatini amalga oshirishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Diversifikatsiya - yirik sug'urta kompaniyalarining asosiy faoliyatdan tashqari boshqa faoliyat bilan ham shug'ullanishi. Masalan, sug'urta vositachiligi, qimmatli qog'ozlarning oldig'sotdisi, ko'chmas mulk bilan shug'ullanish va xakozo.

Depozitlarni sug'urta qilish - banklar bankrot deb e'lon qilinganda yoki to'lov qobiliyati yo'qolganda, omonatchilarning bankdagi pul mablag'larini ularga qaytarilishini sug'urtalash. Bunda banklar sug'urtalanuvchilar hisoblanadi. Sug'urtani maxsus sug'urta tashkilotlari amalga oshiradi. Depozitlarni sug'urtalash chet mamlakatlarda keng tarqalgan. Masalan, AQSHda depozit sug'urtasini depozitlarni sug'urtalash federal korporatsiyasi amalga oshiradi. AQSHda har bir omonatchiga to'g'ri keladigan 100 ming AQSH dollari miqdoridagi depozitni banklar majburiy sug'urtalaydi.

Dispasher - dengiz transportida umumiy avariya sodir bo'lganda ko'rilgan zararni kema, yuk va fraxt o'rtasida taqsimlash bo'yicha hisobg'kitoblarni tuzadigan mutaxassis. Rivojlangan mamlakatlarda dispasher funksiyasini maxsus

kompaniyalar bajaradi. Zararlarni taqsimlash bo'yicha hisobg'kitoblar dispasha deyiladi va dispashani tuzganlik uchun xaqni manfaatdor tomonlar (kema egasi, yuk egasi, yukni sotib oluvchi shaxs) to'laydi.

Evropolis - evropa iqtisodiy hamjamiyati mamlakatlarida sug'urta shartnomasi tuzganlik faktini tasdiqlovchi sug'urta polisi.

Zahira fondi - joriy yilda kelib tushgan sug'urta mukofotlari hisobidan sug'urta qoplamasini to'lash imkoniyati bo'lmaganda, ushbu sug'urta qoplamasini to'lash uchun foydalaniladigan pul mablag'lari fondi. Ma'lumki, sug'urta xodisalari tufayli ko'rilgan yo'qotishlar va zararlar miqdori har yili harg'xil bo'ladi. Ayrim yillari sug'urta xodisalari kam, boshqa yili esa ko'proq bo'lishi mumkin. Agar sug'urta xodisalari soni ko'p bo'lib, ko'rilgan zarar miqdori joriy yilda kelib tushgan sug'urta mukofotlaridan bir necha marta ko'p bo'lsa, ularning farqi zahira fondi hisobidan qoplanadi.

Kargo - transport vositasida tashiladigan va sug'urtalanishi mumkin bo'lgan yukning nomlanishi.

Kasko - transport vositasining borti. Kasko sug'urtasi transport vositasini nobud bo'lishi yoki shikastlanishi o'z ichiga oladi.

Kaf - tashqi savdo shartnomasi bo'yicha yuklarni belgilangan portgacha (joygacha) etkazib berish sharti. Bunda tashilayotgan tovarning qiymatiga dengiz transportida tashish bilan bog'liq xarajatlar kiritiladi. Ushbu shart bo'yicha tovarlarni sug'urta qilish tovar etkazib beruvchining (sotuvchi) majburiyatiga kirmaydi.

Kasbiy javobgarlik- chet el tajribasida vrachlarning, advokatlarning, auditorlarning, notariuslarning, buxgalter, arxitektor va boshqa kasb egalarining uchinchi shaxsga zarar keltirish kasbiy javobgarligini sug'urtalash shartnomasini tasdiqlaydigan sug'urta polisining atalishi. Ushbu kasb egalari xususiy amaliyot bilan shug'ullanganlarida, ularda sug'urta polisining bo'lishi majburiydir.

Kvota - 1) bir necha sug'urta kompaniyasi tomonidan birgalikda tegishli ob'ekt sug'urtalanayotganda, bitta sug'urta kompaniyasiga to'g'ri keladigan hissa. Bunday xolatda har bir sug'urta kompaniyasiga tegishli kvota yagona sug'urta polisida o'z aksini topadi; 2) qayta sug'urtalash kompaniyasini qayta sug'urtalashda qatnashish hissasi.

Kvotali qayta sug'urtalash - sug'urta kompaniyasi qayta sug'urtalovchi kompaniya bilan kelishgan holda unga risklarni bir qismini beradi. Bu operatsiya kvota shartnomasi orqali rasmiylashtiriladi. Qayta sug'urtalovchi kompaniyaga sug'urta mukofotini tegishli qismi beriladi va qayta sug'urtalovchi kompaniya proporsional ravishda ko'rilgan zararni qoplashda ishtirok etadi.

Kovernota - sug'urta vositachisi tomonidan sug'urtalanuvchiga beriladigan va sug'urtalanuvchining sug'urta shartnomasi tuzishini tasdiqlovchi xujjat. Ushbu xujjatda ko'rsatilgan muddat mobaynida sug'urta brokeri sug'urtalanuvchiga sug'urta polisini berishi shart. Chunki, kovernota sug'urta kompaniyasi uchun yuridik kuchga ega bo'lgan xujjat hisoblanmaydi.

Kombinatsiyali sug'urta - bir necha sug'urta turlari bo'yicha sug'urta qoplamasi sharti.

Komissiya haqi - mijozlarni sug'urtaga tortganligi uchun sug'urta kompaniyasi tomonidan vositachilarga (sug'urta brokeri, agent) to'lanadigan haq. Komissiya haqining miqdori sug'urtaning turiga va kelib tushgan badalning xajmiga bog'liq holda sug'urta badaliga nisbatan foizlarda to'lanadi.

Netto-stavka- bruttog'stavkaning asosiy tarkibiy qismi. Nettog'stavka sug'urta qoplamasini to'lashga mo'ljallangan pul mablag'lari resurslari bo'lib, u bruttog'stavkaning 90 foizigacha miqdorini tashkil etadi.

Obligatorli qayta sug'urtalash- 1) qayta sug'urtalashning majburiy shakli. Ayrim mamlakatlar qonunchiligiga ko'ra, ushbu mamlakat xududida faoliyat ko'rsatayotgan barcha sug'urta kompaniyalari qabul qilgan risklarini bir qismini majburiy ravishda qayta sug'urtalash kompaniyasiga beradi. Bu chora qayta sug'urtalash orqali chet elga valyutani chiqib ketishini oldini oladi; 2) sug'urta kompaniyasi (sedent) ma'lum bir sug'urta turi bo'yicha riskni qayta sug'urtalovchiga berishini va o'z navbatida, qayta sug'urtalovchi, riskni qabul qilishni nazarda tutuvchi qayta sug'urtalash shartnomasi.

Majburiy sug'urta- sug'urta munosabatlarining qonun kuchiga ega bo'lgan shakli. Majburiy sug'urta qonunchilik xujjatlari asosida amalga oshiriladi. Ushbu xujjatda sug'urtaga tortiladigan ob'ektlar soni, sug'urta javobgarligining hajmi, sug'urta munosabatlarida qatnashadigan tomonlarning huquq va majburiyatlari hamda boshqa rekvizitlar ko'rsatiladi. Amaldagi qonunchilikka asosan, O'zbekistonda majburiy sug'urtani tegishli litsenziyaga ega bo'lgan har qanday sug'urta kompaniyasi o'tkazishi mumkin.

Oferta- asosiy shartlar ko'rsatilgan holda sug'urta shartnomasini tuzish taklifi. Sug'urta kompaniyasi ofertani konkret yuridik yoki jismoniy shaxsga yo'llashi mumkin.

Offshor sug'urta kompaniyasi- maxsus maqomga ega bo'lgan sug'urta kompaniyasi. Offshor sug'urta kompaniyalari soliq to'lash stavkalari eng kam bulgan offshor zonalarda (Bermud oroli, Gernsi, Men va Keymanov orollari) tashkil etiladi. Offshor zonalarda amalga oshiriladigan sug'urta operatsiyalari

sug'urta kompaniyasini tashkil etishda qatnashgan ta'sischilar joylashgan davlati organlari tomonidan nazorat etilmaydi.

Prolongatsiya- o'zaro kelishgan holda sug'urta shartnomasini amal qilish muddatini uzaytirish. Prolongatsiya yozma ko'rinishda tasdiqlanishi mumkin.

Proporsional qayta sug'urtalash- qayta sug'urtalash shartnomasini tuzish shakli. Bu erda qayta sug'urtalash kompaniyasi sug'urta mukofotlarini umumiy tushumidagi va sug'urta koplamlarini to'lashda o'z ulushiga ega. Proporsional qayta sug'urtalash shartnomalari kvotali, eksedentli va kvotag'eksedentli shartnomalarini o'z ichiga oladi.

Risklarni joylashtirish-1) sug'urta manfaati tufayli yuzaga keladigan sug'urtaviy huquqiy munosabatlarning boshlanish jarayoni. Risklarni birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi joylashtirish, teng ravishda sug'urtalash, qayta sug'urtalash va retrotsessiyaga to'g'ri keladi. Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotda risklarni joylashtirish sug'urta vositachilari orqali sug'urta bozorida amalga oshiriladi; 2) sug'urta brokeri yordamida bir vaqtning o'zida yirik va xavfli risklarni qismlarga bo'lib, bir nechta sug'urta kompaniyasida sug'urtalash uslubi. Bir qancha sug'urta kompaniyalari tarkibidan bittasi etakchi sifatida ajralib chiqadi va u sug'urta shartnomasidagi shartlarni ma'qullab, riskning tegishli qismini o'z javobgarligiga oladi. Keyin, broker boshqa sug'urta kompaniyalariga murojaat qilib, riskning qolgan qismini ham joylashtiradi.

Raqobat - sug'urta kompaniyalarining sug'urta bozoridagi o'z ulushini egallashi uchun o'zaro iqtisodiy musobaqasi. Raqobat sug'urtalanuvchi uchun sug'urta kompaniyalarini tanlab olishlarida ko'mak beradi. Raqobat sug'urta xizmatini kengayishida va ularning sifatini oshishida muhim ahamiyatga ega. Bir sug'urta xizmatini ko'rsatayotgan bir necha sug'urta kompaniyalari raqobat sharoitida mijozlarni jalb etish uchun ularga sug'urta shartnomalarini tuzishda, sug'urta mukofotlarini to'lashda va sug'urta qoplamlarini qisqa muddatlarda to'lashda imkoniyat yaratadi.

Retrotsedent- qabul qilib olingan qayta sug'urtalash riskini retrotsessiyaga (ikkinchi qayta sug'urtalash) beruvchi sug'urta yoki qayta sug'urtalovchi kompaniya.

Retrotsessionariy-retrotsedentdan riskni qabul qilib oluvchi qayta sug'urtalovchi kompaniya.

Retrotsessiya- 1) qayta sug'urtalashga ilgari qabul qilib olingan risklarni yana qayta sug'urtalashga berish; 2) risklarni uchlamchi joylashtirish.

Sug'urta portfeli g'sug'urta kompaniyasiga kelib tushgan sug'urta mukofotlarining yig'indisi. Sug'urtalangan ob'ektlar soni, sug'urta

shartnomalarining miqdori ham sug'urta portfeli tushunchasini anglatadi. CHet mamlakatlar sug'urta amaliyotida ushbu ibora ishlab topilgan sug'urta mukofotining hajmi tushunchasiga to'g'ri keladi.

Sug'urta dalolatnomasi - sug'urta xodisasi ro'y berganda sug'urta kompaniyasi tomonidan tuziladigan xujjat. Dalolatnomada molg'mulkning zararlanish yoxud nobud bo'lish sabablari, ko'rilgan zarar miqdori va boshqa ko'rsatkichlar bo'ladi. Dalolatnomaga, zarur hollarda sug'urta hodisasi va molg'mulkning zararlanganligini tasdiqlovchi tegishli tashkilotlarning (yong'inga qarshi kurash, davlat avtomobil nazorati, qishloq xo'jaligi, veterinariya xizmati va boshqalar) yozma hulosasi ilova etiladi. Xalqaro sug'urta munosabatlarida sug'urta dalolatnomasini adjaster tuzadi va mohiyatan avariya sertifikatiga yaqinlashadi.

Sug'urta mukofoti- sug'urta mukofotining miqdori sug'urta summasiga nisbatan foizlarda aniqlanadi. Sug'urta mukofotining miqdori aniq summalarda ham ifodalanishi mumkin. Masalan, avtomobil egalarining uchinchi shaxsga zarar keltirish fuqarolik javobgarligini sug'urtasida sug'urta mukofoti aniq pul birligida ko'rsatiladi.

Sug'urtaviy foyda- sug'urta xizmatining bahosi va tannarxi o'rtasidagi farq. Sug'urtaviy foyda sug'urta operatsiyalarini amalga oshirish natijasida shakllanadi. Sug'urtaviy foyda balans uslubi asosida sug'urta mukofotlari tushumi va sug'urta operatsiyalari tannarxini o'zaro taqqoslash natijasida aniqlanadi. Sug'urta operatsiyalarining tannarxi bu, sug'urta kompaniyasining sug'urta himoyasini ta'minlashga qaratilgan to'g'ri va egri, (shu jumladan zahira fondlariga ajratmalar) xarajatlarning yig'indisidir. Odatda, sug'urta tarifini hisoblashda nettog'stavkaga yuklamada foyda ulushi ham ko'rsatiladi. SHakllanish manbaiga ko'ra, haqiqatdagi sug'urtaviy foyda o'z ichiga quyidagi foyda turlarini oladi: sug'urta summasi zararlik ko'rsatkichini kamaytirishdan olingan foyda, boshqaruv xarajatlarini iqtisod qilish natijasida olingan foyda, investitsiyadan olingan foyda va sug'urta tarifida belgilangan foyda.

Sug'urta puli- sug'urta majburiyatini bajarish hamda sug'urta operatsiyalarini moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmasdan o'zaro kelishgan holda bir qancha sug'urta kompaniyalarining ixtiyoriy uyushmasi. Sug'urta puli, asosan, xavfli, yirik ob'ektlarni sug'urtalash maqsadida tashkil etiladi. Har qaysi kompaniya o'z sug'urtalangan riskni pulga beradi va buning uchun, pul orqali yig'ilgan sug'urta mukofotlarining bir qismini oladi. Olingan sug'urta mukofotlari hajmida sug'urta koplamasini to'lash bo'yicha javobgarlikni o'z zimmlariga oladi. Xorijiy

mamlakatlarda aviatsiya, atom, xarbiy risklarni sug'urtalash uchun sug'urta puli tashkil etilgan.

Sug'urta ob'ekti - shaxsiy sug'urtada fuqarolarning hayoti, sog'ligi, mehnat qobiliyati: mulkiy sug'urtada binolar, qurilmalar, transport vositalari, uy-joy mulki, tashiladigan yuklar va boshqa moddiy boyliklarni saqlash bilan bog'liq manfaatlar; jismoniy yoki yuridik shaxsning o'z hatti-harakati bilan uning shaxsga zarar keltirish fuqarolik mas'uliyati - mas'uliyatni sug'urtalashda sug'urta ob'ektlari bo'lib hisoblanadi. Riskni baholash maqsadida sug'urta ob'ekti sug'urta kompaniyasining mutaxassislari tomonidan ekspertiza qilinishi mumkin.

Sug'urta shartnomasi - ikki tomonlama yozma ravishdagi bitim bo'lib, bunda sug'urta kompaniyasi sug'urta hodisasi tufayli zarar ko'rilganda sug'urtalanuvchiga sug'urta qoplamasi yoki sug'urta summasini to'lash majburiyatini, sug'urtalanuvchi esa belgilangan muddatlarda sug'urta mukofotini to'lash majburiyatini oladi. Sug'urta shartnomasi tuzilganlik faktini tasdiqlash uchun sug'urtalovchi sug'urtalanuvchiga sug'urta polisi beradi. Sug'urta shartnomasini tuzishdagi asosiy, oddiy va qo'shimcha shartlar sug'urta shartnomasining mazmunini tashkil etadi.

Sug'urta - har xil noxush xodisalar ro'y berishi natijasida ko'rilgan zararni qoplash hamda fuqorolarning hayotida tegishli sug'urta xodisalari ro'y berganda ularga moddiy yordam ko'rsatish maqsadida tashkil etiladigan va undan foydalanish bilan bog'liq (maqsadli pul fondlari) iqtisodiy munosabatlar yig'indisi. O'tkazish shartiga qarab, sug'urta majburiy va ixtiyoriy bo'ladi. Ob'ektiga ko'ra, mulkiy, shaxsiy va javobgarlik sug'urtasiga bo'linadi. Sug'urtaning asosini risk tashkil etadi. Sug'urta - bu riskni taqsimlash usulidir.

Sug'urtalanuvchi - qonun asosida yoki ikki tomonlama shartnoma asosida sug'urta kompaniyasi bilan fuqorolik-huquqiy munosabatlarga kiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxs. Sug'urtalanuvchi uchinchi shaxs foydasiga sug'urta shartnomasini tuzishga xaqli. Sug'urtalanuvchi sug'urta mukofotini o'z vaqtida to'lashi shart. Sug'urta shartnomasini tuzish jarayonida sug'urtalanuvchi sug'urta ob'ektiga taalluqli bo'lgan barcha ma'lumotlarni sug'urta kompaniyasiga ma'lum qilishi shart.

Sug'urta qoplamasi - mulkiy sug'urtada va sug'urtalanuvchining uchinchi shaxs oldida fuqarolik javobgarligini sug'urtasida zararni qoplash uchun sug'urta fondidan to'lanadigan pul mablag'i. Sug'urta qoplamasi sug'urta summasiga teng yoki undan kam bo'lishi mumkin. Sug'urta hodisasi ro'y berganlik xolati va shakli bo'yicha adjaster yoki avariya komissarining xulosasi sug'urta kompaniyasi tomonidan sug'urta qoplamasi to'lanishida asos bo'lib xizmat qiladi.

Syurveyer - sug'urtaga tortiladigan mol-mulkni ko'rikdan o'tkazuvchi sug'urta kompaniyasining xodimi. Sug'urta kompaniyasi syurveyerning xulosasi asosida sug'urta shartnomasini tuzish to'g'risida qaror qabul qiladi. CHet el amaliyotida yong'in havfsizligini ta'minlovchi ixtisoslashgan firmalar, mehnat muhofazasi bo'yicha tashkilotlar syurveyer funksiyasini bajaradi.

Franshiza - sug'urta shartnomasi shartlarida ko'zda tutiladigan sug'urtalovchining zararni qoplashdan ozod etiladigan qismi. Franshiza sug'urta summasiga nisbatan foizlarda belgilanadigan shartli va shartsiz franshizalarga bo'linadi. SHartli franshizada sug'urtalovchi belgilangan franshiza summasidan oshmaydigan zararni qoplash javobgarligidan ozod etiladi. Bu holda, agar ko'rilgan zarar miqdori franshiza summasi miqdoridan oshib ketsa, sug'urta kompaniyasi zararni to'liq qoplaydi. SHartsiz franshizada ko'rilgan zarar franshiza summasidan chegirilib qoplanadi.

Fraxt - dengiz yoki havo yo'llari orqali yukni tashishda to'lanadigan haq. Ushbu haq tarif yoki yukni tashish to'g'risidagi shartnoma bo'yicha o'zaro kelishilgan narx asosida to'lanadi. Dengiz sug'urtasida yuklarni tashishda fraxt polisi yoziladi va fraxt qiluvchiga beriladi.

Frontlashtiruvchi kompaniya - boshqa sug'urta kompaniyasining iltimosiga ko'ra, o'z nomidan sug'urta polisi beruvchi sug'urta kompaniyasi. Frontlashtiruvchi sug'urta kompaniyasi qabul qilib olingan riskni yuz foiz miqdorida iltimos qilgan sug'urta kompaniyasi hisobiga o'tkazadi va buning uchun undan komission haq oladi. Hozirgi paytda, O'zbekistonda bir nechta frontlashtiruvchi kompaniyalar faoliyat ko'rsatmoqda. Masalan, "Anglo-Tashkent", "UzAIG" sug'urta kompaniyalari.

Fronting - qabul qilib olingan riskni tegishli komissiya haqi evaziga to'laligicha boshqa sug'urta yoki qayta qayta sug'urtalovchi kompaniyalariga berish.

Sedent - riskni ikkilamchi joylashtirishni amalga oshiruvchi, ya'ni riskni qayta sug'urtalash uchun beruvchi sug'urta kompaniyasi. Ikkilamchi sedent retrotsedent deb ataladi.

Sessiya - 1) sug'urta riskini qayta sug'urtalashga berish jarayoni. Sedent va qayta sug'urtalovchi o'rtasidan huquqiy munosabatlarda ishlatiladi. 2) Xorij amaliyotida sedentning olingan sug'urta mukofoti ma'nosini bildiradi.

SHomaj - sug'urta hodisasi ro'y berishi natijasida ishlab chiqarishni to'xtab qolishi bilan bog'liq foyda olmaslik riskini sug'urtasi.

Ekssedent riski - mazkur toifadagi risk bo'yicha zararni qayta sug'urtalash to'g'risidagi kelishuv.

Ekssedent zarari - noproporsionl qayta sug'urtalash shakli. Bunda sedentga o'z zimmasida ushlab qolingani zarardan oshgan qismi qayta sug'urtalovchi kompaniya tomonidan qoplanadi.

O'zaro sug'urtalash jamiyati - foyda olishni ko'zlamaydigan notijorat shaklidagi sug'urta kompaniyasi. Sug'urta qilishning tashkiliy shakli. O'zlarining mulkiy manfaatlarini sug'urtaviy himoyalash uchun yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy bitim asosida birlashuvi. O'zaro sug'urtalash jamiyati yuridik shaxs hisoblanib, har bir sug'urtalanuvchi ushbu jamiyatning a'zosi bo'ladi. AQSH va YAponiyada asosan, hayot sug'urtasi bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar o'zaro sug'urtalash jamiyati shaklidir. Hozirgi paytda YAponiyada o'zaro sug'urtalash jamiyatlari hayotni sug'urtalash bozorining 89,4%ni tashkil etadi.

2-Mavzu : Sug'urta faoliyatini yuritishning tashkiliy-huquqiy asoslari va ularni davlat ro'yxatidan o'tkazish

REJA:

1. Sug'urta munosabatlarini tartibga solishda huquqning ahamiyati, sug'urta huquqi va uning mazmuni.
2. Sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi asosiy qonunchilik hujjatlari.

1. Sug'urta munosabatlarini tartibga solishda huquqning ahamiyati, sug'urta huquqi va uning mazmuni

Jamiyatda fuqarolar va ularning jamoasi o'z faoliyatlari jarayonida bir-birlari bilan tegishli ijtimoiy munosabatda bo'ladilar. Ushbu munosabatlarni bir qolipga solish uchun ularni tartibga keltirish zarur, ya'ni fuqarolar va tashkilotlarning hatti-harakat qilish doirasini belgilash zarur. Bayon etilganlar to'laligacha sug'urtaga ham taalluqlidir. Sug'urta ijtimoiy-iqtisodiy qonuniyat sifatida huquqiy tomondan mustahkamlanishni talab etadi. Sug'urta fondini tashkil etish va undan foydalanish jarayonida paydo bo'ladigan munosabatlar huquqiy tartibga solinadi.

Sug'urta sohasida vujudga keladigan huquqiy munosabatlar fuqarolik-huquqiy munosabatlar tarkibiga kiradi. Bunday munosabatlar fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqiy holatini, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarning, shartnoma majburiyatlarini, shuningdek mulkiy hamda shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi.

Sugʻurta sohasidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlar quyidagi yoʻnalishlarda namoyon boʻladi:

- fuqarolar va sugʻurta tashkilotlari oʻrtasida shakllanadigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar;
- sugʻurta tashkilotlari oʻrtasida yuzaga keladigan oʻzaro munosabatlar;
- fuqarolar va maxsus davlat organlari oʻrtasida paydo boʻladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar;
- sugʻurta tashkilotlari va maxsus vakolatli davlat organi oʻrtasida paydo boʻladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar.

Fuqarolar va sugʻurta tashkilotlari oʻrtasida paydo boʻladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar tegishli shartnoma qoidalariga asoslanadi. Bunda bir tomondan sugʻurta tashkilotining fuqaro oldida, ikkinchi tomondan fuqaroning sugʻurta tashkiloti oldidagi burch va majburiyatlari paydo boʻladi. YAʼni, tuzilgan shartnomaga koʻra, fuqaro oʻz vaqtida sugʻurta mukofotini toʻlashi shart. Sugʻurta hodisasi roʻy berganda esa, sugʻurta tashkiloti sugʻurta shartnomasida qayd etilgan shart va muddatlarda sugʻurta qoplamasi (summasini) fuqaroga toʻlab berishi lozim. Koʻrinib turibdiki, shartnoma –fuqarolik-huquqiy hujjat sifatida taraflarning oʻzaro munosabatini huquqiy tartibga solyapti.

Sugʻurta tashkilotlarining bir-birlari oʻrtasida paydo boʻladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlari sugʻurta pulini va qayta sugʻurta qilish bilan bogʻliq tuzilgan shartnomalar doirasida shakllanadi. Amaldagi qonun hujjatlariga koʻra, sugʻurta tashkiloti moliyaviy barqarorlikni taʼminlash, binobarin, sugʻurtalanuvchilar oldida oʻz majburiyatini bajarishini taʼminlash maqsadida sugʻurta pulida ishtirok etishi yoxud boshqa sugʻurta tashkilotlari yoki ixtisoslashgan qayta sugʻurta tashkilotlari bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishi mumkin. Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 959-moddasida «sugʻurta shartnomasi boʻyicha sugʻurtalovchi oʻz zimmasiga olgan sugʻurta tovonini yoki sugʻurta pulini toʻlash xavfi uning tomonidan toʻliq yoki qisman boshqa sugʻurtalovchida (sugʻurtalovchilarda) u bilan tuzilgan qayta sugʻurta qilish shartnomasi boʻyicha sugʻurtalanishi mumkin» deb alohida qayd etilgan.

Qayta sugʻurta qilish shartnomasiga nisbatan, agar qayta sugʻurta qilish shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan boʻlsa, Fuqarolik kodeksining tadbirkorlik xavfini sugʻurta qilish borasida qoʻllanishi lozim boʻlgan qoidalari

tatbiq etiladi. Qayta sugʻurta qilish shartnomasini tuzgan sugʻurta shartnomasi (asosiy shartnoma) boʻyicha sugʻurtalovchi keyingi shartnomada sugʻurta qildiruvchi hisoblanadi.

Fuqarolar va maxsus davlat organlari oʻrtasida paydo boʻladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar maxsus vakolatli davlat organining sugʻurtalanuvchilar boʻlgan – fuqarolarning qonuniy manfaatlarini himoya etish bilan bogʻliqdir. Amaliyotda shunday holatlar boʻladiki, sugʻurta tashkiloti sugʻurtalanuvchiga sugʻurta hodisasi tufayli koʻrilgan zararni qoplashdan asossiz voz kechishi mumkin. Bunday paytda oʻz manfaatlarini huquqiy himoya etish maqsadida sugʻurtalanuvchi maxsus vakolatli davlat organiga murojaat etishi mumkin.

Sugʻurta tashkilotlari va maxsus vakolatli davlat organi oʻrtasida paydo boʻladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar qonun hujjatlari asosida tartibga solinadi. Maxsus vakolatli organning sugʻurta tashkilotlariga nisbatan paydo boʻladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlari oʻzbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va «Sugʻurta faoliyati» toʻgʻrisidagi Qonunda oʻz aksini topgan. Maxsus vakolatli davlat organi qonunda belgilangan tartibda sugʻurta tashkilotlarining faoliyatini nazorat etib boradi. Zaruriyat boʻlganda esa, sugʻurtalanuvchilarning manfaatini himoya etish maqsadida undan sugʻurta faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyani chaqirib olish huquqiga ega.

Sugʻurtani huquqiy tartibga solish davlat tomonidan sugʻurta munosabati qatnashchilarining hattigʻharakatini huquqiy normalar vositasida amalga oshiriladi. Jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiy huquqlarini har xil oldindan koʻrib boʻlmaydigan sugʻurtaviy himoya qilish uchun koʻpchilik shaxslar tomonidan tashkil etiladigan maxsus fond hisobidan amalga oshiriladigan sugʻurta faoliyati jarayonida paydo boʻladigan ijtimoiy munosabatlar mavjud. Ushbu munosabatlarni tartibga soladigan normalar yigʻindisiga sugʻurta huquqi deyiladi.

2. Sugʻurta faoliyatini tartibga soluvchi asosiy qonunchilik hujjatlari

Sugʻurta faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini ikki turga boʻlish mumkin:

- sugʻurta faoliyatini tartibga soluvchi maxsus qonunlar;
- sugʻurta faoliyatini tartibga soluvchi umumiy qonunlar

Sugʻurta faoliyatini tartibga soluvchi maxsus qonunlarga Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2002 yilning 5 aprelida qabul qilingan va shu yilning 28 mayida amaliyotga joriy etilgan «Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida»gi Qonuni hamda 2008 yil 21 aprelda qabul qilingan «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurtalash toʻgʻrisida»gi Qonuni, 2009 yil 16 aprelda qabul qilingan «Ish beruvchilarning fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish toʻgʻrisida»gi Qonuni sugʻurta faoliyatini tartibga soluvchi maxsus qonunlar hisoblanadi.

SHuni alohida taʼkidlash zarurki, sugʻurta munosabatlarida ishtirok etuvchi tomonlarning qonuniy manfaatlarini himoya etish maqsadida 1993 yili Oliy Majlis «Sugʻurta toʻgʻrisida» Qonun qabul qilgan edi. Oʻtgan yillar mobaynida mazkur qonunga ikki marta qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritildi. Tabiiyki, bu qonun oʻsha paytda mavjud boʻlgan iqtisodiy jarayonlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan. Boshqacha soʻz bilan aytganda, ushbu qonun sugʻurta munosabatlari qatnashchilari uchun biroz yumshatilgan holatda amal qildi. Jumladan, unda sugʻurta tashkilotlari tugatilgan taqdirda ularning sugʻurtalanuvchilar oldidagi majburiyatini bajarish tartibi toʻliq yoritilmagan. SHuningdek, bu qonunda qonunchilik talablarini buzganlik uchun tomonlarning javobgarligi oʻz aksini topmagan hamda davlat sugʻurta nazorati organining sugʻurta tashkilotlariga nisbatan taʼsir qilish imkoniyati keskin chegaralangan edi.

Bayon etilgan holatlar mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotining hozirgi bosqichi talablarini hisobga olgan holda, amaldagi «Sugʻurta toʻgʻrisida»gi Qonunni yangilash va takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqardi. SHuni eʼtiborga olib, 2002 yilning 4-5 aprel kunlari boʻlib oʻtgan ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning sakkizinchi sessiyasida «Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida»gi yangidan ishlab chiqilgan qonun loyihasi deputatlar tomonidan atroflicha muhokama qilindi va qabul qilindi.

Maʼlumki, sugʻurta sohasini huquqiy tartibga soluvchi 2002 yil aprel oyigacha amalda boʻlgan qonun «Sugʻurta toʻgʻrisida» deb ataladi. holbuki, biz

fikr-mulohaza yuritmoqchi bo'lgan qonunning nomi esa "Sug'urta faoliyati to'g'risida" deyiladi va shubhasiz, bu holat diqqatimizni o'ziga jalb etdi. Ko'pchilik muhtaram talabalarimizda haqli savol tug'ilishi mumkin: sug'urta va sug'urta faoliyati tushunchalari o'rtasida farq bormi? Savolga javoban biz mutaxassislar aytamizki: farq bor. Sug'urtaning mohiyatini oddiy til bilan ifodalaydigan bo'lsak, oldindan ko'rib bo'lmaydigan har xil hodisalar ro'y berishi oqibatida yuridik va jismoniy shaxslar ko'radigan zararlarni sug'urta tashkiloti tomonidan qoplash bilan bog'liq munosabat. SHuni esdan chiqarmaslik lozimki, sug'urta tashkiloti o'z xizmatini mijozlarga tegishli haq - sug'urta mukofoti to'lash evaziga ko'rsatadi. Sug'urtalovchi mijozlardan kelib tushgan sug'urta mukofotlari hisobidan maqsadli pul jamg'armalarini tashkil etadi va bu jamg'arma mablag'lari faqat sug'urta hodisalari tufayli ko'rilgan zararlarni qoplaydi. E'tibor bergan bo'lsangiz, sug'urta munosabatlarida ikkita tomon ishtirok etyapdi: sug'urta tashkiloti (sug'urtalovchi) va yuridik hamda jismoniy shaxslar (sug'urtalanuvchilar). Endi, sug'urta faoliyati tushunchasiga kelsak, qonunda ta'kidlanishicha, u sug'urta bozori professional ishtirokchilarining sug'urtani amalga oshirish bilan bog'liq faoliyati. Sug'urta bozorining professional ishtirokchilari faqatgina sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchidan iborat emas. Unda qayta sug'urtalovchilar, qayta sug'urtalanuvchilar, sug'urta brokerlari va agentlari ham ishtirok etadi.

YAngi qonunning e'tiborga molik tomonlaridan biri, unda, aniqroq aytadigan bo'lsak, uning 4-moddasida sug'urtalovchilarning sug'urtani amalga oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin emasligi qayd etilgan. Qayd etish joizki, sug'urta faoliyati ham tadbirkorlikning bir ko'rinishi. Mamlakatimizda iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonlari kechayotgan va tadbirkorlik harakatlariga keng yo'l ochilayotgan bir paytda, tadbirkorlik tizimining muhim bo'g'inlaridan bo'lgan-sug'urtalovchilar uchun bunday cheklovning qonun yo'li bilan belgilanishiga sabab nima? o'tgan yillar tajribasi shundan dalolat beradiki, ko'pgina sug'urta

tashkilotlari “sug‘urtalovchi” niqobi ostida turli tijorat operatsiyalarini, xususan, savdo-vositachilik ishlarini amalga oshirdilar. YUridik va jismoniy shaxslarni sug‘urta qilish hisobiga kelib tushgan sug‘urta mukofotlari, qoidaga ko‘ra, sug‘urta qoplamalarini to‘lashga mo‘ljallangan zahira jamg‘armalarini tashkil etishga sarflanmasdan, balki sug‘urta faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga sarflangan holatlar ham bo‘lgan. Sug‘urtaning eng asosiy prinsiplaridan biri-sug‘urtalovchilarning o‘z zimmalariga olgan majburiyatlarini bajarishni ta‘minlaydigan sug‘urta zahiralariga ega bo‘lishidir. Taassufki, ba’zi sug‘urtalovchilarimiz, bunday zahiralarini shakllantirmaganliklari oqibatida murakkab moliyaviy holatni boshidan kechirganligi sir emas. Ayniqsa, bu ko‘p ming sonli sug‘urtalanuvchilar uchun noqulay vaziyatni vujudga keltirishi mumkin.

«Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida» Qonunning diqqatga sazovor joylaridan yana biri, uning 10-moddasida sug‘urta tashkilotlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibini aniq ko‘rsatib qo‘yilganligidir. Ma’lumki, qonun hujjatlariga muvofiq, aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etilgan sug‘urta tashkilotlari o‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro‘yxatiga olinganlar. Ammo, uzoq vaqt, aniqrog‘i, 1998 yilning birinchi yarmigacha sug‘urta faoliyatini tartibga solish vakolati berilgan davlat sug‘urta nazorati organining tashkil etilmaganligi va ilgari Adliya vazirligida davlat ro‘yxatiga olingan tashkilotlarning faoliyati hech kim tomonidan nazorat qilinmaganligi oqibatida yangi tashkil etilgan sug‘urta tashkilotlarini davlat ro‘yxatiga olishda muammolar paydo bo‘lgan.

«Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida»gi Qonun 29 ta moddadan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 52-bobi sug‘urtaviy huquqiy munosabatlarga bag‘ishlangan. Unda jami 47 ta modda mavjud. Kodeks sug‘urta tashkilotlari bilan sug‘urtalanuvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solsa, «Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida»gi Qonun sug‘urta tashkilotlari va davlat o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Mustaqillik yillari sug'urta sohasini huquqiy tartibga solishga qaratilgan qator qonunchilik hujjatlari qabul qilindi. Sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi dastlabki "Sug'urta to'g'risida"gi Qonun 1993 yil 6 mayda qabul qilingan. Keyinchalik mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida, sug'urta tizimida yuz bergan o'zgarishlarni hisobga olib, mazkur qonun bekor qilindi va yangi tahrirda "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. 1993-2009 yillar davomida milliy sug'urta tizimi faoliyatini qonuniy tartibga solish bilan bog'liq o'nlab qonunchilik hujjatlari qabul qilindi va ular muntazam takomillashtirilib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyati qonunchilik bazasini shartli ravishda to'rt guruhga ajratish mumkin.

1) Sug'urtalovchilar va boshqa sug'urta bozori professional ishtirokchilarini tuzish, ularning faoliyatini litsenziyalash, yuritish va tugatish hamda sug'urta shartnomalarini imzolash va ijro etilishini ta'minlash bilan bog'liq qonunchilik hujjatlari. Mazkur qonunchilik hujjatlari tarkibiga, birinchi galda, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksini kiritish mumkin. Ushbu kodeksning 52-bobi sug'urtaga bag'ishlangan bo'lib, unda jami 48 ta modda mavjud. Kodeksda mulkiy, shaxsiy sug'urta va zarar etkazganlik uchun javobgarlikni hamda tadbirkorlik xavfini sug'urta qilish bo'yicha shartnomalarni tuzish shartlari bayon etilgan. SHuningdek, sug'urtalashga yo'l qo'yilmaydigan manfaatlar ham kodeksda ko'rsatib o'tilgan. Sug'urtalashga yo'l qo'yilmaydigan manfaatlarga quyidagilar kiradi:

- g'ayriqonuniy manfaatlarni sug'urtalashga yo'l qo'yilmaydi;
- qimor, lotereya va garov o'yinlarida ishtirok etishda ko'riladigshan zararni sug'urtalashga yo'l qo'yilmaydi;
- garovga olinganlarni ozod qilish maqsadida shaxs majburan qilishi mumkin bo'lgan harajatlarni sug'urtalashga yo'l qo'yilmaydi.

Fuqarolik kodeksida majburiy sug'urta va majburiy davlat sug'urtasini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Xususan, majburiy

sug'urta sug'urta qildiruvchining o'z mablag'lari, davlat majburiy sug'urtasi esa Davlat byuyudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi ta'kidlangan.

Kodeksning eng muhim jihati shundaki, unda sug'urta shartnomasining mazmuniga oid normalar mavjud. Masalan, kodeksning 922-moddasida sug'urta shartnomasining muhim shartlari keltirilgan. Sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari ichida 2002 yil 5 aprelda qabul qilingan "Sug'urta faoliyati to'g'risida" gi Qonun muhim o'rin tutadi. Mazkur qonunga 2009 yil 1 oktyabr holatiga qadar qator qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan. Ushbu qonunning muhim tomoni shundaki, unda maxsus vakolatli davlat organining vakolatiga kiruvchi vazifalari bayon etilgan, bundan tashqari, unda sug'urta bozori professional ishtirokchilarini tuzish va davlat ro'yxatidan o'tkazish, sug'urtalovchilarning ustav fondiga o'rnatilgan talablar ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2002 yil 27 noyabrdagi 413-sonli qarori asosida "Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalash to'g'risida Nizom" tasdiqlangan. Nizomda litsenziya talablari va shartlari, litsenziya olish uchun zarur bo'lgan hujjatlar, arizalarni ko'rib chiqish va litsenziya berish yoki litsenziya berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilish kabi masalalar yoritilgan.

Sug'urtalovchining sug'urta faoliyatini litsenziyalashdagi asosiy masalalardan biri amalga oshirilishi rejalashtirilgan sug'urta faoliyatining iqtisodiy asoslanishi hisoblanadi. Asosnomada litsenziya talabgorining sug'urtalash operatsiyalarini rivojlantirish prognozi, ehtimol tutilgan qayta sug'urtalash bitishuvlari va sug'urta zahiralarining hisob-kitob rejasini o'z ichiga oluvchi litsenziyalanayotgan sug'urta klassi bo'yicha biznes-reja ilova qilingan bo'lishi lozim. Maxsus vakolatli davlat organiga da'vogar sug'urtalashning litsenziya talab qilinadigan turlari bo'yicha qoidalarini ham tiaqdim etishi talab qilinadi. Qoidada sug'urtalash ob'ektlari doirasi va sug'urta shartnomasidagi umumiy istisnolar, sug'urta hodisalari ro'yxati belgilanishi zarur. SHuningdek, sug'urta qilish

qoidalarida sugʻurta mukofotlari tariflari, sugʻurtalashning eng koʻp (eng kam) muddati, sugʻurta shartnomalarini tuzish va sugʻurta mukofotlarini toʻlash tartibi, tomonlarning sugʻurta shartnomasi boʻyicha oʻzaro majburiyatlari va sugʻurta shartnomalari boʻyicha toʻlovni rad etishning mumkin boʻlgan holatlari, sugʻurta shartnomasi boʻyicha eʼtirozlarni koʻrib chiqish tartibi ham atroflicha oʻz aksini topgan boʻlishi kerak.

“Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuniga asosan maxsus vakolatli davlat organi sugʻurtalovchining ijro etuvchi organi rahbarlari va bosh buxgalteriga ijro etilishi majburiy boʻlgan malaka talablarini belgilaydi. SHunga muvofiq, Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2008 yil 11 iyundagi 61-son buyrugʻi bilan “Sugʻurtalovchining (sugʻurta brokerining) rahbariga va bosh buxgalteriga qoʻyiladigan malaka talablari toʻgʻrisida”gi Nizom tasdiqlangan. Ushbu Nizom 2008 yil 18 iyunda Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1827-son bilan davlat roʻyxatiga olingan. Nizomga muvofiq sugʻurtalovchi yoki sugʻurta brokeri va bosh buxgalteri lavozimiga tavsiya etilayotgan nomzodlarning hujjatlari Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga ular lavozimga tayinlanishidan oldin malaka talablariga javob berishini oʻrganish nuqtai nazaridan taqdim etiladi. Nizomga asosan sugʻurtalovchining yoki sugʻurta brokerining rahbari quyidagi malaka talablariga javob berishi kerak:

- a) Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim muassasalarida olingan oliy maʼlumotga yoki xʻorijiy davlatlarning taʼlim muassasalarida olingan hamda qonun hujjatlariga muvofiq Oʻzbekiston Respublikasigi oliy maʼlumotga ekvivalent deb tan olingan oliy maʼlumotga ega boʻlishi;
- b) sugʻurta sohasida ikki yildan kam boʻlmagan ish stajiga ega boʻlishi.

Bundan tashqari, sugʻurtalovchi va sugʻurta brokerining bosh buxgalteri quyidagi malaka talablariga mos kelishi shart:

- a) Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim muassasalarida olingan oliy maʼlumotga yoki xorijiy davlatlarning taʼlim muassasalarida olingan hamda qonun hujjatlariga

muvofig O'zbekiston Respublikasigi oliy ma'lumotga ekvivalent deb tan olingan oliy ma'lumotga ega bo'lishi;

b) buxgalter sifatida 3 yildan kam bo'lmagan ish stajiga ega bo'lishi, shundan sug'urta sohasida buxgalter sifatida bir yildan kam bo'lmagan ish stajiga ega bo'lishi kerak.

2) Sug'urtalovchilar uchun prudensial talablarni belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlar.

Sug'urta faoliyatini tartibga solish bilan bog'liq prudensial talablar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2008 yil 22 apreldagi 41-son buyrug'iga muvofig tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008 yil 12 mayda 1806-son bilan davlat ro'yxatidan o'tgan "Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risida Nizom", O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2008 yil 20 noyabrdagi 107-son buyrug'iga binoan tasdiqlangan va Adliya vazirligida 2008 yil 15 dekabrda 1882-son bilan davlat ro'yxatiga olingan "Sug'urtalovchilarning sug'urta zahiralarini to'g'risidagi Nizom" va boshqa shu kabi normativ-huquqiy hujjatlarda o'z ifodasini topgan. Xususan, "Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risida"gi Nizomda sug'urtalovchining alohida tavakkalchiliklar bo'yicha majburiyatlarining yo'l qo'yiladigan eng ko'p miqdori sug'urta zahiralarini va o'z mablag'lari manbalari summasining 20 foizidan oshmasligi shart ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Masalan, sug'urtalovchining sug'urta zahiralarini va o'z mablag'lari miqdori 5,0 mlrd so'mni tashkil etadi. Demak, nizomga asosan sug'urtalovchining alohida tavakkalchiliklar, ya'ni bitta sug'urta shartnomasi doirasida zimmasiga olmoqchi bo'lgan majburiyati 1,0 mlrd so'mdan oshib ketmasligi zarur. Agar sug'urta majburiyati miqdori 1,0 mlrd so'mdan oshib ketsa, u holda sug'urtalovchi oshgan summani qayta sug'urta qilishi shart.

Umumiy sug'urta sohasida yoki faqat qayta sug'urta qilish faoliyatini amalga oshiradigan sug'urtalovchilar uchun majburiyatlarning jami miqdori o'z mablag'lari manbalari summasining 200 foizidan oshib ketmasligi zarur. Bu haqda

“Sug‘urtalovchilar va qayta sug‘urtalovchilarning to‘lov qobiliyati to‘g‘risida”gi Nizomda aniq ko‘rsatib qo‘yilgan. Sug‘urtalovchining o‘z mablag‘lari deganda, ustav fondi, qo‘shimcha kapital, zahira kapitali, taqsimlanmagan foyda va maqsadli tushumlar summalarining yig‘indisi tushuniladi.

Amaldagi qonunchilik hujjatlari bo‘yicha sug‘urtalovchilar yuridik va jismoniy shaxslarni sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha kelib tushgan sug‘urta mukofotlari hisobidan o‘rnatilgan tartibda sug‘urta zahirasi mablag‘lar ajratishi shart. Sug‘urta zahiralarini shakllantirish bo‘yicha talablar va ularni hisob-kitob qilish tartibi “Sug‘urtalovchilarning sug‘urta zahiralarini to‘g‘risida”gi Nizomda qayd etilgan. Sug‘urta zahiralarini har bir sug‘urta turi bo‘yicha sug‘urta to‘lovi to‘lanishi zarur bo‘lgan valyutada shakllantiriladi. Sug‘urtalovchi sug‘urta zahirasi buxgalteriya hisobotini tuzish paytida hisobot davri holatiga sug‘urta faoliyatini amalga oshirish bo‘yicha olingan moliyaviy natijani aniqlashda hisoblaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2008 yil 11 iyuldagi 77-sonli, Davlat soliq qo‘mitasining 2008-3-sonli va Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat qo‘mitasining 2008 yil 26 iyuldagi 13-son qarorlari bilan tasdiqlangan va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008 yil 15 avgustda 1842-son bilan ro‘yxatga olingan “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganligi uchun sug‘urtalovchilarga jarima sanksiyalarini qo‘llash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomda sug‘urtalovchilarga sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun jarima sanksiyalarini qo‘llash tartibi belgilangan. Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 21 maydagi PQ-872-sonli “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan. Mazkur Nizomga muvofiq sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganligi uchun sug‘urtalovchilarga jarima sanksiyalarini qo‘llash to‘g‘risidagi qarorlar sug‘urta faoliyatini tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi maxsus vakolatli davlat organi- O‘zbekiston Respublikasi

Moliya vazirligi tomonidan qabul qilinadi. Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisidagi qonun hujjatlari, sugʻurtalovchilar tomonidan buzganligi uchun ularga sugʻurta faoliyati toʻgʻrisidagi qonun hujjatlariga muvofiq sugʻurtalovchi uchun belgilangan ustav fondi eng kam miqdorining 1,0 foizi miqdorigacha jarima solinadi.

3) Sugʻurta munosabatlari ishtirokchilariga imtiyozlar berish bilan bogʻliq qonunchilik hujjatlari. Bunday toifadagi hujjatlarga Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “2006-2010 yillarda Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatish va sersis sohasi rivojlanishini jadallashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 2006 yil 17 apreldagi PQ-325 son, “2010 yilgacha boʻlgan davrda Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatish va sersis sohasi rivojlanishini jadallashtirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi 2007 yil 21 maydagi PQ-640-son qarorlarini hamda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Sugʻurta xizmatlari bozorini rivojlantirish va yanada isloh qilish boʻyicha chora-tadbirlari toʻgʻrisida” gi 2007 yil 10 apreldagi 618-son Farmoni hamda “Sugʻurta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida” 2008 yil 21 maydagi PQ-872-son Qarori kiradi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “2006-2010 yillarda Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatish va sersis sohasi rivojlanishini jadallashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 2006 yil 17 apreldagi PQ-325-son Qaroriga asosan sugʻurta faoliyatidan olinadigan daromad (foyda) 3 yil muddatga daromad (foyda) soligʻi toʻlashdan ozod etildi. SHuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatish va sersis sohasi rivojlanishini jadallashtirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi 2007 yil 21 maydagi PQ-640 son Qaroriga muvofiq sugʻurta bozori professional ishtirokchilari daromad (foyda) soligʻi toʻlashdan ozod etildi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Sugʻurta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” 2007 yil apreldagi PQ-618 son Qarori mamlakatimizda sugʻurta bozorini yangi pogʻonaga koʻtarilishida muhim ahamiyatga ega boʻldi. Avvalo mazkur farmonga asosan

sugʻurta bozorini rivojlantirish hamda yuridik va jismoniy shaxslarning sugʻurtalashda keng qatnashishini ragʻbatlantirish maqsadida mol-mulkni va hayotni uzoq muddatga sugʻurtalash boʻyicha sugʻurta mukofotlari soliqqa tortilmasligi belgilab qoʻyildi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Sugʻurta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida” 2008 yil 21 maydagi PQ-872- son Qarori asosida sugʻurtalovchilarga soliq imtiyozlari berildi (3-ilova). YA’ni, 2008 yilning 1 iyunidan boshlab uch yil muddatga yuridik va jismoniy shaxslarning sugʻurtalovchilar aksiyalari boʻyyicha dividendlar koʻrinishida olingan daromadlari yuridik shaxslarning foyda soligʻi hamda jismoniy shaxslarning daromad soligʻini tshlashdan ozod qilindi. SHuningdek, sugʻurtalovchilarning dividendlar va foizlar koʻrinishida olingan daromadlari ham yuridik shaxslarning foyda soligʻini toʻlashdan ozod qilindi va soliqdan boʻshagan mablagʻlar respublika hududlarida, birinchi navbatda, qishloq joylarida hududiy boʻlinmalarni, keng tarmoqli agentlik tizimini tashkil qilish, shuningdek, ularning mlddiy-texnika bazasini rivojlantirishga maqsadli yoʻnaltirilishi qarorda qatʼiy belgilab qoʻyildi.

4) Sugʻurtaning ayrim turlarini amalga oshirish tartibini belgilovchi qonunchilik hujjatlari. Sugʻurta faoliyatini tartibga solishga qaratilgan qonunchilik hujjatlarining mazkur guruhiga «Umumiy foydalanishdagi havo, temir yoʻl, ichki suv va avtomobil transporti yoʻlovchilarining majburiy shaxsiy sugʻurtasi toʻgʻrisida» 1993 yil 7 mayda, «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish toʻgʻrisida» 2008 yil 21 aprelda va «Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish toʻgʻrisida» 2009 yil 16 aprelda qabul qilingan qonunlarni kiritish mumkin.

2008 yil 21 aprelda qabul qilingan “Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish toʻgʻrisida”gi Qonun 41 moddadan iborat boʻlib, unda majburiy sugʻurtani amalga oshirishning tartibi va shartlari, xususan, transport vositalari egalarining oʻz fuqarolik javobgarligini

sug'urta qilish majburiyati, majburiy sug'urta shartnomasi, majburiy sug'urta bo'yicha sug'urta tariflarini davlat tomonidan tartibga solish kabi huquqiy normalar o'z aksini topgan. SHuningdek, sug'urta mukofoti, sug'urta mukofoti bo'yicha siylovlar, majburiy sug'urtani amalga oshiruvchi sug'urtalovchilarga qo'yilgan talablar, sug'urta hodisalari sodir bo'lishi natijasida etkazilgan zararlarni qoplash tartibi ham mazkur qonunda yoritib berilgan.

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Transport vositalari egalarining Fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida" 2008 yil 24 iyundagi 141-sonli qaroriga asosan tasdiqlangan. Ushbu qarorda majburiy sug'urtani amalga oshirishning barcha qirralari ko'rsatib o'tilgan.

2009 yil 16 aprelda "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Bu qonunni qabul qilishdan maqsad xodim o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda mehnatda mayib bo'lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog'ligi boshqacha tarzda shikastlanishi natijasida uning hayoti va sog'ligiga etkazilgan zararni qoplash bo'yicha ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish hisoblanadi. Qonunda ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni amalga oshirish shartlari va tartibi, sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta tovonini to'lash kabi huquqiy normalar yoritilgan. SHuningdek, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish sub'ektlarining huquq va majburiyatlari, sug'urtalovchi va annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari ham qonunda aniq bayon etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2009 yil 24 iyunda "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida" 177-sonli qaror qabul qildi. Bu qarorga muvofiq ish beruvchining fuqarolik

javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalari tasdiqlandi. Mazkur qoidalarda ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasini tuzish, o'zgartirish va uning amal qilishini muddatidan oldin to'xtatish tartibi, sug'urta summasi, sug'urta mukofoti va uni to'lash shartlari, shartnomada ishtirok etuvchi tomonlarning huquq va majburiyatlari kabi holatlarni huquqiy tartibga soluvchi jihatlar ko'rsatib o'tilgan

3-Mavzu : Davlat sug'urta nazorati, uning huquqlari va majburiyatlari

REJA:

1. Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning ob'ektiv zarurligi va shakllari.
2. Davlat sug'urta nazorati: uning funktsiya va vazifalari.
3. Sug'urta tashkilotlarining ustav kapitaliga qo'yiladigan talablar.
4. Sug'urta tashkilotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishning zarurligi va uning faoliyatini litsenziyalash tartibi.

1. Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning ob'ektiv zarurligi va shakllari

Sug'urta tashkilotlarining faoliyati boshqa turdagi xujalik sub'ektlari faoliyatidan keskin farq qiladi. Chunki, ular ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlashda va sug'urta hodisalari ro'y berganda etkazilgan zararni qoplash uchun xizmat qiladilar. Bu holat, sug'urtachilar zimmasiga alohida mas'uliyat yuklaydi va shuning uchun, ular davlat tomonidan nazorat ostiga olinmog'i zarurdir.

Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish shakllari. Sugurta faoliyatini davlat tomonidan nazoratga olishni shartli ravishda uchga bulish mumkin (1-chizmaga qarang).

Xorijiy mamlakatlar tajribasining ko'rsatishicha, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarning barchasida sug'urta bozori davlatning vakolatli idoralari tomonidan tartibga solib boriladi.

Masalan, Buyuk britaniyada sug'urta ishini Savdo va sanoat departamenti, Yaponiyada Moliya vazirligining sug'urta bulimi, AQSHda esa maxsus sug'urta komissariatlari nazorat qilib boradi. Davlat, bunday nazorat ishini olib borar ekan,

avvalo, mamlakatning sug'urta sohasiga taalluqli qonunlariga hamda boshqa me'yoriy hujjatlariga asoslanadi. Sug'urta va qayta sug'urtalash kompaniyalari, sug'urtaga ixtisoslashgan vositachilar davlat sug'urta nazoratining ob'ektlari hisoblanadi. Sug'urta bozorini davlat tomonidan tartibga solish turli shakllarda, xususan, maxsus qonunlar qabul qilish, soliq solish, alohida hukumat qarorlari bilan majburiy sug'urtalashni joriy qilish va vakolatli sug'urta nazorati xizmatini tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Sug'urta bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarga litsenziyalar (ruxsatnomalar) berish sug'urta nazorati xizmatining eng asosiy vazifalaridan biridir. Litsenziya (ruxsatnoma) berish jarayonida sug'urta nazorati sug'urtachining bo'lajak faoliyatini dastlabki tekshiruvdan o'tkazadi. YA'ni, nizom jamg'armasi va o'z mablag'larining holati hamda bu mablag'larning tashkilot zimmasidagi majburiyatlariga o'zaro munosabati ko'rib chiqiladi. Sug'urta faoliyatiga litsenziya (ruxsatnoma) berishning zaruriyati sug'urtaning o'z mohiyatidan kelib chiqishini unutmash kerak. Chunki, sug'urta tashkiloti sug'urta hodisasi yuz bergan vaqtda sug'urtalanuvchiga shartnomada ko'rsatilgan mablag'ni o'z vaqtida to'lashi lozim. Sug'urta faoliyatini nazorat qiluvchi organning bu boradagi ishlari nafaqat sug'urtalanuvchilar manfaatiga mos tushadi, balki butun davlatning manfaatlari yo'lida ham xizmat qiladi.

E'tirof etish lozimki, bugungi kunda mamlakatda sug'urta faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziya (ruxsatnoma) berish tartibi ishlab chiqilgan. Sug'urta tashkilotiga beriladigan litsenziya (ruxsatnoma) sug'urtalashning har bir turi yoki bir-biriga yaqin bo'lgan sug'urta turlari guruhlariga uchun beriladi. Chunki, ba'zi sug'urta turlari bo'yicha operatsiyani amalga oshirish sug'urtalovchida etarli darajada moliyaviy mablag'lar bo'lishini talab etadi. Bundan tashqari, sug'urta kompaniyasi ishlab chiqqan biznes-rejada sug'urta tarifi stavkalarini to'g'ri hisoblanishiga alohida e'tiborni qaratish zarur. Negaki, noto'g'ri hisob-kitob qilingan tarif, pirovard natijada, sug'urta tashkilotini moliyaviy barqarorliksizga yoki to'lov qobiliyatini yomonlashuviga olib keladi.

Nazarimizda, faqat sugʻurta kompaniyalarini emas, balki, qayta sugʻurtalashga ixtisoslashgan tashkilotlar va vositachilik idoralarini ham faoliyatini litsenziyalashni kiritilishi katta ahamiyatga ega boʻldi.

Biz mamlakatimizda sugʻurta bozorini davlat tomonidan tartibga solishni tashkil etish va uni takomillashtirish yoʻllari haqida oʻylar ekanmiz, yaqin qoʻshni mamlakatlar, xususan, Rossiya Federatsiyasida bu sohada olib borilayotgan ishlar haqida biroz toʻxtasak, foydadan xoli boʻlmaydi.

Oʻzbekiston Respublikasining “Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida”gi Qonuniga muvofiq, sugʻurta tashkilotlari sugʻurtalanuvchi oldidagi majburiyatini bajara olmay qolganda, davlat sugʻurta nazorati xizmati, mijozlarning manfaatini koʻzda tutadigan choralar koʻrishi kerak. Bozorda koʻplab sugʻurta tashkilotlari faoliyat koʻrsatadi, tabiiyki, bu holat potensial mijozlarni jalb qilish uchun ular oʻrtasidagi raqobatni ham kuchayishiga olib keladi. Natijada, raqobatga bardosh bermagan baʼzi sugʻurta kompaniyalari “sugʻurta maydonidan” chiqib ketadi. Xoʻsh, xalqaro sugʻurta bozorida kuzatilgan yuqoridagidek holat roʻy bermasligi uchun, davlat qanday chora-tadbirlar koʻrishi mumkin?

Birinchidan hukumat oʻzining tegishli nazorat organi orqali, sugʻurta kompaniyalari tomonidan “Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni talablarini qatʼiy bajarilishini, shu jumladan, sugʻurta zahiralarini toʻgʻri joylanishini nazorat qilib borish muhimdir. Ikkinchidan, endi shakllanayotgan Oʻzbekiston sugʻurta bozoriga moliyaviy jihatdan mustahkam xorijiy sugʻurta kompaniyalarining kirib kelishini tartibga solish kerak. Negaki, bu holat mahalliy sugʻurta kompaniyalarining raqobat bardoshligiga salbiy taʼsir koʻrsatib, ularni bankrot boʻlishiga olib kelishi mumkin.

Sugʻurta tashkilotlari oʻz zimmasiga olgan majburiyatlari hajmiga qarab, maʼlum foiz ajratish yoʻli bilan markazlashgan sugʻurta jamgʻarmasini tashkil etsalar, maqsadga muvofiqdir. Ushbu jamgʻarma mablagʻlari qiyin holatga tushib qolgan sugʻurta tashkilotlariga beriladigan yoki ular bankrot deb eʼlon qilinganda majburiyatlarini bajarishi uchun xizmat qiladi. Bizningcha, bu jamgʻarma tashkil

etilajak davlat sug'urta nazorati xizmati tomonidan, sug'urtalovchilar uyushmasi vakillarini jalb qilgan holda boshqarilishi lozim.

2. Davlat sug'urta nazorati: uning funksiya va vazifalari

Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi (keyingi o'rinlarda Davlat inspeksiyasi deb ataladi) sug'urta munosabatlari barcha qatnashchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi hududida sug'urta tashkilotlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat organi hisoblanadi.

Davlat inspeksiyasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining qarorlariga, shuningdek mazkur Nizomga amal qiladi.

Quyidagilar Davlat inspeksiyasining asosiy vazifalari hisoblanadi:

bajarilishi majburiy bo'lgan to'lov layoqati normalarini va ularni aniqlash tartibini, alohida tavakkalchiliklar bo'yicha sug'urtalovchilarning majburiyatlari cheklangan yo'l qo'yiladigan miqdorini hisoblab chiqish metodikasini hamda majburiyatlarning jami miqdorini, sug'urtalovchilarning to'lovga layoqatliligi bo'yicha axborot berish tartibi va muddatlarini belgilash;

sug'urta bozorining professional qatnashchilari tomonidan sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish, to'lovga layoqatlilikning belgilangan normativlarini va ularning moliyaviy barqarorligiga qo'yiladigan boshqa talablarni ta'minlash;

sug'urtalovchilar tomonidan sug'urta zahiralarini mablag'lari shakllantirilishi va joylashtirilishi bo'yicha hisobot yuritish tartibini, hisobotlar tuzishni belgilash;

sug'urtalovchining ijro etuvchi organi rahbariga va bosh buxgalterga qo'yiladigan bajarilishi majburiy bo'lgan malaka talablarini belgilash;

sug'urtalovchilar tomonidan moliyaviy hisobot berilishi shakllari, tartibi va muddatlarini belgilash;

sug'urtalovchilar tomonidan sug'urta zahiralarini hosil qilish va joylashtirish tartibi va shartlarini belgilash;

sug'urtalovchilar tomonidan sug'urta hodisalari boshlanishining oldini olish va ogohlantirish bo'yicha tadbirlar mablag' bilan ta'minlanishi tartibi va shartlarini belgilash;

qonun hujjatlariga muvofiq sug'urta bozori professional qatnashchilarining faoliyatini tekshirish va aniqlangan qonun buzilishlarini bartaraf etish to'g'risida bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berish;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlari litsenziyalari amal qilishini to'liq yoxud sug'urtaning ayrim turlari (darajalari)ga nisbatan to'xtatib turish, shuningdek ularning amal qilishini to'xtatish.

Har bir moliyaviy yil tamom bo'lgandan keyin olti oy o'tgach sug'urta faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish bo'yicha faoliyat to'g'risidagi yillik hisobotlarni, shuningdek moliyaviy yil mobaynida sug'urta bozorining faoliyati to'g'risidagi statistika ma'lumotlarini e'lon qilish;

Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirish. Davlat inspeksiyasi o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

sug'urtalovchilar tomonidan sug'urta faoliyati to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga rioya qilinishini va ularning hisobotlari ishonchliligini, shuningdek ular uchun belgilangan to'lovga layoqatlilik ko'rsatkichlari va moliyaviy barqarorlikning boshqa talablari ta'minlanishini tekshirish;

sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalash; o'z vakolatlari doirasida sug'urtalovchilar ishini metodik ta'minlash;

sug'urtaning majburiy turlari bo'yicha sug'urta qilish qoidalari (shartlari) va sug'urta tariflari belgilash bo'yicha takliflar tayyorlash;

Davlat inspeksiyasi tomonidan tasdiqlangan paytdan boshlab sug'urta munosabatlarining barcha qatnashchilari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarini amalga oshirish bo'yicha normativ hujjatlar va metodik materiallarni ishlab chiqish;

sug'urta faoliyati masalalari bo'yicha qonun hujjatlari loyihalarini ishlab chiqish va ularni ko'rib chiqish uchun vazirlik rahbariyatiga kiritish;

sug'urtalovchilar tugatilgan va qayta tashkil etilgan taqdirda sug'urta qildiruvchilarning manfaatlarini himoya qilish;

respublikada sug'urta faoliyati rivojlanishining holati va tendensiyalarini tahlil qilish;

sug'urta faoliyati bo'yicha mutaxassislarni kasbga tayyorlash va ularni qayta tayyorlashga doir tadbirlarni amalga oshirish, sug'urta faoliyati masalalari bo'yicha seminarlar va konferensiyalar tashkil etish;

ommaviy axborot vositalari orqali sug'urta faoliyati masalalari bo'yicha axborot-tushuntirish ishlari olib borish;

o'z vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha fuqarolarning takliflari va so'rovlarini ko'rib chieish;

noshirlik faoliyatini amalga oshirish.

Davlat inspeksiyasi quyidagi huquqlarga ega:

sug'urtalovchilardan sug'urta faoliyati to'g'risida belgilangan hisobot va ularning moliyaviy ahvoli haqidagi axborotni, shuningdek, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, banklardan (kichik va o'rta korxonalar, mikrofirmalar bundan mustasno), fuqarolardan o'ziga yuklangan funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan axborotni olish;

sug'urtalovchilar tomonidan sug'urta to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat eilish maqsadida sug'urtalovchilar faoliyatini tekshirish, zarurat bo'lsa buning uchun komissiyalar va ishchi guruhlar tashkil etish;

davlat ijro etuvchi organlaridan o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan axborot va statistika hisobotini tekin olish.

Davlat inspeksiyasiga Moliya vazirining taqdimnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadigan boshliq boshchilik qiladi. Davlat inspeksiyasi boshlig'i Davlat inspeksiyasiga yuklangan vazifalarning bajarilishi va inspeksiya tollonidan o'z funksiyalari amalga oshirilishi uchun shaxsan javob beradi.

Sug'urta nazoratini amalga oshirish bo'yicha ishlarni tashkil etishning asosiy masalalari va Davlat inspeksiyasi faoliyatining boshqa masalalari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hay'ati tomonidan ko'rib chiqiladi. Davlat inspeksiyasi o'z ishini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan rejaga muvofiq tashkil etadi. Davlat inspeksiyasi xodimlarining xatti-harakatlari ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

3. Sug'urta tashkilotlarining ustav kapitaliga qo'yiladigan talablar

Sug'urta faoliyatini yuritishda sug'urtalovchilarning xizmati kattadir. Chunki sug'urta ishi ularning asosiy faoliyatidir. Shuning uchun sug'urtalovchi atamasiga quyidagicha tarif beramiz:

Sug'urtalovchi – sug'urta xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan va tegishli litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslar. Tadbirkorlik faoliyatining muhim bo'g'ini. O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta to'voni (sug'urta puli) to'lovini amalga oshirish majburiyatini oluvchi yuridik shaxs sug'urtalovchi deb hisoblanadi.

Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi unsurlardan biri uning ustav kapitalidir. "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonunga muvofiq sug'urta tashkilotlarining ustav kapitalining eng kam miqdori Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 27 noyabrdagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi 413-sonli qaroriga asosan sug'urta tashkilotlari ustav kapitalining eng kam miqdorlari belgilandi (1-jadval)⁵.

Jadval-1

t/r	Sug'urta tarmoqlari	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.05.2008 dagi Qaroriga asosan	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.11.2010 dagi Qaroriga asosan
1	Umumiy sug'urta	750 ming evroga ekvivalent summada	1,5 mln evroga ekvivalent summada
2	Hayotni sug'urta qilish	1 mln evroga ekvivalent summada	2 mln evroga ekvivalent summada
3	Majburiy sug'urta	1,5 mln evroga ekvivalent summada	3 mln evroga ekvivalent summada
4	Faqat qayta sug'urta qilish bo'yicha	4 mln evroga ekvivalent summada	6 mln evroga ekvivalent summada

Jadvalda aks ettirilgan ma'lumotlarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 21 maydagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"⁶gi Qaroriga binoan mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan sug'urta tashkilotlari o'zlarining ustav kapital miqdorlarini 2010 yil 1 yanvargacha Qarordagi ko'rsatilgan ustav kapitalning eng kam miqdoriga etkazishlari shart. Aks holda sug'urtalovchilarining litsenziyalarining amal qilishini belgilangan tartibda to'xtatib turilishi va tugatilishi mumkin. SHuningdek Qarorda quyidagilar bayon etilgan.

Sug'urtalovchilar qimmatli qog'ozlar bozorida investitsion vositachi sifatida professional faoliyatni amalga oshirish huquqiga ega. bunda sug'urtalovchilar tomonidan ko'rsatilgan faoliyat turini amalga oshirish uchun litsenziya talab qilinmaydi.

2008 yil 1 iyundan boshlab uch yil muddatga:

- yuridik va jismoniy shaxslarning sug'urtalovchilar aksiyalari bo'yicha dividendlar ko'rinishida oladigan daromadlari yuridik shaxslar foyda solig'i va jismoniy shaxslarning daromad solig'ini to'lashdan ozod qilinishi;
- sug'urtalovchilarning dividendlar va foizlar ko'rinishida olingan daromadlari yuridik shaxslarning foyda solig'i va jismoniy shaxslarning daromad solig'ini to'lashdan ozod qilingan va soliqlardan bo'shagan mablag'lar respublika hududlarida, birinchi navbatda, qishloq joylarida hududiy bo'linmalarni, keng tarmoqli agentlik

⁵ Manba: O'zbekiston Respublikasi Hukumatining Qarorlari to'plami. 2002 y. 11-son.

⁶ Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 21 maydagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.//Xalq so'zi gazetasi. 2008 yil 22 may.

tizimini tashkil qilish, shuningdek, ularning moddiy-texnik bazasini rivojlantirishga yo‘nalirilishi ko‘zda tutilgan.

4. Sug‘urta tashkilotlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishning zarurligi va uning faoliyatini litsenziyalash tartibi

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunining 15-moddasida sug‘urta faoliyatini litsenziyalash masalalari ko‘rsatib o‘tilgan. Sug‘urtalovchilar va sug‘urta brokerlarining sug‘urta faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda maxsus vakolatli davlat organi beradigan litsenziyalar asosida amalga oshiriladi.

Litsenziya sug‘urtalovchiga hayotni sug‘urta qilish sohasida yoxud umumiy sug‘urta sohasida sug‘urta faoliyatini amalga oshirish uchun beriladi. Hayotni sug‘urta qilish sohasida sug‘urta faoliyatini amalga oshirayotgan sug‘urtalovchi umumiy sug‘urta sohasida sug‘urta faoliyatini amalga oshirishga haqli emas, umumiy sug‘urta sohasining O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan ayrim turlari (klasslari) bundan mustasnodir. Umumiy sug‘urta sohasida sug‘urta faoliyatini amalga oshirayotgan sug‘urtalovchi hayotni sug‘urta qilish sohasida sug‘urta faoliyatini amalga oshirishga haqli emas.

Litsenziyada sug‘urtalovchi amalga oshirishni nazarda tutayotgan sug‘urta turlari (klasslari) ko‘rsatiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlanlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qaroriga asosan sug‘urta faoliyati klassifikatori tasdiqlangan. Unda hayotni sug‘urta qilish tarmog‘i 4 ta klassdan, umumiy sug‘urta tarmog‘i 17 ta klassdan iborat ekanligi ko‘rsatilgan.

Sug‘urtalovchining litsenziyasi amal qilishining to‘xtatib turilishi uning yangi sug‘urta shartnomalari tuzishi taqiqlanishiga, shu jumladan amaldagi sug‘urta shartnomalari uzaytirilishining taqiqlanishiga sabab bo‘ladi. Bunda sug‘urtalovchi ilgari tuzilgan sug‘urta shartnomalari bo‘yicha o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarini belgilangan tartibda bajarishga majburdir. Litsenziyaning amal qilishi tugatilgan kundan e‘tiboran besh kun ichida maxsus vakolatli davlat organi sug‘urtalovchini tugatish to‘g‘risidagi ariza bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sudga murojaat etishi shart.

Sug‘urtalovchining ilgari amal qilgan boshqaruv organlarining vakolatlari to‘xtatib turiladi va maxsus vakolatli davlat organi tomonidan tayinlagan sug‘urtalovchining muvaqqat ma‘muriyatiga o‘tadi. Muvaqqat ma‘muriyat sud qaror chiqargunga

qadar bo'lgan davrda o'z faoliyatini amalga oshiradi. Sug'urtalovchi muvaqqat ma'muriyatining hisoboti maxsus vakolatli davlat organiga hamda sug'urtalovchini tugatish to'g'risida maxsus vakolatli davlat organining arizasi yo'llangan sudga taqdim etiladi. Sug'urtalovchining muvaqqat ma'muriyati o'z faoliyati davrida xarajat operatsiyalarini amalga oshirishga haqli emas, sug'urtalovchining boshqaruv xarajatlari (ma'muriy xarajatlari), sug'urtalovchiga tushayotgan pullarni hisobga yozish va ilgari tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta hodisalari yuz berganda sug'urta tovonini (sug'urta pulini) to'lash bilan bog'liq hollar bundan mustasnodir. Sug'urtalovchi muvaqqat ma'muriyatining ishlash tartibi maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi. Ushbu moddaning qoidalari sug'urtalovchining arizasiga binoan litsenziya bekor qilingan hollarga, shuningdek uning muassislari (ishtirokchilari)ning yoki ta'sis hujjatlarida shunday vakolat berilgan sug'urtalovchining boshqaruv organi qaroriga binoan qayta tashkil etilishi yoxud tugatilishiga taalluqli emas.

Sug'urtalovchilar ustav fondining eng kam miqdori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2002 yil 27 noyabrda qabul qilgan qaroriga ko'ra, sug'urta kompaniyalari ustav kapitaliga talablar qo'yildi⁷.

Sug'urtalovchi ustav fondining kamida to'qson foizi muassislarning pul mablag'laridan shakllantiriladi. Sug'urtalovchining ustav fondini shakllantirish uchun kreditga, garovga olingan mablag'lardan va boshqa jalb qilingan mablag'lardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Sug'urtalovchining ustav fondi litsenziya olinadigan paytga qadar sug'urtalovchining muassislari tomonidan to'langan bo'lishi kerak. Sug'urta kompaniyalari ustav fondining eng kam miqdori: qayta sug'urta qilish faoliyatiga ixtisoslashayotgan sug'urtalovchilar uchun (agar faoliyat mavzusi faqat qayta sug'urta qilish bo'lsa) - 2 mln AQSH dollariga teng summada belgilandi. Majburiy sug'urta faoliyatini amalga oshiruvchi sug'urtalovchilar uchun ustav fondining eng kam miqdori 500 ming AQSH dollariga teng miqdordagi summada belgilandi.

SHuni alohida ta'kidlash joizki, 2007 yil 10 aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 618-sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 618-son qaroriga muvofiq, sug'urta kompaniyalari ustav kapitali eng kam miqdoriga yangi talab o'rnatildi. Qayta sug'urta qilish faoliyatiga ixtisoslashayotgan sug'urtalovchilar uchun (agar

⁷ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 27 noyabrdagi 413-sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori."

faoliyat mavzusi faqat qayta sug'urta qilish bo'lsa) - 3 mln AQSH dollariga teng summada belgilandi. Majburiy sug'urta faoliyatini amalga oshiruvchi sug'urtalovchilar uchun ustav fondining eng kam miqdori 1,0 mln. AQSH dollariga teng miqdordagi summada belgilandi.

Vazirlar Mahkamasining yuqorida ko'rsatib o'tilgan qarori bilan "Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalash to'g'risida Nizom tasdiqlandi. Unga ko'ra, sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalash O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik shaxslar sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya talabgorlari bo'lishlari mumkin. Sug'urtalovchi va sug'urta brokerining sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaning amal qilish muddati, qoidaga ko'ra, cheklanmaydi. Litsenziyaning amal qilishi litsenziya berilgan kundan boshlanadi.

Sug'urta tashkilotlari litsenziya olishlari uchun quyidagi talab va shartlarga javob berishlari zarur:

- O'zbekiston Respublikasining sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya qilish;

- sug'urta faoliyatini amalga oshirishda olingan axborotlarning qonun hujjatlari talablariga muvofiq maxfiylikini ta'minlash;

- litsenziyalovchi organ talabiga ko'ra sug'urta faoliyatini amalga oshirishga doir qonun hujjatlarida belgilangan axborotlarni taqdim etish;

- litsenziya talabgori rahbari oliy ma'lumotga hamda sug'urta sohasida kamida ikki yillik ish stajiga ega bo'lishi kerak;

- litsenziya talabgori (litsenziat) rahbari boshqa sug'urta tashkilotlarida rahbar lavozimini egallashga haqli emas.

a) sug'urtalovchilar uchun:

ustav fondining qonun hujjatlarida belgilangan eng kam miqdorining mavjud bo'lishi;

b) sug'urta brokerlari uchun:

sug'urta brokerining sug'urta faoliyatini amalga oshirishda shartnoma majburiyatlariga rioya etilishini ta'minlash;

sug'urta shartnomasining litsenziat mijozi uchun qulay shartlarda tuzilishi va bajarilishi;

sug'urtalashga doir vositachilik faoliyatini asosiy faoliyat turi sifatida amalga oshirish.

Litsenziya olish uchun sug'urta kompaniyasi litsenziyalovchi organga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

a) sug'urtalovchilar uchun:

yuridik shaxsning nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, uning joylashgan joyi (pochta manzili), bank muassasasining nomi va bankdagi hisob raqami, yuridik shaxs amalga oshirishni mo'ljallayotgan litsenziyalanadigan faoliyat turi hamda ko'rsatib o'tilgan faoliyat turi amalga oshiriladigan muddat ko'rsatilgan litsenziya berish to'g'risida ariza;

yuridik shaxsning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning notarial tasdiqlangan nusxasi;

rahbar to'g'risidagi ma'lumotlar (oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom nusxasi va mehnat daftarchasidan ko'chirma);

litsenziya talabgori tomonidan litsenziya talabgorining arizasi litsenziyalovchi organ tomonidan ko'rib chiqilganligi uchun yig'im to'langanligini tasdiqlovchi hujjat;

ustav fondining belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan ustav kapitali to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar (bank ma'lumotnomasi, mol-mulkni qabul qilish-topshirish dalolatnomalari va boshqa hujjatlar);

sug'urta faoliyatining iqtisodiy asoslanishi, unga sug'urtalash operatsiyalarini rivojlantirish prognozini, ehtimol tutilgan qayta sug'urtalash bitishuvlari rejasini, sug'urta zahiralarning hisob-kitob rejasini o'z ichiga oluvchi litsenziyalanayotgan sug'urta klassi bo'yicha biznes-reja kiradi;

sug'urtalashning litsenziya talab qilinadigan turlari bo'yicha qoidalar (shartlar), litsenziyada quyidagilar bo'ladi: sug'urtalash sub'ektlari doirasini belgilash va sug'urta shartnomasi tuzish bo'yicha cheklashlar, sug'urta ob'ektlarini belgilash, sug'urta hodisalari ro'yxatini belgilash - ushbu holatlar ro'y berganda sug'urtalovchining sug'urta to'lovlari bo'yicha majburiyatlari paydo bo'ladi, (asosiy va qo'shimcha shartlar), olib qo'yish (tavakkalchilarning yoki mol-mukllarni) bunda sug'urtalovchi majburiyatlarni bajarmasdan ozod bo'ladi, sug'urta mukofotlari tariflari (stavkalari), sug'urtalashning eng ko'p (eng kam) muddati, sug'urta shartnomalarini tuzish va sug'urta mukofotlarini to'lash tartibi, tomonlarning sug'urta shartnomasi bo'yicha o'zaro majburiyatlari va sug'urta shartnomalari bo'yicha to'lovni rad etishning mumkin bo'lgan holatlari sug'urta shartnomasi bo'yicha e'tirozlarni ko'rib chiqish tartibi. Qoidalarga sug'urta shartnomalari namunalari ilova qilinishi kerak. Litsenziya talabgori rahbari tomonidan tasdiqlangan sug'urtalash qoidalar (shartlari) ikki nusxada taqdim etiladi, ularning betlari tikilgan va raqamlangan bo'lishi kerak. Faoliyat turi faqat

qayta sug'urta qilishdan iborat bo'lgan litsenziya talabgorlari mazkur bandda ko'rsatib o'tilgan hujjatlarni taqdim etadilar, sug'urtalash qoidalari (shartlari)ga oid xat boshi bundan mustasno.

Ko'rsatib o'tilgan hujjatlar bir nusxada taqdim etiladi.

Litsenziya talabgorining arizasi ko'rib chiqilganligi uchun O'zbekiston Respublikasida belgilangan eng kam oylik ish haqining besh baravari miqdorida yig'im undiriladi. Ariza ko'rib chiqilganligi uchun yig'im summasi litsenziyalovchi organning maxsus hisob raqamiga o'tkaziladi. Litsenziya talabgori berilgan arizadan voz kechgan taqdirda to'langan yig'im summasi qaytarilmaydi.

Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalash ilovada keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi (1-ilovaga qarang). Ilova keltirilgan sxemadan ko'rinib turibdiki, sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalash jarayoni 6 ta bosqichni o'z ichiga olib, dastlab litsenziya talabgori zarur hujjatlarni tayyorlaydi va uni ko'rib chiqish uchun Moliya vazirligiga taqdim etadi. Keyingi bosqichda hujjatlar Moliya vazirligi tomonidan qabul qilinadi va ko'rib chiqish uchun ekspert komissiyaga beriladi. Ekspert komissiyasi taqdim etilgan hujjatlarni batafsil o'rganib chiqib, sug'urtalovchiga yoki sug'urta brokeriga litsenziya berish yoxud litsenziya berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

SHunday qilib xulosa qilish mumkinki, O'zbekistonda sug'urta nazorati davlat organiga yuklatilgan sug'urta faoliyatini litsenziyalash vakolati, pirovardida, barcha sug'urtalanuvchilarning, ya'ni sug'urta kompaniyalari mijozlarining qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Bunday tizimining yaratilganligi nafaqat sug'urtalanuvchilarning, balki davlatning manfaatlariga mos keladi.

4-Mavzu : Sug'urta shartnomalarini tuzish va uni bajarish tartibi

REJA:

1. Sug'urta shartnomasi - sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni huquqiy tartibga soluvchi hujjat shaklida.
2. Yuridik shaxslar bilan shartnomalar tuzish va sug'urta polislarini rasmiylashtirish tartibi.
3. Jismoniy shaxslar bilan shartnomalar tuzish va sug'urta polislarini rasmiylashtirish tartibi.
4. Sug'urta vositachilarining sug'urta faoliyatida tutgan o'rni va ularning huquq-majburiyatlari.
5. Sug'urta vositachilarining faoliyatini davlat tomonidan litsenziyalash tartibi.

1. Sug'urta shartnomasi - sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni huquqiy tartibga soluvchi hujjat shaklida

Sug'urta shartnomasini tuzish shartlari sug'urtalovchi yoxud sug'urtalovchilar birlashmasi tomonidan qabul qilingan, ma'qullangan yoki tasdiqlangan tegishli turdagi sug'urtaning standart qoidalarida belgilab qo'yilishi mumkin. Sug'urta qoidalarida mavjud bo'lgan va sug'urta shartnomasi matniga kiritilmagan shartlar, agar shartnomada shunday qoidalar qo'llanilishi to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan va qoidalarining o'zi shartnoma bilan bitta hujjatda yoki uning orqa tomonida bayon qilingan yoxud unga ilova qilingan bo'lsa, sug'urta qildiruvchi uchun majburiydir. Sug'urta shartnomasi tuzilayotganda sug'urta qildiruvchi va sug'urtalovchi sug'urta qoidalarining ayrim bandlarini o'zgartirish yoki chiqarib tashlash va qoidalarda bo'lmagan bandlarni shartnomaga kiritish to'g'risida kelishishlari mumkin. Sug'urta qildiruvchi o'z manfaatlarini himoya qilib, sug'urta shartnomasida ko'rsatib o'tilgan tegishli turdagi sug'urta qoidalarini, hatto agar bu qoidalar ushbu moddaga ko'ra uning uchun majburiy bo'lmasa ham, vaj qilib keltirishga haqli.

Sug'urta shartnomasi quyidagi hollarda o'z-o'zidan haqiqiy emas:

- shartnoma tuzilayotgan paytda sug'urta ob'ekti mavjud bo'lmasa;
- jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritilgan, jinoyat narsasi hisoblanuvchi yoki musodara qilinishi lozim bo'lgan mol-mulk mulkiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalangan bo'lsa;
- shartnoma bo'yicha g'ayrihuquqiy manfaat sug'urtalangan bo'lsa;
- sug'urta shartnomasida sug'urta hodisasi sifatida yuz berishi ehtimolligi va tasodifiylik belgilari bo'lmagan voqea nazarda tutilgan bo'lsa.

Sug'urta shartnomasi amal qilishining boshlanishi. Sug'urta shartnomasi, agar unda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, sug'urta mukofoti yoki birinchi badal to'langan paytda kuchga kiradi. Agar shartnomada sug'urta amal qilishi boshlanishining boshqacha muddati nazarda tutilmagan bo'lsa, shartnomada shartlashilgan sug'urta sug'urta shartnomasi kuchga kirganidan keyin yuz bergan

sug'urta hodisalariga nisbatan tadbiq etiladi.

Sug'urta shartnomasining amal qilish davrida sug'urta xavfining ortishi oqibatlarini.

Sug'urta shartnomasining amal qilish davrida sug'urta qildiruvchi shartnoma tuzilayotganda sug'urtalovchiga ma'lum qilingan holatlarda yuz bergan, o'ziga ma'lum bo'lgan muhim o'zgarishlar to'g'risida, agar bu o'zgarishlar sug'urta xavfining ortishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa, sug'urtalovchiga darhol xabar qilishi shart. Sug'urta shartnomasida va sug'urta qildiruvchiga berilgan sug'urta qoidalarida aytib qo'yilgan o'zgarishlar muhim deb hisoblanadi. Sug'urta xavfi ortishiga sabab bo'ladigan holatlar to'g'risida xabardor qilingan sug'urtalovchi sug'urta shartnomasining shartlarini o'zgartirishni yoki xavf ortishiga mutanosib ravishda qo'shimcha sug'urta mukofoti to'lashni talab qilishga haqli. Agar sug'urta qildiruvchi sug'urta shartnomasining shartlari o'zgartirilishiga yoki sug'urta mukofotiga qo'shimcha to'lashga e'tiroz bildirsa, sug'urtalovchi shartnomani bekor qilishni talab etishga haqli. Sug'urtalovchi, agar sug'urta xavfi ortishiga sabab bo'ladigan holatlar yo'qolgan bo'lsa, sug'urta shartnomasini bekor qilishni talab etishga haqli emas.

Sug'urta shartnomasining muddatidan ilgari bekor bo'lishi. Sug'urta shartnomasi, agar u kuchga kirganidan keyin sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimoli yo'qolgan va sug'urta xavfining mavjud bo'lishi sug'urta hodisasidan boshqa holatlar bo'yicha tugagan bo'lsa, tuzilgan muddati kelishidan oldin bekor bo'ladi. Quyidagilar shunday holatlar jumlasiga kiradi:

- sug'urtalangan mol-mulkning yuz bergan sug'urta hodisasidan boshqa sabablarga ko'ra nobud bo'lishi;
- tadbirkorlik xavfini yoki ana shu faoliyat bilan bog'liq fuqarolik javobgarlik xavfini sug'urtalagan shaxsning tadbirkorlik faolitini belgilangan tartibda to'xtatishi.

Sug'urta shartnomasi ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan holatlar bo'yicha muddatidan oldin bekor bo'lganda, sug'urtalovchi sug'urta mukofotining bir qismini sug'urta amal qilgan vaqtga mutanosib ravishda olish

huquqiga ega. Sug'urta qildiruvchi, agar voz kechish paytiga kelib sug'urta hodisasining yuz berish ehtimoli ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan holatlar bo'yicha yo'qolmagan bo'lsa, sug'urta shartnomasini bajarishdan istagan paytida voz kechishga haqli. Sug'urta qildiruvchi sug'urta shartnomasidan muddatidan ilgari voz kechgan taqdirda, sug'urtalovchiga to'langan sug'urta mukofoti, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, qaytarib berilmaydi.

2. Yuridik shaxslar bilan shartnomalar tuzish va sug'urta polislarini rasmiylashtirish tartibi

Sug'urta agenti mijoz bilan sug'urta shartnomasini tuzishdan oldin o'ziga ishongan holda harakat qilmog'i lozim. U mijoz bilan uchrashuvga puxta tayyorgarlik ko'rishi, fikrlarini bir joyga jamlashi va kutilishi mumkin bo'lgan savollarga malakali javob berishga tayyor bo'lishi talab etiladi.

Sug'urta agenti yuridik shaxslar bilan shartnomani tuzishda nimalarga e'tibor qaratishi lozim? Sug'urtaning asosiy shartlarining qaysi jihatlarini sug'urta qildiruvchiga ko'proq tushuntirib berishi kerak? Ushbu bo'lim doirasida mana shu savollar yuzasidan fikr yuritamiz.

Dastavval, sug'urta agenti sug'urta shartnomasi tuzishdan oldin bu sug'urta turi sug'urta faoliyatining qaysi klassifikatoriga oid ekanligini yaxshi bilishi talab etiladi. SHuningdek, sug'urta qilish qoidalarini ham chuqur o'zlashtirib olgan bo'lishi shart.

O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid bo'lmagan, mol-mulkka (sug'urta predmeti bo'lgan hamda sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan ko'char va ko'chmas mulk: binolar va inshootlar, savdo uskunalari, jihozlar, orgtexnika, sotiladigan mahsulotlar, maishiy va sanoat texnikalari, tugallanmagan kapital qurilish ob'ektlari, mashina va mexanizmlar, qurilish materiallari va qurilmalar, inventarlar, xom-ashyolar, material va boshqa mol-mulklar) egalik qilish, foydalanish va boshqarish bilan bog'liq mulkiy manfaatlar yuridik shaxs mulkini zarardan, olovdan va tabiiy ofatlardan sug'urta qilish ob'ektlari hisoblanadi.

Yuridik shaxslar mol-mulkini sug'urta qilish sug'urta shartnomasini tuzgan shaxs, ya'ni sug'urta qildiruvchi yoki mulk yuqotilganda yoki zararlanganda

sugʻurta qoplamasi toʻlanishi mumkin boʻlgan sugʻurta shartnomasida koʻrsatilgan boshqa jismoniy yoki yuridik shaxs (naf oluvchi) foydasiga amalga oshiriladi.

Mol-mulkni sugʻurtaga qabul qilish maqsadida baholash yuridik shaxsning buxgalteriya balansidagi maʼlumotlarga asoslangan holda amalga oshiriladi. SHundan soʻng agent sugʻurtaga qabul qilinayotgan mulklarga qanday sugʻurta hodisalari sodir boʻlishi natijasida zararlar etkazilganda sugʻurtalovchi tomonidan qoplanishini tushuntirish zarur. SHartnomada sugʻurta hodisalari deb nomlangan boʻlim boʻlishi mumkin. Unda mol-mulkning jismoniy yuqolishi va shikastlanishidan koʻrilgan toʻgʻridan-toʻgʻri zararlarni quyidagilar natijasida yuzaga kelgan boʻlsa sugʻurtalovchi tomonidan qoplanishi nazarda tutiladi:

yongʻin, portlash, boʻron, dovul, jala, erning koʻchishi, erning choʻkishi, erning siljishi, er osti suvlarining harakati, sel, chaqmoq urishi, zilzila;

doʻl; koʻp qor yogʻishi yoki muzlash; qulfni buzib qilingan ugʻrilik; mashina va mexanizmlarning, qurilish materiallari va qurilmalarning, shuningdek uchuvchi jismlarning qoʻlab tushishi; isitish tizimlari, suv oʻtkazgich va kanalizatsiya tarmoklarining buzilishi; ichki santexnika tizimlarining yorilishi; elektr uskunalar, asboblari va mashinalarning elektr toki taʼsirida ichki zararlanishi; uchinchi shaxslarning qonunga xilof ravshida qasddan sodir etgan hatti-harakatlari.

Sugʻurta agenti shuni yoddan chiqarmasligi zarurki, tomonlarning kelishuviga muvofiq sugʻurtalash bir vaqtning oʻzida yuqorida keltirilgan barcha sugʻurta tavakkalchiliklari boʻyicha yoki boshqa istalgan uygʻunlikda amalga oshirilishi mumkin.

YUridik shaxslar bilan sugʻurta shartnomasini tuzishda agent mijozga albatta qanday hodisalar sodir boʻlganda mol-mulkga etkazilgan zararlar qoplanmasligini tushuntirishi talab etiladi. Sugʻurta shartnomasida bunday hodisalar “umumiy istisnolar” tariqasida keltiriladi. Masalan, yuridik shaxslar mulkini sugʻurta qilish shartnomasi boʻyicha quyidagilar natijasida sodir boʻlgan hodisalar sugʻurta hodisasi hisoblanmaydi:

- sugʻurtalanuvchi, naf oluvchi yoki ular vakillarining korxonada belgilangan yongʻindan xavfli yoki portlovchi narsa hamda buyumlarni saqlash qoidalari, shuningdek alohida mulk turlari bilan muomala qilishda belgilangan boshqa qoidalarni qasddan buzishi;

- oʻz oʻzidan yonish, achish, chirish yoki boshqa tabiiy xususiyatlar;

- mol-mulkning oʻgʻirlanishi, uchinchi shaxslar tomonidan qonunga zid, qasddan sodir etilgan harakatlar natijasida yoʻq qilinishi yoki shikastlanishi, agar

ushbu holat tegishli tashkilotlarga xabar qilinmagan, shuningdek bu tashkilotlar tomonidan ushbu hodisa tasdiqlanmagan bo'lsa;

- kuya, parazit, termit yoki boshqa hashoralar, ko'rinmagan nuqsonlar, tabiiy eskirish, chirish, mog'orlash, ob-havo namligi natijasida keltirilgan shikastlanish, buzilish va zararlar;

- sug'urtalanuvchi yoki ularning vakillariga ma'lum bo'lgan va sug'urtalovchining javobgarligi kuchga kirishidan oldin mavjud bo'lgan mol-mulkning nuqsonlari;

- sug'urtalanuvchi yoki uning vakillari tomonidan sug'urtalangan mol-mulkdan foydalanish qoidalari buzilishi natijasida sodir bo'lgan zararlar;

- doimiy mavjud bo'lgan foydalanish omillari (eskirish, korroziya) ning ta'siri va ob-havo omillari ta'sirida asta-sekin zararlanishlar yoki sug'urtalangan buyumlarning ishlatilmasligi;

- mol-mulkni tashish, shuningdek sug'urta shartnomasida ko'rsatilmagan joyda saqlanishi;

- sug'urta qildiruvchining sug'urtalovchiga zararlangan buyumlarni yoki ularning qoldiqlarini, zararlangan buyumlarning butkul yo'q bo'lib ketgan hollarini istisno qilgan holda taqdim etishdan bosh tortishi;

- sug'urta shartnomasida kayd etilmagan boshqa barcha hodisalar;

- loyixa-smeta hujjatlarida ko'rsatilmagan ishlarning qisman yoki butunlay to'xtatilishidan zararlar;

- ko'rsatilgan mol-mulkka rasman biriktirilmagan va ishlash uchun maxsus o'qitilmagan shaxslar tomonidan mol-mulklardan foydalanish va xizmat ko'rsatish natijasida ko'rilgan zararlar;

- yoqilg'i-moylash materiallari, ximikatlar (kimyoviy moddalardan tayyorlangan moddalar), muzlatish suyuqliklari va boshqa yordamchi materiallarning yuqolishi yoki zararlanishidan ko'rilgan zararlar;

- qurilish texnikasi va transport vositalarining tashqi omillarga bog'liq bo'lmagan ichki buzilishlari natijasida shikastlanishidan ko'rilgan zararlar;

- sug'urta hodisasi sodir bo'lgan vaqtda yoki undan so'ng mulkning o'g'rilanishidan ko'rilgan zararlar;

- loyiha - smeta xujjatlarida ko'zda tutilmagan tajriba va tadqiqot ishlari;

- yadroviy portlash, radiatsiya yoki radioaktiv zaxarlanish ta'siri;

- harbiy harakatlar, manyovrlar yoki boshqa harbiy tadbirlar;

- agar mol-mulkni sug'urta qilish shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, sug'urtalovchi sug'urtalangan mol-mulk davlat

organlarining farmoyishi bilan olib qo'yilishi, musodara qilinishi, rekvizitsiya qilinishi, xatlanishi yoki yo'q qilib tashlanishi oqibatida ko'rilgan zararlar uchun sug'urta qoplamasini to'lashdan ozod qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida ko'rsatilganidek, quyidagi g'ayri qonuniy manfaatlar sug'urtasini amalga oshirish man etiladi:

- har xil o'yinlar, lotereyalar va garov o'ynashdan ko'rilgan zararlarni sug'urtalash amalga oshirilmaydi;
- garovga olingan odamlarni ozod qilish maqsadida shaxsni majburan qilishi mumkin bo'lgan xarajatlarini sug'urtalash amalga oshirilmaydi.

SHuni alohida ta'kidlash lozimki, quyidagi hollarda sug'urtalovchi sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi)ga sug'urta qoplamasi to'lashni rad etishga xaqli:

- sug'urta shartnomasining amal qilishi sug'urta hodisasi ro'y bergunga qadar to'xtatilgan, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 948 va 950 - moddalarida ko'rsatilgan asoslar bo'yicha to'xtatilgan bo'lsa;

- sug'urta shartnomasi O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi yoki boshqa qonunlarga asosan o'z kuchini yo'qotgan bo'lsa;

- sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug'urtalovchiga sug'urta hodisasi yuz berish sabablarini o'rganishga yoki etkazilgan zararlar hajmini aniqlashga to'sqinlik qilganligi sababli shartnoma bekor qilinganda yoki O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi va boshqa qonunlarga asosan sug'urta shartnomasi kuchga ega emasligini e'tirof etish haqida sug'urtalovchiga da'vo berilganda;

- Agar sug'urta hodisasi sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi)ning qasddan qilgan xatti-harakatlari oqibatida yuz bergan bo'lsa, faqatgina bu xatti-harakatlar ular tomonidan o'zlarini zarur vaqtda ximoya qilish maqsadida yoki juda zarur sharoitda qilingan xolatlarni istisno qilgan hollarda sug'urtalovchi sug'urta qoplamasini to'lashdan ozod bo'ladi.

Sug'urta shartnomasini tuzishda agent e'tibor qilish zarur bo'lgan jihatlardan biri mijozga sug'urta puli, sug'urta mukofoti, uni to'lash tartibidir. Har qanday sug'urta shartnomasida bayon etilganlar aniq ko'rsatiladi.

Sug'urta shartnomasi 1 yil muddatga tuzilganda sug'urta tarifi sug'urta ob'ektining tavakkalchilik darajasiga qarab sug'urta kelishilgan sug'urta puliga nisbatan foizlarda belgilanadi. Masalan, yuridik shaxslar mol-mulkini sug'urtalashda tarif stavkasi 0,1% dan 5% gacha miqdorda belgilanishi mumkin. SHartnomaning alohida shartlari, tavakkalchilik darajasi xamda sug'urta muddatiga qarab sug'urta tarifi kamaytirilishi yoki oshirilishi mumkin. Sug'urta shartnomasi bir yildan kam yoki ko'p muddatga tuzilganda sug'urta mukofoti bir

yillik sug'urta to'lovidan sug'urta muddatiga nisbatan mutanosib ravishda belgilanadi. Tomonlarning kelishuviga muvofiq sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta mukofoti sug'urtalovchining hisob-kitob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan yoki sug'urtalovchining kassasiga yoki u tomonidan tayinlangan agentga naqd pul to'lash orqali to'lanishi mumkin. Sug'urta mukofotini to'lash tartibi sug'urta shartnomasida belgilanadi. Misol uchun, sug'urta qildiruvchi sug'urta mukofotini shartnoma tuzilgandan so'ng 3 kun ichida yoki 72 soat mobaynida to'lash shartligi sug'urta shartnomasida ko'rsatiladi. Agar sug'urta shartnomasida boshqa shart belgilanmagan bo'lsa, sug'urta mukofoti to'liq to'lanmagan takdirda, sug'urtalovchining javobgarligi sug'urta mukofotining to'langan qismiga mutanosib ravishda bo'ladi.

Sug'urta shartnomasida sug'urta mukofoti bo'lib-bo'lib, ya'ni ikki va undan ortiq marta to'lanishi ko'rsatilishi mumkin. Sug'urta mukofoti yoki navbatdagi to'lov belgilangan muddatda to'lanmasa, agar sug'urta shartnomasida boshqa shart belgilanmagan bo'lsa, sug'urta shartnomasi o'z-o'zidan kuchini yo'qotadi va buning uchun tomonlarning qo'shimcha istak bildirishlari shart emas. Avval to'langan sug'urta mukofotlari qaytarilmaydi,

Tomonlarning kelishuviga binoan sug'urta shartnomasi 1 yilgacha va undan ko'p muddatga tuzilishi mumkin. Sug'urta shartnomasi, agar unda boshqa shart belgilanmagan bo'lsa, sug'urta mukofoti yoki uning birinchi qismi to'lanishi bilan kuchga kiradi. Sug'urtalovchining javobgarligi, agar sug'urta shartnomasida boshqa shart belgilanmagan bo'lsa, naqd pulli xisob-kitobda sug'urta mukofoti yoki uning birinchi qismi to'lanishi bilan va naqd pulsiz xisob-kitobda sug'urta mukofoti yoki uning birinchi qismi sug'urtalovchining hisob-kitob raqamiga kelib tushgandan so'ng kuchga kiradi.

Sug'urta agentiga sug'urtalovchi tomonidan sug'urta shartnomasini uning nomidan tuzish vakolati berilgan bo'lsa, u holda shartnomani tuzishda agent va sug'urta qildiruvchi o'rtasida quyidagilar to'g'risida bir to'xtamga kelib olinishi kerak:

- sug'urtalash ob'ekti xisoblangan ma'lum mol-mulk yoki boshqa mulkiy manfaatlar haqida;
- sug'urta hodisasining tavsifi xaqida;
- sug'urta pulining miqdori xaqida;
- agar shartnomada sug'urta qoplamasi sug'urta puliga nisbatan kamroq miqdorda to'lash mumkinligi ko'rsatib o'tilgan bo'lsa, sug'urta qoplamasi miqdorini aniqlash tartibi xaqida;

- sugʻurta mukofotining miqdori va uni toʻlash muddati (muddatlari) xaqida;
- shartnomaning amal qilish muddati xaqida.

Mol-mulk sugʻurta shartnomasiga binoan ushbu mol-mulkning saqlanishidan manfaatdor shaxs shartnomani naf oluvchi foydasiga, uning egasi, mol-mulkka boshqa mulkiy xuquqi bor shaxslar, ijarachi, pudratchi, saqllovchi, dallol va boshqalar foydasiga tuzishi mumkin. Sugʻurta qildiruvchi va naf oluvchi sugʻurtalangan mol-mulkning but saqlanishidan manfaatdor boʻlmagan holda tuziladigan sugʻurta shartnomasi xaqiqiy xisoblanmaydi. Naf oluvchi foydasiga tuzilgan sugʻurta shartnomasida, uning ismi yoki nomi koʻrsatilmasligi mumkin. Bunday sugʻurta shartnomasi tuzilganda oq polis (oluvchining ismi-sharifi koʻrsatilmagan polis) beriladi. Bunday shartnoma boʻyicha xaq-xuquqlarni talab qilish uchun sugʻurtalovchiga ushbu polis taqdim etilishi lozim.

Sugʻurtalovchi mol-mulk sugʻurta shartnomasiga koʻra shartnomada shartlashilgan toʻlov (sugʻurta mukofoti) uchun shartnomada koʻrsatilgan hodisa (sugʻurta hodisasi) yuz berganda sugʻurta qildiruvchi yoki boshqa shaxs, shartnoma kimning foydasiga tuzilgan boʻlsa oʻsha shaxs (naf oluvchi)ga, sugʻurtalangan mol-mulkka ushbu hodisa natijasida etkazilgan zararlar yoki sugʻurta qildiruvchining mulkiy manfaatlari bilan bogʻliq zararlar (sugʻurta qoplamasini toʻlash) uchun shartnomada belgilangan pul (sugʻurta puli) chegarasida toʻlaydi.

Sugʻurta shartnomasi yozma ravishda, bitta xujjat tuzish bilan yoki sugʻurta qildiruvchining yozma yoki ogʻzaki arizasiga binoan sugʻurtalovchi imzolagan sugʻurta polisini sugʻurta qildiruvchiga berish orqali amalga oshiriladi. Tomonlarning kelishuviga koʻra shartnomaga boshqa shartlar kiritilishi mumkin. Agar sugʻurta shartnomasida Sugʻurta qildiruvchining holatini qonunda belgilangan holatga koʻra yomonlashtiruvchi shartlar mavjud boʻlsa, shartnomaning bunday shartlari oʻrniga qonunchilikning mos qoidalari qoʻllaniladi. Sugʻurta shartnomasini tuzish vaqtida sugʻurta qildiruvchi va sugʻurtalovchi ayrim sugʻurtalash qoidalarini oʻzgartirish yoki olib tashlash yoxud shartnomaga sugʻurtalash qoidalarda boʻlmagan shartlarni kiritish haqida kelishib olishlari mumkin.

Sugʻurta shartnomasini tuzish vaqtida sugʻurta qildiruvchi sugʻurtalash obʻektiga doir tuzilgan yoki tuzilishi mumkin boʻlgan boshqa barcha sugʻurta shartnomalari haqida hamda maʼlum boʻlgan sugʻurta hodisasining sodir boʻlish extimolini va uning sodir boʻlishidan koʻrilishi mumkin boʻlgan zarar xajmini aniqlashda ahamiyatga ega boʻlgan barcha shartlar xaqida sugʻurtalovchiga

ma'lum qilishi kerak. Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta shartnomasi(polisi)ning standart shaklida ko'rsatilgan holatlar ahamiyatli holatlar xisoblanadi.

Agar mol-mulk sug'urta qiymatining bir qismi miqdorida sug'urta qilingan bo'lsa, sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) qo'shimcha sug'urtalashni amalga oshirish huquqiga ega, shu jumladan boshqa sug'urtalovchida, lekin bunda barcha tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha umumiy sug'urta puli sug'urta qiymatidan oshmasligi kerak. Sug'urta shartnomasi sug'urta qiymatidan oshiqcha sug'urta puliga nisbatan kuchga ega emas. Bu holda ortiqcha to'langan sug'urta mukofoti qaytarilmaydi.

Agar sug'urta shartnomasida sug'urta puli sug'urta qiymatidan kamroq qilib belgilangan bo'lsa, sug'urtalovchi sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta qildiruvchi (nafdor shaxs)ga u ko'rgan zararlarni sug'urta pulining sug'urta qiymatiga nisbatiga mutanosib ravishda qoplashi shart. Barcha hollarda shartnoma bo'yicha sug'urtalovchining javobgarligi sug'urta pulidan ko'p bo'lishi mumkin emas. Mol-mulk sug'urtasi shartnomasini tuzgan sug'urta qildiruvchi vafot etganda, uning xuquq va majburiyatlari shu mulkni meros bo'yicha olgan shaxsga o'tadi. Boshqa barcha mulkiy xuquqlarning yangi mulkdorga o'tishi holatlarida, agar shartnoma yoki qonunda boshqa shart belgilanmagan bo'lsa, sug'urta qildiruvchining huquq va majburiyatlari sug'urtalovchining roziligi bilan yangi mulkdorga o'tadi.

Agar shartnomada boshqa shart belgilanmagan bo'lsa, sug'urta polisi sug'urta qildiruvchiga naqd pulli xisob-kitobda sug'urta mukofoti to'lanishi bilanoq yoki naqd pulsiz xisob-kitobda sug'urtalovchining hisob-kitob raqamiga pul kelib tushgan kundan co'ng 3 bank ish kuni ichida beriladi.

Har ikkala tomon xoxlagan vaqtda sug'urta shartnomasini bekor qilish huquqiga ega, unda mo'ljallangan bekor qilish muddatidan 30 kun oldin ikkinchi tomon so'nggi manzili bo'yicha yozma ravishda ogoxlantirilishi lozim. Sug'urta shartnomasining amal qilishi quyidagi xollarda to'xtatiladi:

- muddati tugaganda;
- sug'urtalovchi shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq bajarganda;
- bir tomonning talabiga binoan shartnoma bekor qilinganda;
- sug'urta qildiruvchining talabiga binoan sug'urtalovchi tomonidan sug'urta qoidalariga amal qilinmaganda;
- yuridik shaxs – sug'urta qildiruvchining yoki sug'urtalovchining faoliyati O'zbekistan Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'xtatilganda;

- jismoniy shaxs – sugʻurta qildiruvchi vafot etganda, agar uchinchi shaxs sugʻurta qildiruvchining majburiyatlarini bajarishni oʻz zimmasiga olmasa;
- sud qaroriga binoan sugʻurta shartnomasi haqiqiy emas deb topilganda;
- Oʻzbekiston Respublikasining qonun xujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

Agar sugʻurta shartnomasi kuchga kirgandan soʻng sugʻurta hodisasining yuz berish extimoli yoʻqqa chiqsa va sugʻurta tavakkalchiligi sugʻurta hodisasidan boshqa sabablarga koʻra mavjud boʻlmay qolsa, masalan, sugʻurtalangan mol-mulk sugʻurta hodisasidan oʻzga sabablar tufayli nobud boʻlsa sugʻurta shartnomasi muddati tugamasdan oldin toʻxtatiladi. Bu xolda sugʻurtalovchi sugʻurta mukofotining sugʻurta shartnomasi amalda boʻlgan vaqtga mutanosib boʻlgan qismini olish huquqiga ega. Sugʻurta shartnomasidan sugʻurta qildiruvchi (naf oluvchi)ning muddatidan ilgari voz kechishi natijasida sugʻurtalovchiga toʻlangan sugʻurta mukofoti agarda shartnomada boshqacha shart nazarda tutilmagan boʻlsa qaytarilmaydi. Agar sugʻurta qildiruvchining yolgʻon maʼlumotlari asosida sugʻurta shartnomasidagi sugʻurta puli oshirilgan boʻlsa, sugʻurtalovchi sugʻurta shartnomasi bekor qilinishi va etkazilgan zararlarni qoplash maqsadida sugʻurta qildiruvchi tomonidan toʻlangan sugʻurta mukofoti miqdoridan koʻproq miqdorda toʻlov talab qilish huquqiga ega. Agar sugʻurta shartnomasi tuzilganidan soʻng sugʻurtalovchiga sugʻurta qildiruvchi tomonidan mavjud shart-sharoit xaqida ataylab yolgʻon maʼlumotlar berilgani maʼlum boʻlsa, sugʻurtalovchi shartnomani bekor qilinishini talab qilish xuquqiga ega.

Sugʻurta agenti mijoz bilan sugʻurta shartnomasini rasmiylashtirishda tomonlarning huquq va majburiyatlarini, ayniqsa mijozning huquq va majburiyatlarini atroflicha tushuntirishi kerak.

SHartnomadaga muvofiq sugʻurta qildiruvchi quyidagi xuquqlarga ega boʻlishi mumkin:

- sugʻurtaning amal qilish muddati davomida sugʻurta masalalari boʻyicha sugʻurtalovchidan maslahatlar olish;
- sugʻurta hodisasi yuz berganda sugʻurtalovchidan sugʻurta qoplamasi olish;
- sugʻurta hodisasi yuz berganda mustaqil ekspertiza oʻtkazilishini talab qilish;
- barcha mulkini va alohida obʼektlarni qoʻshimcha sugʻurta qilish.
- sugʻurtalovchi bilan kelishgan xolda sugʻurta shartnomasiga qoʻshimcha va/yoki oʻzgartirishlar kiritish.

-shartnomani sug'urtalovchini ogohlantirish sharti bilan muddatidan avval bekor qilish.

SHu bilan bir qatorda sug'urta qildiruvchi quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

-sug'urta shartnomasida belgilangan muddatlarda sug'urta mukofotini to'lash;

-sug'urta ob'ekti haqida sug'urtalovchiga to'liq va aniq ma'lumotlar berish;

-sug'urta ob'ektini ko'rib chiqishga imkoniyat yaratish;

-sug'urtalovchiga tavakkalchilikdagi sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lgan taqdirda darhol xabar berish, masalan quyidagilar xaqida:

■ sug'urtalangan ob'ektni boshqa shaxs ixtiyoriga o'tishi, mulkni garovga yoki ijaraga berilgani haqida (sotib oluvchi, garovga oluvchi yoki ijarachining nomi va manzilini ko'rsatgan holda);

■ mol-mulk joylashgan o'rnining o'zgargani, inshootni qayta jihozlash, qayta qurish yoki ularni boshqa maqsadlarda ishlatilishi xaqida;

■ ishlab chiqarish ishlarining to'xtatilgani yoki faoliyati o'zgargani xaqida;

■ mol-mulkning nobud bo'lishi yoki zararlangani xaqida, zararlar qoplanishi mumkin yoki mumkinmasligidan qat'iy nazar;

■ sug'urtalangan binoda yoki unga aloqador bo'lmagan yaqin joyda yong'indan xavfli, portlovchi yoki boshqa narsalarning saqlanishi xaqida;

■ sug'urta qildiruvchi talabga ko'ra sodir bo'lgan hodisa xaqida tegishli davlat organlariga darhol xabar berish shart. Sodir bo'lgan voqea yuzasidan jinoiy ish qo'zg'atilganligi, to'xtatilganligi yoki ishning sudga oshirilganligi xaqida tergov organlari tomonidan tasdiqlangan qarorlarning nusxasini sug'urtalovchiga taqdim etishi zarur;

Sug'urta qildiruvchi sug'urtalovchiga zararlangan mol-mulkni ko'zdan kechirish uchun imkoniyat yaratish yoki mol-mulkning zararlangan qismlarini suratga yoki videotasvirga olib berishda amaliy ko'mak berishi lozim.

Sug'urtalangan mol-mulkning sharoitini shartnomaning amal qilish muddati davomida hamda sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urtalangan mol-mulk haqida taqdim etilgan ma'lumotlarni tekshirishga sug'urtalovchiga imkoniyat yaratish.

SHartnomada sug'urtalovchining huquqlari ham ko'rsatiladi. Ular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

-sug'urta shartnomasining amal qilish muddati davomida sug'urtalangan mol-mulkning axvoli va qiymatini hamda sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urtalangan mol-mulk haqida taqdim etilgan ma'lumotlar to'g'riligini tekshirish;

-sug'urta hodisasi yuz bergani xaqida sug'urta qildiruvchining xabar berishini kutmasdan sug'urta hodisalari oqibatida etkazilgan zararlarni ko'rib chiqish va baholashni boshlash;

-sug'urta hodisasi yuz berganda tavakkalchilik darajasini ifodalovchi qo'shimcha hujjatlarni talab qilish;

-sug'urta hodisasi sodir bo'lgani va uning kelib chiqish sabablarini tasdiqlovchi kerakli xujjatlar va to'liq ma'lumotga ega bo'lmagunga qadar hamda voqea yuzasidan jinoiy ish qo'zg'atilganida tegishli tashkilotlar tomonidan tegishli qaror qabul qilingunga qadar sug'urta qoplamasi to'lashni keyinga surish;

-sug'urta tavakkalchiligining darajasi oshishiga olib keladigan sabablar haqida ogoxlantirilgan taqdirda sug'urta shartlarini o'zgartiri;

-sug'urta hodisasini yuz berish ehtimolini kamaytirishga qaratilgan ogohlantiruv tadbirlarini o'tkazish va tegishli mablag'lar bilan ta'minlash.

Sug'urtalovchining majburiyatlari doirasiga quyidagilar kiradi:

-sug'urta shartnomasida belgilangan muddatda sug'urta polisini berish va sug'urta shartnomasi tuzishda asoslanilgan sug'urta qoidalari bilan tanishtirish;

-sug'urta shartnomasida belgilangan sug'urta hodisasi yuz berganini tan olganidan va kerakli barcha ma'lumotlarga ega bo'lganidan so'ng sug'urta qoplamasi to'lash muddatlari har bir alohida sug'urta shartnomasi shartlardan kelib chiqqan holda belgilanadi;

-sug'urta qoplamasi to'lanmaydigan bo'lsa, to'lamaslik haqida qaror qabul qilinganidan boshlab 15 kun mobaynida sug'urta qildiruvchini xabardor qilish;

-sug'urta qildiruvchi, naf oluvchilar bilan munosabatlardagi maxfiylikni ta'minlash.

3. Jismoniy shaxslar bilan shartnomalar tuzish va sug'urta polislarini rasmiylashtirish tartibi

Fuqarolarga tegishli mulklarni sug'urta qilish bo'yicha shartnoma tuzish ularga o'rnatilgan shakldagi sug'urta polisini berish orqali rasmiylashtiriladi. Bu erda mulklarning turi (uy mulki, uy-joy, hayvonlar, transport vositasi (kasko), avtomobilning o'zini, haydovchisini va yukni birgalikda sug'urta qilish (avto-kombi)) e'tiborga olinadi.

Sug'urta polisi nusxa oluvchi qog'oz asosida aniq va ko'zda tutilgan barcha ma'lumotlarni ko'rsatgan holda to'ldiriladi. Moboda, polisda qaysidir grafa to'ldirilmasdan qolsa, u holda o'sha joyga chiziqcha qo'yiladi. Polisi rasmiylashtirish chog'ida unga tuzatishlar kiritish, sug'urta qildiruvchining ismi va familiyasini qisqartirilgan holda yozishga yo'l qo'yilmaydi. Agar sug'urta polisini

yozishda xatoliklarga yo‘l qo‘yilsa, u holda unga “buzilgan” degan yozuv yoziladi va uning o‘rniga yangi blanka to‘ldiriladi hamda buzilgan polis sug‘urta agentining hisobotiga tikiladi va sug‘urtalovchiga topshiriladi.

Sug‘urta qildiruvchining sug‘urtalangan transport vositasi o‘rniga boshqa transport vositasini olgan taqdirda sug‘urta shartnomasi qaytadan tuziladigan bo‘lsa, bunday holatda sug‘urta qildiruvchiga o‘rnatilgan tartibda to‘ldirilgan yangi sug‘urta polisi beriladi. Eski sug‘urta polisini sug‘urta qildiruvchi sug‘urta agentiga qaytarishi shart. Sug‘urta agenti o‘z navbatida sug‘urta qildiruvchi qaytarib bergan sug‘urta polisini va yangidan rasmiylashtirigan sug‘urta polisining nusxasini sug‘urtalovchiga topshiradi. Bunday holatlarda yangidan berilgan sug‘urta polislarida oldingi polisning raqami, uni amal qilish muddati hamda sug‘urta qilingan transport vositasining turi va markasi ko‘rsatilgan holda “Qayta rasmiylashtirilgan” deb belgi qo‘yiladi.

Sug‘urta shartnomasi amalda bo‘lgan davrda sug‘urta qildiruvchi sug‘urta polisini yo‘qotib qo‘ysa, uning yozma arizasiga asosan unga sug‘urta polisning dublikati beriladi. Dublikat sug‘urtalovchida saqlanayotgan sug‘urta agentining hisobotidagi yo‘qotilgan sug‘urta polisi nusxasi asosida rasmiylashtiradi. Dublikatga quyidagi yozuv yozib qo‘yiladi: “_____ seriyali_____ - raqamli yo‘qotilgan sug‘urta polisi o‘rniga berildi”.

Sug‘urta polisi sug‘urta qildiruvchiga, agar u sug‘urta mukofotini naqd pul bilan to‘lasa, sug‘urta shartnomasi tuzilishi bilanoq beriladi. Agar sug‘urta mukofoti naqd pulsiz shaklda to‘lanadigan bo‘lsa, sug‘urta polisi sug‘urta mukofoti sug‘urtalovchining hisob raqamiga kelib tushgandan so‘ng 3 kundan kechiktirmasdan sug‘urta qildiruvchiga beriladi.

Fuqaroning hohishiga ko‘ra mulkiy sug‘urta shartnomasi, sug‘urta mukofotini, nafaqat naqd pul to‘lash, balki, naqd pulsiz shaklda, ya‘ni sug‘urta qildiruvchining ish joyi buxgalteriya orqali yoxud hisob raqamidan pul o‘tkazish yo‘li bilan tuzilishi mumkin. Bunday sug‘urta shartnomasini tuzish quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

Sug‘urta qildiruvchi fuqaro belgilangan shakldagi blankada o‘zi mehnat qilayotgan korxona yoki tashkilot buxgalteriyasiga uning nomiga hisoblangan ish haqidan sug‘urta mukofotini to‘lashni ko‘rsatgan holda yozma topshiriqnoma beradi. Topshiriqnomada fuqaroga tegishli mulkning turi, sug‘urta to‘lovi miqdori va sug‘urta qildiruvchining qaysi oydagi oylik ish haqidan sug‘urta mukofoti to‘lash uchun pulni ushlab qolish lozimligi aniq bayon etiladi. Sug‘urta qildiruvchining topshirig‘iga muvofiq u ishlayotgan tashkilot buxgalteriyasi uning

oylik ish haqidan sug'urta mukofotini ushlab qolishi va bu mablag'ni sug'urtalovchining hisob raqamiga o'tkazishga majburdir.

Agar qandaydir sababga ko'ra sug'urta qildiruvchi o'z mulkini sug'urta qilish bo'yicha shartnomani tuzish to'g'risidagi qarorini o'zgartirsa, sug'urta mukofoti to'langunga qadar tashkilot buxgalteriyasiga topshiriqni bekor qilish bo'yicha yozma topshiriq berishi mumkin.

Sug'urta agenti o'zi rasmiylashtirgan sug'urta polislari va boshqa hujjatlarning to'g'riligini tekshirish (tarif stavkalarini qo'llanilishi, sug'urta mukofotini hisoblanishi va boshqalar) uchun ularni sug'urtalovchiga taqdim etishi mumkin. Hujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilganligini ko'zdan kechirish, bevosita, sug'urta agenti ishtirokida amalga oshiriladi. Agar tekshirish natijasida hujjatlarni rasmiylashtirish bo'yicha kamchiliklar aniqlansa, ularni zudlik bilan bartaraf etish choralari ko'riladi.

Sug'urta agenti sug'urta qildiruvchi fuqarolar ishlayotgan tashkilot buxgalteriyasida u tomonidan topshirilgan topshiriq ro'yxat nusxasida zaruriy qaydlar amalga oshirilganligini tekshirish shart. YA'ni, ushlab qolingani va o'tkazilgan sug'urta mukofotlari umumiy summasi to'g'risidagi ma'lumotnoma to'ldirilganligi, sug'urta mukofotini oylik ish haqidan ushlab qolish bo'yicha topshiriq bergan barcha sug'urta qildiruvchilar uchun hisoblangan sug'urta mukofoti sug'urtalovchi hisob raqamiga to'liq ko'chirilganligi va pul ko'chirishni amalga oshirgan buxgalterning imzosi mavjudligi tekshirib ko'riladi. Moboda, u yoki bu fuqaro uchun sug'urta mukofoti summasi ko'chirilmagan bo'lsa, uning sabablari ko'rsatiladi (masalan, "ishdan bo'shagan", "ish haqi hisoblanmagan", "topshiriq bekor qilingan").

Sug'urtalovchining hisob raqamiga sug'urta mukofoti kelib tushgandan va sug'urta agenti tomonidan sug'urta qildiruvchilar mehnat qilayotgan tashkilot buxgalteriyasidan topshiriqnomalar ro'yxati nusxasi olingandan so'ng sug'urta polislari shartnomaning amal qilish muddati va sug'urta mukofoti to'langan sana ko'rsatilgan holda to'liq rasmiylashtiriladi. Sug'urta polisini sug'urta qildiruvchiga topshirish kuni polis berilgan sana sifatida qayd etiladi.

Topshiriqnoma bergan fuqaro uchun sug'urta mukofoti to'lanmagan taqdirda bu shaxs uchun sug'urta shartnomasi tuzilmagan hisoblanadi.

Agar fuqaro mulkini sug'urta qilish bo'yicha shartnoma sug'urta mukofotini naqd pulsiz shaklda to'lash va sug'urta polisini taqdim etish bilan bir vaqtning o'zida sug'urta mukofotlarini to'langanligi to'g'risidagi topshiriqnoma olingan bo'lsada, ammo sug'urta mukofoti haqiqatda pul ko'chirish yo'li bilan o'tkazilmagan bo'lsa, u holda sug'urta polisining nusxasiga tegishli

ma'lumot qayd etiladi. Bundan tashqari, sug'urta agenti sug'urta mukofoti to'lamagan shaxsga berilgan sug'urta polisini qaytarib olishi va uni sug'urtalovchiga topshirishi shart.

Sug'urta mukofotini naqd pulsiz shaklda to'lash yo'li bilan fuqaroga tegishli mulkni sug'urta qilish bo'yicha shartnoma tuzilayotganda sug'urta agenti mazkur sug'urta turining ixtiyoriylik tamoyiliga asoslanishiga qat'iy rioya etishi lozim. Sug'urta mukofotini oylik ish haqi hisobidan to'lash to'g'risidagi topshiriqnoma sug'urta qildiruvchi tomonidan shaxsan imzolanishi lozim.

Sug'urta polisi sug'urta mukofotini oylik ish haqidan to'lash bo'yicha topshiriqnoma bergan fuqaroning oila a'zolaridan birining nomiga ham yozilishi mumkin, ammo bu haqda to'lov topshiriqnomasida tegishli yozuv qayd etilgan bo'lishi zarur. Sug'urtalovchining jismoniy shaxslar mol-mulkini sug'urta qilish qoidalarida mulkni ko'rikdan o'tkazib, keyin sug'urtaga qabul qilish zarurligi ko'rsatilgan bo'lsa, u holda sug'urta agenti bu qoidagi rioya etishi kerak.

Sug'urta shartnomasi qaysi muddatga tuzilgan bo'lsa, shartnoma kuchga kirgan sanadan to u amalda bo'lgan sanagacha davom etadi, ya'ni kuchga kirgan sanadan bir kun oldin tugaydi. Masalan, sug'urta shartnomasi 1 yil muddatga tuzildi va 2008 yil 5 oktyabrda kuchga kirdi. Uning amal qilish muddati 2009 yil 4 oktyabrda tugaydi. Bayon etilgan mazkur tartib ilk marta tuzilayotgan sug'urta shartnomalari yoki oldin tuzilgan va amal qilish muddati tugagandan so'ng yangi muddatga rasmiylashtirilayotgan shartnomalar uchun qo'llaniladi. SHuningdek, bunday tartib sug'urta summasi miqdori oshishi bilan bog'liq qo'shimcha shartnomalarni imzolashda ham qo'llaniladi.

Transport vositasini sug'urta qilishda sug'urta shartnomasi, agar bu transport vositasi avtosalondan sotib olinayotgan bo'lsa shu zahoti shartnoma rasmiylashtiriladi, ammo uning kuchga kirishi transport vositasini haqiqatda olgan kundan boshlanadi. Hayvonlar kasalliklardan nobud bo'lgan holatda sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lash majburiyati sug'urta shartnomasi kuchga kirgandan so'ng 10 kundan keyin boshlanadi. Masalan, 15 yanvarda sug'urta mukofotini naqd pul to'lash yo'li bilan tuzilgan sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchining javobgarligi 26 yanvardan boshlanadi. Biroq, sug'urtalovchining kasalliklardan nobud bo'lgan hayvonlar uchun sug'urta tovonini to'lash majburiyati 6 fevraldan, ya'ni sug'urta shartnomasi kuchga kirgan kundan 10 kun keyin boshlanadi.

Jismoniy shaxslarga tegishli uy mulki, inshootlar va transport vositalarini sug'urta qilish bo'yicha asosiy shartnoma amalda bo'lgan davrda sug'urta qildiruvchining taklifiga asosan sug'urta summasi miqdorini oshirish bo'yicha

qo'shimcha kelishuvga erishilishi mumkin. Bunday holatda ham asosiy shartnomada, ham qo'shimcha kelishuvda ko'rsatilgan uy mulklari, inshootlar va transport vositasining umumiy sug'urta summasi ularning amaldagi narxlardan kelib chiqqan holdagi (eskirish summasi hisobga olingan holda) qiymatidan oshib ketishi mumkin emas.

Inshootlarni sug'urta qilish bo'yicha amalda bo'lgan sug'urta shartnomasiga qo'shimcha kelishuv yana shunday holatlarda tuzilishi mumkinki, mazkur inshootga etkazilgan zarar qoplangandan so'ng sug'urta qildiruvchi inshootni ta'mirdan chiqarib, sug'urta summasini oshirishga hohish bo'lganda. Qo'shimcha kelishuv faqat asosiy shartnomaning amal qilish muddatiga qadar tuzilishi mumkin. Masalan, asosiy shartnomaning amal qilish muddati 10 dekabrda tugaydi. Demak, mazkur asosiy shartnomaga qo'shimcha kelishuv 10 dekabrgacha bo'lgan muddatga tuzilishi mumkin.

Qo'shimcha kelishuv bo'yicha sug'urta mukofoti, qoidaga ko'ra, sug'urta mukofoti yillik summasidan kelib chiqqan holda quyidagi miqdorlarda to'lanadi:

Uy mulkini sug'urta qilishda sug'urta mukofotlari yillik sug'urta mukofotlari summasining quyidagi miqdorlarida to'lanadi: 1 oyga - 15 foizi; 2 oyga - 30 foizi; 3 oyga - 40 foizi; 4 oyga - 50 foizi; 5 oyga - 60 foizi; 6 oyga - 70 foizi; 7 oyga - 75 foizi; 8 oyga - 80 foizi; 9 oyga - 85 foizi; 10 oyga - 90 foizi; 11 oyga - 95 foizi.

Inshootlar va transport vositalarini sug'urta qilishda (kasko) sug'urta mukofotlari yillik sug'urta mukofotlari summasining quyidagi miqdorlarida to'lanadi: 1 oyga - 20 foizi; 2 oyga - 40 foizi; 3 oyga - 45 foizi; 4 oyga - 50 foizi; 5 oyga - 60 foizi; 6 oyga - 70 foizi; 7 oyga - 75 foizi; 8 oyga - 80 foizi; 9 oyga - 85 foizi; 10 oyga - 90 foizi; 11 oyga - 95 foizi.

Bunda shuni e'tiborga olish lozimki, to'liq bo'lmagan oy uchun to'langan sug'urta mukofoti to'liq oy uchun to'langan deb hisoblanadi.

Misol: asosiy shartnomaga qo'shimcha kelishuvning amal qilish muddati 2009 yil 18 yanvardan 2009 yilning 23 sentyabrigacha belgilangan, ya'ni asosiy shartnomaning amal qilish muddatigacha. Bu erda sug'urta mukofoti 9 oy uchun to'liq to'lanadi, 8 oy uchun - to'liq (18 yanvardan 17 sentyabrigacha), to'liq bo'lmagan 1 oy uchun (18 sentyabrdan 23 sentyabrigacha) ham to'liq oy uchun to'langan deb hisoblanadi.

Sug'urta shartnomalarini qaytadan tuzish. Sug'urta qildiruvchi sug'urta shartnomasi muddati tugagunga qadar uni yangi muddatga tuzishi mumkin. Sug'urta mukofotining qaysi kuni va qachon to'langanidan qat'iyl nazar, avval amalda bo'lgan shartnoma tugashi bilan yangi muddatga tuzilgan sug'urta

shartnomasi kuchga kiradi. Misol uchun, sug'urta shartnomasining muddati 18 oktyabrda tugaydi, sug'urta qildiruvchi 25 sentyabrda sug'urta shartnomasini yangi muddatga tuzadi. Bunday holatda yangi muddatga tuzilgan sug'urta shartnomasi 26 sentyabrdan emas, balki avvalgi sug'urta shartnomasining amal qilish muddati tugashi bilanoq, ya'ni 19 oktyabrdan kuchga kiradi.

Sug'urta shartnomasi tuzilishidan oldin sug'urta agenti bajarishi zarur bo'lgan holatlar. Fuqarolarga tegishli mulklarni noto'g'ri tuzilishini oldini olish maqsadida agent sug'urta polisini rasmiylashtirishdan avval quyidagilarga o'z e'tiborini qaratishi lozim:

- sug'urtaga qabul qilinayotgan mulklarni haqiqatan ham shartnoma tuzayotgan shaxsga tegishli ekanligini tekshirish (mulklar fuqaroning shaxsiy mulki bo'lishi kerak, transport vositalarini sug'urta qilishda, bundan tashqari, mazkur transport vositasi boshqa shaxslarga notarial tasdiqlangan ishonchnoma asosida berilganmi yoki yo'qligi ham tekshiriladi);

- fuqaroning mulki joylashgan joy rasmiylar tomonidan suv toshqini yoki boshqa tabiiy ofatlar tahdid solishi mumkin bo'lgan xudud deb e'lon qilinganmi yoki yo'qligini aniqlashtirish zarur;

- fuqarolar inshootini ixtiyoriy sug'urta qilishda sug'urta aniq sug'urta summasini chiqarish uchun inshootlarning bahosini aniqlashtirishi kerak;

- fuqaroga tegishli hayvonlarni sug'urta qilishda xo'jalikda mavjud bo'lgan bir xil turdagi barcha hayvonlar soni va ularning yoshiga qarab guruhlarini aniqlash talab etiladi;

- Uy mulki va inshootlarni, ayniqsa, dala hovlilarni sug'urta qilishda shuni aniqlashtirish lozimki, ular sug'urta qildiruvchi yoki u tayinlangan shaxs tomonidan muntazam nazorat qilib borilishi, quriqlash signalizatsiyasi mavjudligiga e'tiborni qaratishi zarur. Agar bunday nazorat mavjud bo'lmasa, sug'urta shartnomasi tuzish tavsiya etilmaydi;

- sug'urtaga mulklarni qabul qilish jarayonida sug'urta qildiruvchi ishtirokida, albatta, ularni ko'zdan kechirish kerak. Fuqaroga tegishli transport vositasini sug'urtaga qabul qilishda esa mazkur transport vositasiga egalik qilish huquqini beruvchi tegishli hujjatlar va texnik pasportni ko'rish hamda maxsus jadvalga (agar jadval sug'urtalovchi tomonidan ishlab chiqilgan va bu jadval bilan agent ta'minlangan bo'lsa) muvofiq transport vositasining eskirish summasiga muvofiq sug'urta mukofoti summasidan chegirmalarni ayiradi. Uy hayvonlarini sug'urta qilishda sug'urtaga qabul qilinayotgan hayvonlarning sog'ligi talab darajasidami yoki yo'qmi va mazkur xudud uchun karantin e'lon qilinmaganmi kabi masalalarga agent o'z e'tiborini qaratishi kerak (agar hayvonlar kasallikka

chalingan bo'lsa, tug'ish holatida yoki tuqqandan keyin kuzatuvda bo'lgan bo'lsa, shuningdek, so'ngi tibbiy tekshiruv jarayonida hayvonlarda brutsellez yoxud tuberkulez kasalliklariga chalinganliklarining alomatlari paydo bo'lgan bo'lsa, bunday hayvonlar sug'urtaga qabul qilinmaydi);

- sug'urtaga qabul qilinayotgan mulklar joylashgan joy, uy haqiqatan sug'urta qildiruvchining doimiy yashash joyimi yoki yo'qligini ham nazardan chetda qoldirmaslik talab etiladi.

4. Sug'urta vositachilarining sug'urta faoliyatida tutgan o'rni va ularning huquq-majburiyatlari

O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni 5-moddasida "Sug'urta bozorining professional ishtirokchilari sug'urta faoliyatining sub'ektlari hisoblanadi. Sug'urtalovchilar, sug'urta vositachilari hamda boshqa yuridik va jismoniy shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq sug'urta bozorining professional ishtirokchilari hisoblanadilar", deb qayd etilgan.

Sug'urta bozorining asosiy professional ishtirokchisi-sug'urtalovchi. Sug'urtalovchilar sug'urtani amalga oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin emas. Quyidagilar bundan mustasnodir:

- maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan tartib va shartlardagi investitsiya faoliyati;
- sug'urta sohasidagi mutaxassislarning malakasini oshirish bilan bog'liq faoliyat;
- sug'urta agenti sifatidagi sug'urta vositachiligi;
- binolarni ijaraga berish.

O'z navbatida, sug'urtalovchilar mulkiy shakliga qarab, bir nechta turda bo'ladi. Sug'urta bozorida qayd etilgan qatnashchilardan tashqari, o'zaro sug'urtalash jamiyatlari ham faoliyat ko'rsatishlari mumkin. Bu jamiyatlarning boshqasug'urtalovchilardan farqi shundaki, ular foyda olish uchun intilmasdan, ko'rilgan zararni o'zaro hamkorlikda qoplashni nazarda tutadi. Statistik ma'lumotlar bo'yicha, o'zaro sug'urtalash jamiyatlari xalqaro sug'urta bozorida to'plagan sug'urta mukofoti hamda aktivlari jihatidan salmoqli o'ringa ega. AQSH va Yaponiya milliy sug'urta bozorlarida o'zaro sug'urtalash jamiyatlarining soni jami sug'urta tashkilotlarining 50 foizdan ko'prog'ini tashkil etadi.

Hozirgi paytda respublikamizda faoliyat yuritayotgan sug'urta tashkilotlari qaysi sug'urta sohasiga ixtisoslashganligiga qarab ikkiga bo'linadi: haytni sug'urtalashga ixtisoslashgan sug'urta tashkilotlari hamda umumiy sug'urta tarmog'ida faoliyat ko'rsatuvchi sug'urta tashkilotlari.

Sug'urta bozori professional ishtirokchilari tarkibiga sug'urta brokeri ham kiradi. Sug'urta brokeri- sug'urta qildiruvchining nomidan va topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasi tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs. O'zbekistonda sug'urta brokerlari tizimi shakllanish jarayonini boshidan kechirmoqda. Ammo hozirgi paytda sug'urta xizmatlarining aksariyati ularning ishtirokisiz amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda sug'urta bozorining barqaror rivojlanishi uning ishtirokchilari tarkibini yanada kengayishiga asos yaratmoqda. Bunga misol tariqasida sug'urta bozoriga adjaster, syurveyer, aktuariy va assistans kabi tushunchalarning kirib kelganligini keltirish mumkin. 2007 yil 15 sentyabrda matbuotda e'lon qilingan "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinishi yuqorida nomlari zikr etilgan sug'urta bozori yangi ishtirokchilarining huquqiy maqomini mustahkamlab berdi. Mazkur qonunning 9-2-moddasida adjasterga quyidagicha ta'rif berilgan: "Adjaster sug'urtalovchining topshirig'i bo'yicha quyidagi xizmatlarni ko'rsatuvchi, o'z shtatida tegishli mutaxassislariga ega bo'lgan yuridik shaxs yoki professional bilim va malakaga ega bo'lgan jismoniy shaxsdir:

- sug'urta hodisasi yuz berganidan keyin sug'urta ob'ektini ko'zdan kechirish va tekshirish;
- sug'urta hodisasi faktlarini va tavakkalchilik holatlarini tahlil qilish;
- sug'urta ob'ektining shikastlanish sabablarini va sug'urta hodisasi mavjudligini aniqlash;
- sug'urta hodisasi mavjud bo'lgan taqdirda- sug'urta hodisasi oqibatida vujudga kelgan shikastlanish darajasi va zarar miqdorini belgilash;
- to'lanishi kerak bo'lgan sug'urta to'lovi summasini aniqlash;
- sug'urtalovchi uchun sug'urta hodisasi bo'yicha xulosa tuzish".

Adjaster o'z faoliyatini sug'urtalovchi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiradi. Adjaster: sug'urtalovchi sifatida sug'urta va qayta sug'urta qilish operatsiyalari o'tkazishga, sug'urta bo'yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirishga, sug'urtalovchilarning ustav fondlarida ishtirok etishga haqli emas. Adjaster xizmati ko'rsatish natijalari hisobot tarzida rasmiylashtirilib, undan sug'urtalovchi zararlarining o'rnini qoplash va nizolarni hal qilish chog'ida foydalanishi mumkin. Adjasterning hisobotida ko'rsatilgan xulosalar mustaqil sug'urta ekspertizasi jarayonida qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Sug'urta bozorining professional ishtirokchilar safiga aktuariylar ham kiradi. "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 9-4-moddasiga asosan "Aktuariy quyidagilarni o'z ichiga oladigan aktuar xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik yoki jismoniy shaxsdir:

- Sug'urta voqeasi yuz berishining matematik jihatdan ehtimolligi hisob-kitobini amalga oshirish, ham alohida tavakkalchilik guruhlarida, ham umuman sug'urta majmui bo'yicha zarar etkazilishining takroriyligini va ularning oqibatlari og'irligi darajasini belgilash;

- sug'urtalovchining zarur sug'urta zahiralari va fondlarini matematik jihatdan asoslash hamda hisob-kitob qilish, ularni shakllantirish usullarini ishlab chiqish;

- sug'urtalovchining investitsiyalar sifatida to'plangan badallardan foydalanishida kapital qo'yilma normasi va netto-stavka miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni tarif stavkalarini investitsiya daromadi summasiga kamaytirishga ko'maklashadigan tarzda aniqlash;

- sug'urta jarayonini tashkil etish uchun zarur harajatlarni asoslash va sug'urta xizmatlari tannarxini hisoblash;

- sug'urtaning har bir turi bo'yicha tarif stavkalarini sug'urtalovchilar uchun ularni o'tkazishning uzoq muddatli va qisqa muddatli hususiyatini hisobga olgan holda belgilash;

- sug'urtalovchining investitsiya faoliyati natijalarini baholash;

- sug'urtalovchining daromadlarini sug'urtaning har xil turlari bo'yicha rejalashtirish".

Sug'urta syurveyeri ham sug'urta bozorida muhim mavqega ega. Ammo, O'zbekistonda syurveyer xizmati hali etarli darajada rivojlanmagan. Ammo shunday bo'lishiga qaramay, syurveyerlarning faoliyati qonuniy jihatdan tartibga solinadi. "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 9-6-moddasida sug'urta syurveyeri haqida quyidagilar ko'rsatib o'tilgan: Sug'urta syurveyeri quyidagilar bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi, o'z shtatida tegishli mutaxassislariga ega bo'lgan yuridik shaxs yoki professional bilim va malakaga ega bo'lgan jismoniy shaxsdir:

- sug'urta shartnomasi tuzilguniga qadar sug'urta ob'ektini ko'zdan kechirish va tekshirish;

- sug'urta shartnomasi tuzilguniga qadar barcha faktlarni va tavakkalchilik holatlarini tahlil qilish, tavakkalchilik darajasini aniqlash;

- tekshirilayotgan sug'urta ob'ekti bo'yicha xulosa tuzish.

Sug'urta syurveyeri sug'urtaga qabul qilinayotgan ob'ektlarni ko'rikdan o'tkazish bilan shug'ullansa, sug'urta assistansisug'urtalovchilarga, sug'urta qildiruvchilarga ko'mak berishga ixtisoslashgan. "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 9-8-moddasiga asosan, "Assistans sug'urta qildiruvchilarga hamda sug'urtalovchilarga sug'urta shartnomasi doirasida assistans xizmatlari, texnik, tibbiy va boshqa xizmatlar ko'rsatuvchi, shuningdek, ularga moliyaviy ko'mak beruvchi yuridik yoki jismoniy

shaxsdir. Assistans o'z faoliyatini sug'urtalovchi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiradi. Assistans xizmatlariga sug'urta qildiruvchilar (sug'urtalangan shaxslar) ishtirokisiz faqat sug'urtalovchilar tomonidan haq to'lanadi. Assistans: sug'urtalovchi sifatida sug'urta va qayta sug'urta qilish operatsiyalari o'tkazishga, sug'urta bo'yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirishga, sug'urtalovchilarning ustav fondlarida ishtirok etishga haqli emas".

Qayta sug'urta tashkilotlari sug'urta bozorining professional ishtirokchisi sifatida sug'urta tashkilotlarining moliyaviy holatini mustahkamlashning muhim vositasi hisoblanadi. Qayta sug'urtalovchi-sug'urtalangan tavakkalchilikni qayta sug'urtalash uchun qabul qilib oladigan yuridik shaxs. Qayta sug'urtalovchi yordamida tavakkalchilikni ikkilamchi taqsimlash amalga oshiriladi. Qayta sug'urtalovchi sifatida sug'urta kompaniyasi ham bo'lishi mumkin. Hozirgi paytda O'zbekistonda yagona qayta sug'urtalash kompaniyasi mavjud.

Sug'urta agentlarining faoliyati "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2003 yil 28 yanvardagi 19-son bug'rug'i bilan tasdiqlangan hamda 2003 yilning 1 fevralida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1213-son bilan ro'yxatga olingan "Sug'urta agentlari to'g'risida"gi Nizomga muvofiq tartibga solinadi. Sug'urtalovchining nomidan va uning topshirig'iga muvofiq sug'urta shartnomalarini tuzish hamda uning ijrosini tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxslarga sug'urta agenti deyiladi.

Sug'urta agenti- jismoniy shaxs o'z nomiga, to'lovlar naqd pul bilan amalga oshirilganida esa yaqin qarindoshlari nomiga sug'urta shartnomalari bo'yicha hujjatlar yozishga, shuningdek, o'z foydasiga sug'urta shartnomalari tuzishga va bunda mazkur sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta agenti sifatida ish ko'rishga haqli emas.

Sug'urta agenti quyidagi huquqlarga ega:

- sug'urtalovchi tomonidan berilgan vakolatlar doirasida sug'urtaning har qanday turi, shu jumladan, majburiy sug'urta turlari bo'yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirish;
- sug'urtaga qabul qilinayotgan sug'urta tavakkalchiligini baholashda, sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta to'lovini to'lashda va sug'urta qildiruvchining sug'urta mukofotini to'liq hajmda hamda sug'urta shartnomasida belgilangan muddatlarda to'lashda zarur ko'mak ko'rsatish;
- sug'urtalovchidan litsenziyaning mavjudligi, ustav fondi miqdorlari, sug'urta zahiralar hamda qabul qilingan majburiyatlar to'g'risida, shuningdek, sug'urtalovchining to'lovga qobiliyatligi va moliyaviy barqarorligiga doir boshqa ko'rsatkichlar to'g'risida ma'lumotlar olish;
- sug'urta qildiruvchilarning so'roviga ko'ra ularga sug'urtaning amaldagi shartlari to'g'risida axborot berishi;

- mijozning tijorat sirini yoki boshqa sirini tashkil etgan ma'lumotlarning mahfiyligini saqlashi;

- tegishli bitim mavjud bo'lgan taqdirda, sug'urtalovchining topshirig'iga ko'ra va uning hisobidan sug'urta to'lovlari to'lanishini tashkil etishi shart.

Sug'urta agentining zimmasida qonun hujjatlariga va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Tabiiyki, agent bitimini tuzishdan oldin sug'urta tashkiloti agent bilan suhbat uyushtiradi, zaruriyat bo'lganda kasbiy faoliyatga layoqatlilik nuqtai nazaridan savol-javob tashkil etadi. Suhbatdan muvaffaqiyatli o'tgan shaxslar bilan agentlik bitimi imzolanadi. Amaldagi holatdan kelib chiqqanda, ayrim sug'urtalovchilar agentni ishga qabul qilganlaridan so'ng ularni sug'urta tashkilotida tashkil etilgan agentlarni tayyorlash kurslarida bepul o'qitadilar. SHunisi diqqaga sazovorki, sug'urta agentining ish vaqti sug'urta tashkiloti tomonidan belgilanmaydi. Demak, jismoniy shaxslar asosiy ishlaridan bo'sh paytlarida sug'urtalovchi bilan tuzilgan agentlik bitimiga binoan uning nomidan sug'urta polislari mijozlarga sotishlari mumkin.

Alohida ta'kidlash lozimki, topshiriq shartnomasi (agent bitimi) tuzilgan kundan 5 kun ichida sug'urta agent- jismoniy shaxsga guvohnoma beriladi. SHundan so'ng sug'urtalovchi agentni uning nomidan sug'urta shartnomalarini tuzish uchun kerakli bo'lgan ish qog'ozlari, sug'urta qilish qoidalari, shartnomalari, sug'urta tariflari, sug'urta polislari, reklama va boshqa kerakli hujjatlar bilan ta'minlaydi. O'z navbatida, sug'urta agent sug'urtalovchi tomonidan ajratilgan hujjatlarni, shu jumladan, qat'iy hisobda turuvchi hujjatlarni to'liq va butun saqlanishi uchun javobgar hisoblanadi. Agent vaziyatga qarab va sug'urtalovchining talabidan kelib chiqqan holda haftada yoki oyda bir marta vositachilik faoliyati yuzasidan sug'urtalovchiga hisobot berib boradi- bu shartlar agent bitimida o'z aksini topgan bo'lishi kerak. Hisobotda agent tomonidan tuzilgan va sotilgan sug'urta polislari, shunga muvofiq ravishda, sug'urta tashkiloti hisob raqamiga kelib tiushgan sug'urta mukofotlari miqdori haqida ma'lumotlar batafsil bayon etiladi.

Sug'urta agentlariga to'lanadigan vositachilik haqi sug'urtalovchining yoki uning filialining hisob raqamiga kelib tushgan sug'urta mukofotiga nisbatan foizlarda hisoblanadi.

Sug'urta agentlari mehnatiga haq to'lash, sug'urta agent tuzgan shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlaridan vositachilik puli shaklida amalga oshiriladi. Vositachilik puli miqdori sug'urta agent tuzgan sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urtalovchi hisob raqamiga tushgan sug'urta mukofotlarining 25 foizidan oshishi mumkin emas.

Sug'urta mukofotlari yuridik shaxs shaklida faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta agentining hisobiga kelib tushganda, sug'urta agent ularni agent bitimida ko'rsatilgan muddatlarda sug'urtalovchining hisob raqamiga o'tkazishi, jismoniy

shaxs- sug'urta agenti sug'urta mukofotlarini naqd pulda qabul qilib olganda esa ularni o'sha kunning o'zida vakolatli bankning kirim kassasiga topshirishi kerak. Agar sug'urta agenti sug'urta mukofotlarini sug'urtalovchining hisob raqamiga o'tkazish muddatiga amal qilmasa yoki ularni asossiz ushlab tursa, o'sha davrda sug'urta hodisasi ro'y berganda, sug'urta qildiruvchining oldidagi sug'urta tovonini to'lash bo'yicha majburiyatlarga sug'urta agenti javobgar bo'ladi.

Agent bilan tuzilgan agentlik bitimi quyidagilarga ko'ra bekor qilinishi mumkin:

- agentning tashabbusi bilan;
- sug'urta tashkiloti tashabbusi bilan.

Agentlik bitimini tomonlardan birining tashabbusi bilan shartnoma amal qilish muddati tugagunga qadar bekor qilinishi boshqa tomonni yozma xabarnoma berish orqali amalga oshiriladi. Sug'urta tashkiloti bir tomonlama tartibda agent bilan tuzilgan topshiriq shartnomasini quyidagi hollarda bekor qilishi mumkin:

- sug'urta agenti O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va sug'urta tashkilotining me'yoriy hujjatlariga rioya etmaganda;
- sug'urta agenti tomonidan agentlik faoliyati amalga oshirilmaganda, ya'ni topshiriq shartnomasi imzolangan kundan boshlab olti oy mobaynida shartnomalar tuzilmasligi va polislar berilmasligi hollarida;
- qabul qilingan majburiyatlarni surunkali bajarilmasligi hollarida;
- sud tomonidan sug'urta agenti O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida o'rnatilgan tartibda layoqatsiz deb topilsa;
- sug'urta agentiga jazo choralari tayinlash bo'yicha sud qarorining qonuniy kuchga kirib, ishni davom ettirish imkoni bo'lmaganda.

5. Sug'urta vositachilarining faoliyatini davlat tomonidan litsenziyalash tartibi

Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 27 noyabrdagi qarori bilan "Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalash to'g'risida Nizom tasdiqlandi. Unga ko'ra, sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalash O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik shaxslar sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya talabgorlari bo'lishlari mumkin. Sug'urtalovchi va sug'urta brokerining sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaning amal qilish muddati, qoidaga ko'ra, cheklanmaydi. Litsenziyaning amal qilishi litsenziya berilgan kundan boshlanadi.

Sug'urta brokerlari uchun:

sug'urta brokerining sug'urta faoliyatini amalga oshirishda shartnoma majburiyatlariga rioya etilishini ta'minlash;

sugʻurta shartnomasining litsenziat mijozlari uchun qulay shartlarda tuzilishi va bajarilishi;

sugʻurtalashga doir vositachilik faoliyatini asosiy faoliyat turi sifatida amalga oshirish.

Litsenziya olish uchun sugʻurta brokerlari litsenziyalovchi organga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

Sugʻurta brokerlari uchun:

yuridik shaxsning nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, uning joylashgan joyi (pochta manzili), bank muassasasining nomi va bankdagi hisob raqami, yuridik shaxs amalga oshirishni moʻljallayotgan litsenziyalanadigan faoliyat turi (uning bir qismi) hamda koʻrsatib oʻtilgan faoliyat turi amalga oshiriladigan muddat koʻrsatilgan litsenziya berish toʻgʻrisida ariza;

yuridik shaxsning davlat roʻyxatidan oʻtkazilganligi toʻgʻrisidagi guvohnomaning notarial tasdiqlangan nusxasi;

litsenziya talabgori tomonidan litsenziya talabgorining arizasi litsenziyalovchi organ tomonidan koʻrib chiqilganligi uchun yigʻim toʻlanganligini tasdiqlovchi hujjat;

ustav kapitali toʻlanganligini tasdiqlovchi hujjatlar (bank maʼlumotnomasi, molgʻmulni qabul qilishgʻtopshirish dalolatnomalari va boshqa hujjatlar).

Koʻrsatib oʻtilgan hujjatlar bir nusxada taqdim etiladi.

Litsenziya talabgorining arizasi koʻrib chiqilganligi uchun Oʻzbekiston Respublikasida belgilangan eng kam oylik ish haqining besh baravari miqdorida yigʻim undiriladi. Ariza koʻrib chiqilganligi uchun yigʻim summasi litsenziyalovchi organning maxsus hisob raqamiga oʻtkaziladi. Litsenziya talabgori berilgan arizadan voz kechgan taqdirda toʻlangan yigʻim summasi qaytarilmaydi.

Sugʻurtalovchilar va sugʻurta brokerlarining sugʻurta faoliyatini litsenziyalash ilovada keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi (1-ilovaga qarang). Ilova keltirilgan sxemadan koʻrinib turibdiki, sugʻurtalovchilar va sugʻurta brokerlarining sugʻurta faoliyatini litsenziyalash jarayoni 6 ta bosqichni oʻz ichiga olib, dastlab litsenziya talabgori zarur hujjatlarni tayyorlaydi va uni koʻrib chiqish uchun Moliya vazirligiga taqdim etadi. Keyingi bosqichda hujjatlar Moliya vazirligi tomonidan qabul qilinadi va koʻrib chiqish uchun ekspert komissiyaga beriladi. Ekspert komissiyasi taqdim etilgan hujjatlarni batafsil oʻrganib chiqib, sugʻurtalovchiga yoki sugʻurta brokeriga litsenziya berish yoxud litsenziya berishni rad etish toʻgʻrisida qaror qabul qiladi.

SHunday qilib xulosa qilish mumkinki, Oʻzbekistonda sugʻurta nazorati davlat organiga yuklatilgan sugʻurta faoliyatini litsenziyalash vakolati, pirovardida,

barcha sug'urtalanuvchilarning, ya'ni sug'urta kompaniyalari mijozlarining qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Bunday tizimining yaratilganligi nafaqat sug'urtalanuvchilarning, balki davlatning manfaatlariga mos keladi.

5-Mavzu : Majburiy sug'urtaning zarurligi va uning huquqiy asoslari

REJA:

1. Majburiy sug'urta tushunchasi va uning joriy etilish shartlari. Majburiy sug'urtalashning asosiy tamoyillari.
2. Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash tizimi.
3. Ish beruvchilarning fuqarolik javobgarligining majburiy sug'urtasi.
4. Shaxsiy sug'urta tizimini huquqiy tartibga solish
5. Mol-mulk sug'urta tizimini huquqiy tartibga solish
6. O'zbekistonda javobgarlik sug'urtasining joriy qilinishi va uni o'tkazish tartibi
7. Sug'urta tashkilotining investitsiya faoliyati va uning huquqiy asoslari

1. Majburiy sug'urta tushunchasi va uning joriy etilish shartlari. Majburiy sug'urtalashning asosiy tamoyillari

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 922-moddasida majburiy sug'urta haqida alohida ko'rsatib o'tilgan. Xususan, unda shunday deyiladi: «Qonunda quyidagilarni sug'urta qilish majburiyati belgilab qo'yilishi mumkin:

- qonunda ko'rsatilgan boshqa shaxslarning hayoti, sog'ligi yoki mol-mulki ularning hayoti, sog'ligi yoki mol-mulkiga zarar etkazilishi ehtimolini nazarda tutib;

- boshqa shaxslarning hayoti, sog'ligi yoki mol-mulkiga zarar etkazilishi yoxud boshqa shaxslar bilan tuzilgan shartnomalarning buzilishi oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'zining fuqaroviy javobgarligi xavfi».

Sug'urta qildiruvchi bo'lish majburiyati qonun bilan unda ko'rsatilgan shaxslar zimmasiga yuklanadi. Qonunda majburiy sug'urtaning boshqa turlari ham belgilanishi mumkin. Fuqaroga o'z hayoti yoki sog'ligini sug'urtalash majburiyati qonun bilan yuklatilishi mumkin emas. Qonunda nazarda tutilgan hollarda yoki unda belgilangan tartibda xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida davlatga qarashli molg'mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslarga bu mulkni sug'urtalash majburiyati yuklanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida majburiy sug'urtaning quyidagi turlari mavjud:

- transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish;
- ish beruvchilarning fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash;
- yo'lovchilarni majburiy sug'urta qilish;
- Davlat majburiy sug'urtasi.

SHu erda ta'kidlash lozimki, yuqorida ko'rsatilgan majburiy sug'urta turlari hukumat qarorlari asosida joriy etilgan. Unda sug'urtalanuvchilar guruhi, sug'urta qilish shartlari, sug'urta tarifi stavkalari va sug'urta qoplamalari miqdorlari ko'rsatilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasida transport vositalari va boshqa o'ziyurar mashina hamda mexanizmlar egalari fuqarolik javobgarligining davlat majburiy sug'urtasi to'g'risida» 1994 yil 30 dekabrda 632-sonli qaroriga ko'ra, 1995 yil 1 yanvardan boshlab transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligining davlat majburiy sug'urtasi joriy etilgan. Ushbu qaror bilan belgilab qo'yilganki, O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan mulkchilikning barcha shakllaridagi transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligining davlat majburiy sug'urtasiga jalb qilinadilar.

Fuqarolarning ijtimoiy manfaatlarini va davlatning manfaatlarini ta'minlash maqsadida qonunda hayot, sog'lik va mol-mulkning majburiy davlat sug'urtasi belgilab qo'yilishi mumkin.

Majburiy davlat sug'urtasi ana shu maqsadlar uchun davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar hisobiga amalga oshiriladi.

Majburiy davlat sug'urtasi bevosita sug'urta to'g'risidagi qonun hujjatlari asosida unda ko'rsatilgan davlat sug'urta tashkilotlari yoki davlatning boshqa tashkilotlari (sug'urtalovchilar) tomonidan amalga oshiriladi.

Fuqarolik kodeksining qoidalari, agar sug'urta to'g'risidagi qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa va sug'urta bo'yicha mavjud munosabatlar mohiyatidan kelib chiqmasa, majburiy davlat sug'urtasiga nisbatan qo'llaniladi.

Majburiy sug'urta sug'urta munosabatlarining qonun kuchiga ega bo'lgan shakli. Majburiy sug'urta qonunchilik hujjatlari asosida amalga oshiriladi. Ushbu hujjatda sug'urtaga tortiladigan ob'ektlar soni, sug'urta javobgarligining hajmi, sug'urta munosabatlarida qatnashadigan tomonlarning huquq va majburiyatlari hamda boshqa rekvizitlar ko'rsatiladi. Amaldagi qonunchilikka asosan,

O'zbekistonda majburiy sug'urtani tegishli litsenziyaga ega bo'lgan har qanday sug'urta kompaniyasi o'tkazishi mumkin.

Sug'urta tashkilotlari yuridik va jismoniy shaxslar zararlarini qoplab berish orqali davlatning pul mablag'larini tejaydilar. Sug'urta hodisalari va ular keltiradigan moliyaviy zararlar oldini olish maqsadida sug'urtaning ayrim turlari majburiy shaklda amalga oshiriladi. Sug'urta turlarining bunday shaklda amalga oshirilishida davlat jabrlanuvchi ya'ni sug'urtalanganlarning ko'rgan zararlarini qoplab berilishi va mulkiy manfaatlarini himoya qilinishini kafolatlaydi. Bu davlatning hamda sug'urtaning ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalaridan kelib chiqadi.

Majburiy sug'urta turlarini har bir davlat o'zining milliy qonunchilik bazasi, sug'urta xizmatlari bozorining rivojlanish darajasi va boshqa qator ijtimoiy, iqtisodiy omillardan kelib chiqib joriy qiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida majburiy sug'urta turlarining o'zni muqarar saqlanib qoladi.

SHu o'rinda ta'kidlash kerakki, Prezidentimiz I.Karimovning 2007 yilda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008 yilda iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasida quyidagilarga e'tibor berilgandi: "Ayni damda sug'urtalashning umumiy hajmida majburiy sug'urtalashni turli shakllarining ulushi nihoyatda past bo'lib, 6 foizdan ham ortmaydi. Buning sababi halqaro amaliyot talablariga mos bo'lgan majburiy sug'urtalashning ayrim turlari bizda joriy etilmagani bilan izohlanadi".

YUqoridagilardan kelib chiqib ta'kidlash mumkinki, 2008 yil majburiy sug'urta turlarining huquqiy asoslarini takomillashtirish va "Transport vositalari egalarining javobgarligini majburiy sug'urtalash to'g'risida"gi Qonun Prezidentimiz tomonidan 2008 yil 21 aprelida imzolandi, 2008 yil 22 oktyabrdan esa kuchga kirdi. SHuningdek 2008 yil 24 iyunda Vazirlar Mahkamasining "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqidagi № 141-sonli qarori orqali transport vositalari egalarining fuqarolik

javobgarligini majburiy sug'urta qilish mexanizmi ishlab chiqildi. Yuqoridagi qaror bilan transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini sug'urtalash qoidalari, javobgarlik limitlari, sug'urta muddati belgilandi hamda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha to'lovlarni kafolatlash fondi tashkil etildi.

Halqaro amaliyot talablariga mos keladigan majburiy sug'urta turlarini joriy etish orqali, xususan transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashda yo'l harakati ishtirokchilarining mulkiy manfaatlari himoyalangani. Majburiy sug'urta turlarin keng qamrovli ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, bu o'z o'rnida sug'urtaning rivojlanishiga va keng omma orasida tarqalishiga imkoniyat yaratadi.

Umuman olganda, milliy sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirish uchun birinchi navbatda sug'urtalashni taritibga soluvchi me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish va rivojlantirish bo'yicha bir qator chora-dadbirlarni amalga oshirish zarur.

Majburiy sug'urta turlarini joriy qilish orqali davlat o'zining ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini barta'raf etishi mumkin. Jumladan, sug'urta sohasidagi qonunchilikni takomillishtirish, hamda majburiy sug'urta turlarini joriy etish orqali davlat quyidagi natijalarga erishishi mumkin:

- bosqichma-bosqich davlat o'zining ijtimoiy-iqtisodiy himoya bilan bog'liq muammolarni iqtisodiyotning biznes sohasiga topshirishi;
- Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini izchil kamaytirib borish;
- byudjetning ijtimoiy harajatlar qismiga tushadigan og'irlikni engilashtirish;
- sug'urta tashkilotlari mablag'larini ijtimoiy-iqtisodiy himoya bilan bog'liq masalalarga yo'naltirish;
- yuqoridagi chora-tadbirlarni qo'llash orqali bo'shagan pul mablag'larni sog'liqni saqlash, infratuzilmani rivojlantirish, shuningdek, sug'urta tashkilotlarining

moliyaviy barqarorligini oshirish kabi maqsadlarga sarflashda foydalanish mumkin.

Aytish kerakki, majburiy sug'urtalash yurtimiz moliya bozorini jonlantirish barobarida aholining ijtimoiy muhofazasini yanada mustahkamlashda ham katta rol o'ynaydi. SHu bois ishonch bilan ayta olamizki, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida sug'urta amaliyoti, xususan majburiy sug'urtaning ahamiyati kattadir. Majburiy sug'urta turlarining qamrovligini hisobga oladigan bo'lsak, bu o'z o'rinda sug'urtaning rivojlanishiga va keng omma orasida tarqalishiga imkoniyat yaratadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilish mamlakat iqtisodiyotida etakchi ahamiyat kasb etadi. SHuning uchun iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlar aholining kuchli ijtimoiy himoyasini ta'minlashga intiladilar. Buning ustiga, ijtimoiy himoyani ta'minlashning samarali usullari sifatida bozor iqtisodiyoti prinsiplariga asoslangan metodlar bo'lib, ular bir vaqtning o'zida ham iqtisodiyotning rivojlanishi uchun, ham mamlakatda ijtimoiy himoyani ta'minlash uchun sharoit yaratadi.

Bugungi kunda majburiy sug'urtaning mavjudligi sug'urtaning mamlakat iqtisodiyotiga kirib borishida asosiy omillardan biri ekanligini xorijiy amaliyot orqali yaqqol ko'rishimiz mumkin. Albatta, sug'urtaning majburiy turlarini tadbqiq etish respublikada sug'urta sohasi rivojiga ko'p jihatdan imkon yaratadi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga ko'ra majburiy sug'urta qonun xujjatlariga asosan joriy etiladi. Majburiy va majburiy davlat sug'urtasi mavjud. Majburiy sug'urtada sug'urta mukofotlari sug'urtalanuvchining mablag'lari hisobidan, majburiy davlat sug'urtasida esa davlat byudjeti mablag'lari hisobidan to'lanadi.

2. Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash tizimi

Hozirgi paytda aholi orasida keng tarqalgan majburiy sug'urtaning quyidagi turlari mavjud:

- Transport vositalari egalarining uchinchi shaxs oldidagi fuqarolik javobgarligining majburiy sug'urtasi;
- Ish beruvchining fuqarolik javobgarligining majburiy sug'urtasi.

SHuni alohida ta'kidlash lozimki, yuqorida ko'rsatilgan majburiy sug'urta turlari xukumat qarorlari asosida joriy etilgan. Unda sug'urtalanuvchilar guruhi, sug'urta qilish shartlari, sug'urta tarifi stavkalari va sug'urta qoplamalari miqdori ko'rsatilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi 2009 yil 16 apreldagi 210- sonli Qonuniga ko'ra, 2009 yil 16 oktyabrdan boshlab ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtasi Qonun asosida kuchga kirdi. Bu qonunning joriy qilishdan asosiy maqsad ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdir. Keng ma'noda esa, mehnat jarayonida jarohat olgan, kasb kasalligi yoki xizmat burchini bajarayotgan vaqtida salomatligiga ziyon etgan kishilarning ijtimoiy himoyasini ta'minlashdan iborat.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtaning mohiyati shundan iboratki, xodim o'z mehnat vazifasini bajarishi bilan bog'liq holda mehnatda mayib bo'lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog'ligining boshqacha tarzda shikastlanishi munosabati bilan uning xayoti yoki sog'lig'iga etkazilgan zararning o'rnini qoplash bo'yicha ish beruvchi o'z fuqarolik javobgarligini sug'urta qiladi. Bunday munosabat ishchining (xodimning) ish beruvchi (tashkilot, korxona, zavod va h.z.) bilan tuzgan mehnat shartnomasi imzolangandan so'ng boshlanadi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashning asosiy maqsadi barcha mehnat faoliyati bilan mashg'ul bo'lgan ishchi va xodimlarni sog'lig'ini, hayotini ijtimoiy himoya qilishdir. "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida" gi Qonunning maqsadi esa ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi ommaviy shartnoma hisoblanib, bu sug'urta turi bilan sug'urta tashkilotlari shug'ullanishi uchun quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- Avvalambor litsenziyaga ega bo'lishi kerak;
- Ustav fondining eng kam miqdori majburiy sug'urta bo'yicha shakllantirilgan bo'lishi lozim;
- Barcha hududlarda tashkilotning filiallari ta'sis etilgan bo'lishi kerak;
- Kelib tushdan da'volarni joylarda ko'rib chiqishi darkordir.

Sug'urtaning ushbu turining majburiyligi birinchi navbatda mamlakatning barcha ish beruvchilarini qamrab olish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida sug'urtaning ushbu turi bo'yicha minimal sug'urta tariflarini qo'llashga imkoniyat yaratadi. Moxiyatan, majburiy sug'urtaning bu turi mamlakat ish beruvchilari o'rtasidagi jabrlangan ish beruvchilar ko'rgan zararlarni qoplash uchun mo'ljallangan mablag'larni qayta taqsimlash mexanizmi sifatida ish ko'radi. Bu mexanizm orqali jabrlangan xodimlar ko'rgan zararni qonunda belgilangan sug'urta summasi doirasida qoplanishini kafolatlaydi va jabr ko'rgan xodimga zararni qoplab berganda ham moliyaviy barqarorligi saqlanib qolishi ish beruvchining faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi real usul bo'lib qoladi.

O'zbekistonda bu majburiy sug'urta turining joriy qilinishi ishchi va xodimlarning ish mobaynida yuzaga kelgan favqulodda vaziyatlarini sug'urtalash orqali ularning ish faoliyatiga bo'lgan qiziqishini yanada ortishini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, majburiy sug'urtaning yana bir turi, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash (keyingi o'rinlarda - FJMS) yo'l-transport hodisasidan jabrlanganlarni ijtimoiy himoya qilishga yo'naltirilgan majburiy sug'urtaning anchayin keng tarqalgan turi hisoblanadi. Bugungi kunda deyarli barcha iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda majburiy sug'urtaning mazkur turi qo'llaniladi. Evropa Ittifoqi mamlakatlarida majburiy sug'urtaning mazkur turi FJMSning yagona tizimi (YAshil karta) sifatida qo'llaniladi. Yana shuni ta'kidlash joizki, boshqa mamlakatlarda ham FJMSning

xalkaro miqiyosda yanada samarali ishlashini ta'minlash maqsadida milliy FJMS tizimini yagona tizimga birlashtirish bo'yicha ish olib borilyapti.

FJMS bo'yicha mamlakatimizda qabul qilingan qonun, shuningdek, yul-transport hodisasidan jabrlanganlarni ijtimoiy himoya qilishni ma'lum darajada ta'minlashga yo'naltirilgan. Qonunda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash ko'zda tutilgan va majburiy sug'urtaning mazkur turini amalga oshirishning umumiy qoidalari belgilab berilgan. Bundan tashqari, Qonunda majburiy sug'urta to'lovlarini to'lashni kafolatlovchi Jamg'arma ta'sis etish ham ko'zda tutilgan.

FJMSning asosiy ijtimoiy yo'nalishlari sifatida quyidagi jihatlarni keltirish mumkin:

- majburiy ko'rinishga ega bo'lgan sug'urtaning ijtimoiy samaradorligi;
- qonunda nazarda tutilgan holatlarda zararni qoplash to'lovlari.

Ma'lumki, muayyan sug'urta turini majburiy ravishda qo'llanilishi kiritilganda, qonunchilikda Ushbu majburiy sug'urta turini amalga oshirishning tartibi va shartlari ham o'rnatiladi. O'zbekiston Respublikasining «Transport vositalari egalarininng fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash to'g'risida» gi Qonunida mazkur majburiy sug'urta turi amalga oshirilishining umumiy qoidalari belgilab berilgan. SHuning bilan birga hukumatning 2008 yil 24 iyundagi 141-sonli qarori bilan FJMSni amalga oshirishning sharti va tartiblarini belgilab beruvchi transport egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashning qoidalari tasdiqlangan.

Fuqarolik javobgarligini sug'urtalashning majburiyligi sug'urta kompaniyalariga majburiy sug'urtaning Ushbu turining qo'llanilish doirasiga kiruvchi barcha transport vositalarini qamrab olish imkonini beradi. SHu bilan birgalikda sug'urtalanuvchilar o'z fuqarolik majburiyatlarini majburiy sug'urta summasidan yuqori qiymatda ixtiyoriy sug'urta qilish huquqiga ham ega. Majburiy sug'urta bo'yicha sug'urta tariflari bir hil bo'lib, barcha sug'urtalovchilar tomonidan qonunda belgilangan tartibda qullaniladi. Ixtiyoriy sug'urta bo'yicha

esa sug'urtalovchilar o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, turli sug'urta tariflarini qo'llaydilar. Modomiki, majburiy sug'urta ob'ektlarini qamrab olish darajasidan ortiq ekan, bu majburiy sug'urta bo'yicha ixtiyoriy sug'urtadan ko'ra pastroq tariflar belgilash imkonini beradi. Amaliyotning ko'rsatishicha, aynan shu sababli ixtiyoriy sug'urta qilish bo'yicha xizmatlar xaqi majburiy sug'urta xaqiga nisbatan hamisha yuqori bo'ladi.

3. Ish beruvchilarning fuqarolik javobgarligining majburiy sug'urtasi

Hozirgi sharoitda yuridik va jismoniy shaxslarning uchinchi shaxslar manfaatiga zarar etkazish xavfi kuchaymoqda. Bu xavfning ro'y berishi natijasida etkazilgan zararni qoplash yuzasidan zarar etkazgan shaxslarning javobgarligini sug'urta qilish mamlakatimizda o'z rivojini topmoqda. Ana shunday javobgarlikni sug'urta qilishning keng tarqalgan turlaridan biri – transport vositalari egalarining uchinchi shaxslarga zarar etkazish fuqarolik javobgarligini sug'urtalashdir.

Ma'lumki transport yuqori xavfni keltirib chiqaruvchi manbalardan biri hisoblanadi.

Transport haydovchisi transport vositasini boshqarish jarayonida uchinchi shaxslarning muayyan manfaatlariga, sog'lig'iga zarar etkazishi mumkin.

Yo'l transport hodisasi natijasida zarar ko'rgan shaxslar, ko'p holatlarda aybdorlardan zararni undirib ololmaydilar. G'ayri qonuniy harakat tufayli yuridik yoki jismoniy shaxslarning sog'lig'i, hayoti yoki mol-mulkiga etkazilgan aybdor shaxs tomonidan to'liq hajmda qoplanishi lozim. Qonun hujjatlarida zararni to'lash majburiyati zarar etkazuvchi bo'lmagan shaxsga yuklatilishi mumkin. Zarar etkazgan shaxs agar zarar o'z aybi bilan etkazilmaganligini isbotlasa zararni to'lashdan ozod etilishi mumkin.

Bugungi kunda aholi turmush darajasining doimo oshib borishi transport vositalarining yanada takomillashishi jahonda avtomobillar sonining muntazam o'sishiga olib kelayapti.

O'zbekiston Respublikasida engil avtobil ishlab chiqarish sanoatining sanoatining rivojlanishi ma'lum bir ma'noda transport vositalari sug'urtasini

hamda transport vositalari egalarini fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtasini rivojlanishiga va sug'urta kompaniyalariga ma'lum bir ma'noda aniq vazifalarni yuklashi tabiiy albatta. SHuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, Respublikamiz xududida engil avtomobillar sonining keskin ravishda o'sib borishi jamiyatimiz va uning vakillari uchun foydali hisoblanadi. Lekin shu bilan bir qatorda shuni unutmaslik kerakki, avtotrasport soning keskin ravishda ortib borishi o'z-o'zidan yo'llarimiz hududida hunuk va noxush xodisalarni yuzaga keltirishi mumkin.

Barchamizga ma'lumki 2008 yil 22 oktyabrda O'zbekistonda "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash to'g'risida"gi Qonun kuchga kirdi. 2009 yilning 22 yanvaridan boshlab transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash (FJMS) polisiga ega bo'lmaganlar, eng kam ish haqi miqdorida, mansabdor shaxslar esa eng kam ish haqining uch barobari miqdorida jarima to'ladilar.

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashda jabrlanuvchining mulkiga zarar etganda eng ko'pi bilan \$1050, jabrlanuvchining sog'lig'i yoki hayotiga zarar etganda esa eng ko'pi bilan \$1950 miqdordagi mablag'ni ko'zda tutadi. Sug'urta qoplamasi sug'urtalovchi tomonidan bevosita jabrlanuvchiga etkazilgan zarar miqdorida, lekin yuqorida qayd etilgan qiymatdan ortiq bo'lmagan miqdorda to'lanadi.

Bunda o'z-o'zidan nega zararning barchasi to'lanmaydi degan savol tug'iladi? Zararning hammasi ham qoplanishi mumkin, lekin buning uchun sug'urtalanuvchi majburiy sug'urtadan tashqari fuqarolik javobgarligini ixtiyoriy sug'urtalash polisiga ega bo'lishi kerak. CHunki etkazilgan zarar o'rnatilgan limitdan yuqori bo'lish holatlari ham kam emas.

Masalan, sug'urtalanuvchi fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash polisiga ega bo'lsa, Qonunga muvofiq jabrlanuvchining mulkiga zarar etkazilganda sug'urta qoplamasi \$1050ga teng miqdorda chegaralanadi, etkazilgan zarar miqdori \$3000 ni tashkil etadi. Bu holda sug'urta kompaniyasi faqat ko'zda

tutilgan \$1050 ni to'laydi, qolgan qiymatni esa sug'urtalanuvchi o'z yonidan to'lashiga to'g'ri keladi.

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashda sug'urta polisi qiymati birinchi navbatda transport vositasining turi va quvvatiga bog'liq (yillik baza stavkasi). Masalan, engil avtomobil dvigatelining hajmi, avtobus va mikroavtobusning yo'lovchi sig'imi, yuk avtomobilining yuk ko'tarish qobiliyati qanchalik katta bo'lsa, polis narxi ham shuncha yuqori bo'ladi.

Keyin quyidagilarga ko'ra sug'urta polisi narxini orttiruvchi va pasaytiruvchi koeffitsientlar qo'llaniladi:

- transport vositasi ro'yxatga olingan joy;
- transport vositasini boshqarishga ruxsat etilgan shaxslar soni;
- o'tgan davr va haydovchi staji davomida sug'urta hodisalarining ro'y bergan yoki bermaganligi;
- transport vositasidan foydalanishning mavsumiyligi;
- qoida buzish holatlarining mavjudligi;
- haydovchining yoshi.

SHu bilan birga, ta'kidlash kerakki, fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash bo'yicha maksimal sug'urta mukofoti yillik baza stavkasiga muvofiq ravishda uning besh barobaridan yuqori bo'lmasligi kerak.

SHunga ko'ra, agar sug'urtalanuvchi, masalan, divigatel hajmi 1200-2000 sm³ atrofida bo'lgan engil avtomobil egasi bo'lsa va undan taksi sifatida foydalanilmasa, fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashning yillik polisi miqdori yuqorida qayd etilgan omillarga ko'ra \$10,8 dan \$67,5 gacha bo'lgan qiymatni tashkil etadi.

SHu bilan birga, 1941-1945 yilgi urush qatnashchilari yoki partizanlari yohud ularga tenglashtirilgan shaxslar, 1941-1945 yildagi urush davri mehnat faxriylari, bolaligida ota-onalaridan biri yoki qayta turmushga chiqmagan beva ayol bilan birga konsentratsion lagerda bo'lgan sobiq asirlar, xarbiy xizmatni o'tash chog'ida yarador, kontuziyasi yoki nogiron bo'lgan va shuning natijasida

haok bo'lgan yoki frontda orttirilgan kasallik oqibatida vafot etgan xarbiy xizmatchilarning farzandlari, CHernobil AESidagi avariya natijasida jabrlanganlar, nafaqadagilar va nogironlar uchun sug'urta mukofoti narxining 50 foizi miqdorida chegirma belgilanadi.

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashda sug'urtalanuvchi yo'l-transport hodisasi aybdori bo'lib qolsa va uchinchi bir shaxsga zarar etkazsa, bunday vaqtda sug'urtalanuvchi yoki sug'urtalanuvchining vakolatiga ega bo'lgan shaxs yo'l-transport hodisasi sodir bo'gandan so'ng 72 soatdan kechigmagan holda sug'urta kompaniyasining, yo'l harakati xavfsizligi xizmatining hodisa sodir bo'lgan va transport vositasi ro'yxatga olingan xududlardagi bo'limlarini yozma ravishda voqeadan xabardor qilishi lozim.

SHuningdek, sug'urta kompaniyasiga sug'urta polisining asli yoki nusxasini ilova qilgan holda sug'urta to'lovini to'lash haqidagi ariza, etkazilgan zarar fakti va miqdorini, mulkka etkazilgan zarar vaqti va miqdorini, jabrlanuvchining shaxsini, vorislik yoki huquqqa egalikning kuchga kirishini tasdiqlovchi hujjatlarni, shuningdek, vorislarning shaxsini va huquqqa egalikning davlat ro'yxatidan o'tganini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi lozim.

O'z navbatida, sug'urta kompaniyasi 15 kun muddatdan kechiktirmagan holda sug'urta qoplamasini to'lash to'g'risidagi arizani ko'rib chiqishi va o'z qarorini sug'urtalanuvchiga ma'lum qilishi shart. Sug'urta qoplamasi to'lash rad qilinganda, rad qilish to'g'risidagi qarorda asoslovchi dalillar ko'rsatilgan bo'lishi shart.

Sug'urtalanuvchi, birinchi navbatda, o'z tashabbusi yoki sug'urta kompaniyasining talabi bilan zararlangan mulkni yoki uning qoldiqlarini zarar etkazilish holatlarini aniqlash va qoplanishi talab etiladigan zarar miqdorini aniqlash maqsadida ko'rib chiqish va mustaqil ekspertizadan o'tkazish uchun sug'urta kompaniyasiga taqdim etishi shart.

Sug'urta kompaniyasi esa, o'z navbatida, agar o'zaro yozma ravishda boshqa muddat kelishilmagan bo'lsa, zararlangan mulk yoki uning qoldiqlarini besh kundan ortiq bo'lmagan muddat ichida ko'rib chiqishi va mustaqil ekspertizasi o'tkazishi darkor.

Sug'urta kompaniyasi zararlangan mulkni yoki uning qoldiqlarini ko'rib chiqmasa va yuqorida qayd etilgan muddat ichida mustaqil ekspertiza o'tkazmasa, sug'urtalanuvchi shunday ekspertizani mustaqil ravishda tashkil etishi mumkin. Bundan tashqari, bunday holda sug'urtalanuvchi sug'urta kompaniyasiga zararlangan mulk yoki uning qoldiqlarini taqdim etmaslikka haqlidir, sug'urta kompaniyasi esa mazkur mustaqil ekspertiza natijalariga e'tiroz bildirishi mumkin emas.

Sug'urta to'lovi uchun asos bo'lgan mustaqil ekspertiza qiymati sug'urta kompaniyasi tomonidan qoplanuvchi zarar tarkibiga kiritiladi, ammo har qanday takdirda ham umumiy to'lov o'rnatilgan sug'urta summasidan oshmasligi kerak. SHuni unutmaslik kerakki, sug'urta qoplamasini to'lash sug'urta kompaniyasi tomonidan zararni qoplash to'g'risidagi qapor qabul qilingandan keyin 5 kundan kechiktirmay amalga oshiriladi

Boshqa variant. Mijoz jabrlanuvchiga etkazgan zararni o'z yonidan to'laydi, sug'urta kompaniyasi esa o'rnatilgan limit (sug'urta miqdori) doirasida mijozning xarajatini qoplaydi. Ammo sharti shundaki, bu ishni mijoz o'z sug'urta kompaniyasining yozma roziligi asosida amalga oshirgan bo'lsa va unga etkazilgan zararni qoplaganini tasdiqlovchi hujjatlarni takdim etgan bo'lishi kerak. Agar mijoz zararni qisman qoplagan bo'lsa, sug'urta kompaniyasi sug'urta to'lovining tegishli qismini mijoziga, qolgan qismini esa jabrlanganga (uning vorisi yoki xuquqa egalik qiluvchi shaxsga) yuqoridagi shartga asosan to'laydi. Yana bir variant mavjud. Jabrlanuvchi hayotiga, sog'lig'iga va (yoki) mulkiga etkazilgan zararni qoplashni so'rab yozma ravishda o'zi polis olgan sug'urta kompaniyasiga murojat qiladi. O'z navbatida, ushbu kompaniyaning sug'urta qoplamasini to'lash bilan bog'liq barcha harajatlarini qoplaydi. Bu sug'urta holati zararni bevosita

bartaraf etishi deb ataladi. Ta'kidlash joizki, sug'urta kompaniyasi mijozining tashabbusi yoki sug'urta kompaniyasining talabi bilan qabul qilingan zararni bartaraf etish yoki kamaytirish bo'yicha kechiktirib bo'lmay choralari bilan bog'liq mijozning barcha talab qilingan va isbotlangan (sud xarajatlari, jarimalar va boshqa shunga o'xshash to'lovlardan tashqari) xarajatlarini qoplaydi.

3. Bugungi kunda majburiy sug'urtaning mavjudligi sug'urtaning mamlakat iqtisodiyotiga kirib borishida asosiy omillardan biridir. Albatta, sug'urtaning majburiy turlarini tadbiq etish respublikada sug'urta sohasi rivojiga ko'p jihatdan imkon yaratadi. Lekin majburiy sug'urta turini qurishdan asosiy maqsad aholining muxtoj qatlamlarini ijtimoiy himoyalashdir. Bugungi kunda majburiy sug'urta aholining muhtoj qatlamlari uchun ijtimoiy himoyani bozor iqtisodiyoti prinsiplari asosida ta'minlovchi qulay usul hisoblanadi.

Sug'urtaning majburiy turlari ijtimoiy himoyani bozor iqtisodiyoti sharoitida ta'minlashda qanchalik dolzarb ekanligini hisobga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorini isloh va rivojlantirishning 2007-2010 yillarga mo'ljallangan Dasturi tasdiqlangan. Bu Dastur respublikada sug'urta sohasini rivojlantirish bilan bir qatorda majburiy sug'urtaning ijtimoiy yo'naltirilgan tizimini yaratishni ko'zda tutadi. Bugungi kunda mamlakatimizda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash hamda ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash muvafaqiyatli amal qila boshladi.

2009 yilning 17 aprelida O'zbekiston Respublikasining "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Ushbu Qonun sug'urta bozorini isloh qilish va rivojlantirishning 2007-2010 yillarga mo'ljallangan Dasturida ko'zda tutilgan majburiy sug'urtaning ikkinchi turini tadbiq etishni nazarda tutadi. Ushbu Qonunni qabul qilishdan ko'zda tutilgan maqsad mehnat jarayonida jarohat olgan, kasb kasalligi yoki xizmat burchini bajarayotgan vaqtda salomatligiga ziyon etkazgan kishilarning ijtimoiy himoyasini ta'minlashdan iborat.

SHuni ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi bugungi kunda xizmat burchini bajarayotgan paytida jarohat olgan xodimlarning ijtimoiy muhofazasini ko'zda tutadi. Mehnat Kodeksi ish beruvchining xodimiga etgan ziyon uchun javobgar ekanini belgilagan. Ma'lumki, Mehnat Kodeksining 189- va 192-moddalariga binoan, ish beruvchi olgan jarohati, kasb kasalligi yoki mehnat jarayoni bilan bog'liq ravishda sog'lig'iga etgan zararni, shuningdek boquvchisini yo'qotganlik uchun etgan zararni belgilangan tartibda to'liq qoplashi shart.

Ko'rinib turibdiki, xizmat burchini o'tayotgan paytda jarohat olgan xodimlarni moddiy jihatdan himoyalash ish beruvchi hisobidan amalga oshiriladi. Xodimning xizmat burchini o'tayotgan paytda olgan jarohati uchun ish beruvchi javobgar hisoblanadi.

SHu bilan birga, ish beruvchi qoplashi kerak bo'lgan zarar hajmi doim ham ish beruvchining moliyaviy imkoniyatlariga mos kelavermaydi yoki ish beruvchining faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. CHunki ish beruvchi qoplashi kerak bo'lgan ziarar hajmiga bir vaqtda va har oyda to'lanishi kerak bo'lgan kompensatsiya to'lovlari kirishi mumkin. Masalan, Mehnat Kodeksining 190-moddasiga binoan, xodimning sog'lig'iga etgan zarar uchun qoplanishi kerak bo'lgan mablag' xodim jarohat olgan vaqtga qadar olgan oylik o'rtacha ish haqiga qo'shimcha ravishda, xodim olgan jarohat darajasiga qarab belgilangan oylik foiz, jarohat olishi bilan bog'liq harajatlarni qoplash, shuningdek, bir martalik nafaqa ko'rinishidagi to'lovdan iborat. Bir martalik nafaqa hajmi jamoa shartnomasida, agar shartnoma tuzilmagan bo'lsa, ish beruvchi va kasaba uyushmasi yoki xodimlarning boshqa vakolatli organi o'rtasidagi kelishuvga binoan belgilanadi. Bunda jarohat olgan xodimga to'lanadigan bir martalik nafaqa hajmi jaroxatlangan xodimning bir yillik o'rtacha ish haqidan kam bo'lmasligi, halok bo'lgan xodimning oila a'zolariga beriladigan bir martalik nafaqa hajmi esa xalok bo'lgan xodimning oltita o'rtacha yillik ish haqidan kam bo'lmasligi kerak.

SHu munosabat bilan, “Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urtalash to‘g‘risida”gi Qonun barcha ish beruvchilarga ularning xodimlari xizmat burchini o‘tayotgan paytda hayoti yoki salomatligiga ziyon etgan taqdirda majburiy tarzda sug‘urta himoyasini taqdim etishni ko‘zda tutadi.

Qonun xodimlarning xizmat burchini o‘tayotgan paytda hayoti yoki salomatligiga ziyon etishi yoki kasb kasalligiga uchrashi, halok bo‘lishi yohud kasb kasalligi oqibatida vafot etishi bois ish beruvchining javobgarligi yuzaga kelgan hollarda sug‘urta kompaniyalari tomonidan davriy va bir martalik to‘lovlarni to‘lash uchun zarur mablag‘larni to‘lashlarini ta‘minlovchi murakkab tizim uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda turli mulkchilik shaklidagi 34 ta sug‘urta kompaniyasi faoliyat ko‘rsatmoqda. Jumladan, “O‘zbekinvest” EIMSK jadal rivojlanayotgan sug‘urta kompaniyalaridan biridir. 1994 yilda tashkil etilgan ushbu kompaniya bugun barcha viloyatlar va Qoraqalpog‘iston Respublikasida keng hududiy filiallar tarmog‘iga va sug‘urta bo‘limlariga ega.

Sug‘urta qonunchiligiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining “Umumiy sug‘urtalash” ning 17 toifasi bo‘yicha sug‘urta qilish va qayta sug‘urtalash xizmatlarini ko‘rsatish huquqini beradigan litsenziyasiga ega ushbu kompaniya asosiy e‘tiborini bugungi kundagi dolzarb vazifa – ish beruvchining fuqaroligini majburiy sug‘urta qilish ko‘lamini kengaytirishga qaratmoqda.

Sug‘urtaning ushbu turining majburiyligi birinchi navbatda mamlakatning barcha ish beruvchilarini qamrab olish imkonini beradi. Bu esa o‘z navbatida sug‘urtaning ushbu turi bo‘yicha minimal sug‘urta tariflarini qo‘llash imkonini yaratadi. Mohiyatan, majburiy sug‘urtaning bu turi mamlakat ish beruvchilari o‘rtasidagi jabr ko‘rgan ish beruvchilar ko‘rgan zararlarni qoplash uchun mo‘ljallangan mablag‘larni qayta taqsimlash mexanizmi sifatida ish ko‘radi.

Bu mexanizm birinchi navbatda jabr ko‘rgan xodimlar ko‘rgan zararni qonunda belgilangan sug‘urta summasi doirasida qoplash kafolatini ta‘minlaydi.

Ikkinchidan, majburiy sug'urta ish beruvchi o'zining jabr ko'rgan xodmiga zararni qoplab berganda ham moliyaviy barqarorligi saqlanib qolishi va ish beruvchining faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi real usul bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur sug'urta turiga asosan ish beruvchi, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini sug'urtalash shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi, annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi, jabrlanuvchi va naf oluvchi ushbu majburiy sug'urta turining sub'ektlari sanaladi. Jismoniy shaxs bilan qonunchilikda belgilangan tartibda mehnat shartnomasini tuzgan yuridik yoki jismoniy shaxs ish beruvchi deb tan olinadi.

Mehnat jarohati, kasb kasalligi yoki xizmat burchini bajarayotgan vaqtda salomatligiga ziyon ktib, sug'urta qoplamasini olish huquqiga ega bo'lgan xodim jabrlanuvchi hisoblanadi.

Naf oluvchi – xodim o'z xizmat burchini o'tayotgan vaqtda halok bo'lgan hollarda sug'urta qoplamasini olish huquqiga ega bo'lgan shaxslardir. Masalan, halok bo'lgannning qaramog'ida bo'lgan mehnatga layoqatsiz shaxslar, shuningdek, o'n olti yoshga etmagan farzandlari, otasining o'limidan keyin tug'ilgan bolasi, halok bo'lgan kishining ishlamaydigan yo bo'lmasa, bolalar tarbiyasi bilan band bo'lgan xotini (yoki eri), yoki halok bo'lgan kishining farzandlari, uch yoshga etmagan uka va singillari, nabiralarini tarbiyalayotgan oilaning boshqa a'zosi yoki halok bo'lganning o'limi kunida uning qaramog'ida bo'lish huquqiga ega bo'lganlar.

4. SHaxsiy sug'urta tizimini huquqiy tartibga solish

SHaxsiy sug'urta – baxtsiz hodisalar yoxud tabiiy hodisalar ro'y berishi oqibatida fuqarolarning hayoti va sog'ligiga shikast etkazilishi bilan bog'liq ularning mulkiy manfaatlarini himoyalashga qaratilgan sug'urtaning mustaqil tarmog'i. SHaxsiy sug'urta fuqarolar boshiga kulfat tushganda ularni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashning muhim vositasi hisoblanadi. SHu ma'noda, shaxsiy sug'urta ijtimoiy himoyaning hayotiy tajribada sinalgan ishonchli shaklidir.

SHaxsiy sug'urtaning, xususan uning ajralmas bo'g'ini bo'lgan fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtasining joriy etilishi bir necha asrlik tarixga ega. 1541

yilda Evropada mavjud bo'lgan dengiz huquqi qoidalariga ko'ra, kema egalari shu kema kapitanlarini baxtsiz hodisalardan sug'urtalashlari shart bo'lgan.

SHaxsiy sug'urtaning ba'zi belgilari qadimgi rimliklarga ham ma'lum bo'lgan. O'sha paytda Diana va Antoni muxlislarining diniy jamiyati bo'lgan. Unga a'zo bo'lib kirgan shaxslar a'zolik badalini to'lashgan. Jamiyat a'zolaridan vafot etganda uni ko'mish bilan bog'liq xarajatlar jamiyat hisobidan amalga oshirilgan va hatto, pul mablag'larining muayyan qismi vafot etgan shaxsning merosxo'rlariga berilgan.

1699 yil Angliyada shaxsiy sug'urta bilan shug'ullanadigan dastlabki sug'urta tashkiloti barpo etilgan va u avvalo beva ayollar hamda etim bolalarni sug'urtasini amalga oshirgan. Bu jamiyatning nomi "Ekvatebl" deb atalgan. XVIII asrda esa Germaniyada suyak sinishi holatlaridan himoyalash bo'yicha o'zaro yordam uyushmalari tashkil etilgan. 1849 yili Angliyada temir yo'llarda baxtsiz hodisalardan sug'urtalash bo'yicha dastlabki «Railway Death Rassengers Company» nomli sug'urta kompaniyasi tuzildi.

SHaxsiy sug'urta bo'yicha sug'urtalanuvchi sifatida har qanday yuridik va jismoniy shaxs bo'lishi mumkin.

SHaxsiy sug'urta – bu inson hayotiga, uning mehnat qobiliyati va salomatligiga tahdid soladigan turli xavf-xatarlardan himoyalanişning muhim shakli.

Hozirgi paytda shaxsiy sug'urta sug'urta faoliyatining yirik tarmog'i sifatida jahon amaliyotida keng qo'llaniladi. Rivojlangan xorijiy davlatlarda shaxsiy sug'urta turlari bo'yicha kelib tushgan sug'urta mukofotlari boshqa sug'urta turlari bo'yicha kelib tushgan sug'urta mukofotlariga nisbatan yuqori salmoqqa ega. Masalan, AQSHda jami yig'ilgan sug'urta mukofotlari hajmida shaxsiy sug'urtaning hissasi 50,0 foizdan yuqoridir.

O'tgan asrning boshlarida hozirgi O'zbekiston hududida Rossiya sug'urta tashkilotlarining vakolatxonalari faoliyat ko'rsatgan va ular aholiga shaxsiy sug'urta xizmatlarini ko'rsatishgan.

1917 yildan 1990 yilgacha mamlakatimizda shaxsiy sug'urtalash ishlari davlat sug'urta organlari (Gosstrax) tomonidan amalga oshirilgan. Ana shu davrda sug'urta shartlari, qoidalari va tariflari markazda-Moskvada ishlab chiqilar va aksariyat hollarda mahalliy shart-sharoitlar va xususiyatlar hisobga olinmas edi.

1991 yilda O'zbekistonning o'z siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini qo'lga kiritishi hayotimizning barcha jabhalari qatorida sug'urta sohasini ham bozor munosabatlari tamoyillariga mos ravishda rivojlanishi uchun sharoit yaratdi. To'g'ri, mustaqillikning dastlabki yillarida iqtisodiyotda ro'y bergan keskin

o'zgarishlar qisqa muddat bo'lsada pulning qadrsizlanishiga, pirovardida, aholi turmush darajasining pasayib ketishiga olib keldi. SHubhasiz, bu holat shaxsiy sug'urtaning aholi o'rtasidagi ommaviyligiga putur etkazdi. Natijada, bu sug'urta turlari bo'yicha sug'urta shartnomalari soni va sug'urta mukofotlari miqdori kamaydi. Bunday salbiy vaziyatni oldini olish va aholining shaxsiy sug'urtaga bo'lgan ishonchini tiklash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholining omonotlardagi va davlat sug'urtasi bo'yicha pul mablag'larini indeksatsiya qilish to'g'risida" 1995 yilning 20 dekabrda PF № 1327-son Farmoni qabul qilindi.

Ushbu Farmonga muvofiq, 1996 yildan boshlab aholining 1992 yil 1 yanvargacha bo'lgan holatiga ko'ra va 1996 yil 1 yanvargacha amalda bo'lgan Davlat sug'urta bosh boshqarmasi muassasalarida turgan hayotni, bolalarni sug'urta qilish, nikoh kunida beriladigan uzoq muddatli sug'urta shartnomalari to'lovlarini bosqichma-bosqich indeksatsiya qilish maqsadga muvofiq deb topildi. Davlat sug'urta muassasalari tomonidan 1996 yilning 1 yanvaridan 1 iyuligacha bo'lgan muddatda fuqarolarning 400,0 mingdan ziyod shartnomalari indeksatsiya qilindi.

O'zbekiston Respublikasida shaxsiy sug'urtani amalga oshirishning huquqiy asoslari Fuqarolik kodeksining 921-moddasida aks ettirilgan. Unga ko'ra, shaxsiy sug'urta shartnomasi bo'yicha bir taraf (sug'urtalovchi) boshqa taraf (sug'urta qildiruvchi) to'laydigan, shartnomada shartlashilgan haq (sug'urta mukofoti) evaziga sug'urta qildiruvchining o'zining yoxud shartnomada ko'rsatilgan boshqa fuqaro (sug'urtalangan shaxs)ning hayoti yoki sog'ligiga zarar etkazilgan, u muayyan yoshga to'lgan yoki uning hayotida shartnomada nazarda tutilgan boshqa voqea (sug'urta hodisasi) yuz bergan hollarda shartnomada shartlashilgan pulni (sug'urta pulini) bir yo'la yoki vaqt-vaqti bilan to'lab turish majburiyatini oladi. SHuningdek, kodeksda shaxsiy sug'urta shartnomasi kimning foydasini ko'zlab tuzilgan bo'lsa, o'sha shaxs sug'urta pulini olish huquqiga ega bo'ladi, deb ko'rsatilgan.

SHaxsiy sug'urta shartnomasi tuzishda sug'urta qildiruvchi bilan sug'urtalovchi o'rtasida quyidagilar to'g'risida kelishuvga erishilishi lozim:

- sug'urtalangan shaxs to'g'risida;
- sug'urtalangan shaxs hayotida yuz berishi ehtimol tutilib sug'urta amalga oshirilayotgan voqea (sug'urta hodisasi)ning xususiyati to'g'risida;
- sug'urta puli miqdori to'g'risida;
- sug'urta mukofotining miqdori va uni to'lash muddati (muddatlari) to'g'risida;

- shartnomaning amal qilish muddati to'g'risida.

Taraflarning kelishuviga binoan shartnomaga boshqa shartlar ham kiritilishi mumkin. Agar sug'urta shartnomasi sug'urta qildiruvchi, sug'urtalangan shaxs yoki naf oluvchi hisoblangan fuqaroning ahvolini qonun hujjatlarida belgilangan qoidalarga nisbatan yomonlashtiradigan shartlarni o'z ichiga olsa, shartnomaning ana shu shartlari o'rniga qonun hujjatlarining tegishli qoidalari qo'llaniladi.

Sug'urtalanuvchining hayoti, sog'lig'i, mehnat qobiliyati bilan bog'liq mulkiy manfaatlari shaxsiy sug'urtaning ob'ekti hisoblanadi. Sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchilar hamda sug'urtalangan shaxslar shaxsiy sug'urta sub'ektlaridir.

SHaxsiy sug'urta, odatda, fuqarolarni quyidagi xavf-xatarlardan himoyalashini nazarda tutadi:

- sug'urtalanuvchining yoki sug'urtalangan shaxsning vafot etishi;
- mehnat qobiliyatini vaqtinchalik yo'qotishi;
- nafaqa yoshiga etishi bilan fuqaroning faol mehnat faoliyatini tugashi.

YUqorida qayd etilgan hamma holatlarda sug'urta hodisasini ro'y berishi sug'urtalanuvchining yoki sug'urtalangan shaxsning daromadini kamayishiga sabab bo'ladi.

Ilmiy-iqtisodiy adabiyotlarda shaxsiy sug'urta turlicha tasniflanadi. Mutaxassislar o'rtasida keng tarqalgan fikrlarga ko'ra, shaxsiy sug'urta 2 ta kichik tarmoqqa bo'linadi:

- hayot sug'urtasi;
- sog'liqni sug'urtalash;

Sog'liqni sug'urtalash, o'z navbatida, 2 ta guruhga bo'linadi:

- baxtsiz hodisalardan sug'urtalash;
- tibbiy sug'urta.

SHaxsiy sug'urtani hayot sug'urtasiga va sog'liqni sug'urtasiga bo'linishiga asosiy sabab sug'urta summalarini jamg'arilib borilishidir. Hayot sug'urtasi uzoq muddatli bo'lib, unda shartnoma bo'yicha belgilangan sug'urta summasi har yili jamg'arilib boradi.

Fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalashda sug'urta summolari jamg'arilmaydi, muddati 1 yildan oshmaydi.

2002 yilning 28 mayidan e'tiboran "Sug'urta faoliyati to'g'risida" qonunning qabul qilinishi bilan sug'urta 2 ta tarmoqqa bo'lindi:

- hayot sug'urtasi;

- umumiy sug'urta.

Qonunga asosan sug'urtalovchilarning faoliyati sug'urtaning qaysi tarmog'iga ixtisoslashganligiga qarab alohida litsenziyalanadigan bo'ldi. Hayot sug'urtasini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo'lgan sug'urtalovchilar umumiy sug'urta turlarini o'tkazishga haqli emas yoki aksincha.

SHaxsiy sug'urta ixtiyoriy va majburiy shakllarda amalga oshiriladi.

Ixtiyoriy shaxsiy sug'urta turlariga quyidagilar kiradi:

- hayot sug'urtasi;
- fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalash;
- fuqarolarning sog'lig'ini va kasalliklardan sug'urtalash;
- fuqaroni ma'lum yoshgacha etishish sug'urtasi;
- vafot etish holatidan uzoq muddatli sug'urta;
- tibbiy sug'urta;
- chet elga ketuvchilarni kasalliklardan sug'urta;
- maktab o'quvchilarini baxtsiz hodisalardan sug'urtalash.

Majburiy tarzda amalga oshiriladigan shaxsiy sug'urta turlariga quyidagilar kiradi:

- yo'lovchilarni baxtsiz hodisalardan majburiy sug'urtalash;
- soliq organlari xodimlarini baxtsiz hodisalardan majburiy davlat sug'urtasi;
- O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati, Davlat bojxona qo'mitasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi xodimlarini baxtsiz hodisalardan majburiy davlat sug'urtasi.

Majburiy davlat sug'urtasini 2003 yil 1 yanvardan boshlab "O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi o'tkazib kelmoqda. Ushbu sug'urta turlari bo'yicha sug'urta tarifi bir sug'urtalanuvchiga bir yilga eng kam oylik ish haqining 20 foizi miqdorida belgilangan.

Hozirgi paytda mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta tashkilotlari, asosan, quyidagi sug'urta turlarini amalga oshirishadi:

- baxtsiz hodisalardan sug'urtalash;
- ixtiyoriy tibbiy sug'urta va kasal bo'lish holatidan sug'urta;
- chet elga ketayotgan shaxslarni sug'urtasi;
- hayot sug'urtasi.

YUqorida qayd etilgan sug'urta turlari ichida baxtsiz hodisalardan sug'urtalash keng tarqalgan bo'lib, ular "O'zbekinvest" EIMSK, "O'zagrosug'urta" va "Kafolat" davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyalari, "Madad" sug'urta agentligi kabi bir qator sug'urta tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi.

SHaxsiy sug'urtaning ixtiyoriy turlari bo'yicha tarif stavkalari sug'urta tashkiloti tomonidan bozordagi talab va taklif, mijozning yoshini hisobga olgan holda aktuar hisob-kitoblar asosida ishlab chiqiladi. SHaxsiy sug'urtaning majburiy turlari bo'icha tarif stavkalari qonunchilik hujjatlariga muvofiq hukumat tomonidan belgilanadi.

Sug'urta bozorida mijozlarni jalb etish bo'yicha raqobat bo'lganligi tufayli ixtiyoriy shaxsiy sug'urta turlari bo'yicha tarif stavkalari turlichadir. Masalan, "O'zbekinvest" kompaniyasida 20-25 yoshlardagi shaxslarni 100,0 ming so'mga sug'urtalash uchun tarif stavkasi ana shu sug'urta summasiga nisbatan 1,125 foizni, yoshi 55-60 da bo'lgan fuqarolar uchun esa tarif stavkasi 1,575 foizni tashkil etadi. "O'zagrosug'urta" sug'urta kompaniyasida maktab o'quvchilarini baxtsiz hodisalardan ixtiyoriy sug'urtalash bo'yicha tarif stavkasi sug'urta summasiga nisbatan 0,2 foiz miqdorida belgilangan.

"Kafolat" sug'urta kompaniyasida talabalarni baxtsiz hodisalardan ixtiyoriy sug'urtasi bo'yicha tarif stavkasi sug'urta summasiga nisbatan 0,5 foizni tashkil etadi.

SHaxsiy sug'urta turlari tarkibida fuqarolarni baxtsiz hodisalardan ixtiyoriy sug'urtalash alohida o'ringa ega. SHu bois, biz ushbu sug'urta turi bilan yaqindan tanishamiz. Fuqarolarni baxtsiz hodisalardan ixtiyoriy sug'urtalash bo'yicha shartnoma qonunga ko'ra yuridik va jismoniy shaxslarni yozma arizasi asosida tuziladi. SHartnoma tuzishdan oldin sug'urta tashkiloti o'z mijozlariga sug'urta xizmatini taklif etadi. YUridik va jismoniy shaxslar sug'urta shartnomasi tuzishdan oldin albatta sug'urtalovchining moliyaviy holati, litsenziyasi mavjudligi bilan qiziqishi lozim.

Sug'urta shartnomasi tuzishdan oldin sug'urta tashkiloti vakili sug'urtalayotgan shaxslarni fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalash qoidalar bilan tanishtirishi lozim. Mazkur sug'urta turi bo'yicha fuqarolarni baxtsiz hodisa ro'y berish natijasida sog'lig'i va hayotini saqlash bilan bog'liq manfaat sug'urta ob'ekti hisoblanadi. Sug'urtalovchi, odatda, asab va ruxiy kasallikka duchor bo'lgan, falaj, ko'zi ojiz shaxslar, eshitish qobiliyati zaif bo'lgan va nogiron shaxslar bilan sug'urta shartnomasini tuzmaydi.

Sug'urtalangan shaxsning hayotiga va sog'lig'iga quyidagi baxtsiz hodisalarni ro'y berishi natijasida shikast etganda va tasdiqlanganda sug'urta summalari berilishi mumkin:

- jarohat olganda;
- suyaklarni sinishi, chiqishi;
- ichki organlarni zararlanishi;

- kuyishi;
- teri qatlamlarini sovuq urishi;
- elekt toki ta'sirida jarohatlanishi;
- kimyoviy moddalar va zararli o'simlik ta'sirida zararlanishi;
- tish sinishi.

Bundan tashqari yuqorida qayd etilgan holatlar natijasida o'lim xolati yuz berganda xam sug'urta summasi to'lanadi.

Quyidagi hodisalarni ro'y berishi oqibatida sug'urtalangan shaxsning hayoti va sog'lig'iga shikast etkazilsa yoxud o'limga olib kelsa sug'urta summasi to'lanmaydi:

- yadro portlashi;
- radiatsiya va nurlanish;
- sug'urtalangan shaxsning atayin hatti-harakati natijasida baxtsiz hodisalar yuz berganda, o'z joniga qasd qilganda va jinoiy harakatlar natijasida ro'y berishi.

Sug'urta mukofoti sug'urta tashkilotining hisob-kitob raqamiga kelib tushgandan so'ng u shartnomada ko'rsatilgan muddat ichida fuqarolarga sug'urta polisini berishi shart. Agar sug'urta polisi yo'qotilgan taqdirda sug'urta tashkiloti sug'urtalangan shaxsga uning dublikatini beradi.

Sug'urtalanuvchilarning huquqlari:

- sug'urta shartnomasi amalda bo'lgan davrda sug'urtalangan shaxs sug'urta tashkilotidan sug'urta masalalari bo'yicha maslahatlar olishi;
- sug'urta polisi yo'qotilganda uning dublikatini olish.

Fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalashda sug'urtalangan shaxslar yana quyidagi huquqlarga ega bo'lishi mumkin:

- sug'urta summasini olishda nizolar paydo bo'lganda mustaqil ekspertni jalb etish;
- sug'urtalanuvchi bilan kelishilgan holda amaldagi sug'urta shartnomasiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish;
- sug'urtalovchi bilan kelishgan holda sug'urta shartnomasini muddatdan oldin bekor qilish.

Sug'urtalanuvchi majburiyatlari:

- sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan muddat va shartlarda sug'urta mukofotlarini to'lash;
- sug'urtalangan shaxslarga sug'urta shartnomasi shartlari to'g'risida ma'lumotlar berish.

Sug'urtalovchining huquqlari:

-sug'urta hodisalari sug'urtalovchi tomonidan tan olinmaganda sug'urta summalarini to'lamaslik;

- sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan muddatda sug'urta mukofoti to'lanmasa sug'urta shartnomasini bekor qilish.

Sug'urtalovchining majburiyatlari:

- fuqarolarni baxtsiz hodisalardan ixtiyoriy sug'urtalash qoidalari va sug'urta shartnomasi shartlari bilan sug'urtalanuvchini tanishtirish;

- sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan muddatda sug'urta polisini berish;

- sug'urta hodisasi ro'y berganda sug'urta summasini to'lash;

- sug'urta summasini to'lashdan voz kechilganda, u holda 10 kun muddatda sug'urtalanuvchiga yozma ravishda xabar berish.

Sug'urta hodisasi ro'y berganda bu haqida sug'urtalangan shaxslar qisqa muddatda sug'urtalovchiga xabar berishi lozim. Baxtsiz hodisa ro'y berganda sug'urtalangan shaxslar sug'urtalovchiga quyidagi hujjatlarni taqdim etishi shart:

- sug'urta polisi;

- davolash profilaktika muassasidan baxtsiz hodisa natijasida sug'urtalangan shaxsning davolanganligini tasdiqlovchi ma'lumotnoma.

Zaruriyat bo'lganda sug'urtalovchi sug'urta summasini to'lash masalasini hal etish uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlarni so'rashga ham haqli.

Baxtsiz hodisalar ro'y berish natijasida o'lim hodisasi ro'y berganda quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- sug'urta polisi;

- FXDYO bo'limidan o'lim holati ro'y bergani to'g'risida ma'lumotnoma;

- merosxurlik huquqini tasdiqlovchi hujjat;

agar o'lim hodisasi yo'l-transporti natijasida ro'y bergan bo'lsa, yo'l harakati xavfsizligi organidan olingan ma'lumotnoma

- shaxsni tasdiqlovchi hujjat.

Sug'urtalovchi zaruriyat bo'lganda yuqoridagi hujjatlardan tashqari boshqa hujjatlarni so'rashga ham haqli.

Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta summasini to'lash to'g'risida qaror qabul qilinganda sug'urta summasi shartnomada ko'rsatilgan muddat ichida to'lab beriladi.

5. Mol-mulk sug'urta tizimini huquqiy tartibga solish

YUridik shaxslarning mol-mulkini sug'urtalash sug'urta tashkilotlari tomonidan "Sug'urta faoliyati klassifikatori"ga muvofiq, umumiy sug'urta tarmog'ining 8-klassi - "Mol-mulkni olovdan va tabiiy ofatlardan sug'urta

qilish”da qayd etilgan shartlarda, ya’ni yong’in, portlash, bo‘ron, dovul, jala, ko‘chki, tuproqning cho‘kishi, emirilish, er osti suvlari, sel, yashin urishi, zilzila, yadro energiyasi ta’siri natijasida mol-mulk yo‘qotilganda yoki shikastlanganda sug‘urta qoplamasi to‘lanishini ta’minlovchi sug‘urtaning turlari asosida amalga oshiriladi. SHuningdek, mazkur klassifikatorning 9-klassi ham mol-mulklarni sug‘urta qilishga oid bo‘lib, u “Mol-mulkni zarardan sug‘urta qilish” deb ataladi. 9-klassning mazmuni 8-klassda ko‘rsatilmagan do‘l, qalin qor yog‘ishi yoki qattiq sovuq tushishi, buzib kirib o‘g‘irlik qilish va boshqa voqealar natijasida mol-mulk yo‘qotilganda yoki shikastlanganda sug‘urta qoplamasi to‘lanishini ta’minlovchi sug‘urtaning turlari jamidan iborat.

SHuni alohida ta’kidlash joizki, yuridik shaxslarning mol-mulkini sug‘urta qilish huquqiga O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 8 va 9-klasslar bo‘yicha litsenziya olgan barcha sug‘urta tashkilotlari haqlidir.

YUridik shaxslarning mol-mulkini sug‘urta qilish sug‘urtalovchilar bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiriladi.

Sug‘urta shartnomasi - tomonlarning aniq yuridik va moliyaviy munosabatlarini belgilab beruvchi xujjatdir. SHartnomada franshiza qo‘llanilishi mumkin. Franshiza-yuridik shaxslar ko‘rgan zararining muayyan qismi bo‘lib, sug‘urta hodisasi yuz berganda sug‘urta tashkiloti ana shu qism doirasida javobgar bo‘lmaydi va u to‘lanishi kerak bo‘lgan sug‘urta qoplamasidan chegirib tashlanadi.

Sug‘urtalovchi yuridik shaxslarga tegishli mol-mulklarni yong’in, zilzila, toshqin, suv bosishi, ko‘chki, bo‘ron, er cho‘kishi, ichki sanitariya texnikasi tizimlari buzilishi natijasida to‘liq yoki qisman nobud bo‘lganda sug‘urta qoplamasini, sug‘urtalanuvchi bo‘lgan yuridik shaxslar esa sug‘urta mukofotini o‘z vaqtida to‘lash va shartnomaning boshqa shartlarini bajarish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi. Mana shu qayd etilgan holatlar sug‘urta tashkiloti va yuridik shaxslar o‘rtasida mol-mulkni sug‘urtalash bo‘yicha tuzilgan shartnomaning predmetini tashkil etadi.

Suturtalovchining majburiyatlari sug‘urta mukofoti suturtalovchining hisob-kitob raqamiga kelib tushgan paytdan e’tiboran kuchga kiradi. So‘ng sug‘urta polisi sug‘urtalanuvchiga shartnomada ko‘rsatilgan muddat ichida beriladi.

YUridik shaxslarning hamda sug‘urtalovchi o‘rtasida tuzilgan sug‘urta shartnomasida tomonlarning huquq va majburiyatlari aks ettiriladi.

Sug‘urtalanuvchi bo‘lgan yuridik shaxslarning majburiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Sug‘urta ob’ektini ko‘zdan kechirish uchun imkoniyat yaratib berish;

- Sugʻurta mukofotlarini oʻz vaqtida toʻlash;

• SHartnoma tuzilayotganda sugʻurtalovchiga sugʻurta tavakkalchiligini baholash uchun ahamiyat kasb etuvchi oʻziga maʼlum barcha holatlar haqida, shuningdek mazkur sugʻurta obʼekti boʻyicha tuzilgan yoki tuzilajak hamma sugʻurta shartnomalari toʻgʻrisida maʼlumot berish;

• Sugʻurta hodisasi yuz berganda sugʻurtalangan mulkiga zarar etkazilishining oldini olish va zararni kamaytirish uchun zarur choralarni koʻrish va sugʻurtalovchiga sugʻurta hodisasi sodir boʻlganligi haqida sugʻurta shartnomasida koʻrsatilgan muddatlarda xabar berish.

YUridik shaxslar sugʻurtalangan mulkini koʻzdan kechirish uchun sugʻurtalovchiga taqdim qilishi yoki mulkning barcha zararlangan qismlarining fotosurati yoki video suratini oldirishi va tiklash ishlari boshlangunga qadar oʻzi qiladigan ishlarni sugʻurtalovchi bilan kelishib olishi kerak.

YUridik shaxslar quyidagi huquqlarga ega boʻlishi mumkin:

• butun mulkni va ayrim obʼektlarni tomonlarning qoʻshimcha kelishuvi yoki yangi sugʻurta shartnomasi shartlari asosida qoʻshimcha sugʻurtalash;

• sugʻurta hodisasi sodir boʻlganda mustaqil ekspertiza oʻtkazilishini talab qilish;

• sugʻurta shartnomasi amalda boʻlgan davrda sugʻurtalovchidan sugʻurta masalalari borasida maslahatlar olish;

• sugʻurtalovchi bilan kelishgan holda sugʻurta shartnomasiga qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish.

YUridik shaxslar oldida sugʻurta shartnomasiga muvofiq sugʻurta tashkiloti quyidagi majburiyatlarga ega boʻladi:

• shartnomada belgilangan muddatlarda sugʻurta polisini berish va shartnoma tuzishda asoslanilgan sugʻurtalash qoidalarini bilan tanishtirish;

• sugʻurta shartnomasida nazarda tutilgan sugʻurta hodisalari yuz berganda sugʻurta hodisasi sodir boʻlganligi haqidagi dalolatnoma asosida sugʻurta qoplamasi toʻlash;

• sugʻurtalanuvchi bilan boʻladigan munosabatlarda mahfiylikni taʼminlash.

SHu bilan bir qatorda sugʻurta tashkilotining huquqlari quyidagilardan iborat boʻlishi mumkin:

• agar sugʻurta hodisasi:

a) sugʻurtalovchining sugʻurta hodisasini keltirib chiqarish uchun ataylab qilgan hatti-harakatlari natijasida yuz bergan boʻlsa;

b) sug'urtalanuvchi tavakkalchilikdagi jiddiy o'zgarishlar haqida sug'urtalovchini boxabar qilgan bo'lmasa;

v) sug'urtalanuvchi sug'urta hodisasi to'g'risida sug'urtalovchiga xabar bermagan yoki etkazilgan zarar tafsilotlari, turi va miqdorini aniqlashda sug'urtalovchi yoxud uning vakili ishtirok etishiga to'sqinlik qilgan bo'lsa;

g) sug'urtalanuvchi zararni aniqlash uchun zarur bo'lgan hujjatlarni taqdim etmagan bo'lsa, sug'urta to'voni to'lashni rad etish;

- sug'urta shartnomasining muddati mobaynida sug'urtalangan mulkning ahvoli va qiymatini, shuningdek sug'urtalanuvchi o'z mulki haqida ma'lum qilgan ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirish;

- sug'urtalanuvchidan sug'urta hodisasi haqida xabar kelishini kutib o'tirmasdan, sug'urta hodisasi etkazgan zararni ko'zdan kechirish va baholashga kirishish;

- sug'urta hodisasi yuz berish xavfining darajasini ifodalovchi qo'shimcha hujjatlarni talab qilib olish.

Sug'urtalanuvchi bo'lgan yuridik shaxslar sug'urta mukofotini shartnomada ko'rsatilgan muddatda to'lamaganda shartnoma yuridik kuchini yo'qotishi mumkin.

Agar sug'urtalangan mulkning yo'qolishi yoki zararlanishiga quyidagilar sabab bo'lsa sug'urta tashkiloti sug'urta javobgarligidan ozod etilishi mumkin:

a) sug'urtalanuvchining majburiyatlari kuchga kirgunga qadar mulkda mavjud bo'lgan hamda sug'urtalanuvchi yoki uning vakillariga ma'lum bo'lgan kamchilik va nuqsonlar;

b) sug'urtalangan mulkdan foydalanish qoidalarining sug'urtalanuvchi yoki uning vakillari tomonidan buzilishi natijasida zarar etkazilishi;

v) sug'urtalanuvchining yoki uning shartnoma bo'yicha sug'urtalangan mulk ishonib topshirilishi mumkin bo'lgan xodimlaridan, vakillaridan yoki boshqa shaxslardan birining ehtiyotsizligi, vijdotsizligi, nosamimiyligi, shuningdek mulkka mulkdorlik yoxud egalik huquqining qalloblik yo'li bilan boshqa shaxsga o'tkazilishi;

g) doimiy ta'sir ko'rsatuvchi foydalanish omillari (eskirish, zanglab chirish) va ob-havo omillari ta'sirida yoxud sug'urtalangan narsalardan foydalanmaslik oqibatida asta-sekin zararlanish;

d) sug'urtalanuvchi yoki uning vakillari tomonidan yong'in xavfsizligi qoidalarining buzilishi;

e) engil alanganadigan modda va materiallarni saqlash yoki ulardan foydalanish qoidalarining buzilishi;

z) sug'urtalanuvchi zararlangan narsalarni yoki ularning qoldiqlarini sug'urtalovchiga ko'rsatishdan bosh tortgan taqdirda, butunlay yo'q bo'lib ketishi mumkin bo'lgan narsalar bundan mustasnodir;

i) urush yoki urush harakatlari (urush e'lon qilingani-qilinmaganidan qati nazar), g'alayon, inqilob, qo'zg'olon, isyon, fitna, ish tashlash, noqonuniy yo'l bilan hokimiyatni qo'lga olish, suiqasd, qo'poruvchilik harakati, amalda yoki qonuniy mavjud bo'lgan hukumatning yoki biror hokimiyat organining farmoyishi bilan musodara qilish, rekvizitsiya, buzish yoki zararlantirish, yadro reaksiyasi, yadro nurlanishi yoxud radioaktiv zararlanish.

Ichki sanitariya texnikasi tizimlari buzilganda quyidagi:

a) agar falokat sug'urtalanuvchining ehtiyotsizligi yoki noshud hatti-harakatlari tufayli yuz bergan;

b) basharti falokat uchinchi shaxslarning ataylab qilgan yoki ataylab qilmagan xatti-harakatlari oqibatida yuz bergan hollarda sug'urta tashkiloti etkazilgan zarar uchun javob bermaydi.

Sug'urta qoplamasi sug'urta-lanuvchining zararni qoplash to'g'risidagi yozma arizasi, shuningdek, vakolatli organlardan olingan tegishli hujjatlar asosida to'lanadi. Bunday hujjatlarning taqdim etilmasligi sug'urtalovchiga ushbu hujjatlar bilan tasdiqlanmagan zarar uchun tovon to'lashni rad etish huquqini beradi.

Sug'urtalanuvchi sug'urta hodisasi sodir bo'lgani haqida ariza bergach, komissiya tuzilib, uning tarkibiga sug'urtalanuvchining, sug'urtalovchining, zarur hollarda esa vakolatli tashkilotlarning ham vakillari kiritiladi.

Komissiya muayyan muhlat ichida zararlanish sabablari va mikdorini aniklaydi. Komissiya sug'urta hodisasini e'tirof ettan taqdirda yo'qotish va zararlar mikdori, shuningdek to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta qoplamasining mikdori aniqlanadi. Tomonlar buni dalolatnomada qayd etadilar.

Mazkur dalolatnoma sug'urtalanuvchiga sug'urtalovchi tomonidan suturta tovonni to'lanishi uchun asos bo'ladi.

Zarar sabablari va mikdori xususida tomonlar o'rtasida nizolar paydo bo'lgan hollarda mustaqil ekspertiza o'tkazilishi mumkin.

Sug'urtalanuvchi zararni qoplash haqidagi arizasida quyidagilarni ko'rsatishi shart:

-sug'urta hodisasi yuz bergan sana va uning tavsifi;

-sug'urta hodisasi sodir bo'lganda sug'urtalanuvchi qilgan ishlar;

-zarar miqdori va sug'urtalanuvchi da'vo qilayotgan sug'urta tovonining miqdori. Bunda tegishli ro'yxat va summa ko'rsatilishi kerak;

-zararni qoplash uchun uchinchi shaxslardan olingan tovon miqdori.

Mabodo zarar to'liq qoplangan bo'lsa yoki sud qaroriga ko'ra zarar aybdor shaxs tomonidan qoplanadigan bo'lsa sug'urtalanuvchi sug'urta tovonini olish huquqidan mahrum bo'ladi.

Quyidagi hollarda sug'urta tovonini to'lanmaydi:

-agar sug'urtalanuvchi zarar etkazilishiga olib keluvchi hatti-harakatlarni ataylab yoki qo'pol ehtiyotsizligi tufayli sodir etgan yoki ularga yo'l qo'yan bo'lsa;

-basharti zarar kelib chiqishiga olib kelgan holatlar huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan tekshirilayotgan bo'lsa, tekshiruv tamom bo'lgunga qadar.

Mabodo sug'urtalanuvchi yoki naf oluvchi shaxs zarar uchun aybdor yoki uchinchi shaxslardan tovon olgan bo'lsa, sug'urtalanuvchi sug'urta shartlariga ko'ra to'lanishi lozim bo'lgan pul bilan aybdor yoxud uchinchi shaxslardan olingan pul o'rtasidagi farqning o'zini to'laydi.

SHartnoma imzolagandan so'ng tavakkalchilik darajasida ro'y bergan va sug'urta hodisasi yuz berish ehtimolini oshiradigan barcha o'zgarishlar sug'urtalanuvchiga sug'urta shartlarini o'zgartirish hamda qo'shimcha sug'urta mukofoti to'lanishi talab qilish huquqini beradi. Sug'urtalanuvchi qo'shimcha sug'urta mukofotini to'lashdan bosh tortgan taqdirda mazkur shartnoma yuridik kuchini yo'qotadi, to'langan sug'urta mukofoti esa qaytarib berilmaydi.

SHartnomada kelishilgan zararlarni qoplash uchun sug'urtalanuvchi tomonidan amalga oshirilgan har bir to'lov majburiyatlar chegarasini ana shu to'lov miqdorida, ammo agar mas'uliyat chegarasini qayta tiklash uchun qo'shimcha sug'urta mukofoti to'lanmasa, dalolatnomada qayd etilgan zarar miqdoridan ko'p bo'lmagan hajmda kamaytiradi.

SHartnoma tomonlar unda kursatilgan majburiyatlarini bajarmay qo'ygunlariga qadar kuchda bo'ladi.

Tomonlardan birining kamida 30 kun oldin beriladigan yozma arizasiga binoan shartnoma istalgan vaqtda bekor qilinishi mumkin.

Agar sug'urtalanuvchi shartnomani muddatidan oldin bekor qilishini ma'lum qilsa, sug'urta mukofoti unga qaytarilmaydi.

Sug'urta shartnomasi bekor qilinishini sug'urtalanuvchi talab etgan taqdirda:

a) sug'urtalanuvchiga sug'urta mukofoti muddati tamom bo'lmagan davrga mutanosib miqdorda qaytariladi, bunda o'tgan davrda qilingan xarajatlar sug'urta mukofotidan ushlab qolinadi;

b) basharti sugʻurta shartnomasi bekor qilinishining talab etilishiga ushbu shartnomada kelishilgan shartlarning sugʻurtalanuvchi tomonidan buzilishi sabab boʻlsa, faqat sugʻurta mukofoti muddati tamom boʻlmagan davrga mutanosib miqdorda qaytariladi.

Sugʻurta toʻvoni toʻlash haqida dalolatnoma tuzilgandan keyin sugʻurtalanuvchining zarar etkazilishi uchun javobgar shaxslarga nisbatan boʻlgan huquqlari toʻlangan pul miqdorida sugʻurtalovchiga oʻtadi. Bunda sugʻurtalanuvchi aybdor shaxslardan talab qilish huquqini amalga oshirish uchun zarur boʻlgan hujjatlarni sugʻurtalovchiga berishi shart.

Sugʻurtalanuvchi zarar etkazgan shaxsga boʻlgan daʼvosidan yoki unga nisbatan boʻlgan talablarning amalga oshirilishini taʼminlovchi huquqlaridan voz kechganda, shuningdek regress talabni qoʻyish uchun zarur boʻladigan hujjatlarni sugʻurtalovchiga berishdan bosh tortganda sugʻurtalovchi sugʻurta toʻvoni toʻlashdan ozod boʻladi.

SHartnomaga kiritiladigan hamma qoʻshimcha va oʻzgartirishlar, shuningdek prolongatsiya, bekor qilish yoki toʻxtatish tomonlarning roziligi bilan oʻzaro xabar berilgan holda yozma ravishda amalga oshirilmogʻi darkor.

Sugʻurta shartnomasidan kelib chiquvchi barcha nizo va kelishmovchiliklar tomonlarning muzokara olib borishi yoʻli bilan hal etiladi, kelishuvga erishib boʻlmagan taqdirda esa tegishli muddat ichida Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda qarab chiqish uchun xoʻjalik sudiga oshiriladi.

6. Oʻzbekistonda javobgarlik sugʻurtasining joriy qilinishi va uni oʻtkazish tartibi

Kasbiy javobgarlikni sugʻurtalash sugʻurtachining sugʻurta obʼektiga keltirilgan zararni toʻliq yoki qisman qoplash miqdorida sugʻurta toʻlovlari boʻyicha majburiyatlarni koʻzda tutuvchi sugʻurta turlarini ifoda etadi.

Bunda jismoniy shaxsning mulkiy manfaatlari sugʻurta obʼekti hisoblanadi. Ushbu obʼektni sugʻurta qilish toʻgʻrisida fuqarolik qonunchiligi tomonidan belgilangan tartibda jismoniy shaxsning uchinchi shaxs tomonidan sugʻurtalangan kasbiy faoliyatni amalga oshirish munosabati bilan etkazilgan zararni qoplash majburiyatlari bilan bogʻliq sugʻurta shartnomasi tuziladi. Kasbiy faoliyatga talablar va uni amalga oshirish tartibi tegishli qonunchilik hamda meʼyoriy hujjatlar tomonidan belgilanadi.

Kasbiy javobgarlikni sugʻurtalash kasbiy faoliyatni amalga oshirishda uchinchi shaxsga zarar etkazishi mumkin boʻlgan turli shaxslar toifalarining mulkiy manfaatlarini sugʻurta qilish turlarini birlashtiradi. Koʻpincha shifokorlar,

notariuslar, baholovchilar, ekspertlar, qo'riqchilar, advokatlar va boshqalarning kasbiy javobgarligi sug'urta qilinadi.

Kasbiy javobgarlikni sug'urtalashda boshqa sug'urta turlaridan farqli ularoq sug'urta holatining boshlanishi tashqi omillarga (tabiiy ofatlar va kesin o'zgarishlar, uchinchi shaxs harakatlari va hokazolar) emas, balki muayyan kasbiy faoliyatni amalga oshiradigan shaxs malakasiga bog'liq. Sug'urtachi sug'urta shartnomasi tuzganidan so'ng kasbiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxs ehtiyotkorlik bilan ish tutishi va kasbiy ko'nikmalarni namoyon etishi lozim.

Ko'pchilik holatlarda sug'urta holatining boshlanishi sudning mutaxassisning mijozga moddiy zarar etkazganligi va uning miqdori uchun mulkiy javobgarligini belgilovchi qarori qonuniy kuchga kirgandan keyin tan olinadi. Bundan tashqari, sug'urtachining uchinchi shaxsga e'tirozlarni sudgacha hal etishda etkazgan zarari uchun javobgarligining belgilanishi ham faqat sug'urtachi tomonidan etkazilgan zarar aniq isbotlanganda sug'urta holati sifatida tan olinishi mumkin. Bunda sug'urta shartnomasida sug'urtachi javobgarligining paydo bo'lishi asosli ekanligini tan olish va zararni qoplash miqdorini aniqlash sug'urtachi yoki vakolatli vakili ishtirokida amalga oshirilishi kelishib olinadi.

Kasbiy javobgarlikni sug'urtalashning har bir turi ma'lum bir kasbning o'ziga xos xususiyatlari bilan asoslangan o'z xususiyatlariga ega. Har bir ma'lum kasbning o'ziga xos xususiyatlari kasbiy javobgarlikni sug'urtalash shartnomasini tuzishda hisobga olinadi. Bu borada sug'urtachining o'z kasbiy majburiyatlarini bajarishga vijdonan, mulohaza bilan va asosli yondoshuvi kasbiy javobgarlikni sug'urtalashda umumiy prinsip sanaladi. Aks holda sug'urtachi sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha o'z javobgarligidan ozod etilishi mumkin.

Xorijiy amaliyotda kasbiy javobgarlikni sug'urtalashning ayrim turlari majburiy asosda amalga oshiriladi, ya'ni yuridik yoki jismoniy shaxslar (masalan, shifokorlar, rielterlar, baholovchilar, notariuslar va boshqalar) kasbiy javobgarlikni sug'urtalash polisiz ma'lum bir kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega emas.

Bu borada sug'urtalanuvchi-kasbiy faoliyatni amalga oshiradigan yuridik yoki jismoniy shaxs, sug'urtachi - sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun tashkil etilgan va belgilangan tartibda ro'yxatga olingan hamda korxonaning kasbiy javobgarlikni sug'urtalash huquqini beruvchi litsenziyaga ega yuridik shaxs sug'urta huquqiy munosabat sub'ekti hisoblanadi. Ushbu sug'urta sub'ektlari sug'urta majburiyatlarining asosiy tomonlari, ya'ni sug'urta shartnomasi tomonlaridir. Bundan tashqari, jabr ko'rgan shaxs (sug'urta shartnomasi uning foydasiga tuzilgan) ham kasbiy javobgarlikni sug'urtalash sub'ektlari sirasiga

kiradi. Odatda, jabr ko'rgan shaxs, agarda sug'urta shartnomasida boshqa narsa ko'zda tutilmagan bo'lsa, etkazilgan zarar miqdorida sug'urta to'lovi olishga haqqi bor.

Kasbiy javobgarlikni sug'urtalash shartnomasini tuzishda jabr ko'rganlar (foyda oluvchilar) sug'urtalanuvchiga ham sug'urtachiga ma'lum qilinmaydi. Ushbu holatda sug'urta shartnomasida bu shartnoma kimning foydasiga tuzilganligi aytilmagan yoki u sug'urta qiluvchi yoxud boshqa shaxs foydasiga tuzilgan bo'lsada, sug'urta to'lovi olish huquqiga foyda oluvchi faqatgina sug'urta qiluvchi uning oldida javobgar bo'lgan shaxsgina (yoki uning merosxo'ri) hisoblanadi.

Kasbiy javobgarlikni sug'urtalash shartnomasi shartlarida sug'urtachining sug'urtalanuvchi yoki uning xodimi vakolatiga nisbatan kafolatlari ko'zda tutilmagan.

Sug'urtachi uchinchi shaxsga sug'urtalanuvchi tomonidan qonuniy va me'yoriy hujjatlar buzilishi, sug'urtalanuvchining atayin harakatlari natijasida zarar etkazilsa sug'urtalanuvchi majburiyatlari bo'yicha javobgar hisoblanmaydi. Sug'urtalanuvchining harakatlaridagi niyatni isbotlash sug'urtachi zimmasiga yuklatiladi. Sug'urtalanuvchining niyati sudning qonuniy kuchga kirgan qarori, hukmi bilan aniqlanadi. Agarda sug'urtalanuvchiga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atilgan bo'lsa, sug'urta mukofoti to'g'risidagi masala sud qarori va hukmigacha to'xtatiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Notariat to'g'risida"gi qonunining 20-moddasiga binoan shaxsiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius o'z faoliyati sug'urta qilish shartnomasini tuzishga majbur. Notarius o'z majburiyatlarini sug'urta shartnomasini tuzmasdan turib bajarish huquqiga ega emas.

Notariusning qonunchilik tomonidan belgilangan tartibda uchinchi shaxsga notarial faoliyatni amalga oshirishda etkazilgan zararni qoplashga doir majburiyatlari bilan mulk manfaatlari sug'urta ob'ektlari hisoblanadi.

Notariuslarning kasbiy javobgarlikni sug'urtalash shartnomasi shartlariga muvofiq sug'urta qiluvchi sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan sug'urta mukofotini to'laganidan keyin sug'urtalanuvchiga sug'urta shartnomasining amal qilinish davrida ahamiyatga ega bo'lgan notarial harakatlarni qonunga xilof ravishda amalga oshirishgan (yoki kerakli notarial haraktalari bajarmagan) sug'urta qiluvchi o'z kasbiy majburiyatlarini tegishli tarzda bajarmagani oqibatida yuzaga kelgan e'tirozlar bo'yicha zararni qoplash majburiyatlarini qabul qiladi.

Sugʻurta qiluvchining zararni qoplash majburiyati notarius mijozlariga notarius tomonidan oʻzining kasbiy majburiyatlarini amalga oshirishdagi eʼtiborsiz harakatlari, xatolari yoki kerakli notarial hattigʻharakatlarni bajarilmasligi natijasida yuzaga kelgan zarar etkazilgan holatlarda paydo boʻladi. Sugʻurtachi odatda amaldagi qonunchilikka nomuvofiq tarzda amalga oshirilgan notarial harakatlar yoki sugʻurtalanuvchining gʻarazli niyatida kerakli notarial harakatlarni bajarmaslik natijasida etkazilgan zararni qoplamaydi. Notariusning gʻaraz niyati sudning qonuniy kuchga kirgan qarori va hukmi bilan aniqlanadi. Bunda sugʻurtalanuvchining harakatlarida gʻaraz niyat borligini isbotlash sugʻurtachi zimmasiga yuklanadi.

Sugʻurta holati sugʻurtalanuvchining zararni qoplash majburiyati belgilangan paytdan boshlanadi. Odatda sugʻurta holati notariusga uchinch shaxsga u tomonidan bajarilgan noqonuniy notarial harakatlar, xatolar yoki kerakli notarial harakatlarni bajarmaslik oqibatida etkazilgan zararni qoplashni yuklaydigan sud organining qarori kuchga kirgach, boshlangan hisoblanadi. Sugʻurta shartnomasida sugʻurta holatini belgilash va mijozning notariusga zararni qoplash talabi bildirilgan eʼtirozi asosli boʻlganda, uni sugʻurta yoʻli bilan toʻlash majburiyati koʻzda tutiladi. Sugʻurta holatini aniqlash sugʻurta shartnomasida aniq bayon etilishi shart.

Notariusning kasbiy javobgarligini sugʻurtalash shartnomasi boʻyicha eng kam sugʻurta summasi Oʻzbekiston Respublikasining “Notariat toʻgʻrisida”gi qonunining 20-moddasiga muvofiq belgilangan eng kam ish haqining yuz baravar miqdoridan kam boʻlmasligi kerak.

Notariusning kasbiy javobgarligini sugʻurtalash shartnomasi notariusning yozma arizasi asosida tuziladi. Arizada odatda notarius haqida sugʻurta xavfi darajasini aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega maʼlumotlar, yaʼni kasbiy javobgarligi sugʻurta qilinayotgan shaxsning ismi sharifi, kasbi, kasbiy faoliyati boshlangan sana, shaxsiy notarial amaliyot bilan shugʻullanish huquqini beruvchi litsenziyani olish sanasi va raqami, pochta manzili, telefon, faks, teleks koʻrsatiladi. Ariza berish paytida notarius faoliyati sugʻurtalangani, avval tuzilgan sugʻurta shartnomasi toʻxtalishi nimaga bogʻliqligi, notariusning kasbiy faoliyatiga taaluqli xatolar, ehtiyotsizlik yoki kamchiliklar bilan bogʻliq eʼtiroz bildirilgan maʼlumotlar koʻrsatiladi.

Notariusning kasbiy javobgarligini sugʻurtalash shartnomasi notarius kasbiy faoliyatini amalga oshirishda oʻz harakatlari uchun javob bergandagina, shaxslar foydasiga tuzilgan hisoblanadi. Sugʻurta shartnomasini tuzishda foyda oluvchilar sugʻurtalanuvchi yoki sugʻurtachiga maʼlum qilinmaydi. SHunday boʻlsada,

sugʻurta shartnomasida u kimning foydasiga tuzilgani aytilmagan boʻlsa yoki shartnoma notarius yoxud boshqa shaxs foydasiga tuzilgan boʻlsa ham sugʻurta toʻlovi olish huquqiga ega foyda oluvchi faqatgina notarius uning oldida javobgar boʻlgan shaxs boʻlishi mumkin.

Sugʻurta shartnomasi odatda bir yildan kam boʻlmagan muddatga tuziladi. Sugʻurta shartnomasi agarda shartnomada boshqa narsa koʻzda tutilmagan boʻlsa, sugʻurtalanuvchi tomonidan sugʻurta mukofotlari toʻlanganidan keyin kuchga kiradi.

Sugʻurta shartnomasining amal qilinishi shartnomada koʻrsatilgan muddatda yoki sugʻurtalanuvchi tomonidan sugʻurta summasi toʻliq toʻlangan yoxud sugʻurtalanuvchi tomonidan sugʻurta manfaatini yoʻqotgan holatda toʻxtatiladi. Sugʻurtalanuvchining sugʻurta manfaatdorligi notarius vakolatini toʻxtatganda yoʻqotilgan sanaladi. Ushbu holatda sugʻurtalanuvchi sugʻurtachiga bu haqda yozma bildirishnoma va sugʻurta manfaatdorlik yoʻqolganini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etadi. SHartnomani sugʻurtalanuvchining sugʻurta manfaatdorligi yoʻqotganligi natijasida muddatidan oldin toʻxtatilishi sugʻurtachi sugʻurtalanuvchiga sugʻurta mukofoti sugʻurta shartnomasining bekor qilinishining haqiqiy sanasidan unda koʻrsatilgan amal qilish sanasigacha qolgan muddatga mutannosib tarzda qaytaradi.

Odatda sugʻurta shartnomasida sugʻurtalanuvchining quyidagi majburiyatlari koʻzda tutiladi: sugʻurta holati sabablari, uning borishi va oqibatlarini aniqlash uchun barcha imkoni bor va maqsadga muvofiq choragʻtadbirlarni qabul qilish; sugʻurtachini unga sugʻurta holati munosabati bilan bildirilayotgan barcha eʼtiroz haqida kechiktirmasdan (sugʻurta shartnomasida kelishilgan muddatda) xabardor qilish; sugʻurtachiga sugʻurta holati sabablari, uning borishi va oqibatlari, etkazilgan zarar xususiyatlari va miqdori haqida muhokama qilish imkonini beradigan barcha axborotlar hamda hujjatlarni taqdim etish.

Sugʻurta shartnomasiga muvofiq sugʻurtachi unga sugʻurtalanuvchi nomidan zararni undirish toʻgʻrisida talab qayd etilgan eʼtirozlar bildirilgan holatda muzokaralar olib borishi va etkazilgan zararni qoplash haqida bitim tuzish, sugʻurta holati holatlari va sabablarini yoki sugʻurtalanuvchining roziligini kutmasdan zarar miqdorini aniqlash uchun choralar koʻrish, shuningdek, sud va boshqa vakolatli organlarda sugʻurtalanuvchi nomidan hamda topshirigʻi boʻyicha ish yuritish huquqiga ega.

Agarda notarius rozi boʻlmasa yoki boshqa tarzda qayd etilgan harakatlarni amalga oshirishga toʻsqinlik qilsa, sugʻurtachi sugʻurta toʻlovini toʻlashdan bosh tortishi mumkin.

Notariusning kasbiy javobgarligini sug'urtalash shartnomasida sug'urta mukofotini to'lash muddatlari aniqlanadi. Sug'urta mukofotining miqdori sug'urta shartnomasiga muvofiq belgilanadi va sug'urta summasi miqdoriga bog'liq bo'ladi.

Sug'urta mukofoti tarif stavkalaridan kelib chiqqan holda belgilanadi va tanlangan sug'urta summasiga bog'liq bo'ladi. Sug'urta tariflari statistika ma'lumotlari, sug'urta bozori konyukturasi, tavakkalchilik darajasi, sug'urta qilish muddati va sug'urta summasi miqdori hisobga olingan holda belgilanadi. Bundan tashqari, sug'urta mukofoti miqdori notarius tomonidan kasbiy harakatlarning amalga oshirilishi va amalga oshirilayotgan notarial harkatlar turlari munosabati bilan e'tirozlarni qonunda belgilangan tartibda qondirish to'g'risida ma'lumotlar aniqligiga bog'liq bo'ladi. Notarius ijro xatlarini amalga oshirish chog'ida sug'urtachi oshiruvchi koeffitsientlarni qo'llashi mumkin.

Hisoblab chiqarilgan sug'urta mukofoti sug'urtalanuvchi tomonidan bir yo'la yoki qisman naqd yoxud naqdsiz yo'li orqali shartnoma tuzilgan kundan boshlab kelishilgan muddat ichida to'lanishi mumkin. Sug'urta mukofoti to'liq to'lanmagan holatda esa sug'urta summasi sug'urta mukofotining to'langan qismiga mutanosib ravishda kamayadi.

Notariusga e'tirozlar u bilan shartnoma munosabatidan bo'lgan mijoz va u bilan shartnoma munosabatida bo'lmagan, biroq etkazilgan zarar sababli e'tiroz bildirish huquqiga ega shaxslar tomonidan bildirilishi mumkin.

Sug'urta holati sodir bo'lgan chog'da sug'urtalanuvchi sug'urta shartnomasida belgilangan muddatda bu haqda sug'urtachiga yozma ravishda xabar berishga majbur.

Sug'urta holati sodir bo'lgan chog'da sug'urtalanuvchi sug'urtachiga sug'urta holati sodir bo'lganini isbotlovchi barcha kerakli hujjatlarni taqdim etadi. Bunda sug'urtalanuvchi sug'urtachiga sug'urta holati bilan bog'liq unga ma'lum bo'lgan yoki paydo bo'lgan ma'lumotlar va vaziyatlarni xabar qilishi shart. Sug'urtachi taqdim etilgan hujjatlar xaqiqiyligini tekshirish huquqiga ega.

Sug'urta to'lovi sug'urtachi tomonidan sug'urta shartnomasida belgilangan muddat davomida sug'urtalanuvchidan sodir bo'lgan sug'urta holati haqida barcha kerakli hujjatlarni olganidan keyin to'lanadi. Sug'urta to'lovi miqdori sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta summasidan oshmasligi kerak. Sug'urtachi agarda sug'urtalanuvchi sug'urta shartnomasi shartlarini tegishli ravishda bajarmasa, sug'urta to'lovi summasini kamaytirish huquqiga ega. Sug'urta to'lovi miqdori zarar va e'tiroz bildiruvchi tomonidan qilingan sarf-harajatlar, shuningdek,

notarius tomonidan sugʻurtachining yozma ravishdagi roziligi bilan qilingan sarfgʻharajatlar miqdori summasi kabi aniqlanadi. Biroq sugʻurta shartnomasi sugʻurtachining har bir sugʻurta holati va jabr koʻrgan kishi tomonidan bildirilgan eʼtiroz boʻyicha javobgarligi limitini belgilashi mumkin. Agarda notariusga nisbatan jinoiy ish qoʻzgʻatilgan boʻlsa, sugʻurta toʻlovini toʻlash haqida masalani hal qilish toʻxtatiladi.

Notariusning bir yoʻla bir qancha mijozlarining zararini qoplashda agarda uning miqdori sugʻurtachi javobgarligining umumiy limitidan oshsa (sugʻurta summasining sugʻurta shartnomasi boʻyicha miqdori), sugʻurta toʻlovi har bir jabrlanuvchiga etkazilgan zarar summasiga nisbatan sugʻurtachi javobgarligining umumiy limitiga mutanosib ravishda toʻlanadi.

SHuningdek, sugʻurta shartnomasida notarius tomonidan qoplanishi lozim boʻlgan zarar miqdori - franshiza koʻzda tutilishi mumkin. Ushbu holatda kompaniya notarius tomonidan franshiza miqdorida qoplanishi lozim boʻlgan summadan oshadigan zararni qoplash majburiyatini qabul qiladi.

Notarius harakatiga bildirilgan eʼtirozlar, shikoyatlar, arizalarni koʻrib chiqish bilan bogʻliq sud yoki boshqa sarf-harajatlar, agarda ushbu sarf-harajatlar sugʻurtalanuvchi zimmasiga yuklatilgan boʻlsa, sugʻurtachi tomonidan sugʻurtachi javobgarligi limiti doirasida qoplanadi.

Sugʻurtalanuvchi sugʻurta shartnomasiga amal qilish bekor qilinganidan keyin sugʻurtachi undan sugʻurta shartnomasiga amal qilish davrida sugʻurta holati toʻgʻrisida eʼtiroz (bildirish) olgan boʻlsagina, sugʻurta summasini olish huquqiga ega boʻlishi mumkin. Pul mablagʻlari sugʻurtachining hisob-raqamidan sugʻurtalanuvchi hisobraqamiga oʻtkazilgan kun sugʻurta summasi toʻlash kuni hisoblanadi.

Sugʻurtachi quyidagi hollarda sugʻurta toʻlovini toʻlashdan bosh tortish huquqiga ega: agarda sugʻurtalanuvchi soxta maʼlumotlar taqdim etgan va ular asosida sugʻurta shartnomasi tuzilgan boʻlsa; agarda zarar sugʻurtalanuvchi aybi bilan etkazilgan boʻlsa; agarda zarar sugʻurtachi yoki uning mijozining bevosita gʻarazli niyati sababli etkazilgan boʻlsa; agarda sugʻurtalanuvchi notarial harakatlarni qonuniy muddatlardan tashqari amalga oshirgan boʻlsa (litsenziyani chaqirib olish, litsenziyaning amal qilish muddati tugashi); agarda sugʻurtalanuvchi sugʻurtachining sugʻurta shartnomasida koʻzda tutilgan harakatlarni amalga oshirishiga rozi boʻlmasa yoki boshqacha yoʻl bilan toʻsqinlik qilsa; agarda sugʻurtalanuvchi sugʻurtachiga sugʻurta holati sodir boʻlgani toʻgʻrisida oʻz vaqtida xabar bermasa.

Agarda sug'urta to'lovi to'langanidan keyin ushbu to'lov notarius yoki boshqa manfaatdor shaxslar tomonidan g'arazli harakatlar natijasida qalbaki yo'llar bilan olinganligi aniqlansa, to'langan mablag'ning hammasi uni to'lagan sug'urtachiga qaytariladi. Sug'urtachi va sug'urtalanuvchi o'rtasida yuzaga keladigan barcha tortishuvlar muzokaralar yo'li bilan, o'zaro kelishuvga erishilmasa, sudga hal etiladi.

Sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta mukofoti miqdori sug'urta summasi miqdoridan kelib chiqqan holda sug'urtachining tarif stavkasi bo'yicha hisoblanadi. Sug'urta tariflari statistika ma'lumotlari, sug'urta bozori konyukturasi, tavakkalchilik darajasi, sug'urtalanuvchi faoliyati turini sug'urta qilish muddati, tanlangan tavakkalchilik va tavakkalchilik darajasiga ta'sir qiluvchi boshqa holatlar hisobga olingan holda belgilanadi.

Sug'urta mukofoti auditorlik xizmatlarni amalga oshirishga doir rejalashtirilayotgan aylanma mablag' asosida belgilanadi. Sug'urta shartnomasining amal qilish muddati yoki shartnomada belgilangan boshqa davrning tugashi bilan odatda sug'urta puli va sug'urta mukofoti miqdori sug'urtalanuvchi faoliyatining natijalari hisobga olingan holda qayta hisoblanadi.

Sug'urta mukofotini to'lash tartibi tomonlar kelishuvi bo'yicha belgilanadi: bir yo'la yoki qisman sug'urtachining hisobraqamiga naqd pulsiz o'tkazish yo'li bilan. Sug'urta mukofoti sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urta shartnomasida kelishilgan muddat ichida shartnoma imzolangan kundan boshlab to'lanadi. Sug'urta mukofoti to'liq to'lanmagan holatda sug'urta puli sug'urta to'lovining to'langan qismiga mutanosib ravishda kamayadi.

SHartnomani bir yildan kam muddatga tuzilganda sug'urta mukofoti yillik sug'urta mukofoti summasidan foiz hisobida ajratiladi. Sug'urta shartnomasiga to'liq bir oy amal qilinmagan holatda ham sug'urta mukofoti to'liq to'lanadi. SHartnomani bir yildan oshiq muddatga tuzishda sug'urta to'lovi imtiyozli tarif stavkalari bo'yicha hisoblanadi.

Sug'urta mukofoti to'liq to'lanmagan holatda sug'urta polisida sug'urtalanuvchi tomonidan haqiqatdan ham to'langan sug'urta mukofoti va unga tegishli sug'urta puli ko'rsatiladi.

Sug'urtalanuvchi sug'urtachiga yozma ravishda sug'urta shartnomasiga amal qilish muddati ichida tavakkalchilik darajasidagi o'zgarishlar haqida xabar qilish shart. Agarda tavakkalchilik darajasining oshishi sug'urta mukofoti miqdorini oshirish zaruratini yuzaga keltirganda sug'urtachi sug'urtalanuvchiga qo'shimcha sug'urta mukofoti uchun hisob bilan birga sug'urta shartnomasiga kiritilgan tegishli qo'shimchalarni ham jo'natadi. Sug'urtalanuvchi qo'shimcha sug'urta

mukofotini to'lashi va mukofot uchun hisobni hamda shartnomaga qo'shimcha matnini olgan kundan boshlab sug'urta shartnomasiga kelishilgan muddat ichida qo'shimchani imzolashi yoki sug'urta shartnomasini buzishni talab qilishi mumkin.

Agarda sug'urtalanuvchi ko'rsatilgan hatti-harakatlarni bajarmasa, sug'urtachi sug'urta shartnomasini bekor qilishni va shartnomani bekor qilish orqali etkazilgan zararni qoplashni talab qilish huquqiga ega.

Sug'urta shartnomasini amal qilish davri tugagandan keyin va u bo'yicha sug'urta holati sodir etilmasa sug'urtalanuvchiga shartnoma bo'yicha to'langan sug'urta mukofotining bir qismi qaytariladi.

Sug'urtalovchining javobgarligi uning hisobraqamiga sug'urta mukofoti kelib tushgan kundan boshlanadi, sug'urta to'lovini to'lash bo'yicha sug'urtachi javobgarligining kuchga kirishi odatda sug'urta polisi bilan tasdiqlanadi. Sug'urta polisi sug'urtalanuvchiga sug'urta mukofotini sug'urtachining hisobraqamiga sug'urta shartnomasida kelishilgan muddat ichida kelib tushgan kundan boshlab beriladi.

Sug'urta holati sodir etilganda yoki uning boshlanishiga sabab bo'luvchi holatlarda, shuningdek, uchinchi shaxsdan e'tirozlar kelib tushganda sug'urtalanuvchi sug'urta holati sabablari, uning borishi va oqibatlarini aniqlash uchun kerakli choralarni, zararning oldini olish yoki kamaytirish, zarar etkazilgan shaxslar hayoti va mulkini saqlashga oid barcha imkoni bor va maqsadga muvofiq choralarni ko'rishi, qisqa muddat ichida sug'urta qiluvchiga ushbu holatning sodir etilgani haqida xabar berishi va unga ushbu ishga taaluqli barcha hujjatlarni yuborishi, sug'urta qiluvchiga uning oqibatlari, sudda ishni ko'rish va ushbu ishga taaluqli boshqa faktlar haqida ma'lumot berishi, agarda sug'urtalanuvchi sug'urta holati bo'yicha sug'urtachi va sug'urtalanuvchining manfaatlarini sudda hamda suddan tashqari tartibda himoya qilish uchun o'z advokatini yoki boshqa vakolatli shaxsni tayinlash kerak deb hisoblasa unga bu borada imkoni boricha yordam berishi, zararni to'lamasligi, sug'urta holati bo'yicha sug'urtalanuvchiga bildirilgan talablarni qisman yoki to'liq tan olmasligi, bunday talablarni bartaraf etish bo'yicha sug'urta qiluvchining rozilgisiz hech qanday majburiyatlarni qabul qilmasligi, sug'urtalanuvchi imkoni boricha sug'urta qiluvchining zarar etkazilgan mulkni ko'zdan kechirish va etkazilgan zarar miqdorini belgilashda ishtirok etishini ta'minlashi, sug'urta holatida etkazilgan zarar uchun javobgar bo'lgan uchinchi shaxsga nisbatan teskari talablarni ta'minlashga oid barcha choralarni ko'rishi, agarda sug'urtalanuvchida zararni muntazam to'lashni to'xtatishi yoki uning miqdorini qisqartirish imkoni paydo bo'lganda, bu haqida sug'urtachiga

xabar berishi va bunday to'lovlarni to'xtatish yoki ularning miqdorini kamaytirish bo'yicha barcha choralarni ko'rishi shart.

Sug'urtachi sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalanuvchining sug'urta holati sababli yuzaga kelgan mulkiy yo'qotishlarining o'rnini to'ldiradi. Agarda shartnomaga amal qilish davrida ahamiyatga ega bo'lgan sug'urta holati sug'urta qilish boshlangunga qadar ahamiyatga ega bo'lgan yoki ta'sir qilishni boshlagan sabablarga ko'ra sodir etilsa, zarar sug'urtalanuvchiga shartnomani tuzish paytida ushbu sug'urta holatining boshlanishiga sabab bo'lgan sabablar haqida unga ma'lum bo'lmaganda to'lanishi lozim.

Agar sug'urta to'lovi sug'urta summasi miqdorida to'langan bo'lsa, sug'urta polisiga amal qilish to'lov to'langan paytdan boshlab bekor qilinadi. Sug'urta puli miqdorida to'liq to'lanmagan sug'urta to'lovi to'lanadigan sug'urta polisi o'z kuchini unga amal qilish muddati oxirigacha sug'urta summasi va to'langan summa o'rtasida farq miqdorida saqlab qolinadi.

Sug'urta to'lovi sug'urtachi tomonidan sug'urta shartnomasida belgilangan muddat ichida sug'urtalanuvchidan sodir etilgan sug'urta holati to'g'risidagi barcha kerakli hujjatlar olingandan keyin to'lanadi. Sug'urta to'lovi sug'urtalanuvchining isbotlangan javobgarligi miqdorida sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta pulidan ortiq bo'lmagan holda to'lanadi.

Sug'urtachining hisobraqamidan sug'urtalanuvchining hisobraqamiga pul o'tkazilgan kun sug'urta to'lovi to'langan kun hisoblanadi.

Sug'urtachi agarda sug'urtalanuvchi sug'urta shartnomasi shartlarini tegishli ravishda bajarmasa, sug'urta to'lovi miqdorini kamaytirish huquqiga ega.

Sug'urtalanuvchi sug'urta shartnomasiga amal qilish bekor qilinganidan so'ng sug'urtachiga sug'urta shartnomasiga amal qilish davrida undan sug'urta holati to'g'risida e'tiroz bildirilgandagina sug'urta to'lovini olishi mumkin.

Sug'urtachi agarda sug'urtalanuvchi ataylab soxta ma'lumotlar taqdim etgan va ular asosida sug'urta shartnomasi tuzilgan bo'lsa, zarar sug'urtalanuvchi aybi bilan etkazilmagan bo'lsa, zarar sug'urtalanuvchi yoki korxonaning bevosita g'arazli niyati oqibatida etkazilgan bo'lsa, sug'urtalanuvchi tekshiruvlarni qonunda belgilangan muddatdan tashqari muddatda amalga oshirgan bo'lsa (litsenziyani chaqirib olish, litsenziyaga amal qilish muddatining tugashi), auditorlik tekshiruviga malaka shahodatnomalariga ega bo'lmagan va auditorlarning kasbiy reestriga kiritilmagan shaxslar jalb qilingan bo'lsa, sug'urtalanuvchi tomonidan imzolangan va belgilangan tartibda muhr bilan tasdiqlangan auditorlik xulosasi bo'lmasa, sug'urtalanuvchi sug'urtachiga sug'urta shartnomasida ko'zda tutilgan hattig'harakatlarni amalga oshirishga rozi bo'lmasa yoki boshqacha yo'l bilan

to'sqinlik qilsa, sug'urtalanuvchi o'z vaqtida sug'urtachiga sug'urta holatining sodir etilgani to'g'risida xabar bermagan bo'lsa, sug'urta to'lovini to'lashni rad etish huquqiga ega.

Sug'urta holati tufayli etkazilgan zarar hajmi sug'urtalanuvchiga sug'urta holati bo'yicha etkazilgan zarar hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Zarar hajmi maxsus tayinlangan davlat organi yoki sudning jarima yoki boshqa moddiy sanksiyalar qiymatidan yoxud sud tomonidan qondirilgan da'vo talabalaridan kelib chiqqan holda qaror chiqarilganda, e'tirozlar uchinchi shaxsga etkazilgan zarar qiymatidan kelib chiqqan holda ixtiyoriy qondirilganda aniqlanadi.

Qoplanayotgan zarar summasiga sug'urta holatida zararning oldini olish yoki kamaytirish uchun maqsadga muvofiq sarfg'harajatlar ham kiritilishi mumkin, biroq to'lovlarning umumiy qiymati sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta pulidan oshmasligi kerak.

Sug'urta to'lovini to'lagan sug'urtachiga to'langan mablag' doirasida sug'urta to'lovini olgan sug'urtalanuvchiga boshqa shaxs etkazilgan zarar uchun javobgar shaxsga nisbatan ega bo'lgan talablarni talab qilish huquqi o'tadi. Sug'urtalanuvchi sug'urtachiga o'zidagi barcha hujjatlar va dalillarni berishi hamda ushbu huquqni amalga oshirish uchun kerakli barcha rasmiy ishlarni bajarishi kerak. Agar qayd etilgan shaxslar etkazilgan zarar uchun javobgar shaxsga nisbatan talab qilish huquqidan voz kechsa yoki ushbu huquqni ularning aybi bilan (hujjatlarni taqdim etmaslik va hokazolar) amalga oshirishning iloji bo'lmasa, sug'urtachi sug'urta to'lovlarini to'lashdan ozod etiladi. Agarda ushbu to'lovlar to'langan bo'lsa, qayd etilgan shaxslar sug'urtachiga olingan mablag'larni uni olgan kundan boshlab qonunchilikda belgilangan foizlar bilan qaytarishi shart.

Sug'urtalanuvchi sug'urtachiga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi tomonidan belgilangan da'vo muddati ichida qonun yoki sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta to'lovini to'lashdan bosh tortish uchun asos bo'lgan holatlar aniqlanganda, to'langan pulni qaytarishga majbur.

Agarda sug'urta holati sodir etilgan paytda sug'urtachi tomonidan sug'urtalangan ob'ekt bo'yicha sug'urtalashning boshqa shartlariga amal qilingan bo'lsa, sug'urta to'lovi sug'urta mablag'lariga nisbatan mutanosib ravishda taqsimlanadi va ushbu mablag'lar uchun auditor javobgarligi har bir sug'urta qiluvchi tomonidan sug'urtalangan, har bir sug'urta qiluvchi esa o'z ulushiga to'g'ri keladigan zararning bir qismini to'laydi, xolos.

Sug'urtalanuvchi yoki uchinchi shaxsning sug'urta holati sodir etilishiga qaratilgan g'arazli hattig'harakatlari, sug'urtalanuvchi yoki uchinchi shaxs tomonidan sug'urta holati bilan bevosita sababli aloqada bo'lgan jinoyatning atayin

sodir etilishi, sug'urtalanuvchining sug'urtachiga ataylab sug'urta ob'ekti bo'yicha soxta ma'lumotlarni berishi, sug'urtalanuvchi tomonidan zararni etkazishda aybdor bo'lgan shaxsdan uning undirilishi, sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urtachiga tuzilgan sug'urta shartnomasi bo'yicha tavakkalchilik darajasining oshganligi to'g'risida ma'lum qilinmasligi va qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan boshqa holatlar sug'urtachining sug'urta to'lovini to'lashdan bosh tortishiga asos hisoblanadi. Sug'urta shartnomasi shartlarida sug'urta to'lovini to'lashdan bosh tortish uchun qo'shimcha asoslar ham ko'zda tutilgan.

Sug'urta to'lovini to'lashdan bosh tortish haqidagi qaror sug'urtachi tomonidan qabul qilinadi va sug'urta hujjatini tuzish uchun belgilangan muddatda yozma ravishda bosh tortish sabablari ko'rsatilgan holda ma'lum qilinadi. Sug'urtalanuvchi va sug'urtachi o'rtasida yuzaga keladigan barcha bahslar muzokalar yo'li bilan, agarda o'zaro kelishuvga erishilmasa, sudga hal etiladi.

7. Sug'urta tashkilotining investitsiya faoliyati va uning huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 24 dekabrda "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qayta tahrirdagi Qonunida investitsiyaga quyidagicha ta'rif berilgan: "investitsiya - iqtisodiy va boshqa faoliyat ob'ektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar"⁸, sifatida ta'riflanadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni tahlil qilish orqali shunday xulosaga kelish mumkinki, "investitsiyalar" tushunchasi "kapital qo'yilmalar", "investitsiyalarning mulkiy shakli", "kapital", "kredit" va boshqa tushunchalarga qaraganda kengroq, "sig'imliroq" tushuncha hisoblanadi⁹. Kapital qo'yilmalar investitsiyalarning tarkibiy qismi hisoblanadi. SHuning bilan birgalikda investitsiyalarning tarkibida kapital qo'yilmalardan tashqari aylanma mablag' (vosita)lar ham mavjud. Demak, ko'rinib turibdiki, kapital qo'yilmalar tushunchasi aynan investitsiyalar tushunchasini anglatmaydi.¹⁰ Umumlashtiradigan bo'lsak, investitsiyalar bu faqat uzoq muddatli kapital qo'yilmalar bo'libgina qolmasdan, balki qisqa muddatli qo'yilmalarni ham o'z ichiga oladi. Demak, investitsiyalar g' mulkchilikning barcha ko'rinishlaridagi moddiy va nomoddiy boyliklarni iqtisodiyg'ijtimoiy daromad olish maqsadida muomalaga kiritishdir.

"CHet el investitsiyalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 3-moddasiga ko'ra "chet el investorlari asosan daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat ob'ektlariga qo'shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan intellektual mulkka doir huquqlar, chet el

⁸ O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, 1998. 24 dekabr. //Soliqlar va bojxona xabarlari. 4-son, 1999. 3g'b.

⁹ G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. T.: "Moliya" nashriyoti, 2003. 28-b.

¹⁰ Investitsii: Uchebnoe posobie /G.P. Podshivalko, N.I. Laxmetkina, M.V. Makarova i dr. -M.: KNORUS, 2004. S.7. (Finansovaya akademiya pri Pravitelstve RF).

investitsiyalaridan olingan har qanday daromad O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari"¹¹, deb e'tirof etiladi.

Sug'urta kompaniyalari asosiy faoliyati Bilan bir qatorda investsiya faoliyatini xam amalga oshirish imkoniyatiga egadir. Odatda, sug'urta kompaniyalarining sug'urtaviy xizmat ko'rsatish o'ziga xos xususiyatga ega ya'ni, mijoz dastlab sug'urtalovchiga sug'urta badalini shartnoma tuzilishi Bilan to'laydi. Sug'urta shartnomasi muddatining tugashi xizmat to'liq ko'rsatilganligini bildiradi. Demak, sug'urta kompaniyalarida moliya resurslarining xarakati xususiyatlari shunga olib boradiki, sug'urta kompaniyalari ixtiyorida shartnomani amal qilish mobaynida qo'shimcha daromad olish maqsadida investitsiyalash mumkin bo'lgan vaqtinchalik majburiyatdan xoli bo'lgan katta miqdorda vaqtincha bo'sh mablag'lar to'planadi. Sug'urtalovchilar bu mablag'larni qo'shimcha daromad olish maqsadida turli ob'ektlarga investitsiya qilishlari mumkin.

Sug'urta tashkilotlari tasarrufida kata miqdordagi moliyaviy resurslarni to'planishi, ularni iqtisodiyotni rivojlanishida muxim rol o'ynashini ko'rsatadi. Sug'urta qiluvchilar tomonidan moliya resurslarining to'planishi sug'urtani faol investitsion siyosat yo'li Bilan iqtisodiyotning asosiy omiliga aylantiradi. Boshqacha so'z bilan aytganda, sug'urtalovchilar turli polis egalaridan olingan passiv pul mablag'larni moliya bozorida xarakat qiluvchi aktiv kapitaliga aylantirishadi.

Sug'urta kompaniyasi investitsion imkoniyatlarini quyidagi omillar belgilaydi:

- yig'iladigan sug'urta mukofotlari xajmi;
- sug'urta portfeli xajmi;
- amalga oshirilayotgan sug'urta xizmatining foydaliligi yoki zararliligi;
- sug'urta rezervlarini shakllantirishga davlat tomonidan qo'yiladigan talablar;
- tuzilgan sug'urta shartnomalari muddati;
- o'zlik mablag'lari xajmi.

Cug'urta kompaniyasining investitsion imkoniyatlari taxminan shunday deyarli shakllanib boradi. Investitsion imkoniyat asosiy qismi «O'zlik mablag'lar»ga to'g'ri keladi. Sug'urta rezervi esa domiy ravishda sug'urta qoplamalari to'lanishiga qarab o'zgarib turadi.

Sug'urta kompaniyasining investitsion portfeli tizimi, uning moliyaviy barqarorligini ta'minlashi lozim va u odatda sug'urta nazorati me'yorlari bilan belgilanadi. Unda sug'urta zaxiralarining vaqtinchalik bo'sh turgan mablag'larini joylashtirish tartibi belgilanadi.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng, sug'urta kompaniyalari bo'sh mablag'larini turli ob'ektlarga investitsiya qilish imkoniyati tug'ildi. 1993 yilning 6 mayida qabul qilingan "Sug'urta to'g'risda"gi Qonunning 25-moddasida "Sug'urta tashkilotlari o'z moliyaiy manbalarini boshqa yo'l bilan foydalanishga xaqlidir", deb ko'rsatilgan edi. Ammo 2002 yilning 5 apreldagi ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining VIII-sessiyasida qabul

¹¹ O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi Qonuni, 1998. 30 aprel. //Xalq so'zi. 1999. 12 yanvar. 7-son. 1-b.

qilingan «Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida»gi Qonunning 6-moddasiga muvofiq “sugʻurtalovchilar sugʻurtani amalga oshirish bilan bevosita bogʻliq boʻlmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanishlari mumkin emas” deb belgilangan. Demak, sugʻurtalovchilarning investitsiya faoliyati qatʼiy cheklangan. SHuningdek, Ushbu qonunning yuqorida koʻrsatib oʻtilgan moddasida sugʻurtalovchilar maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan tartib va shartlardagi investitsiya faoliyati bilan shugʻullanishlariga ruxsat berilgan. Maʼlumki, Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 2006 yil 6 mayda tasdiqlangan, №1571 raqam Bilan davlat roʻyxatidan va 2006 yil 22 aprelda tasdiqlangan, №1565 raqami bilan davlat roʻyxatidan oʻtgan buyruqlariga asosan, sugʻurta kompaniyalari tomonidan sugʻurta rezervlarini tashkil qilish va investitsiyalashning tartiblari belgilangandir.

Jumladan, unda respublika sugʻurta kompaniyalarining sugʻurta aktivlarini joylashtirish tartiblari, investitsiyalashning qonunchilikda belgilangan quyidagi asosiy talablarga javob berishi lozim:

1. Diversifikatsiya;
2. Qaytishliligi;
3. Likvidliligi;
4. Foydaliligi.¹²

Investitsion faoliyatning diversifikatsiyasi birinchi navbatda sugʻurta kompaniyasi investitsion portfelining barqarorligini koʻzda tutadi. Maʼlumki, sugʻurta kompaniyalari ularga oʻz mablagʻlarini qoʻyishi mumin boʻlgan investitsion loyixalar tshplami sarmoya bozorining rivojlanish darajasiga bogʻliq. Xozirgi paytda sugʻurtalovchilarning vaqtinchalik boʻsh turgan mablagʻlari tijorat banklari depozitlariga, qimmatli qogʻozlarga joylashtirilishi, korxona va koʻchmas mulklarga investitsiya qilinishi mumkin. Investitsiya portfel tarkibi va tizimini tartibga solish odatda kiritilgan mablagʻlarning turlari boʻyicha minimum va maksimumni belgilash yoʻllari orqali amalga oshiriladi. SHu Bilan birga, dunyoning etakchi kompaniyalarining tajribasiga koʻra, kompaniya investitsion portfelining korxona va koʻchmas mulklar ustav fondiga investitsiyalari 15%, qimmatli qogʻozlarga investitsiyalari 25-60%, tijorat banklari depozitlariga mablagʻlari 15-30%, investitsiyaning boshqa tutsrlariga 1-12% dan oshmaydigan miqdorlarda joylashtiradilar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar mablagʻlar yalanishini toʻgʻri tashil etish muxim ahamiyatga ega. CHunki, mablagʻlar aylanishi eng maʼqul variantini topish pirovard natijada korxona faoliyatini foyda bilan yakunlashiga olib keladi.

Sugʻurta faoliyatida joriy natijalar sugʻurta badallari koʻrinishida sugʻurta kompaniyalari xisob – raqamiga kelib tushgan pul mablagʻlari aylanishi xisobidan daromad kelish imkoniyati yuzaga keladi.

¹² Prikaz Ministerstva Finansov Respubliki Uzbekistan, zaregistririvan №1565 ot 22.04.2006 «Ob utverjdenii polojeniya o poryadke opredeleniya predelno dopustimogo razmera obyazatelstv po otdelnim riskam, svopupnogo razmera obyazatelstv i normativov platejesposobnosti straxovshchikov»

Ushbu daromadlar sug'urta kompaniyalarini sug'urta zaxiralarini shakllantirish orqali xarajatlar qismini qoplash va foyda olish manbai bo'lib xizmat qiladi.

Sug'urta faoliyatining joriy taxlil pul mablag'lari tushumi orqali o'ziga olyotgan majburiyatlar adektivliligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 2008 yil 22 apreldagi 41-sonli buyrug'i bilan "Sug'urtalovchilar to'lov qobiliyati to'g'risida"gi Nizom tasdiqlandi. Ushbu Nizomga asosan sug'urtalovchilar aktivlarini joylashtirishga oid quyidagi talablar belgilab qo'yildi.

1. Sug'urtalovchi boshqa yuridik shaxslarning ustav kapitallariga joylashtirgan aktivlarining umumiy summasi sug'urtalovchi ustav kapitalining 50 foizi miqdori bilan chegaralanadi.

2. Sug'urtalovchining har qanday bitta yuridik shaxsning ustav kapitalida ishtirok etish ulushi ushbu yuridik shaxsning ustav kapitalining 30 foizidan oshmasligi shart.

3. Sug'urtalovchining aktivlari ko'chmas mulk ob'ektlariga joylashtirilganda, sug'urtalovchi aktivlarining 50 foizidan ortig'ini bitta er uchastkasi yoki ko'chmas mulkning boshqa ob'ektiga joylashtirish mumkin emas.

4. Sug'urtalovchi aktivlarini bank omonatlariga joylashtirganda, bitta tijorat bankiga joylashtirilgan omonat sug'urtalovchi aktivlarining 40 foizidan oshmasligi shart.

5. Sug'urtalovchi aktivlarini kredit tashkilotlarida omonatlarga joylashtirganda, omonatlarning umumiy summasi sug'urtalovchi aktivlarining 10 foizidan oshmasligi shart.

6. Sug'urtalovchi aktivlarini bitta yuridik shaxsning ustav kapitaliga joylashtirish yoki bitta yuridik shaxsda ishtirok etish bo'yicha boshqa huquqlari sug'urtalovchi aktivlarining 30 foizidan oshmasligi shart.

7. Sug'urtalovchi aktivlarini quyidagi yo'llar bilan joylashtirishi taqiqlanadi:

- intellektual mulkka qo'yilmalar;
- jismoniy va yuridik shaxslar bilan qarz shartnomasini tuzish (moliyaviy yordam berish).

8. Sug'urtalovchi o'z ta'sischilari, aksiyadorlari va xodimlariga, shuningdek u bilan hayot sug'urta shartnomasini tuzgan sug'urta qildiruvchilarga ushbu shartnomalar bilan kafolatlangan qarzlarni berishga haqli. Bunda berilgan qarzlarning umumiy summasi sug'urtalovchining ustav kapitalining 10 foizidan oshmasligi shart.

9. Sug'urtalovchi o'z mablag'lari manbalari summasining 30 foizidan oshgan hajmdagi qarzlarni faqat Davlat sug'urta nazoratini xabardor etgandan so'nggina olishga haqli.

10. Sug'urtalovchi kassa va boshqa bank raqamlarida o'tgan 12 oy mobaynida hisoblangan sug'urta tovonlari summasining 3 foizidan kam bo'lmagan miqdorda pul mablag'lariga ega bo'lishi shart.

6-Mavzu. Qayta sug'urtalash kompaniyalari va sug'urta brokerlarining faoliyatini huquqiy tartibga solish

REJA:

1. Qayta sug'urta haqida tushuncha.
2. Qayta sug'urtaning turlari va shakllari.
3. SHartnoma tuzishdan avval yuzaga keladigan bahslar.
4. Sug'urta shartnomasi tuzilgandan va kuchga kitgandan keyingi bahslar.
5. Sug'urta qoplamasining miqdori va uni rad etish bilan bog'liq bahslar.
6. Sug'urta hodisasi ro'y berganligi aniqlanmaganligi bilan bog'liq bahslar.

1. Qayta sug'urta haqida tushuncha

Qayta sug'urtalash - sug'urtalashga riskni qabul qilish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tizimi (risklarni birlamchi joylashtirish). Sug'urtalovchi muvozanatlashgan sug'urta portfelini yaratish va sug'urta operatsiyalarini moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida qabul qilib olingan riskni bir qismini o'zaro kelishilgan holda boshqa sug'urtalovchiga berishi (riskni ikkilamchi joylashtirish). Qayta sug'urtalash operatsiyalari bilan bir qatorda asosan, ixtisoslashgan qayta sug'urtalash kompaniyalari amalga oshiradi. Qayta sug'urtalash aktiv (riskni berish) va passiv (riskni qabul qilib olish) ko'rinishida bo'ladi. Bundan tashqari qayta sug'urtalash nisbiy va nonisbiy shaklda bo'ladi.

Ayrim holatlarda qayta sug'urtalash operatsiyalari qayta sug'urtalovchi broker - ikkita tomon, ya'ni sug'urta kompaniyasi va qayta sug'urtalovchi kompaniyasi o'rtasidagi vositachidir.

Qayta sug'urta qilish shartnomalari bir tomondan sug'urta kompaniyalari o'rtasida o'zaro tuzilishi yoki ikkinchi tomondan, sug'urta kompaniyasi va ixtisoslashgan qayta sug'urta qilish kompaniyasi o'rtasida tuzilishi mumkin. Bu erda shartnoma o'zi nima degan savol to'g'ilishi mumkin. o'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 354- moddasida "ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi shartnoma deyiladi" – deb ko'rsatilgan. Dastlab, sug'urta kompaniyasi o'zining moliyaviy qobiliyatini mustahkamlash maqsadida qabul qilib olingan riskni bir qismini boshqa sug'urta kompaniyasida yoki ixtisoslashgan qayta sug'urta qilish kompaniyasida sug'urtalash to'g'risida qaror qabul qiladi. Ushbu qarorni ijrosini ta'minlash maqsadida sug'urtalovchi ixtisoslashgan sug'urta kompaniyasiga murojaat qiladi. Agar qayta sug'urtalovchi

kompaniya riskni qayta sug'urta qilishga rozilik bildirsa, ular o'rtasida qayta sug'urtalash shartnomasi tuziladi. SHuni alohida ta'kidlash lozimki, shartnoma shartlarida, unda ishtirok etuvchi tomonlarning huquqlari va majburiyatlari, olingan majburiyatlarning bajarilishi yuzasidan javobgarlik, shartnomani kuchga kirishi, amal qilish va bekor etilishi qoidalari mujassam bo'lishi kerak. SHuningdek, shartnomada qayta sug'urtalash mukofoti miqdori va javobgarlik hajmi ko'rsatilishi zarur. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga ko'ra, qayta sug'urta qilishda sug'urta tovonini yoki sug'urta pulini to'lash uchun asosiy sug'urta shartnomasi buyicha sug'urtalanuvchi oldida ushbu shartnoma buyicha sug'urta kompaniyasi javobgar bo'lib qolaveradi. Biroq asosiy sug'urta shartnomasi buyicha sug'urtalanuvchi hisoblangan sug'urta tashkiloti sug'urta hodisasi yuz berishidan oldin tugatilgan taqdirda, uning ushbu shartnoma buyicha huquq va majburiyatlarining qayta sug'urta qilingan qismi qayta sug'urta qilish shartnomasi buyicha sug'urtalovchiga o'tadi.

Qayta sug'urta qilish shartnomalari bir qator o'ziga xos belgilarga egaki, bu ushbu shartnomalarni savdo va boshqa turdagi shartnomalardan tubdan farq qiladi. SHuning uchun ham qayta sug'urta qilish sohasini nazariy jihatdan qaysi sug'urta tarmog'iga kiritish yoxud uni mustaqil sug'urta sohasi sifatida qarash ancha bahs munozarani talab qiladi.

Agar sug'urta hodisasi ruy bersa, bu haqda sug'urta kompaniyasi qayta sug'urtalovchi kompaniyaga darhol xabar qilishi kerak. o'z navbatida, qayta sug'urtalovchi kompaniya shartnomada ko'zda tutilgan qoplamani to'lashi shart. Qayta sug'urta qilish kompaniyasi shartnoma buyicha o'z majburiyatlarini to'latukis bajarsa, u holda shartnoma ijro etilgan hisoblanadi.

2. Qayta sug'urtaning turlari va shakllari

Sedent atamasi riskni ikkilamchi joylashtirishni amalga oshiruvchi, ya'ni riskni qayta sug'urtalash uchun beruvchi sug'urta kompaniyasi. Ikkilamchi sedent retrosedent deb ataladi. Bundan qayta sug'urtalashda sessiya atamasi ham keng qullaniladi. Sessiya – sug'urta riskini qayta sug'urtalashga berish jarayonidir.

Qayta sug'urtalovchi sifatida sug'urta kompaniyasi ham bo'lishi mumkin. Jahondagi eng yirik sug'urtalovchilar guruhiga Myunxen qayta sug'urtalash jamiyati, SHveysariya qayta sug'urtalash jamiyati, Kyoln qayta sug'urtalash jamiyatlari kiradi.

Qayta sug'urtalash ishida uning bir necha turlarini uchratish mumkin. Jumladan, fakultativ, obligator va fakultativg'obligatorli qayta sug'urtalashdir. Fakultativ qayta sug'urtalash - nisbiy qayta sug'urtalash shartnomasining turi.

Fakultativ qayta sug'urtalashda har bir berilayotgan risk buyicha alohida shartnoma tuziladi. Sedent har bir risk buyicha qayta sug'urtalash zarur yoki zarur emaslik masalasini mustaqil ko'rib chiqadi. o'z navbatida, qayta sug'urtalovchi ham sedentning taklifini qabul qilishi yoki qabul qilmasligi ham mumkin.

Obligatorli qayta sug'urtalash xalqaro amaliyotda ikki xil ma'noni bildiradi:

1) qayta sug'urtalashning majburiy shakli. Ayrim mamlakatlar qonunchiligiga ko'ra, ushbu mamlakat hududida faoliyat ko'rsatayotgan barcha sug'urta kompaniyalari qabul qilgan risklarini bir qismini majburiy ravishda qayta sug'urtalash kompaniyasiga beradi. Bu chora qayta sug'urtalash orqali chet elga valyuta chiqib ketishini oldini oladi;

2) sug'urta kompaniyasi (sedent) ma'lum bir sug'urta turi buyicha riskni qayta sug'urtalovchiga berishini va o'z navbatida, qayta sug'urtalovchi, riskni qabul qilishni nazarda tutuvchi qayta sug'urtalash shartnomasi. Fakultativ-obligator shartnomasi g' sedent qayta sug'urtalovchi bilan kelishgan toifadagi har qanday sug'urta riskini berishi, qayta sug'urtalovchi esa ularni qabul qilishi shart ekanligi haqidagi qayta sug'urtalash shartnomasi.

Qayta sug'urta qilish operatsiyalari nisbiy va nonisbiy shaklda amalga oshiriladi. Nonisbiy qayta sug'urta qilishga nisbatan nisbiy qayta sug'urtalash ancha ilgari paydo bo'lgan. SHu nuqtai nazardan qaraganda nisbiy qayta sug'urtalashni, ba'zan, an'anaviy qayta sug'urtalash ham deb atash qabul qilingan.

Nisbiy qayta sug'urta qilishning asosiy mohiyati shundaki, qayta sug'urtalovchi kompaniyaning riskni taqsimlashdagi ulushi sug'urta kompaniyasi aniqlagan nisbat asosida oldindan aniqlanadi. Ushbu nisbatga qarab, qayta sug'urtalash mukofotining va sug'urta kompaniyasining tegishli ulushi aniqlanadi. Nisbiy qayta sug'urta qilishning prinsipi "qayta sug'urtalovchi sedentning riskini bo'ladi" degan fikrdan iborat.

Sug'urta ishi amaliyotida nisbiy qayta sug'urtalashning quyidagi shakllari mavjud:

- * Kvotali qayta sug'urta qilish;
- * Ekssedent qayta sug'urta qilish;
- * Kvotalig'ekssedent qayta sug'urta qilish.

Nonisbiy qayta sug'urta qilishda qayta sug'urtalovchining sug'urta mukofoti va qoplamasidagi foizlardagi ishtiroki prinsipi qullanilmaydi. Nisbiy qayta sug'urta qilishda tomonlarning manfaati bir-biriga mos keladi.

Qayta sugʻurta qilish shartnomasiga xos boʻlgan belgilardan biri qayta sugʻurta qilish buyicha sugʻurta mukofotlarini qaytarib olish xarakteriga ega ekanligidir. Qayta sugʻurta qilish munosabatlarining uzoq yillik rivojlanishi jarayoni davomida xalqaro va milliy darajalarda foydalaniladigan qayta sugʻurta qilish shartnomalarining bir necha xillari shakllangan. Ular quyidagilardir:

- * fakultativ qayta sugʻurta qilish;
- * obligatorli qayta sugʻurta qilish;
- * fakultativ-obligatorli qayta sugʻurta qilish;

YUqorida qayd qilingan qayta sugʻurta qilish shartnomalaridan eng ommaviysi va uzoq yillardan beri qoʻllanib kelinayotgani - bu fakultativ qayta sugʻurta qilish shartnomalaridir. Mazkur shartnomaning ijobiy tomoni shundaki, bunda riskni qayta sugʻurtaga beruvchi – sugʻurta kompaniyasi ham va qayta sugʻurtalovchi kompaniya ham qancha miqdordagi riskni oʻziga olib qolish yoki qabul qilib olish masalalarini mustaqil hal qiladilar. Aksincha, obligatorli qayta sugʻurta qilish shartnomalari buyicha sugʻurta kompaniyasi qabul qilib olingan har bir riskning tegishli qismini qayta sugʻurta kompaniyasiga berishi shart.

3. SHartnoma tuzishdan avval yuzaga keladigan bahslar

Sugʻurtalovchi va sugʻurtalanuvchi (naf oluvchi, sugʻurtalangan shaxs) oʻrtasida yuzaga keladigan bahs-munozaralarning 3ta asosiy koʻrinishi mavjud:

- 1) sugʻurta shartnomasini tuzish jarayonida yuzaga keladigan bahslar;
- 2) sugʻurta shartnomasining va sugʻurtalovchi oʻz majburiyatini bajarishi bilan bogʻliq bahs-munozaralar;
- 3) sugʻurta shartnomasiga oʻzgartirish kiritish, bekor qilish hamda tugatish bilan bogʻliq bahs-munozaralar.

Mol-mulk sugʻurtasi boʻyicha quyidagi hollarda sugʻurtalovchi sugʻurta shartnomasini tuzishdan bosh tortishi mumkin:

- sugʻurtalanuvchi tomonidan sugʻurtaga olinadigan mol-mulkni saqlashga loqaydlik bilan munosabatda boʻlishi aniqlanganda;
- sugʻurta hodisasining roʻy berish ehtimolligi yuqori boʻlganda; bunday hollarda sugʻurtalovchi sugʻurtalanuvchiga riskni kamaytirishga qaratilgan texnik tadbirlar oʻtkazishni tavsiya qiladi; baʼzan esa sugʻurtalovchi bunday tadbirlarni moliyalashtirishga ogohlantirish tadbirlarining fondi hisobidan koʻmak berishi mumkin;
- sugʻurtalovchi bilan sugʻurtalanuvchi mol-mulkning haqiqiy yoki texnik holatidagi qiymati yuzasidan kelisha olmaganida;

- sug'urtalanuvchi sug'urtalovchiga sug'urta hodisasining ro'y berish ehtimolligini va uning natijasida ko'rilishi mumkin bo'lgan zararining miqdorini aniqlash yuzasidan to'liq va aniq ma'lumotlarni taqdim etishdan bosh tortganda;
- tomonlar sug'urta summasining hajmi yuzasidan bir to'xtamga kela olmagan;
- sug'urtalanuvchini sug'urta shartnomasi bo'yicha tarif stavkaning miqdori hamda sug'urtalovchiga to'lanadigan sug'urta mukofotining miqdori qoniqtirmasa.

Bunday kelishmovchiliklar sug'urtalanuvchi bilan sug'urtalovchi o'rtasida shaxsiy sug'urta shartnomasini tuzish jarayonida ham kuzatilishi mumkin, lekin uning boshqa sug'urta shartnomasidan farqi shundaki, shaxsiy sug'urta shartnomasi ommabop hisoblanadi. Buning ma'nosi shuki, tijorat shaklidagi sug'urta tashkiloti bunday shartnomani imzolashdan bosh tortishga haqli emas, ba'zi holatlar bundan mustasno, masalan, sug'urtalovchi shartnoma tuzishning imkoni yo'qligini qonun yoki huquqiy hujjatlar yordamida asoslab bersa.

Majburiy sug'urtada sug'urtalovchi sug'urtalanuvchiga sug'urta shartnomasini tuzish taklifini. Dalolatnomani olgandan so'ng sug'urtalovchi 30 kun ichida ikkinchi tomonga (sug'urtalanuvchi) uning shartlarini qabul qilganligi yoki dalolatnomaga qarshi ekanligi to'g'risida ma'lum qilishi shart.

Agar tomonlar (sug'urtalovchi, sug'urtalanuvchi) uchun sug'urta shartnomasini tuzish qonunga muvofiq majburiy hisoblansa, tomonlardan fay biri uni tuzishdan bosh tortsa, ikkinchi tomon sudga murojaat qilib, uni shartnoma tuzishga majburlashga haqli. SHartnoma tuzishdan asossiz ravishda bosh tortgan tomon ikkinchi tomonga etkazgan zararini qoplab berishi kerak. Agar sug'urta shartnomasini tuzishda yuzaga keladigan kelishmovchiliklar sudga ko'rib chiqish uchun taqdim etiladigan bo'lsa, kelisha olmayotgan shartnoma shartlari sudning qarori bilan aniqlanadi.

4. Sug'urta shartnomasi tuzilgandan va kuchga kitgandan keyingi bahslar

Sug'urta shartnomasi tuzilgandan va kuchga kirgandan keyingi bahslar. Bunday bahslar quyidagi hollarda yuzaga kelishi mumkin:

- sug'urtalanuvchi sug'urta shartnomasini tuzish jarayonida sug'urtalovchiga sug'urta hodisasining ro'y berish ehtimolligini hamda uning natijasida ko'rilishi mumkin bo'lgan zararining miqdorini aniqlash holatlarida yolg'on ma'lumotlar taqdim etgshan hollarda; bunday hollarda sug'urtalovchi haqiqiy emas deb

topilishini talab qilish va qonunga muvofiq sug'urtalanuvchiga nisbatan choralar qo'llashga haqli;

- sug'urtalanuvchi sug'urtalovchiga shartomaning amal qilish davrida sug'urta riskining oshishiga olib keladigan o'zgarishlar bo'lganligi haqida xabar bermaganda, shuningdek, sug'urta hodisasining ro'y berish ehtimolligi oshishi munosabati bilan sug'urta mukofotiga qo'shimcha summa to'lashdan bosh tortganda; bunday hollarda sug'urtalovchi shartnomani bekor qilish va uning bekor qilinishi oqibatida keltirilgan zararlarni qoplab berishini talab qilishga haqli;
- shaxsiy sug'urta shartnomasi sug'urtalanuvchi, shuningdek, sug'urtalangan shaxs hisoblanmaydigan shaxsning foydasiga tuzilgan bo'lsa.

Sudda ko'rib chiqiladigan tomonlarning asosiy da'volar quyidagilar bilan bog'liq:

- sug'urtalovchi ro'y bergan hodisani sug'urta hodisasi deb tan olmaganda va sug'urta qoplamasini to'lashdan bosh tortganda;
- sug'urta qoplamasining miqdori sug'urtalanuvchini (naf oluvchini) qoniqtirmaganda;
- sug'urtalovchilarning sug'urta qoplamasini to'lab berish muddatini asossiz ravishda "uzaytirish"lari hollarida.

5. Sug'urta qoplamasining miqdori va uni rad etish bilan bog'liq bahslar

Sug'urtalovchi sug'urtalanuvchining aniq bir sug'urta hordisasi natijasida ko'rgan zararini qoplab berishdan bosh tortganda u har tomonlama asoslangan va yozma shaklda taqdim etilgan bo'lishi kerak. Sug'urtalovchining sug'urta qoplamasini to'lashni rad etishi haqqoniy bo'lsa va qonunning huquqiy normalari bilan asoslanmagan bo'lsa, sug'urtalanuvchi sug'urtlovchining haqligini aniqlash yuzasidan sudga ariza bilan murojaat qiladi.

Ko'pincha sug'urtalanuvchi (naf oluvchi, sug'urtalangan shaxs) bilan sug'urtalovchi o'rtasidagi nizolar sug'urta qoplamasining to'liq yoki qisman to'lanmasligi natijasida kelib chiqadi, lekin ular qonunga muvofiq asoslangan bo'ladi. Quyidagi holatlar sug'urta qoplamasi to'lanmasligiga asos bo'ladi:

- 1) sug'urtalanuvchi (naf oluvchi) sug'urta hodisasi ro'y berganligini shartnomada ko'rsatilgan muddatda va tartibda sug'urtalovchiga ma'lum qilmasa;
- 2) sug'urtalanuvchi sug'urta hodisasi natijasida ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni atayin amalga oshirmasa;
- 3) sug'urtalanuvchi (naf oluvchi)ning ko'rgan zarari aybdor shaxs tomonidan to'liq qoplanganda;

4) sug'urtalanuvchi (naf oluvchi, sug'urtalangan shaxs) sug'urta shartnomasi yoki qoidalarida ko'rsatilgan u yoki bu majburiyatlarni bajarmaganda.

Bunday majburiyatlarga (shartlarga) quyidagilar kiradi:

- sug'urtalanuvchi (naf oluvchi, sug'urtalangan shaxs) sug'urta hodisasi ro'y berganligi to'g'risidagi xabarni shartnomada belgilangan muddatda tegishli organlarga (IIV, yong'in xavfsizligi xizmati, sug'urta nazorati, militsiya, sanepidstansiya, avriya, qutqaruv xizmati) taqdim etishi kerak;
- sug'urtalanuvchi mol-mulk sug'urtasi yoki tadbirkorlik riski sug'urtasi bo'yicha shartnoma tuzayotganida sug'urtalovchini xuddi shu ob'ektlar boshqa sug'urta tashkilotida ham sug'urtalanganligi to'g'risida ogohlantirishi kerak;
- sug'urta qoidalariga ko'ra, mulkiy va tadbirkorlik riski sug'urtasida sug'urta summasining miqdori sug'urta qiymatidan oshirilishi mumkin.

6. Sug'urta hodisasi ro'y berganligi aniqlanmaganligi bilan bog'liq bahslar

Sug'urta hodisasi ro'y berganligi aniqlanmaganligi bilan bog'liq risklar. Sug'urta sub'ektlari o'rtasidagi bahslar asosan sug'urta hodisasining ro'y bergan vaqtini, uning sabsblarini aniqlay olmaslik natijasida kelib chiqadi. Bu asosan sug'urta hodisasining sug'urta qoidalarida aniq tasvirlanmasligi oqibatida sodir bo'ladi. Masalan, ba'zi sug'urtalovchilar sug'urtalanuvchi-banklar bilan tuzgan sug'urta qoidalarida qarz oluvchining kreditni qaytarmaslik sug'urtasida sug'urta hodisasi ddeb kreditning (kreditga foiz bilan olingan pul mablag'lari) qaytarilmasligini tushunadilar. Kreditning qarz oluvchi tomonidan qaytarilmasligi holatida sug'urtalanuvchi-bank sug'urtalovchidan zararning qoplanishini talab qilishga haqli hisoblanadi, hattoki, qarzdor kredit mablag'larini kreditning ko'rsatmasi bo'yicha emas, balki boshqa yo'nalishga sarflagan bo'lsa va kutilgan sof daromadni ololmagan bo'lsa ham yoki qarzdor qarz mablag'larini ko'rsatma bo'yicha sarflagan va rejalashtirilgan iqtisodiy samaraga erishgan bo'lishi ham mumkin, lekin ishlab topgan daromadini kreditni va uning foizini qaytarishga emas, balki boshqa maqsadlarga yo'naltirgan bo'lishi mumkin. Sug'urtalanuvchi-bank esa sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan sug'urta hodisasi bo'yicha zarar ko'rgan va uni qoplab berishini so'rab sug'urtalovchiga murojaat qiladi.

SHuning uchun, sug'urtalovchi majburiyatlarining chegarasi sug'urta shartnomasida va qoidalarida aniq ko'rsatilgan bo'lishi kerak, aks holda u o'zining moliyaviy ziyoni hisobiga sug'urta qoplamasini amalga oshirishiga to'g'ri keladi.

XORIJIY MANBALAR

1. "Life Insurers Fact Book" 12/5/2012. The 2012 Fact Book provides statistics and information on trends in the life insurance industry. Specific topics covered include assets, liabilities, income, expenditures, reinsurance, life insurance, and annuities.
2. "Investing in Insurance Risk" By [Alex Krutov](#) 3 June 2010 year
Availability: In stock
3. "Alternative (Re)insurance Strategies: Second Edition" Edited By [Morton Lane](#) [Review\(s\)](#) | [Be the first to review this book](#) **Publish date:** 30 Nov 2012
4. "Asian Catastrophe Insurance" Edited By [Charles Scawthorn and Kiyoshi Kobayashi](#) [0 Review\(s\)](#) | [Be the first to review this book](#)
5. "Catastrophe Risk and Reinsurance" Edited By Eugene N. Gurenko [0 Review\(s\)](#) | [Be the first to review this book](#) Publish date: 2 Feb 2004
6. Straxovaniya uchebnik Avtor N.N Saxirova 2013M.: ITS Akademiya, 2013.
Lipsits I. V. Ekonomika. Bazoviy kurs obshcheobrazovatel'nykh uchrejdeniy. - M.: VITA-PRESS, 2012.
7. [Gvozdenko A. A. Osnovi straxovaniya: Uchebnik. 2-e izd., pererab i dop](#) 04.05.2013
8. Nikulina N.N. - [Straxovanie. Teoriya i praktika. Uchebnoe posobie](#) - M.: YUniti-Dana, 2008
9. Nikulina N.N. [Aktuarnie rascheti v straxovanii. Uchebnoe posobie](#) - M.: YUniti-Dana, 2011.
10. Nikulina N.N. [Prakticheskiy straxovoy audit. Uchebnoe posobie](#) - M.: YUniti-Dana, 2012.
11. Nikulina N.N. [Finansoviy menedjment organizatsii. Teoriya i praktika. Uchebnoe posobie](#) - M.: YUniti-Dana, 2012.
12. Nikulina N.N. [Finansoviy menedjment straxovoy organizatsii. Uchebnoe posobie](#) - M.: YUniti-Dana, 2012.
13. Nikulina N.N. [Organizatsiya kommercheskoy deyatel'nosti predpriyatiy. Po otraslyam i sferam primeneniya. Uchebnoe posobie](#) - M.: YUniti-Dana, 2012.
14. Gushchenko N.B. Osnovi straxovoy deyatel'nosti: Uchebnoe posobie. - M.: Finansi i statistika, 2007.
15. Ryabikin V.I. Straxovanie i aktuarnie rascheti. Uchebnik. - M.: Ekonomist', 2007 g.
16. Abramov V.YU. Straxovanie: teoriya i praktika. - M.: Volster Kluver, 2007.
17. Pod redaksiey prof. T.A. Fedorovoy, Straxovanie. Uchebnik. - M.: Magistr, 2008 g.
18. Gvozdenko A.A. Straxovanie. Uchebnik dlya vuzov. - M.: Prospekt, 2008 g.
19. Chernova G.V., Bazanov A.N. Straxovanie. Uchebnik dlya studentov. - M.: Prospekt, 2008 g.
20. Godin A.M., Frumina S.V. Straxovanie. Uchebnik dlya vuzov. - M.: Dashkov i K., 2009.
21. Galaganov V.P. Straxovoe delo. - M.: Akademiya, 2009 g.

22. Ermasov S.V., Ermasova N.B. Straxovanie, 2-e izdanie. Uchebnik dlya vuzov. - M.: Visshee obrazovanie, 2009.
23. Pod.red. V.V.Shaxova, YU.T.Axvlediani. Straxovanie 3-e izdanie. Uchebnik dlya studentov vuzov. - M.: YUniti, 2009 g.
24. Gomelya V.B. Straxovanie. Uchebnik. Market DS-2010.
25. Godin A.M. Straxovanie. Uchebnik. Market DS-2010.
26. Nor-Arevyan O. Sotsialnoe straxovanie. Uchebnik. Dashkov i K., 2011.
27. Ermasov S.V. Straxovanie. Uchebnik. YUrayt, 2011.
28. L.A.Orlanyuk-Malitskoy. . Straxovanie. Uchebnik. YUrayt, 2011.
29. Arxipov A.P. Anderraying v straxovanie. Teoreticheskiy kurs i praktikum. Uchebnoe posobie. - M.: YUniti, 2009g
30. Zayseva M.A., Boliboka V.D. Straxovanie va vneshneekonomicheskoy deyatel'nosti. Uchebnoe posobie dlya vuzov. - BGEU, 2009g.
31. Prosvetov G.I. Straxovanie: zadachi i resheniya. - M.: Alfa-press, 2009g.
32. Andreev YU.I. Imushchestvennoe straxovanie. Uchebnoe posobie - M.: Os-89, 2009g.
33. Xeydema Djeyms M. Uvlechenniy agent: prakticheskoe posobie dlya straxovix agentov. - M.: Volters-Kluver, 2009g.
34. YU.T.Axvlediani. Straxovanie vneshneekonomicheskoy deyatel'nosti. Uchebnoe posobie dlya vuzov. - M.: YUniti, 2010g.
35. Adamchuk N.G. Mejdunarodnaya praktika straxovaniya jizni. Uchebnoe posobie. - M.: ANKIL, 2009 g.
36. Anikin P.V., Rusetskaya E.A. Uchebnoe posobie dlya vuzov. - M.: Finansi i statistika, 2008g.
37. Malkova O.V. Straxovanie v sisteme mejdunarodnix ekonomicheskix otnosheniy. Uchebnoe posobie dlya ekonomicheskix spetsialnostey. - M.: Feniks, 2009g.
38. Kuznetsova I.A. Straxovanie jizni i imushchestva grajdan. Prakticheskoe posobie. - M.: Dashkov i K., 2009.
39. Dyujikov E.F., Spletuxov YU.A. Straxovanie. Uchebnoe posobie. - M.: Infra-M., 2009g.
40. Ivasenko A.G. Straxovanie. Uchebnoe posobie. - M.: KnoRus, 2009g.
41. Samarov E.K. Straxovaya matematika: prakticheskiy kurs. Uchebnoe posobie. - M.: Alfa, 2009 g.
42. Veselovskiy M.YA. Straxovoy servis. Uchebnoe posobie dlya studentov vuzov - M.: Alfa, 2009 g.
43. Shixov A.K. Straxovoe pravo (per.). 6-e izdanie. Uchebnoe posobie dlya studentov vuzov - M.: YUrisprudentsiya, 2009 g.
44. Pimenva E.N. Straxovoe pravo. Uchebnoe posobie. - M.: Forum, 2009 g.
45. Igoshin N.A. Straxovoe pravo. Uchebnoe posobie. - M.: YUniti. 2010 g.
46. Pod redaksiyey L.A.Orlanyuk-Maliykoy, S.YU.YAnovoy. Straxovanie. - M.: YUrayt, 2010g.
47. Ermasov S.V. Straxovanie. Uchebnik. 3-e izdanie, pererab. i dop - M.: YUrayt, 2010g.

48. Xudiyakov A.I. Teoriya straxovaniya, M.: Status, 2010 g.
49. Nikulina N.N.. Straxovoy menedjment. Uchebnoe posobie. YUNITI, 2011
50. allinsurance.ru/
51. www.insuranceisrael.com/rus/katalog.html
52. symixins.narod.ru/
53. ins.org.ru/catalog/
54. www.insur-info.ru/press/ratings
55. insuranc.ru/
56. www.sluchay.ru/
57. insurance4you.ru/
58. www.insur-responses.ru/
59. www.prostrahovanie.ru/
60. www.ask.com/Straxovanie+Sayt
61. www.prostrahovanie.ru
62. strahovka73.ru/
63. www.renins.com/
64. podborstrahovki.ru/
65. avtostrahovka-osago-autoinsurance-kasko.ru/strahovanie-avtomobile...
66. strachovshik.ru/
67. www.ins-union.ru/
68. www.fssn.ru/
69. neva-strahovanie.ru/
70. StrahovkaSite.ru - SAYT O STRAXOVANII
71. strahovkasite.ru/
72. www.alfastrah.ru/
73. www.strahovatel.com.ua/guide/links/
74. horskazan.ru/publ/stati_sajta/pensionnoe...ob.../11-1-0-51
75. www.artrussian.com/srtaxovanietop.top
76. ins.org.ru/catalog/45/
77. www.znay.ru/
78. www.biu.by/
79. www.reso.ru/
80. rosgostrah.ru/straxovye-kompanii/
81. com-seo.ru/avtostrahovanie-kasko-autoinsurance-osago-topcompany...
82. navigator.economicus.ru/cgi-ise/resources.cgi?subj...sort...
83. www.makc.ru/
84. www.gutains.ru/
85. www.vsego.ru/catalog.phtml?kat=101
86. siteinsurance.ru/
87. www.uralsibins.ru/
88. www.asv.org.ru/
89. www.uralweb.ru/catalog/insurance.html

90. www.vaclavak.ru/strahovanie-v-chehii.html
91. straxovoi-agent.ru/
92. mobikit.ru/portfolio/431/
93. www.open-ins.ru/
94. www.soglasie.ru/
95. www.sib-insur.ru/
96. www.vsk.ru/
97. strahovanie.ucoz.ru/news/2
98. www.rosno.ru/
99. www.osagovrn.ru/
100. russia-strax.ru/
101. dms-exchange.ru/
102. www.garantins.ru/
103. www.trade-credit-insurance.ru/
104. www.sinofon.ru/?p=1
105. kupipolis.ru/
106. www.d2insur.ru/
107. www.russian-top.ru/straxovanie.html
108. www.ir-magazine.ru/.../t206096-dizain-dlya-joomla-sait-o-strakhova...
109. insurance.milana.pp.ru/
110. www.ins-forum.ru/links.php
111. [insurance.km.ru:](http://insurance.km.ru)
112. internet.properm.ru/rating/115/3946/
113. www.ros.ru/
114. insuranceforall.ru/
115. www.oranta-sk.ru/
116. www.nadins.ru
117. MEDIKA-VOSTOKwww.mvostok.ru
118. www.polisnn.ru/
119. www.ukrstrahovanie.com.ua/

**“SUG‘URTA HUQUQI” fanining o‘quv
dasturida kurs ishi belgilanmagan va u
talabalar tomonidan bajarilmaydi**

ANNOTATSIYALAR

1-mavzu. Sug'urta huquqining mohiyati va huquqiy atamalar va tushunchalar

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng sug'urta sohasida tub o'zgarishlar yuz berdi. Iqtisodiy islohotlar tufayli tarmokda rakobat asosida faoliyat kursatadigan turli mulk shaklidagi sug'urta tashkilotlari vujudga keldi. Bugungi kunda sug'urta bozor infratuzilmasining muxim buguni sifatida iqtisodiyotni rivojlanishi uchun xizmat kilmokda.

2-mavzu. Sug'urta faoliyatini yuritishning tashkiliy-huquqiy asoslari va ularni davlat ro'yxatidan o'tkazish

O'zbekistonning sug'urta bozorini boshkarishda milliy manfaatlariga mos keladigan kator vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda iqtisodiy faoliyatning uzaro uygun dastaklari majmui-bozor institutlarini rivojlantirish va takomillashtirishga ustuvorlik berish muxim omillardan biri xisoblanadi.

3-mavzu. Sug'urta faoliyatini yuritishning tashkiliy-huquqiy asoslari va ularni davlat ro'yxatidan o'tkazish

Respublikamizda tulakonli sug'urta bozorini barpo etish va uni barkaror rivojlanishini ta'minlash uchun etarli darajada iqtisodiy va xukukiy asoslar yaratildi.

Ichki bozorni raqobatbardosh va sifatli maxsulotlar bilan to'ldirish, yangi ish o'rinlari yaratish va shu asosda axoli daromadlarini ko'paytirish va faravonligini oshirishning mug'im omili, mamlakat taraqqiyoti yo'lidagi faol harakatlantiruvchi kuch sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan keng chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish maqsadida 2011 yil O'zbekiston Respublikasida "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" deb e'lon qilingan¹³.

4-mavzu. Sug'urta shartnomalarini tuzish va uni bajarish tartibi

Ma'lumki, sugurta operatsiyalari avvalo mijoz va kompaniya urtasida sugurta shartnomasini tuzish va imzolashdan boshlanadi. Sugurta shartnomalarini mijozlar manfaatlarini xisobga olgan xolda va ularga kulay shartlarda tuzi shva uning tartib va shartlarini tulik tushuntirish kompaniya faoliyati barkarorligini ta'minlaydi.

5-mavzu. Majburiy va ixtiyoriy sug'urtalashning huquqiy asoslari

Respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida ixtiyoriy va shu urinda majburiy sugurta turlariga extiyoj ortib bormokda va xudi shu soxani

¹³ Karimov I.A. "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" Davlat dasturi to'g'risida. //Toshkent oqshomi, 2011 yil 10 fevral.

amalga oshirish yuzasidan konunchilik xujjatlarini ishlab chikish va ularni muntazam ravishda takomillashtirib borish zarur.

6-mavzu. Qayta sug'urtalash kompaniyalari va sug'urta brokerlarining faoliyatini huquqiy tartibga solish

Qayta sug'urtalash operatsiyalari bilan faoliyat olib boruvchi sugurta kompaniyalari uz zimmasiga juda mas'uliyatli vazifalarni oladi va xudi shuning uchun xam ularning faoliyatini xuquqiy tartibga solish muxim xisoblanadi.

MUALLIFLAR XAQIDA MA'LUMOT
(I.K.Ochilov, N.A.Mavrulova)

	Ochilov Ilyos Keldiyorovich “Sug’urta ishi” kafedrası mudiri, i.f.n. dotsent
---	---

I.Ochilov dastlabki pedagogik faoliyatini 1997-1999 yillarda “Buxgalteriya hisobi, nazorat va audit” kafedrasida assistent, katta o’qituvchi, 2001-2005 yillarda kafedra dotsenti vazifasini bajaruvchi va dotsenti lavozimlarida olib bordi.

U 2005-2007 yillarida sirtqi moliya-hisob iqtisod fakulteti dekan muovini va dekani lavozimlarida ishladi. 2007-2010 yillarida akademik litsey va kasb-hunar kollejlari bilan ishlash bo’yicha prorektor, 2010-2013 yillarida moliya-iqtisodiyot ishlari bo’yicha prorektor lavozimlarida faoliyat yuritdi.

I.Ochilov tomonidan jurnal va konfirentsiyalarda 20 dan ortiq tezis hamda maqolalar nashr qilib kelmoqda. Shuningdek uning muallifligida “Moliyaviy xisob” (2004), “Moliyaviy xisob-2” (2004), “Moliyaviy xisob” (2007) va “Sug’urta tashkilotlarida buxgalteriya xisobi va audit” (2008), “Sug’urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va xisoboti” (2010) o’quv qo’llanmalari nashir etilgan. U muallifligidagi “Sug’urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va xisoboti” o’quv qo’llanmasi 2012 yilning eng yaxshi darsligi va o’quv qo’llanmasi tanlovida III darajali diplom g’olibi bo’ldi.

Hozirgi kunda “Sug’urta ishi” kafedrası mudiri lavozimida faoliyat yuritmoqda va “Sug’urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlilni takomillashtirish yo’nalishlari” mavzusida doktorlik dissertatsiyasi ustida ilmiy ish olib bormoqda.

	Mavrulova Nilufar Abduxalilovna «Sugurta ishi» kafedrası katta ukituvchisi
---	---

Mavrulova Nilufar Abduxalilovna 2000-2004 yillarda Toshkent moliya institutining bakalavr bulimida, 2004-2006 yillarda shu institutning magistratura bulimida taxsil olgan va a'lo baxolar bilan tamomlagan. 2006-2010 yillarda «Sugurta ishi» kafedrası assistenti, xozirda esa 2011 yildan buyon kafedra katta ukituvchisi lavozimida faoliyat yuritib kelmokda. U o'zining pedagogik faoliyatida "Sug'urta ishi" bakalavr ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisliklari uchun Davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari va fan dasturlarini ishlab chiqishda va takomillashtirish ishlarida faol ishtirok etib keladi.

Mavrulova N.A. 2006 yildan buyon respublika va xalkaro miqyosda tashkil etib kelinayotgan ilmiy-amaliy anjumanlarda 30 dan ortiq tezislari va ilmiy maqolalari bilan faol qatnashib kelmoqda. Hozirgi kunda Mavrulova N. "SHaxsiy sugurta va uni Uzbekistonda takomillashtirish yullari" mavzusi bo'yicha doktorlik dissertatsiya ishi ustida ish olib bormoqda.

FOYDALI MASLAXATLAR

1. Joriy nazoratni topshirish bo'yicha:

Har bir o'qitiladigan fan bo'yicha talabalarga referat mavzusi professor-o'qituvchi tomonidan beriladi. Ushbu referat mavzusi talaba tomonidan tanlov asosida tanlanadi.

Talaba referat mavzusini tanlashda referat mavzusi bo'yicha manba ya'ni adabiyotlar va qo'llanmalarni o'zida his qila olishi kerak. Shuningdek talaba berilgan referat mavzusidan kelib chiqib, unga mos rejasini shakllantirish kerak bo'ladi. Bunda har bir rejasi qismini mazmun mohiyatini ochib berishi zarur hisoblanadi. Talaba berilgan referat mavzusini yakunlash qismida albatta foydalanilgan adabiyotlar qismi bilan tugatishi lozim.

2. Oraliq nazoratni topshirish bo'yicha:

Barcha o'qitiladigan fanlardan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlari darslari qo'yiladi. Ma'ruza darsida talabalarga professor-o'qituvchilar shu darsda o'tiladigan mavzuni mazmun mohiyatini har bir reja asosida gapirib beradi. Talabalar o'tilgan ma'ruza darsi bo'yicha tegishli adabiyotlar va qo'llanmalar hamda me'yoriy hujjatlar ustida ishlashlari talab etiladi. Chunki 1 parada professor-o'qituvchi ushbu mavzuni to'liqligicha yoritib bera olmaydi. Shu bilan bir qatorda ushbu mavzu yuzasidan talaba o'zining tezislari yozib nashr etishi va o'zi qiziqqan chet el davlati tajribasi bo'yicha taqdimot tayyorlab kelishi lozim. Shundan so'ng talaba belgilangan reyting ballini to'liqligicha o'z vaqtida to'plab boradi.

3. Amaliy mashg'ulot darslariga tayyorgarligi:

O'qitiladigan fanlar bo'yicha amaliy mashg'ulot darslari olib boriladi. Amaliy mashg'ulot darsi ma'ruza darsidan tubdan farq qiladi. Chunki amaliy mashg'ulot darsida o'tilgan ma'ruza darsini amaliy jihatlari bo'yicha talabalar bilan fikr va mulohazalar almashiniladi. Amaliy mashg'ulot darsida talaba ma'ruzada o'tilmay qolgan reja asosidagi savolga tayyorgarlik ko'rishi, konspekt qilishi hamda

tushunmagan savolini professor-o'qituvchi berishi va ushbu mavzu bo'yicha gapirib berishi zarurdir. Shu bilan bir qatorda shu darsga mos xorijiy manbalar bo'yicha tayyorgarlik ko'rib kelib guruh talabalariga qo'shimcha ma'lumotlarni etkazib berishi va ushbu fan bo'yicha olgan mustaqil ish mavzusi ustida ish olib borishi zarur hisoblanadi. Shundagina har bir talaba J.N bo'yicha reyting ballini o'z vaqtida to'play oladi.

NORMATIV HUJJATLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 1994.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi - T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 1996y.-496 b.
3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni «Sug'urta faoliyati to'g'risida». T.: 2002 y., 5 aprel. «Xalq so'zi» gazetasi, 2002 yil 28 may.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 31 yanvardagi «Sug'urta bozorini yanada erkinlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-3022-son Farmoni. «Xalq so'zi» gazetasi, 2002 yil 1 fevral.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 286-sonli Qarori. 1998 yil 8 iyul. O'zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunlari, 4-ilova, - T.: 2000.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasini tashkil etish to'g'risida»gi 113-sonli Qarori. 1997 yil 28 fevral. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining Qarorlar to'plami, 1997, 2-son.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 27 noyabrdagi 413-sonli «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 apreldagi «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 618-sonli Qarori. «Bank axborotnomasi» 2007 yil 6 iyun.
9. O'zbekiston Respublikasining «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida»gi Qonuni. – Xalq so'zi, 2008 yil 21 aprel.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 21 maydagi «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida erkinlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi Qarori. Xalq so'zi, 2008 yil 22 may.

- 11.O'zbekiston Respublikasining "Ish beruvchilarning fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi Qonuni. – Xalq so'zi, 2009 yil 17 aprel.
- 12.Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: O'zbekiston, 2010.- 67 b.
- 13.Karimov I. A. Prezidentning 2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risidagi qarori. //Xalq so'zi, 2010 yil 26 noyabr PQ-1438-sonli
- 14.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisining Qarori. "2012 yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilgi iqtisodiy dasturning asosiy ustuvor vazifalari to'g'risida", 2013 yil 22 yanvar.

BAHOLASH MEZONLARI

REYTING BAHOLASH TIZIMI

Reyting nazorati jadvali

Reyting nazorati turlari	Semestr xaftalari																				Ballar	Saralash ballari
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	20	Attestatsiya			
JN	0-5			0-6			0-6			0-6			0-6			0-6				0-35	39	
ON	0-17									0-18										0-35		
Σ (JN+ON)	0-70																					0-70
YaN																			0-30	0-30		0
Jami	0-70																		0-30	0-100	56	

Izoh: Semestr haftalari soni ta'lim yo'nalishi(mutaxassislik)ning o'quv rejasi va o'quv jarayoni grafigiga muvofiq belgilanadi va farqlanishi mumkin (18-19 haftalar qishki ta'til davri hisoblanadi).

JN bo'yicha baholash mezonlari

JNda amaliy mashg'ulotlar bo'yicha jadvalda keltirilgan semestr haftalari kesimida har bir mashg'ulotda talabani o'zlashtirishiga mos ravishdagi mezon asosida 0-2 (yoki har 3(uch) hafta bo'yicha 0-6), jami 0-35 ballgacha jamlanishi belgilangan. JN bo'yicha 0-2(0-6) ballik tizimdagi mezonlar semestr boshida talabalar e'tiboriga etkaziladi.

ON bo'yicha baholash mezonlari

ON ma'ruza mashg'ulotlari materiallari asosida bir semestr davomi 2 marta o'tkaziladi. ON bo'yicha talaba jami 0-35 (har bir ONda 0-17 /0-18) ballgacha jamlashi mumkin.

Fanning o'qitilgan mavzulari bo'yicha o'zlashtirish nazorati turli shakllarda o'tkazilishi mumkin. Mazkur fandan ON test sinovi shaklida o'tkazilganda testlar soni va ularga mos ravishdagi mezon 0-17 /0-18 bal kesimida kafedra tomonidan alohida belgilanadi va talabalar e'tiboriga etkaziladi.

JN va ON bo'yicha reyting ballarini umumlashtirish mezonlari

Σ (JN+ON) 0-70 gacha bo'lgan reyting ballari quyidagi mezonlarga muvofiq umumlashtirilishi belgilangan:

Baholash mezonlari	Reyting ballari		Σ (JN+ON)
	JN	ON	
“Sug'urta huquqi” mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha har tomonlama chuqur va mukammal bilimga ega. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarda «Sug'urta huquqi» faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'yicha xulosa va qaror qabul qila oladi, mustaqil mushohada yurita oladi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntira	30-35	30-35	60-70

oladi, aytib beradi, tasavvurga ega .			
Fan mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha to'la bilimga ega. Mashg'ulotlarda «Sug'urta huquqi» faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'yicha mustaqil mushohada yurita oladi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.	25-29	25-29	50-69
Fan mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha koniqarli bilimga ega. Amaliy mashg'ulotda «Sug'urta huquqi» faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'yicha mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega .	20(19)-24	20-24	39-49
Fan mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha koniqarsiz bilimga ega. Amaliy mashg'ulotda «Sug'urta huquqi» faoliyati bilan bog'liq masalalar yuzasidan aniq tasavvurga ega emas, bilmaydi.	0-19	0-19	0-38

YaN ni baholash mezonlari

YaN og'zaki, "Yozma ish" yoki "Test sinovi" shaklida 30(0-30) ballgacha belgilangan mezonlar asosida, majmual (Yozma ish + test sinovi) shaklida 30(6/24) ballik tizim asosida o'tkaziladi.

Talabalarning fanni o'zlashtirish ko'rsatkichlarini aniqlash mezonlari

Talabalarning fan bo'yicha bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish 0-100 ballik reyting tizimi asosida quyidagi mezonlarga muvofiq amalga oshiriladi:

Talabani fanni o'zlashtirishini nazorat qilish mezonlari	Ballar
«Sug'urta huquqi» fani mashg'ulotlari jami mavzulari bo'yicha har tomonlama chuqur va mukammal bilimga ega. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarda «Sug'urta huquqi» faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'yicha xulosa va qaror qabul qila oladi, mustaqil mushohada yurita oladi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.	86-100
Fan mashg'ulotlari jami mavzulari bo'yicha to'la bilimga ega. Mashg'ulotlarda «Sug'urta huquqi» faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'yicha mustaqil mushohada yurita oladi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.	71-85
Fan mashg'ulotlari jami mavzulari bo'yicha koniqarli bilimga ega. Amaliy mashg'ulotda «Sug'urta huquqi» faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'yicha mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega .	55-70
Fan mashg'ulotlari jami mavzulari bo'yicha koniqarsiz bilimga ega. Amaliy mashg'ulotda «Sug'urta huquqi» faoliyati bilan bog'liq masalalar yuzasidan aniq tasavvurga ega emas, bilmaydi.	0-54